- Garaj yoki boshqa yopiq joylarda dvigatelning ishlashiga yo'l qo'ymang, faqat avtomobilning kirishi yoki chiqishi uchun zarur vaqt bundan mustasno. Chiqindi gazlar to'planib, jiddiy zaharlanishga olib kelishi mumkin.
- Dvigateli ishlaganda avtomobilda uzoq vaqt qolmang. Agar buning oldini olishning iloji bo'lmasa, avtomobil ochiq maydonda bo'lishi, shamollatish yoki konditsioner tizimi esa salonga tashqi havoni yetkazib berishi kerak.
- Avtomobil harakatlanayotganda bagaj bo'limining eshigi yopiq bo'lishi kerak. Bagaj bo'limining eshigi ochiq yoki to'liq yopilgan bo'lsa, chiqindi gazlar avtomobilning ichki qismiga kiradi.
- Avtomobil ventilyatsiya tizimining normal ishlashini ta'minlash uchun havo qabul qilgich panjaralaridan qor, barglar va boshqa begona jismlarni olib tashlang.
- Agar chiqindi gazlar avtomobil saloniga kirgan bo'lsa (va siz ularning hidini sezsangiz), toza havo kirishi uchun oynalarni oching va darhol hodisaning sababini aniqlang va bartaraf eting.

Chiqarish tizimini tekshirish

Chiqarish tizimini tekshirish quyidagi hollarda amalga oshirilishi kerak.

1. Agar siz chiqindi gazlarning hidini sezsangiz.
2. Chiqarish tizimining ovozi o'zgarganini sezsangiz.
3. Tizim yo'l-transport hodisasida shikastlangan bo'lsa.
4. Har safar avtomobilni ko'rikdan o'tkazish yoki ta'mirlash uchun ko'targichga o'rnatishda.

1. KIRISH

1-10. Yomg'irda haydashda ehtiyot choralari

Sirpanchiq yo'lda haydash

Yomg'ir yog'ayotganda ko'rish yomonlashishi, oynalar terlashi va yo'l qoplamasi sirpanchiq bo'lishi mumkinligi sababli ehtiyotkorlik bilan harakatlanish kerak.

- Yomg'ir paytida katta tezlikda harakatlanishdan saqlanish kerak, chunki g'ildiraklar va yo'l yuzasi o'rtasida suv qatlami hosil bo'lishi mumkin. Bunda avtomobil boshqariluvchanligini yo'qotadi va tormozlay olmaydi.

DIQQAT

- Sirpanchiq yo'lda keskin tormozlanish, tezlanish va manyovr qilish g'ildiraklarning sirpanishiga va avtomobil nazoratining yo'qolishiga olib kelishi mumkin, bu esa o'z navbatida yo'l-transport hodisasiga sabab bo'lishi mumkin.
- Tirsakli val aylanish chastotasining keskin o'zgarishi, masalan, dvigatelnig tormozlanishi, avtomobilning sirpanib ketishiga olib kelishi va yo'l-transport hodisasiga sabab bo'lishi mumkin.
- Ko'lmakdan o'tgandan so'ng tormoz pedalini yengil bosing va tormoz mexanizmlari to'g'ri ishlayotganiga ishonch hosil qiling. Nam tormoz kolodkalari normal tormozlashni ta'minlamaydi. Agar nam tormoz kolodkalari tufayli avtomobilning bir tomonidagi g'ildiraklarning tormoz mexanizmlari yaxshi ishlamay qolsa, bu uning boshqaruvchanligini yomonlashtiradi va yo'l-transport hodisasiga sabab bo'lishi mumkin.

Suv to'sig'idan o'tish



Avtomobil kuchli yomg'ir va shu kabilar tufayli paydo bo'lgan suv to'sig'idan o'tayotganda jiddiy shikastlanishi mumkin. Agar suv to'sig'idan o'tish muqarrar bo'lsa, suv chuqurligini tekshiring va sekin va ehtiyotkorlik bilan harakatlaring.

1.Suv to'sig'idan o'tayotganda dvigatel, rul boshqaruvi va tormoz tizimi normal ishlayotganiga ishonch hosil qiling. Suvli to'siq orqali ravon harakatlanish uchun pasaytirilgan uzatmani ulash va akselerator pedalini keskin bosishga yo'l qo'ymaslik kerak, aks holda dvigatelga suv tushishi mumkin.

2.Akselerator pedalini bosish orqali dvigatelnig barqaror ishlashi va yetarli quvvatga ega bo'lishini ta'minlang. Suvli to'siqdan o'tayotganda to'xtash, uzatmalarni o'zgartirish va keskin burilish taqiqlanadi.

3.Suvli to'siqdan o'tish paytida avtomobil dvigateli o'chib qolsa, uni darhol ishga tushirishga urinmang. Aks holda dvigatelga zarar yetkazishingiz mumkin. Avtomobilni suv sathi past bo'lgan xavfsiz joyga olib o'ting va dvigatelnig o'chib qolish sababini aniqlang.

⚠️ DIQQAT

- Suvning chuqurligi g'ildirak to'g'iniga yetib borsa, suv to'sig'idan o'tish taqiqlanadi.
- Dvigatelning ishga tushirish tizimiga yoki chiqarish quvuriga suv kirganda, dvigatel jiddiy shikastlanishi mumkin.
- Suv g'ildirak podshipniklaridan moyni siqib chiqarishi, ularning korroziyasiga va muddatidan oldin eskirishiga sabab bo'lishi mumkin.
- Suvli to'siqdan o'tish transmissiya agregatlarining shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Suvli to'siqni yengib o'tgandan so'ng, ishchi suyuqliklarning (motor moyi, uzatmalar qutisining ishchi suyuqligi va boshqalar) sizib chiqishi mavjudligini har doim vizual tekshiring. Agar ishchi suyuqliklar sizib chiqsa, avtomobildan foydalanishni to'xtating, chunki bu agregatlarning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.
- Suvli to'siqdan o'tishda tortish kuchi va tormozlash samaradorligi kamayadi. Tormoz yo'li ortadi. Tormoz diskleri atrofida to'planadigan qum va loy tormozlash samaradorligiga ta'sir qilishi va tormoz tizimi qismlarining shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Suvli to'siqdan o'tib bo'lgach, tormoz pedalini bir necha marta yengil bosib, tormoz mexanizmlarini quritish.

1-11. Qishda haydashda ehtiyot choralar**Qishda haydash bo'yicha maslahatlar**

- Sovitish suyuqligi. Sovitish suyuqligi manfiy haroratlarda muzlamlaslik qobiliyatini yo'qotmasligiga ishonch hosil qiling. Faqat tavsiya etilgan sovitish suyuqligidan foydalaning. Sovitish suyuqligi turini tanlash haqida batafsil ma'lumot tegishli bo'limda keltirilgan.
- Akkumulyator batareyasi va simlar. Past haroratlarda har qanday akkumulyator batareyasining quvvati pasayadi. Shuning uchun qish sharoitida avtomobilni ishga tushirish uchun akkumulyator batareyasi yetarli darajada quvvatlangan bo'lishi kerak.
- Motor moyi. Qishda motor moyini mahalliy harorat sharoitiga qarab tanlash tavsiya etiladi. Past haroratda moyning qovushqoqligi qancha past bo'lsa, uning oquvchanligi shuncha yuqori bo'ladi va sovuq davrda foydalanish uchun shuncha qulay bo'ladi.
- Eshik qullari. Eshik qullari muzlashidan saqlanib. Buning uchun muzlashga qarshi vosita yoki glitserin bilan ishlov berish kerak.
- Yuvuvchi suyuqlik. Yuvgich uchun muzlamaydigan suyuqlikdan foydalaning. Uni rasmiy dilerning servis stansiyalari va avtomobil ehtiyot qismlari do'konlaridan xarid qilish mumkin.
- Qanotchalar. Qanotchalar ostida qor va muz to'planishiga yo'l qo'ymang. Aks holda avtomobilni boshqarish qiyinlashadi. Qish sharoitida harakatlanishda vaqti-vaqti bilan to'xtab, qanotlar ostida qor va muz to'planib qolmaganligini tekshirish kerak. Yo'lda kerak bo'lib qolishi mumkin bo'lgan moslamalarni o'zingiz bilan olib yurish tavsiya etiladi. Ularga quyidagilar kiradi: sirpanishga qarshi zanjirlar, oyna tozalash uchun qirg'ich, qum yoki tuz zaxirasi, signal chirog'i, belkurak, ishga tushirish simlari va boshqalar.

1. KIRISH

⚠️ DIQQAT

- Sovitish suyuqligi o'rniga suvdan foydalanish taqiqlanadi.
- Yuvgich bakiga dvigatel sovitish suyuqligini va boshqa yaroqsiz suyuqliklarni quyish taqiqlanadi, chunki ular kuzovning lok-bo'yoq qoplamasiga zarar yetkazishi mumkin.

Muzlagan va qorli yo'llarda haydash



Sirpanchiq yo'lda, masalan, muz yoki qor bilan qoplangan yo'lda tezlikni keskin oshirish orqa g'ildiraklarning o'ngga yoki chapga og'ishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bunday sharoitda avtomobilni ehtiyotkorlik bilan boshqarish va past tezlikda harakatlanish kerak.


Bundan tashqari, agar avtomobil nam yoki balchiq bilan qoplangan yo'lda harakatlanayotgan bo'lsa, shinning yo'l bilan tutashgan qismida suv qatlami hosil bo'lishi mumkin. Buning natijasida avtomobilning boshqariluvchanligi yo'qoladi va tormozlanish xususiyatlari yomonlashadi. Bunday sharoitda ESP tizimini ham ishga tushirish tavsiya etiladi.

■ Loy, qor yoki muzda qolgan avtomobilni evakuatsiya qilish

Agar old g'ildirak loyga, qorga yoki muzga tiqilib qolgan bo'lsa, avtomobilni "qalqib" chiqarishga harakat qiling. Selektorni oldingi yurish holatidan orqa yurish holatiga va teskarisiga ketma-ket o'tkazing, uning har bir o'zgarishidan so'ng akselerator pedalini yengil bosing. Bunda selektor uzoq vaqt oldinga yoki orqaga yurish holatida turmasligi kerak, chunki bu uzatmalar qutisi detallarining ko'proq yeyilishiga olib keladi.

Sirpanishga qarshi zanjirlar

Avtomobilingiz shinalari o'lchamiga mos keladigan sirpanishga qarshi zanjirlar to'plamini xarid qiling. Sirpanishga qarshi zanjirlarni o'rnatish va yechib olishda quyidagi ehtiyot choralariga rioya qiling.



1. Sirpanishga qarshi zanjirlardan foydalanishni tartibga soluvchi mahalliy qonunchilik talablariga rioya qiling.
2. Sirpanishga qarshi zanjirlarni xavfsiz joyda o'rnatish va yechib oling.
3. Sirpanishga qarshi zanjirlarni ishlab chiqaruvchining ko'rsatmalariga muvofiq o'rnatish.
4. Sirpanishga qarshi zanjirlardan foydalanishni tartibga soluvchi mahalliy qonunchilik talablariga rioya qiling.

5. Qalinligi 12 mm dan ortiq bo'lmagan po'lat yoki rezina sirpanishga qarshi zanjirlardan foydalanish tavsiya etiladi. Aks holda shinalar, g'ildirak diskleri, g'ildiraklar uzatmasi, tormoz tizimi, ostki qanotlar va purkagichlarga shikast yetkazishingiz mumkin. Sirpanishga qarshi zanjirlardan noto'g'ri foydalanish natijasida avtomobilga yetkazilgan zarar kafolat bilan qoplanmaydi.

6. G'ildirak diskleri va shinalar haqida qo'shimcha ma'lumot olish uchun rasmiy dilerlarning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

DIQQAT

Yo'l-transport hodisasi ehtimolini kamaytirish uchun quyidagi ehtiyot choralariga rioya qiling. Aks holda, avtomobildan xavfsiz foydalanishning iloji bo'lmaydi va jiddiy jarohat olish yoki halok bo'lish xavfi yuzaga keladi.

- Sirpanishga qarshi zanjirlardan foydalanish talablari joy va yo'l turiga qarab farq qiladi. Sirpanishga qarshi zanjirlarni o'rnatishdan oldin, mahalliy qonunchilikning tegishli talablari bilan tanishib chiqing.

- Siz tanlagan sirpanishga qarshi zanjirlar avtomobilingizga mos kelishini tekshiring. Avtomobilga sirpanishga qarshi zanjirlarni o'rnatish uning boshqaruvchanligiga ta'sir qiladi, shuning uchun avtomobilni ehtiyotkorlik bilan boshqaring. Mos bo'lmagan sirpanishga qarshi zanjirlardan foydalanish yoki ularni noto'g'ri o'rnatish yo'l-transport hodisasiga olib kelishi va jarohatlanishga sabab bo'lishi mumkin.

- Sirpanishga qarshi zanjirlarni o'rnatish va yechishda ishlab chiqaruvchining ko'rsatmalariga amal qiling. Sirpanishga qarshi zanjirlarni o'rnatish va yechishni xavfsiz joyda amalga oshiring. Sirpanishga qarshi zanjirlarni o'rnatishdan oldin dvigatelni o'chiring (bunda avtomatlar uzatmalar qutisining selektori R holatda bo'lishi kerak). Zarur bo'lsa, avariyaviy to'xtash belgisini qo'ying.

- Sirpanishga qarshi zanjirlar o'rnatilgan avtomobilning 30 km/soatdan ortiq tezlikda harakatlanishi taqiqlanadi (agar u 30 km/soatdan past bo'lsa, zanjir ishlab chiqaruvchisi tomonidan belgilangan maksimal tezlikdan ortiq bo'lishi mumkin emas). Avtomobilni sirpanishga qarshi zanjirlar o'rnatilgan holda boshqarishda yo'l qoplamasidagi notekisliklar va chuqurliklar, yo'lning keskin burilishlari kabi xavfli yo'l sharoitlaridan saqlaning. Rul g'ildiragining keskin burilishidan, tezlikni keskin oshirish va kamaytirishdan va hokazolardan saqlaning.

1-12. Kiberxavfsizlik eslatmasi

Kiberxavfsizlik xizmatini yangilash yoki to'xtatish to'g'risida xabarnoma

Kompaniya "avtomobillar interneti" xizmati uchun tegishli dasturiy ta'minot va uskunalarni ko'rishida kiberxavfsizlikni ta'minlash xizmatini taqdim etadi va ushbu xizmatni muntazam yoki nomuntazam ravishda yangilash yoki taqdim etishni to'xtatish huquqiga ega.

Avtomobilni utilizatsiya qilinganidan so'ng, tarmoq xavfsizligini ta'minlash xizmati ishlamaydi. Tarmoq xavfsizligini ta'minlash xizmati ushbu avtomobil modeli ishlab chiqarishdan olib tashlanganidan keyin yana 10 yil davomida taqdim etiladi.

Mijozlarni xabardor qilish veb-saytdagi e'lonlar, elektron xatlar, avtomobil tizimlari, mobil telefonga yuboriladigan matnli xabarlar, ovozli xabarlar va boshqalar orqali amalga oshirilishi mumkin. Muayyan bildirishnomalarning mazmuni turlicha bo'lishi mumkin.

Elektron xatlar, SMS-xabarlar va ovozli xabarlar mijozning hisobvarag'ida ko'rsatilgan elektron pochta manzili va mobil telefon raqamiga yuboriladi.

Avtomobilni utilizatsiya qilish yoki qayta sotishda kiberxavfsizlik eslatmasi

Avtomobilni qayta sotish yoki utilizatsiya qilishdan oldin (ya'ni unga egalik qilishni to'xtatishdan oldin) siz avtomobildan shaxsiy ma'lumotlarni uning terminali yordamida mustaqil ravishda o'chirib tashlashingiz kerak.

Avtomobil terminalidan olingan shaxsiy ma'lumotlar unga noto'g'ri munosabatda bo'lish natijasida uchinchi shaxslarga yetib borgan taqdirda, Kompaniya hech qanday javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.


Bizning rasmiy dilerlarimiz tegishli qoidalarni bilishadi va sizga kerakli maslahatni berishlari mumkin.

2-1. Asboblar paneli	Cho'tkalarni almashtirish.....	46
Asboblar paneli tavsifi		27
Indikatorlar va signalizatorlar.....		29
2-2. Rul g'ildiragi	2-5. Yoritish va yorug'lik signalizatsiyasi asboblari	
Ovozli signal	Tashqi yoritish asboblari	47
Rul g'ildiragini isitish (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)	Salonni yoritish	49
Rul g'ildiragi holatini sozlash.....	Fara korrektori	50
	Fara chiroqlarini o'chirishni kechiktirish funksiyasi.....	50
2-3. Orqa ko'rish oynasi	Masofadan boshqarish pulti yordamida avtomobilni qidirish funksiyasi.....	51
Ichki orqa ko'rish oynasi	Fara yorug'ligini boshqarishning intellektual tizimi (IHC) (avtomobilning ayrim variantlari uchun)	52
Tashqi orqa ko'rish oynasi	Faralarning terlashi.....	52
Tashqi orqa ko'rish oynalari holatini xotirada saqlash funksiyasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)	2-6. O'rindiqlar	
Orqaga yurish yoqilganda orqa ko'rish oynasini avtomatik egish (avtomobilning ayrim variantlari uchun)	O'rindiqda to'g'ri o'tirish	53
2-4. Oyna tozalagichlar va yuvgichlar	Bosh tagliklari	54
Oyna tozalagich va yuvgichlarni boshqarish.....	Old o'rindiqlar	55
	Qo'lda boshqariladigan ikkinchi qator o'rindig'i	57
	Qo'lda boshqariladigan uchinchi qator o'rindig'i	58
	Old o'rindiq massaj funksiyasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)	59

O'rindiqlarni isitish (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)	60	ba'zi variantlari uchun)	68
O'rindiqlarni shamollatish (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)	60	2-8. Bolalar xavfsizlik qurilmalari	
Ikkinchi qator o'rindig'ini isitish (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)	60	Bolalar xavfsizlik qurilmalari	69
Haydovchi o'rindig'ining holatini xotirada saqlash funktsiyasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)	61	Tavsiya etilgan bolalar xavfsizlik qurilmalari	72
Avtomobilga chiqish va tushishni osonlashtirish funktsiyasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun).....	62	Yuqori arqon	73
2-7. Xavfsizlik kamarlari		Bolalar xavfsizlik qurilmasini o'rnatish	75
Xavfsizlik kamarlari.....	62	Old yo'lovchi xavfsizlik yostig'ni yoqish va o'chirish (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)	77
Xavfsizlik kamarlari taranglagichlari (avtomobilning		Orqa o'rindiqda qolgan bolalar haqida eslatma (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)	78

2-1. Asboblar paneli

Asboblar paneli tavsifi



- | | | |
|-------------------------------------|---|--|
| 1 Tezlik axboroti | 2 Real vaqt rejimida ko'rsatiladigan elektr uzatma haqida ma'lumot | 3 Transmissiyaning yoniq rejim indikatorini |
| 4 Multimedia tizimi axboroti | 5 Axborot displeyi | 6 Yonilg'i darajasi haqida axborot |
| 7 Quvvat axboroti | 8 Masofa axboroti | |

TANISHIB CHIQUING

Asboblar paneli Light Chasing va Star Piloting ma'lumotlarini ko'rsatish rejimlariga ega. Bu yerda tasvirlangan ma'lumotlar Light Chasing rejimida ko'rsatilgan.

Tezlik haqida ma'lumot

Avtomobil tezligi km/soat da ko'rsatiladi.

⚠️ DIQQAT


Spidometr ko'rsatkichlariga avtomobil shinalarining o'lchami ta'sir qiladi. Spidometrning to'g'ri ko'rsatkichlarini ta'minlash uchun standart o'lchamdagi shinalardan foydalanish kerak. Shinalarning o'lchamlari haqida batafsil ma'lumot olish uchun "Texnik xususiyatlar" ga qarang.


Axborot displeyi

Rul g'ildiragida joylashgan " " tugmani bosib, ushbu ekranlar o'rtasida siklik almashish mumkin: Navigation (Navigatsiya tizimi) – Since startup (Ishga tushirilgan vaqtdan

2. HARAKATNI BOSHLASHGA TAYYORGARLIK

boshlab) – Since reset (Ma'lumotlar oxirgi marta bekor qilinganidan buyon) – Instantaneous fuel consumption (Yonilg'ining oniy sarfi) – Tire pressure display (-Shinalardagi havo bosimi).

Ma'lumotlar oxirgi marta bekor qilinganidan buyon: rul g'ildiragidagi "  " tugmani bosib turib, o'rtacha harakat tezligi, o'rtacha yonilg'i sarfi va safardagi bosib o'tilgan masofa haqidagi ma'lumotlarni asliga qaytaring.

Navigatsiya tizimi: rul g'ildiragida joylashgan ushbu  tugmani bosib ushlab turing, navigatsiya tizimining to'liq ekran rejimiga o'tish amalga oshiriladi.

Transmissiya rejimi indikator

Joriy transmissiya rejimini ko'rsatadi.

Masofa haqida ma'lumot

Foydalanish boshlanganidan beri avtomobil bosib o'tgan jami yo'l ko'rsatiladi.

TANISHIB CHIQING

Audio tizimning bosh qurilmasi yordamida bosib o'tilgan yo'l haqidagi ma'lumotlarni ko'rsatishni sozlash mumkin. Quyidagi variantlar mavjud: Total Distance (-Umumiy bosib o'tilgan yo'l) / HEV Distance (HEV rejimida bosib o'tilgan yo'l) / EV Distance (EV rejimida bosib o'tilgan yo'l).

Multimedia tizimi axboroti

Joriy kompozitsiya yoki radiostansiya haqidagi axborot ko'rsatiladi.

Yonilg'i darajasi haqida ma'lumot

Bakda qolgan yonilg'i miqdori va yurish zaxirasi ko'rsatiladi.

Agar asboblari panelidagi yonilg'i sathi ko'rsatkichi bakning bo'shligini ko'rsatsa yoki yonilg'ining minimal sathi signalizatori yoqilgan bo'lsa, bu bakda yonilg'i zaxirasi yetarli emasligini bildiradi. Birinchi imkoniyatdayoq avtomobilga yonilg'i quyuing.

TANISHIB CHIQING

Harakat tezlashganda, keskin tormozlanganda, keskin burilishlardan o'tganda yoki avtomobil qiyalikda harakatlenganda quvvat darajasi ko'rsatkichi noto'g'ri bo'lishi mumkin.

Quvvat axboroti

Tortish akkumulyator batareyasining joriy quvvat darajasi (SOC) ko'rsatiladi.

TANISHIB CHIQING

Tortish akkumulyator batareyasining quvvat darajasi ekraniga audio tizim bosh qurilmasining tegishli ekrani yordamida quyidagi ma'lumotlarni chiqarish mumkin: Battery Level (Tortish akkumulyator batareyasining quvvat darajasi) / Standard Mileage (Oddiy yurish masofasi) / Dynamic Mileage (-Dinamik o'zgaruvchan yurish masofasi).

Real vaqt rejimida ko'rsatiladigan elektr uzatma haqidagi axborot

Elektr uzatmaning ishlash ko'rsatkichi (-o 'Ichoy birligi: kVt) real vaqt rejimida ko'rsatiladi.

TANISHIB CHIQUING








Ko'rsatkichning musbat qiymati energiya sarflash jarayoni ketayotganligini, manfiy qiymati esa quvvatlash jarayoni ketayotganligini bildiradi.

Indikatorlar va signalizatorlar










Dvigatelni ishga tushirish tugmasi ON holatiga o'tkazilgandan so'ng, ba'zi indikatorlar va signalizatorlar qisqa muddatga yonib, sozligini tekshiradi va o'chadi. Agar dvigatel ishga tushirilgandan so'ng biror-bir signalizator yonishda yoki miltillashda davom etsa, avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun zudlik bilan rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.














Indikatorlar haydovchini avtomobilning u yoki bu tizimlari yoki funksiyalari yoqilganligi yoki haydovchining e'tiborini talab qiladigan boshqa holatlar haqida ogohlantiradi.

Signalizatorlar haydovchini avtomobilning u yoki bu tizimlari yoki funksiyalari nosozligi haqida ogohlantiradi. Bunda signalizator doimiy yonib turishi yoki miltillab turishi mumkin.

Nomi	Indikator /signalizator	Tavsifi
Kunduzgi yoritish chiroqlari indikatorlari		Kunduzgi yoritish chiroqlari yoqilganda ushbu indikator yonadi.
Gabarit chiroqlar indikatorlari		Gabarit chiroqlari yoqilganda ushbu indikator yonadi.
Burilish ko'rsatkichi indikatorlari		Chapga yoki o'ngga burilish ko'rsatkichi yoqilganda, tegishli indikator miltillaydi. Avariya yorug'lik signalizatsiyasi ishlayotganda ikkala indikator ham bir vaqtning o'zida yonib-o'chadi.
Uzoqni yorituvchi fara indikatorlari		Uzoqni yorituvchi faralar yoqilganda ushbu indikator yonadi.
Tumanga qarshi orqa chiroq indikatorlari		Orqa tumanga qarshi chiroqlar yoqilganda ushbu indikator yonadi.
Faralar yorug'ligini intellektual boshqarish tizimining indikatorlari/signalizatori		Faralar yorug'ligini boshqarishning intellektual tizimi yoqilganda ushbu indikator yonadi.
		Ushbu signalizator faralar yorug'ligini boshqarishning intellektual tizimi nosoz bo'lganda yonadi. Birinchi imkoniyatdayoq avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.










2.HARAKATNI BOSHLASHGA TAYYORGARLIK

Haydovchi yoki old yo'lovchi kamar taqmagani signalizatori		Agar haydovchi yoki old yo'lovchi xavfsizlik kamari taqilmagan yoki oxirigacha taqilmagan bo'lsa, ushbu signalizator yonadi. Xavfsizlik kamarini taqing.
Orqa yo'lovchining kamar taqmagani signalizatori		Agar orqa yo'lovchining xavfsizlik kamari taqilmagan yoki to'liq taqilmagan bo'lsa, ushbu signalizator yonadi. Xavfsizlik kamarini taqing.
Uchinchi qator yo'lovchilarining kamar taqmagani signalizatori		Agar uchinchi qator o'rindig'ining xavfsizlik kamari taqilmagan yoki oxirigacha taqilmagan bo'lsa, ushbu signalizator yonadi. Xavfsizlik kamarini taqing.
Elektr uzatmali to'xtash tormozining indikator/ signalizatori		Elektr uzatmali to'xtash tormozi ishga tushirilganda ushbu indikator yonadi. Elektr uzatmali to'xtash tormozi ishlayotganda ushbu indikatorning miltillashi normal holat bo'lib, hech qanday chora ko'rishni talab qilmaydi. Boshqa har qanday vaziyatda ushbu indikatorning miltillashi nosozlikni bildiradi. Birinchi imkoniyatdayoq avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy diler xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
		Elektr uzatmali to'xtash tormozi nosoz bo'lganda, ushbu signalizator yonadi. Avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
Avtomobilni avtomatik ushlab turish tizimi indikator		Avtomobilni avtomatik ushlab turish tizimi yoqilganda ushbu indikator yonadi.
		Avtomobilni avtomatik ushlab turish tizimi faollashtirilganda ushbu indikator yonadi.
Dinamik barqarorlashtirish tizimining indikator/ signalizatori		Dinamik barqarorlashtirish tizimi ishlayotganda ushbu indikator miltillaydi.
		Dinamik barqarorlashtirish tizimi nosoz bo'lganda, ushbu signalizator yonadi. Avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.









<p>Dinamik barqarorlashtirish tizimini o'chirish indikatorini</p>		<p>Dinamik barqarorlashtirish tizimi o'chirilganda ushbu indikator yonadi.</p>
<p>Boshqariladigan tushish tizimining indikatorini/ signalizatori</p>		<p>Boshqariladigan tushish tizimi yoqilganda, ushbu indikator yonadi.</p>
		<p>Boshqariladigan tushish tizimi nosoz bo'lganda, ushbu signalizator yonadi. Birinchi imkoniyatdayoq avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.</p>
<p>Antiblokash tormoz tizimi nosozligi signalizatori</p>		<p>Antiblokash tormoz tizimi nosoz bo'lganda, ushbu signalizator yonadi. Avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.</p>
<p>Tormoz tizimi nosozligi signalizatori</p>		<p>Tormoz suyuqligi darajasi past bo'lganda yoki tormoz tizimi nosoz bo'lganda ushbu signalizator yonadi. Avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga darhol murojaat qiling.</p>
<p>"O'lik" zonalarni nazorat qilish tizimining indikatorini/ signalizatori</p>		<p>"O'lik" zonalarni nazorat qilish tizimi birinchi darajali ogohlantirish berganda ushbu indikator yonadi.</p>
		<p>"O'lik" zonalarni nazorat qilish tizimi ikkinchi darajali ogohlantirish berganda ushbu indikator miltillaydi.</p>
<p>Tezlik cheklagich indikatorini</p>		<p>Tezlik cheklagich kutish rejimiga o'tganda bu indikator yonadi.</p>
		<p>Tezlik cheklagich faol rejimiga o'tganda bu indikator yonadi.</p>
<p>Kruiz-nazorat tizimi indikatorini</p>		<p>Kruiz-nazorat tizimi kutish rejimiga o'tganda bu indikator miltillaydi.</p>
		<p>Kruiz-nazorat tizimi faol rejimiga o'tganda bu indikator yonadi.</p>
<p>Adaptiv kruiz-nazorat tizimi indikatorini/ signalizatori</p>		<p>Adaptiv kruiz-nazorat tizimi kutish rejimiga o'tganda bu indikator yonadi.</p>
		<p>Adaptiv kruiz-nazorat tizimi faol rejimiga o'tganda ushbu indikator yonadi.</p>











2. HARAKATNI BOSHLASHGA TAYYORGARLIK

		Adaptiv kruiz-nazorat tizimi nosoz bo'lganda, ushbu signalizator yonadi. Avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
Harakat yo'lagi o'zgartirishda yordam berish tizimi indikator / signalizatori (harakat yo'lagi o'zgarishi haqida ogohlantirish tizimi /harakat yo'lagi o'zgarishining oldini olish tizimi)		Harakat yo'lagini o'zgartirishda yordam tizimi yoqilgan/cheklangan rejimda bo'lganda ushbu indikator yonadi.
		Harakat yo'lagini o'zgartirishda yordam tizimi kutish rejimida bo'lganda ushbu indikator yonadi. Harakat yo'lagini o'zgartirishda yordam tizimi yoqilganda, ushbu indikator miltillaydi.
		Harakat yo'lagini o'zgartirishda yordam tizimi nosoz bo'lsa, ushbu signalizator yonadi. Avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
Favqulodda vaziyatda avtomobilni harakat yo'lagi markazida ushlab turish tizimi indikator / signalizatori		Favqulodda holatlarda avtomobilni harakat yo'lagi markazida ushlab turish tizimi yoqilganda / cheklangan ish rejimida bo'lganda ushbu indikator yonadi.
		Avtomobilni favqulodda holatda harakat yo'lagi markazida ushlab turish tizimi kutish rejimida bo'lganda ushbu indikator yonadi. Avtomobilni favqulodda holatda harakat yo'lagi markazida ushlab turish tizimi yoqilganda, ushbu indikator miltillaydi.
		Favqulodda vaziyatda avtomobilni harakat yo'lagi markazida ushlab turish tizimi nosoz bo'lganda ushbu signalizator yonadi. Birinchi imkoniyatdayoq avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
Avtomatik favqulodda tormozlash tizimi indikator / signalizatori		Avtomatik favqulodda tormozlash tizimi ishlayotganda bu indikator yonadi.
		Ushbu signalizator avtomatik favqulodda tormozlash tizimi nosoz bo'lganda yoqiladi. Birinchi imkoniyatdayoq avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.



Tirbandlikda harakatlanishga yordam berish tizimi / avtomobilni yo'lak markazida ushlab turish tizimi indikator / signalizatori		Ushbu indikator tirbandlikda harakatlanishda yordam berish tizimi /avtomobilni harakat yo'lagi markazida ushlab turish tizimi kutish rejimiga o'tganda yonadi.
		Ushbu indikator tirbandlikda harakatlanishda yordam berish tizimi /avtomobilni harakat yo'lagi markazida ushlab turish tizimi faollashtirilganda yonadi.
		Ushbu signalizator tirbandlikda harakatlanishda yordam tizimi / avtomobilni harakat yo'lagi markazida ushlab turish tizimi nosoz bo'lganda yonadi. Avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
Qattiq zarrachalar filtri indikator / signalizatori		Qattiq zarrachalar filtri ifloslanganda ushbu indikator yonadi. Uni tozalash uchun harakat tezligini oshirish kerak.
		Qattiq zarrachalar filtri nosoz bo'lganda, ushbu signalizator yonadi. Avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
Rul boshqaruvi elektr kuchaytirgichi signalizatori		Rul boshqaruvi elektr kuchaytirgichi (EPS) ishga tushirish / kalibrlashni talab qilganda ushbu signalizator yonadi. Tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga darhol murojaat qiling.
		Ushbu signalizator rul boshqaruvi elektr kuchaytirgichi nosoz bo'lganda yonadi. Avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga darhol murojaat qiling.
Transmissiya nosozligi signalizatori		Ushbu signalizator transmissiya nosoz bo'lganda yonadi. Avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga darhol murojaat qiling.
		Transmissiya nosoz bo'lganda, ushbu signalizator yonadi. Avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga darhol murojaat qiling.

2. HARAKATNI BOSHLAGHA TAYYORGARLIK

<p>Xavfsizlik yostig'i tizimi signalizatori</p>		<p>Xavfsizlik yostiqlari tizimi nosoz bo'lganda, ushbu signalizator yonadi. Avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.</p>
<p>Shinalar havo bosimini nazorat qilish tizimi signalizatori</p>		<p>Shinadagi havo bosimi me'yoridan ortiq bo'lganda ushbu signalizator yonadi. Shinalardagi havo bosimi juda yuqori yoki past emasligini va shinalarning harorati juda yuqori emasligini tekshiring. Agar shinalardagi havo bosimi me'yorga to'g'ri kelsa, birinchi imkoniyatdayoq avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.</p>
<p>Dvigatel sovutish suyuqligining qizib ketishi signalizatori</p>		<p>Dvigatelning sovutish suyuqligi qiziganda ushbu signalizator yonadi. Avtomobilni xavfsiz joyda to'xtating va dvigatelning bir necha daqiqalik neytral ishlashidan keyin dvigatelni ishga tushirish tugmasini OFF holatiga o'tkazing. Avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga darhol murojaat qiling.</p>
<p>Dvigatelni boshqarish tizimi nosozlik signalizatori</p>		<p>Dvigatelni boshqarish tizimi nosoz bo'lganda, ushbu signalizator yonadi. Avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga darhol murojaat qiling.</p>
<p>MIL nosozlik signalizatori</p>		<p>OBD va chiqindi gazlarning zahariligi nazorat qilish tizimi bilan bog'liq komponentlar yoki OBD tizimining o'zi nosoz bo'lganda ushbu signalizator yonadi. Avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga darhol murojaat qiling.</p>
<p>Navbatdagi texnik xizmat ko'rsatish zarurligi indikator</p>		<p>Navbatdagi texnik xizmat ko'rsatish zarur bo'lganda ushbu indikator yonadi. Birinchi imkoniyatdayoq avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.</p>
<p>Nosozlik signalizatori</p>		<p>Ushbu signalizator haydovchini avtomobilning nosozligi yoki uning shtatdan tashqari ishlashi haqida ogohlantiradi. Batafsil ma'lumot nosozlik haqida ogohlantirish ekranida ko'rsatilgan. Agar nosozlikni mustaqil ravishda bartaraf eta olmasangiz, rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.</p>
<p>Haydovchi charchoq signalizatori</p>		<p>Agar harakatlanish vaqti belgilangan vaqtdan oshgan bo'lsa, ushbu indikator haydovchiga dam olish kerakligi haqida ogohlantiradi.</p>

Harakat tezligining oshishi indikatorini		Avtomobil harakat tezligi belgilangan qiymatdan oshsa, ushbu indikator yonadi.
Motor moyining past bosimi signalizatori		Motor moyining bosimi past bo'lganda ushbu signalizator yonadi. Avtomobilni xavfsiz joyda to'xtating. Avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga darhol murojaat qiling.
Akkumulyator batareyasini quvvatlash signalizatori		Ushbu signalizator akkumulyator batareyasini zaryadlash tizimining ishlashini nazorat qilish uchun xizmat qiladi. Agar ushbu signalizator dvigatelni ishga tushirish tugmasi ON holatiga qo'yilgandan so'ng yonmasa yoki dvigatel ishga tushirilgandan so'ng yonsa, birinchi imkoniyatdayoq avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
Quvvat indikatorini		Ushbu indikator haydovchini quvvatlash portiga quvvatlash to'pponchasi ulanganligi haqida ogohlantiradi.
Razryad indikatorini		Ushbu indikator haydovchini quvvatlash portiga quvvat iste'mol qiluvchi qurilma to'pponchasi ulanganligi haqida ogohlantiradi.
Tortish akkumulyator batareyasi past quvvat darajasi signalizatori		Tortish akkumulyator batareyasining zaryad darajasi past bo'lganda ushbu signalizator yonadi. Avtomobilni o'z vaqtida zaryadlang.
Tortish akkumulyator batareyasi to'liq razryad darajasi signalizatori		Tortish akkumulyator batareyasi to'liq zaryadsizlanganda ushbu signalizator yonadi. Avtomobilni o'z vaqtida zaryadlang.
Quvvatni cheklash signalizatori		Avtomobilning quvvati va tortish-dinamik xususiyatlari cheklangan bo'lsa, ushbu signalizator yonadi. Birinchi imkoniyatdayoq avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
Yuqori voltli izolyatsiya nosozligi signalizatori	 HV	Ushbu signalizator haydovchini yuqori kuchlanishli izolyatsiya holati yomonlashganligi haqida ogohlantiradi. Avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga darhol murojaat qiling.
Yuqori voltli izolyatsiyaning jiddiy nosozligi signalizatori	 HV	Ushbu signalizator haydovchini yuqori kuchlanishli izolyatsiya holati jiddiy yomonlashganligi haqida ogohlantiradi. Avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga darhol murojaat qiling.

2. HARAKATNI BOSHLASHGA TAYYORGARLIK

Tortish akkumulyator batareyasining nosozligi signalizatori		Ushbu signalizator tortish akkumulyator batareyasi tizimi nosoz bo'lganda yonadi. Birinchi imkoniyatdayoq avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
Harakatga tayyorlik indikatori	READY	Ushbu indikator haydovchini avtomobil harakatlanishga tayyor ekanligi haqida ogohlantiradi. Agar indikator yonmasa, bu avtomobil nosozligini yoki kerakli shartlarga rioya qilinmaganligini bildiradi. Birinchi imkoniyatdayoq avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
Past yonilg'i darajasi signalizatori		Bakdagi yonilg'i miqdori kam bo'lganda ushbu signalizator yonadi. Birinchi imkoniyatdayoq avtomobilga yonilg'i quyung.

2-2. Rul g'ildiragi

Ovozli signal



OMT18-1020

Ovozli signalni yoqish uchun rul g'ildiragi gupchagining tegishli belgi joylashgan ustki qismini bosing.


 TANISHIB CHIQING

Ovozli signal mahalliy qonunlar va yo'l harakati qoidalariga muvofiq foydalanilishi kerak.

Rul g'ildiragini isitish (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)



OMT18-1021

Rul g'ildiragini isitish ishi faqat dvigatel ishlayotganda amalga oshirilishi mumkin. Rul g'ildiragini isitishni yoqish uchun ushbu «  » konditsioner tizimi ekranidagi tugmani bosing. Tugmani qayta bosish rul g'ildiragini isitishni ishga tushiradi.

 DIQQAT

Rul g'ildiragini isitish faqat quyida sanab o'tilgan barcha shartlarga rioya qilinganda ishlaydi:


- Dvigatel ishlaganda.
- Bort tarmog'i kuchlanish me'yorda bo'lsa.
- Rul g'ildiragini isitish tugmasi bosilganda.

Quyida sanab o'tilgan shartlardan biri yuzaga kelganda, rul g'ildiragini isitish o'chiriladi:

- Dvigatel o'chirilganda.
- Rul g'ildiragini isitish tugmasi qayta bosilganda.

2. HARAKATNI BOSHLASHGA TAYYORGARLIK

Rul g'ildiragining holatini sozlash



Avtomobilni transport oqimidan uzoqroq xavfsiz joyda to'xtating va dvigatelni ishga tushirish tugmasini OFF holatiga o'tkazing.

1-qadam. Rul g'ildiragining holatini sozlash dastagini pastga tushirib, qo'yib yuboring.

2-qadam. Rul kolonkasi qiyalik burchagi va balandligini o'z xohishingizga ko'ra sozlang.

3-qadam. Rul g'ildiragini qo'zg'almas holatda ushlab, rul g'ildiragi holatini sozlash dastagini dastlabki holatiga qaytaring.

4-qadam. Rul g'ildiragi mahkam o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling. Agar bunday bo'lmasa, 3-qadamni takrorlang.

XAVFLI

- Avtomobil harakatlanayotganda rul g'ildiragining holatini sozlash taqiqlanadi. Ushbu talabga rioya qilmaslik yo'l-transport hodisasi va jarohatlanishga sabab bo'lishi mumkin.
- Harakatni boshlashdan oldin rul g'ildiragi mahkam o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling. Aks holda rul g'ildiragi avtomobil harakatlanayotganda to'satdan o'z holatini o'zgartirib, yo'l-transport hodisasi va tan jarohati olishiga sabab bo'lishi mumkin.

2-3. Orqa ko'rish oynalari

Ichki orqa ko'rish oynasi



Harakatni boshlashdan oldin ichki orqa ko'rish oynasi holatini sozlang va buning natijasida avtomobil orqasidagi hududning optimal ko'rinishi ta'minlanishiga ishonch hosil qiling. Ichki orqa ko'rish oynasini kerakli holatga qo'lda o'rning.

2. HARAKATNI BOSHLASHGA TAYYORGARLIK

Kunduzgi va tungi rejimlarni qo'lda almashtirish imkoniyatiga ega ichki orqa ko'rish oynasi (avtomobilning ayrim variantlari uchun)



Kunning qorong'i vaqtida haydovchi orqada harakatlanayotgan transport vositalarining faralari yorug'ligini kamroq xiralashtirishi uchun oynaning pastki qismidagi dastakni orqaga, "tun" rejimiga mos holatga burish kerak.

- 1 "Tun" rejim
- 2 "Kun" rejimi

Avtomatik qoraytirish rejimiga ega ichki orqa ko'rish oynasi (avtomobilning ayrim variantlari uchun)



Agar avtomobil qorong'i vaqtda harakatlanayotganda ichki orqa ko'rish oynasiga o'rnatilgan yoritish datchigi orqada harakatlanayotgan transport vositasining faralari yorug'ligini aniqlasa, haydovchini faralarning aks etgan yorug'ligi bilan ko'zni qamashtirishdan himoya qilish uchun oynaning aks ettirish qobiliyati avtomatik ravishda pasaytiriladi.


Tashqi orqa ko'rish oynalari

Tashqi orqa ko'rish oynalarini sozlash



Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazing. Boshqaruv markazidagi ushbu " " tugmasini bosib, tashqi orqa oynalarni sozlash ekraniga o'ting. Ushbu ekran yoqilganda, tashqi orqa ko'rish oynalarini sozlash uchun rul g'ildiragidagi tugmalarni bosish talab etiladi.

2. HARAKATNI BOSHLASHGA TAYYORGARLIK



Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazing. Tashqi orqa ko'rish oynalarini rul g'ildirigidagi tugmalar yordamida sozlash uchun tegishli ekranni oching: Audio System (Audio sozlamalar) - Settings (Sozlamalar) - Quick Control (Tezkor boshqaruv) - Rear Mirror Adjustment (Tashqi orqa ko'rish oynalarini sozlash).


XAVFLI

- Avtomobil harakatlanayotganda tashqi orqa ko'rish oynalari holatini o'zgartirish taqiqlanadi. Ushbu talabga rioya qilmaslik yo'l-transport hodisasi va jarohatlanishga sabab bo'lishi mumkin.
- Tashqi orqa ko'rish oynasida aks etgan obyekt asliga qaraganda uzoqroq ko'rinishi mumkin, ehtiyotkorlik bilan harakat qiling.


Tashqi orqa ko'rish oynalarini yig'ish va asl holatiga qaytarish




Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazing.

Ushbu «» tugmani bosish orqali tashqi orqa ko'rish oynalarini yig'ish/ asl holatiga qaytarish ekraniga o'ting.



Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazing. Tashqi orqa ko'rish oynalarini yig'ish/ish holatiga qaytarish uchun tegishli ekranda "" tugmasini bosing: Audio System - Settings - Quick Control.



OMT18-1036

Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazing. Tegishli ekranda tashqi orqa ko'rish oynalarini avtomatik bukish/ish holatiga qaytarish funksiyasini yoqing: Audio System - Settings - Quick Control. Shundan so'ng, oynalar qo'riqlash rejimi yoqilganda avtomatik ravishda yig'iladi va o'chirilganda ish holatiga qaytadi.

TANISHIB CHIQUING

Haydovchidan har xil masofada joylashganligi sababli, chap va o'ng tashqi orqa ko'rish oynalari avtomobil kuzoviga nisbatan har xil burchak ostida joylashgan. Shu sababli, avtomatik yig'ishda ko'zgular sinxron bukilmaydi, bu normal holatdir.

DIQQAT

- Agar avtomobilda tashqi orqa ko'rish oynalarini yig'ish va ishchi holatiga qaytarish elektr uzatmasi mavjud bo'lsa, ushbu amallarni qo'lda bajarish taqiqlanadi - bu elektr uzatma mexanizmining ishdan chiqishiga olib keladi.
- Oynani bukish va dastlabki holatiga qaytarishda unga zarar yetkazmaslik uchun oynaga ortiqcha kuch ishlatmang.
- Sovuq mavsumda oynalarni avtomatik yig'ish funksiyasini o'chirib qo'yish tavsiya etiladi. Shu tariqa siz oynalarning yig'ilgan holatda muzlashining oldini olishingiz mumkin.

Tashqi orqa ko'rish oynalarining holatini xotirada saqlash funksiyasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)



OMT18-1038

Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazing. Tashqi orqa ko'rish oynalari holatini mos ekranda xotiradan chaqirish, saqlash yoki o'zgartirish mumkin: Audio System - Settings - Quick Control - Rear Mirror Adjustment.


TANISHIB CHIQUING

Tashqi orqa ko'rish oynalari va haydovchi o'rindig'i holatini xotirada saqlash va chaqirish bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi.

2. HARAKATNI BOSHLASHGA TAYYORGARLIK

Orqaga yurish yoqilganda orqa ko'rish oynasini avtomatik egish (avtomobilning ayrim variantlari uchun)

Avtomobil orqaga harakatlenganda (selektor R holatda bo'lganda) haydovchiga avtomobil orqasidagi bo'shliq yaxshiroq ko'rinishi uchun tashqi orqani ko'rish oynalari avtomatik ravishda pasayadi. Agar oynalarning qiyalik burchagi sizni qoniqtirmasa, uni tashqi orqani ko'rish oynasini sozlash tugmasi yordamida sozlashingiz mumkin. Selektor R (ortga yurish) holatidan chiqarilgandan so'ng, tashqi orqa ko'rinish oynalari dastlabki holatiga qaytadi.



Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazing. Orqaga yurish yoqilganda mos ekranda orqa ko'rish oynasini avtomatik egish funksiyasini yoqing: Audio System -Settings - Quick Control. Quyidagi rejimlar mavjud: Close (funksiya o'chirilgan) / Both sides (ikkala ko'zgu) / Left only (faqat chap ko'zgu) / Right only (faqat o'ng ko'zgu).


■ Tashqi orqa ko'rish oynalarining dastlabki holatiga qaytishi quyidagi holatlarda avtomatik ravishda sodir bo'ladi:

1. Selektor R (orqaga yurish) holatidan chiqarilganda.
2. Avtomobil tezligini 10 km/soatdan oshganda.
3. Dvigatelni ishga tushirish tugmasi OFF holatiga o'tkazilganda.

2-4. Oyna tozalagichlar va yuvgichlar

Oyna tozalagichlar va yuvgichlarni boshqarish

Old oyna tozalagichni boshqarish



Quyida tavsiflangan amallar dvigatelni ishg'a tushirish tugmasi ON holatida bo'lganda bajariladi.

HI holati (tozalagichning yuqori tezlikda ishlashi): agar tozalagich doimiy ravishda yuqori tezlikda ishlashi kerak bo'lsa, maxovikni shu holatga o'rning.

LO holati (tozalagichning past tezlikda ishlashi): agar tozalagich past tezlikda doimiy ishlashi kerak bo'lsa, maxovikni shu holatga o'rning.

OFF holati (o'chirilgan): tugma bu holatga o'rnatilganda tozalagich dastaklari past tezlikda dastlabki holatiga qaytadi va tozalagich o'chiriladi.

Auto holati (avtomatik rejim): maxovikchani ushbu holatga o'rnatishda tozalagichning ishlashi yog'ingarchilik intensivligiga qarab o'zgaradi.




Yuvgichni yoqish: pereklyuchatel'dagi chap tugmani bosib turing - yuvgich va old oyna tozalagich bir vaqtda yoqiladi.


Pereklyuchatel qo'yib yuborilgandan so'ng, yuvgich o'chadi, tozalagich esa cho'tkalarni past tezlikda yana 3 marta harakatlantiradi va to'xtaydi. Bir necha soniyadan so'ng u shishadan tomchilarni tozalash uchun cho'tkalarni yana bir marta harakatlantiradi.


2. HARAkatNI BOSHLASHGA TAYYORGARLIK

Avtomatik rejimda ishlaganda tozalagich sezgirligini sozlash



OMT18-1042

Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazing va ushbu ko'rsatilgan tugmani «  » bosing, oyna tozalagich sezgirligini sozlash amalga oshiriladi.



OMT18-1043

Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazing. Tozalagich sezgirligini sozlang: Low (Past) / Standard (-Standart) / High (Yuqori) / Maximum (Eng yuqori) mos ekranda: Audio System (Audio tizimi) - Settings (Sozlamalar) -Vehicle Settings (Avtomobil tizimlarini sozlamalari).


Orqa oyna tozalagichni boshqarish



OMT18-1044

Quyida tavsiflangan amallar dvigatelni ishga tushirish tugmasi ON holatda bo'lganda bajariladi.

Tozalagich tugmasini ON holatga o'tkazing. Orqa oyna tozalagich yoqiladi. O'chirish uchun tugmani OFF holatga o'tkazing.

Tozalagich holatga  o'tkazib, bir vaqtning o'zida orqa oyna tozalagich va yuvgichini yoqing.

⚠️ DIQQAT

- Yuvgich bakiga antifriz quyish taqiqlanadi.
- Yuvgichning har bir ulanishida ishlash vaqti 10 soniyadan oshmasligi kerak.
- Yuvgich baki ichida suyuqlik bo'lmasa, yuvgichni yoqmang.
- Forsunkalar ifloslanib qolganda, ularni ishdan chiqarmaslik uchun tozalash uchun igna yoki boshqa buyumlardan foydalanmang.
- Quruq oyna ustida tozalagichni yoqmang. Oynani tirnab, tozalagich cho'tkalariga zarar yetkazishingiz mumkin.
- Cho'tkalarining oyna bo'ylab harakatlanishi uchun to'siqlar mavjud bo'lsa, tozalagichni yoqmang. Tozalagichning elektr dvigateliga zarar yetkazishingiz yoki oynani tirnashingiz mumkin.
- Yuvgich suyuqligini suv bilan suyultirmang. Bu holda hosil bo'lgan eritma muzlashi va bakka hamda yuvgichning boshqa qismlariga zarar yetkazishi mumkin.
- Atrofdagi havo harorati past bo'lganda tozalagichni ishga tushirishdan oldin cho'tkalar oynaga muzlab qolmaganligiga ishonch hosil qilish kerak. Agar cho'tkalar muzlab qolgan bo'lsa, birinchi navbatda ulardagi muzni tozalang. Bu talabga rioya qilmaslik tozalagich elektrodvigateli va cho'tkalarining ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

Old oyna yuvgich forsunkalarini isitish (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)

Old oyna yuvgich forsunkalarini isitish faqat quyida sanab o'tilgan barcha shartlarga rioya qilinganda ishlaydi:

- Akkumulyator batareyasining kuchlanishi me'yorda bo'lsa.
- Dvigatelni ishga tushirish tugmasi ON holatida yoki dvigatel yoqilgan bo'lsa.
- Atrofdagi havo harorati 5 soniya yoki undan ko'proq vaqt davomida 2 °C dan past bo'lsa.

Old oyna yuvgich forsunkalarini isitish quyidagi shartlardan biri bajarilganda o'chiriladi:

- Dvigatelni ishga tushirish tugmasi OFF yoki ACC holatiga o'tkazilsa.


Quyida sanab o'tilgan holatlarda shamol oynasi yuvgichining forsunkalarini isitish vaqtincha o'chiriladi:

- Starter ishlayotganda old oyna yuvgich forsunkalarini isitish vaqtincha o'chiriladi va dvigatel muvaffaqiyatli ishga tushirilgandan so'ng qayta yoqiladi.
- Agar atrofdagi havo harorati 5 soniya yoki undan ko'proq vaqt davomida 4 °C dan ko'tarilsa, old oyna yuvgich forsunkalarini isitish vaqtincha o'chiriladi. Agar atrofdagi havo harorati 5 soniya yoki undan ko'proq vaqt davomida 2 °C dan pastga tushsa, old oyna yuvgich forsunkalarini isitish qayta yoqiladi.

2. HARAkatNI BOSHLASHGA TAYYORGARLIK

Cho'tkalarini almashtirish

Old oyna tozalagich cho'tkalarini almashtirish



1-qadam. Dvigatelni ishga tushirish tugmasi OFF holatiga o'tkazilgandan bir necha soniya o'tgach, tozalagichlarni boshqarish dastagidagi chap tugmani qisqa bosib. Tozalagichlarning dastaklari cho'tkalarini almashtirish holatiga o'rnatiladi;


2-qadam. Old oynani tozalagich dastagini ko'taring va uni shu holatda ushlab turing.

3-qadam. Cho'tkani olish uchun uni soat miliga teskari yo'nalishda oxirigacha buring, fiksator tugmasini bosib va cho'tkani yuqoriga torting.

4-qadam. Yangi cho'tkani teskari ketma-ketlikda o'rnatib va uning tozalagich dastasiga mahkam o'rnatilganini tekshiring.

5-qadam. Yangi tozalagich cho'tkalari old oynani yaxshi tozalashiga ishonch hosil qiling.

Orqa oyna tozalagich cho'tkalarini almashtirish



1-qadam. Orqa oyna tozalagich dastasini ko'taring va uni shu holatda ushlab turing.

2-qadam. Cho'tkani olish uchun uni rasmda ko'rsatilgandek torting.

3-qadam. Yangi cho'tkani teskari ketma-ketlikda o'rnatib va uning tozalagich dastasiga mahkam o'rnatilganini tekshiring.

4-qadam. Yangi tozalagich cho'tkasi orqa oynani yaxshi tozalayotganiga ishonch hosil qiling.

TANISHIB CHIQUING

Tozalagich cho'tkalarini almashtirishni professionalarga topshirish ma'qul. Buning uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.


DIQQAT

Harakatni boshlashdan oldin tozalagich dastasini dastlabki holatiga qaytarganingizga ishonch hosil qiling. Aks holda tozalagich dastasi avtomobilga shikast yetkazishi va yo'l-transport hodisasiga sabab bo'lishi mumkin.

2-5. Yoritish va yorug'lik signalizatori asboblari

Tashqi yoritish asboblari


Fara yorug'ligi tugmasi





Quyida tavsiflangan amallar dvigatelni ishga tushirish tugmasi ON holatida bo'lganda bajariladi.

Avtomatik rejim (AUTO) - faralar o'chirilgandan so'ng pereklyuchatel dastagi o'zi AUTO holatiga qaytadi. Avtomatik rejimni o'chirish uchun pereklyuchatel dastagini OFF holatiga o'tkazing. Tugma AUTO holatida faralar yaqinni yoritish chiroqlari, old va orqa gabarit chiroqlari va ro'yxatdan o'tkazish belgisining yoritish chiroqlari avtomatik ravishda yoqiladi va o'chiriladi.

O'chirish (OFF): faralar yoqilgandan so'ng avtomatik rejim o'chiriladi va pereklyuchatel dastasini OFF holatiga qo'yish orqali uning o'zi AUTO holatiga qaytadi.

Gabarit chiroqlar: pereklyuchatelda joylashgan ushbu tugmani ko'rsatilgandek "  " holatga o'rnating, gabarit chiroqlar, ro'yxatdan o'tish belgisini yoritish chiroqlari va asboblari panelini yoritish amalga oshiriladi.

Yaqinni yoritish chiroqlari: pereklyuchatelda joylashgan tugmani ko'rsatilgandek "  " holatga o'rnating, yaqinni yoritish chiroqlarini yoqish amalga oshiriladi.

Orqa tumanga qarshi chiroqlar: yaqinni yoritish chiroqlari yoqilgach, orqa tumanga qarshi chiroqni  ushbu tugmani bosish orqali yoqish mumkin.

 TANISHIB CHIQUING

- Orqa tumanga qarshi chiroqlar faralar o'chirilganda avtomatik ravishda o'chadi.
- Avtomobilni uzoq muddatli to'xtash joyiga qo'yganingizda, akkumulyator batareyasi zaryadsizlanishining oldini olish uchun yoritish asboblari pereklyuchateli OFF holatida ekanligiga ishonch hosil qiling. Bu talabni bajarmaslik avtomobilni ishga tushirishni imkonsiz qilib qo'yishi mumkin.

2. HARAKATNI BOSHLASHGA TAYYORGARLIK

Uzoqni yoritish faralari

- Uzoqni yoritish faralarini yoqish va o'chirish



Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'rnating va faralarning yaqinni yoritish chiroqlarini yoqing, yoritish asboblari pereklyuchatelini rul g'ildiragi yo'nalishi bo'yicha buring va qo'yib yuboring. Bunda uzoqni yoritish faralari yonadi. Yoritish asboblari pereklyuchatelini rul g'ildiragiga qarab torting va qo'yib yuboring. Uzoqdagi fara chiroqlari o'chadi.

- Uzoqni yoritish faralari bilan signal berish



Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazing. Uzoqni yoritish faralari bilan bir marta signal berish uchun yoritish asboblari pereklyuchatelini rul g'ildiragi yo'nalishida torting va qo'yib yuboring. Bunda asboblarda uzoqni yoritish faralari indikatorlari miltillaydi.

TANISHIB CHIQING

Uzoqni yoritish faralar signalizatsiyasidan yaqinni yorituvchi faralar yoqilganda ham, o'chirilganda ham foydalanish mumkin.

Burilish ko'rsatkichi chiroqlari



Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'rnating. O'ngga burilish ko'rsatkichini yoqish uchun yoritish asboblari pereklyuchateli dastagini yuqoriga ko'taring. Chapga burilish ko'rsatkichini yoqish uchun yoritish asboblari pereklyuchateli dastagini pastga tushiring.

Burilish ko'rsatkichi yoqilganda, asboblarda panelidagi burilish ko'rsatkichi miltillaydi. Burilish tugagandan so'ng, yoritish asboblari pereklyuchateli avtomatik ravishda o'rta holatga qaytadi.

Eslatma: rul g'ildiragining burilish burchagi kichik bo'lganda burilishdan chiqishda yoritish asboblari pereklyuchateli avtomatik ravishda o'rta holatga qaytmasligi mumkin.

■ Qayta saflanish signali

Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga oʻtkazing. Yoritish asboblari pereklyuchateli dastagini mahkamlanmaydigan holatga keltiring yoki tushiring, burilish koʻrsatkichi fonarlari 3 marta miltillaydi.

Kunduzgi yoritish chiroqlari

Kunduzgi yoritish chiroqlari dvigateli ishga tushirilgandan keyin avtomatik ravishda yoqiladi.

Stop-signal chirog'i

Tormoz pedali bosilganda stop-signal chiroqlari va qo'shimcha stop-signal chirog'i yonadi.

Ortga yurish chirog'i

Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazing. Selektor R (ortga yurish) holatiga o'tkazilganda orqaga yurish chiroqlari yoqiladi.


Salonni yoritish


Salonni yoritish old plafoni



Salonni yoritishning old chap/o'ng plafonini yoqish uchun uni bosing.


Ikkinchi qator o'rindiq plafoni




Ikkinchi qator o'rindiq plafonini yoqish/o'chirish uchun ushbu "  " tugmani bosing.

2. HARAKATNI BOSHLASHGA TAYYORGARLIK

Uchinchi qator o'rindiq plafoni



Uchinchi qator o'rindiq plafonini  yoqish/o'chirish uchun ushbu tugmani bosing.

Fara korrektori



Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazing. Yorug'lik nurining qiyalik burchagini mos ekranda sozlang (quyidagi darajalar mavjud: 0 / 1 / 2 / 3): Audio System (Audio tizimi) - Settings (Sozlamalar) - Light (Yoritish).

Fara chiroqlarini o'chirishni kechiktirish funksiyasi




Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazing. Tegishli ekranda fara chiroqlarini o'chirishni kechiktirish funksiyasini yoqing: Audio System (Audio tizim) - Settings (-Sozlamalar) - Light (Yoritish).



Yoqish: avtomobilni tark etishdan oldin dvigatelni ishga tushirish tugmasini OFF holatiga o'tkazing va yoritish asboblari kalitini AUTO holatiga o'tkazing. Qorong'i xonada yoki kunning qorong'i vaqtida masofadan boshqarish pultidagi qulflash tugmasini bosing. O'g'irlashga qarshi tizim qo'riqlash rejimiga o'tadi. Yaqinni yorituvchi chiroqlar avtomatik ravishda bir necha o'n soniya yonadi. Pultdagi qulflash tugmasini qayta bosish ushbu funksiyani qayta faollashtiradi.

O'chirish: fara chiroqlarining o'chirishini kechiktirish funksiyasi o'chiriladi va ko'rsatilgan vaqt o'tgach yoki dvigatelni ishga tushirish tugmasi ACC/ON holatiga, yoritish asboblari pereklyuchateli esa OFF holatiga o'tkazilgandan so'ng faralarning yaqinni yoritish chiroqlari avtomatik ravishda o'chadi.

Masofadan boshqarish pulti yordamida avtomobilni qidirish funksiyasi



Yoqish: avtomobilni tark etishdan oldin dvigatelni ishga tushirish tugmasini OFF holatiga o'tkazing va yoritish asboblari kalitini AUTO holatiga o'tkazing. Qorong'i xonada yoki kunning qorong'i vaqtida masofadan boshqarish pultidagi qulflash tugmasini bosing. O'g'irlashga qarshi tizim qo'riqlash rejimiga o'tadi. Yaqinni yorituvchi chiroqlar avtomatik ravishda bir necha o'n soniya yonadi. Pultdagi qulflash tugmasini qayta bosish ushbu funksiyani qayta faollashtiradi.


O'chirish: avtomobilni qidirish funksiyasi o'chiriladi va ko'rsatilgan vaqt o'tgach yoki dvigatelni ishga tushirish tugmasi ACC/ON holatiga, yoritish asboblari pereklyuchateli esa OFF holatiga o'tkazilgandan so'ng faralarning yaqinni yoritish chiroqlari avtomatik ravishda o'chadi.


2. HARAKATNI BOSHLASHGA TAYYORGARLIK

Fara yorug'ligini boshqarishning intellektual tizimi (IHC) (avtomobilning ayrim variantlari uchun)



Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazing. Tegishli ekranda faralar yorug'ligini boshqarishning intellektual tizimini yoqing: Audio System (Audio tizim) -Settings (Sozlamalar) - Light (Yoritish).

Dvigatel ishga tushirilgandan so'ng, faralar yorug'ligini avtomatik boshqarish ishga tushadi. Faralarning yaqinni yorituvchi chiroqlari avtomatik yonganda, yoritish asboblari pereklyuchatelini o'zingizdan chetga suring va qo'yib yuboring. Asboblarning panelida ushbu tizim indikatorini "  " oq rangda yonadi va tizim faollashadi. Tezlik 40 km/soatdan oshganda, tizim yo'l sharoitlarini (joriy va qarama-qarshi yo'nalishdagi transport vositalari, quvib o'tish va boshqalar) hisobga olib, uzoqni va yaqinni yoritish chiroqlarini almashtiradi.

Faralar yorug'ligini boshqarishning faol intellektual tizimida haydovchi uzoqni yorituvchi chiroqlarni yoqqanida yoki uzoqni yorituvchi chiroqlar bilan signal berganida, asboblarning panelidagi ushbu tizim "  " oq indikator o'chadi. Yoritish asboblari pereklyuchatelining dastagini rul g'ildirigidan yo'nalish bo'yicha suring va qo'yib yuboring. Faralar yorug'ligini boshqarishning intellektual tizimi qayta ishga tushadi.

TANISHIB CHIQING

- Atrofdagi yorug'lik yorqinligi juda yuqori bo'lsa, faralar yorug'ligini boshqarishning intellektual tizimi avtomatik ravishda faralarning uzoqni yorituvchi chiroqlarini yaqinni yorituvchi chirog'iga almashtiradi.
- Avtomobil tezligi 30 km/soatdan past bo'lganda, faralar yorug'ligini boshqarishning intellektual tizimi avtomatik ravishda faralarning uzoqni yoritish chiroqlarini yaqinni yoritish chirog'iga almashtiradi.
- Chapga yoki o'ngga burilish ko'rsatkichi yoqilganda, faralar yorug'ligini boshqarishning intellektual tizimi faralarning uzoqni yorituvchi chiroqlarini yaqinni yorituvchi chiroqlarga va aksincha avtomatik ravishda almashtirishdan to'xtaydi.

Faralarning terlashi

Atrofdagi havo harorati past yoki namligi yuqori bo'lganda faralar nur tarqatgichlarining ichki tomonida kondensat paydo bo'lishi mumkin. Bu fara ichidagi va tashqarisidagi harorat farqi tufayli yuzaga keladi. Kondensat faralarning ishlashiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Agar faralar terlagan bo'lsa, yaqin yoki uzoqni yorituvchi chiroqlarni 30 daqiqaga yoqing. Fara yoqilgandan so'ng biroz vaqt o'tgach, kondensat o'z-o'zidan yo'qoladi. Bu normal holat.

⚠ XAVFLI

- Suvli to'siqdan o'tishda maksimal ruxsat etilgan parametrlardan (o'tish chuqurligi, harakat tezligi va boshqalar) oshmang. Aks holda faralarga suv kirishi mumkin.
- Agar faralarning changdan himoyalovchi g'iloflarini ochgan bo'lsangiz, shundan so'ng ularni yopishni unutmang. Aks holda faralarga suv kirishi mumkin.
- Lampani almashtirayotganda fara yaxshi ishlashi va uning germetikligini ta'minlash uchun har bir detalni o'rnatish tartibiga qat'iy rioya qiling. Farani changdan himoyalovchi qopqog'ini yopishda zichlovchi halqaning holatini tekshiring. G'ilofni toza tuting! Aks holda, faraga suv va chang kirishi, bu esa jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.
- Motor bo'limini va xususan, faralarni yuvish uchun yuqori bosimli quрилmalardan foydalanish qat'iy man etiladi. Yuqori bosim ostida uzatilayotgan suv yorug'lik asboblarning armaturasini sinishiga olib kelishi va shamollatish teshigiga yoki faraning elektr ulagichiga kirishi mumkin, buning natijasida nur tarqatgichning ichki yuzasida kuchli kondensat hosil bo'lishi mumkin.


2-6.O'rindiqlar

O'rindiqda to'g'ri o'tirish



O'rindiqqa o'tirgach, o'rindiқ suyanchig'ini orqaga egib (suyanchiq vertikal og'ish burchagi 25° bo'lgani ma'qul), o'rindiқ suyanchig'iga suyanib o'tirish kerak.

Haydovchi va old yo'lovchi boshqaruv paneliga juda yaqin o'tirmasligi kerak. Avtomobilni boshqarishda haydovchining qo'llari rul g'ildiragida biroz bukilgan holatda bo'lishi kerak. Pedallarni boshqarish qulay bo'lishi uchun oyoqlar tizzadan biroz bukilgan bo'lishi kerak. Bosh suyagining balandligini shunday o'zgartiringki, uning yuqori chekkasi boshning tepa qismi bilan bir xil darajada bo'lsin.




Xavfsizlik kamarining yelka tasmasi yelkani o'rtasidan ko'krakka taqalib o'tishi va bo'yiga tegmasligi, bel tasmasi esa qoriga emas, balki iloji boricha sonlarga yaqinroq bo'lishi kerak.

2. HARAKATNI BOSHLASHGA TAYYORGARLIK

Bosh tagliklari

Bosh tagliklarini sozlash



Bosh tagligini ko'tarish: taglikni ko'tarish uchun uni yuqoriga torting va kerakli balandlikka o'rnatig.

Bosh tagligini tushirish: taglikni tushirish uchun uni yuqoridan pastga bosig, bunda fiksatorning tashqi tugmasini bosib turing.

Bosh tagligini yechib olish: taglikni yechib olish uchun fiksatorning ikkala tugmasini bir vaqtning o'zida bosig va taglikni o'rindiq suyanchig'idan to'liq chiqarib olmaguningizcha ularni bosib turing.


Bosh tagligini o'rnatish: o'rnatish uchun uning ustunlarini o'rnatish teshiklari bilan birlashtiring va uni mahkamlash mumkin bo'lgan holatga o'rnatish uchun boshchani yuqoridan pastga bosig.

XAVFLI

- Avtomobil harakatlanayotganda bosh tagliklarini sozlash taqiqlanadi. Ushbu talabga rioya qilmaslik yo'l-transport hodisasi va jarohatlanishga sabab bo'lishi mumkin.
- Harakatni boshlashdan oldin, bosh tagliklari mahkam o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling. Aks holda, mahkamlanmagan tagliklar yo'l-transport hodisasiga va jarohatlanishga sabab bo'lishi mumkin.

Old o'rindiqlar

Elektr boshqaruvli haydovchi o'rindig'i




1 O'rindiq bo'ylama holatini sozlash
O'rindiq gorizontaal tekislikdagi holatini o'zgartirish uchun bo'ylama holat sozlagichini oldinga yoki orqaga buring.


2 O'rindiq balandligini sozlash
O'rindiq balandligini sozlash uchun bo'ylama holat sozlagichi orqa tomonini yuqoriga yoki pastga siljiting.


3 O'rindiq suyanchig'i qiyalik burchagini sozlash


O'rindiq suyanchig'i qiyalik burchagini sozlash uchun suyanchiq qiyalik burchagi sozlagichi yuqori qismini oldinga yoki orqaga buring.


Haydovchi o'rindig'i bel tayanchini sozlash



Ushbu ko'rsatilgan tugmani bosib «», bel yuqori qismini ushlab turishni kuchaytirish va pastki qismini ushlab turishni kamaytirish amalga oshiriladi.


Ushbu ko'rsatilgan tugmani bosib «», bel yuqori qismini ushlab turishni kuchaytirish va pastki qismini ushlab turishni kamaytirish amalga oshiriladi.

Ushbu ko'rsatilgan tugmani bosib «», bel tayanchi valigi profilini oshirish amalga oshiriladi.

Ushbu ko'rsatilgan tugmani bosib «», bel tayanchi valigi profilini kamaytirish amalga oshiriladi.

2. HARAKATNI BOSHLASHGA TAYYORGARLIK

Elektr boshqaruvli old yo'lovchi o'rindig'i



1 O'rindiq suyanchig'i qiyaligini sozlash

O'rindiq suyanchig'i qiyalik burchagini sozlash uchun sozlagich yuqori qismini oldinga yoki orqaga buring.


2 O'rindiq bo'ylama holatini sozlash

O'rindiq gorizontol holatini o'zgartirish uchun bo'ylama holat sozlagichini oldinga yoki orqaga suring.

3 Oyoq tayanchi qiyalik burchagini sozlash (avtomobil ba'zi variantlari uchun)

Oyoqlar tayanchi qiyalik burchagini sozlash uchun sozlagichning old tomonini tepaga yoki pastga suring.

Kombinatsiyalangan boshqaruv tugmasi bo'lgan old o'rindiq (avtomobilning ba'zi turlari uchun)



1 O'rindiq suyanchig'i qiyaligini sozlash

O'rindiq suyanchig'i qiyalik burchagini sozlash uchun sozlagich yuqori qismini oldinga yoki orqaga buring.

2 O'rindiq bo'ylama holatini sozlash

O'rindiq gorizontol holatini o'zgartirish uchun bo'ylama holat sozlagichini oldinga yoki orqaga suring.

TANISHOB CHIQING

Haydovchi va old yo'lovchi o'rindiqlarining turi har xil bo'lishi mumkin. Bu avtomobilning tuzilishiga bog'liq.

DIQQAT

- O'rindiq holatini sozlashda unga shikast yetmasligi uchun o'rindiq ostida hech qanday buyum bo'lmasligi kerak.
- Bel tayanchining har bir yo'nalishda sozlanishi o'z chegarasiga ega. Agar sozlash paytida chegaraviy holatga yetganingizni sezsangiz, bel tayanchi sozlagichini qo'yib yuboring. Aks holda o'rindiq shikastlanishi mumkin.

XAVFLI

- Avtomobil harakatlanayotganda o'rindiқ holatini o'zgartirish taqiqlanadi. Ushbu talabga rioya qilmaslik yo'l-transport hodisasi va jarohatlanishga sabab bo'lishi mumkin.
- O'rindiқ suyanchig'ining qiyalik burchagi juda yuqori bo'lmasligi kerak, chunki xavfsizlik kamarlari haydovchi va yo'lovchi to'g'ri o'tirgan va o'rindiқ suyanchig'iga to'liq tayangan bo'lsa, old to'qnashuv yoki orqa zarba paytida maksimal himoyani ta'minlaydi.

O'rindiқ bo'ylama holatini sozlash diapazoni 240 mm. O'rindiқ normal holatda oldingi yo'nalishda 200 mm va orqa yo'nalishda 40 mm yurish zaxirasiga ega. O'rindiқ suyanchig'ining qiyaligini sozlash diapazoni oldingi yo'nalishda 30 daraja va orqa yo'nalishda 50 daraja. O'rindiқ yostiqchasining balandlik bo'yicha sozlanish diapazoni yuqori yo'nalishda 40 mm va pastki yo'nalishda 20 mm.

Qo'lda boshqariladigan ikkinchi qator o'rindiқi

O'rindiқ bo'ylama holatini sozlash



Dastani yuqoriga tortib, o'rindiқ bo'ylama holatini sozlang. O'rindiқni kerakli holatga qo'yib, dastani qo'yib yuboring.

O'rindiқ suyanchig'ini sozlash




O'rindiқ suyanchig'ining qiyalik burchagini sozlash dastagini yuqoriga torting. Uning qiyalik burchagini sozlab, dastakni qo'yib yuboring.

O'rindiқ suyanchig'ini bukish uchun suyanchiqning qiyalik burchagini sozlash dastagini yuqoriga torting va qo'l bilan ushlab, suyanchiqni oldinga sekin tushiring.

2. HARAKATNI BOSHLASHGA TAYYORGARLIK

Yo'lovchilarni chiqarish va tushirishni yengillashtirish tizimi



O'rindiq suyanchig'i yuqori qismida joylashgan yo'lovchilarni chiqarish va tushirishni yengillashtirish tizimi dastasini torting. Uchinchi qatordagi o'rindiqa o'tirish va undan tushishni osonlashtirish uchun ikkinchi qatordagi o'rindiqni eng chekka oldingi holatga suring.

Uchinchi qatordagi o'rindiqa o'tirgandan yoki undan tushgandan so'ng ikkinchi qatordagi o'rindiqni eng chekka orqa holatga suring va ikkinchi qatordagi o'rindiq suyanchig'ini orqaga bir marta shiqillaguncha suring. Mahkamligini tekshirish uchun o'rindiqni oldinga-orqaga silkiting.

TANISHIB CHIQUING

O'rindiq suyanchig'ini yig'ishda xavfsizlik kamarini shikastlamaslik uchun kamarning yelka tasmasi suyanchiq ustidan o'tganligiga ishonch hosil qiling.

XAVFLI

Avtomobil harakatlanayotganda o'rindiq holatini o'zgartirish taqiqlanadi. Ushbu talabga rioya qilmaslik yo'l-transport hodisasi va jarohatlanishga sabab bo'lishi mumkin.

O'rindiq bo'ylama holatini sozlash diapazoni 120 mm. O'rindiq normal holatda oldingi yo'nalishda 120 mm va orqa yo'nalishda 40 mm yurish zaxirasiga ega. O'rindiq suyanchig'i qiyaligini sozlash diapazoni oldingi yo'nalishda 30 ° va orqa yo'nalishda 12 ° ni tashkil qiladi. O'rindiq yostig'ining balandligi sozlanmaydi.

Qo'lda boshqariladigan uchinchi qator o'rindig'i



O'rindiq suyanchig'ini yig'ish uchun suyanchiq qiyalik burchagini sozlash dastagini yuqoriga torting va qo'l bilan ushlab, suyanchiqni asta-sekin oldinga tushiring.

TANISHIB CHIQUING

O'rindiq suyanchig'ini yig'ishda xavfsizlik kamarini shikastlamaslik uchun kamarning yelka tasmasi suyanchiq ustidan o'tganligiga ishonch hosil qiling.

XAVFLI

Avtomobil harakatlanayotganda o'rindiqlik holatini o'zgartirish taqiqlanadi. Ushbu talabga rioya qilmaslik yo'l-transport hodisasi va jarohatlanishga sabab bo'lishi mumkin.


Old yo'lovchi o'rindig'i massaj funksiyasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)



Oldingi o'rindiqlik 3 ta intensivlik darajasi (past / o'rtacha / yuqori) va 5 ta massaj rejimi ("to'lqin" / "podium" / "kross" / "yengillik" / "sakrash") bo'lgan massaj funksiyasiga ega bo'lib, ular uzoq masofalarga yurish paytida bel charchog'ini samarali bartaraf etishi mumkin.





Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazing va massaj funksiyasi tugmasini bosing. Audio tizimning bosh qurilmasi displeyida massaj funksiyasini sozlash ekrani paydo bo'ladi.

Massaj funksiyasi yoqilganidan taxminan 15 daqiqa o'tgach avtomatik ravishda o'chadi.



Ushbu tugmani qisqa bosing «  », keyingi massaj rejimi yoqiladi. Ushbu tugmani qisqa bosing «  », avvalgi massaj rejimi yoqiladi.

Ushbu tugmani qisqa bosing «  », massaj intensivligi bir darajaga oshiriladi.

Ushbu tugmani qisqa bosing «  », massaj intensivligi bir daraja kamaytiriladi.

TANISHIB CHIQING

Old o'rindiqlik sozlash elektr uzatmasi standart komplektsiyaga kirmaydi. Komplektsiya avtomobil tuzilishiga bog'liq.

DIQQAT

Avtomobil harakatlanayotganda o'rindiqlikda yotish taqiqlanadi, chunki bunday holatda xavfsizlik kamari va yostiq bilan himoyalannaysiz.

2. HARAKATNI BOSHLASHGA TAYYORGARLIK

O'rindiqlarni isitish (avtomobilning ayrim variantlari uchun)



O'rindiq isitgichlarini yoqish faqat dvigatel ishlayotganda quyidagi ekran yordamida amalga oshirilishi mumkin: Audio System (Audio tizim) - Seat Control Screen (O'rindiqlarni boshqarish) - Seat Heating (O'rindiqlarni isitish). Ushbu " ? " tugma rejimlarni siklik o'zgartiradi: Isitishning 3-bosqichi / Isitishning 2-bosqichi / Isitishning 1-bosqichi / o'chirish.

TANISHIB CHIQUING

O'rindiqlarning isitgichlari ularning ventilyatsiyasi bilan bir vaqtda ishlamaydi.

O'rindiqlarni shamollatish (avtomobilning ayrim variantlari uchun)



O'rindiq shamollatilishini yoqish faqat dvigatel ishlayotganda tegishli ekran yordamida amalga oshirilishi mumkin: Audio System (Audiotizim) - Seat Control Screen (O'rindiqlarni boshqarish) - Seat Ventilation (O'rindiqlarni shamollatish). Ushbu berilgan tugma yordamida " ? " quyidagi rejimlar siklik ravishda o'zgaradi: Shamollatishning 3-bosqichi / Shamollatishning 2-bosqichi / Shamollatishning 1-bosqichi / o'chirish.

TANISHIB CHIQUING

O'rindiqlarning isitgichlari ularning ventilyatsiyasi bilan bir vaqtda ishlamaydi.

Ikkinchi qator o'rindiqlarini isitish (avtomobilning ayrim variantlari uchun)



1-usul. Dvigatel ishlayotganda, konditsioner tizimining quyidagi ekranidagi ikkinchi qator o'rindiq isitgichlarining tugmasini bosib: Seat (O'rindiq) - Heating (Isitish). Birinchi bosishda isitishning uchinchi bosqichi yoqiladi (uchta indikator yonadi). Tugma har gal bosilganda isitish jadalligi bir pog'onaga pasayadi. To'rtinchi marta bosilganda o'rindiq isitgichi o'chadi.




OMT28-1137

2-usul. Dvigatel ishlab turganda ikkinchi qator o'rindiqliq isitgichlarining tugmasini bosing. Birinchi bosishda isitishning uchinchi bosqichi yoqiladi (uchta indikator yonadi). Tugma har bir keyingi bosilishida isitish jadalligi bir pog'onaga pasayadi. To'rtinchi marta bosilganda isitgich o'chadi.

TANISHIB CHIQING

O'rindiqlarning isitgichlari ularning ventilyatsiyasi bilan bir vaqtda ishlamaydi.

Haydovchi o'rindig'ining holatini xotirada saqlash funksiyasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)



OMT18-1092

Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatga o'tkazing. O'rindiqliq holati sozlangach, audiotizim displeyida ekran paydo bo'ladi, u o'rindiqliqning oldingi holatini tiklash yoki yangi holatini xotirada saqlash imkonini beradi. Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazing. Tashqi orqa ko'rish oynalari holatini mos ekranda chaqirish, saqlash yoki o'zgartirish mumkin: Audio System (Audio tizim) - Settings (Sozlamalar) - Quick Control (Tezkor nazorat) - Rear Mirror Adjustment (Tashqi orqa ko'rish oynalarini sozlash).

TANISHIB CHIQING

Tashqi orqa ko'rish oynalari va haydovchi o'rindig'ining holatini xotirada saqlash va xotiradan chaqirish bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi.

XAVFLI

O'rindiqliq holatini xotirada saqlash funksiyasidan foydalanganda, hech kim jarohat olmasligiga e'tibor bering. Agar shunday bo'lsa, regulyatorni bosib, o'rindiqliqni to'xtating. Bolalarni avtomobilda yolg'iz qoldirmang. Aks holda, o'rindiqliq holatini xotirasida saqlash funksiyasi ularga shikast yetkazishi mumkin.

2. HARAKATNI BOSHLASHGA TAYYORGARLIK

Avtomobilga chiqish va tushishni osonlashtirish funksiyasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)



Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazing. Yo'lovchilarni chiqarish va tushirishni osonlashtirish tizimini quyidagi ekranda yoqing: Audio System -Settings - Quick Control.

Dvigatelni ishga tushirish tugmasi ON holatidan OFF holatiga o'tkazilganda va haydovchi eshigi ochilganda haydovchi o'rindig'i avtomatik ravishda avtomobildan tushishni osonlashtirish uchun orqaga suriladi.

Dvigatelni ishga tushirish tugmasi OFF holatidan ACC/ON holatiga o'tkazilganda, haydovchi o'rindig'i avtomatik ravishda oldinga, haydash uchun qulayroq holatga o'tadi.

XAVFLI

- Starter ishlayotgan vaqtda dvigatelni ishga tushirishni osonlashtirish uchun ushbu funksiya o'chiriladi. Bu funksiya dvigatelni ishga tushirish tugmasi OFF holatida bo'lganda ham mavjud bo'lmaydi.
- Yo'lovchilarni chiqarish va tushirishni yengillashtirish tizimidan foydalanganda, hech kim jarohat olmasligiga ishonch hosil qiling. Agar shunday bo'lsa, boshqaruv tugmasini bosib, o'rindiqni to'xtating. Bolalarni avtomobilda yolg'iz qoldirmang. Aks holda, avtomobilga chiqish va tushishni yengillashtirish funksiyasi ularga jarohat yetkazishi mumkin.



2-7.Xavfsizlik kamarlari


Xavfsizlik kamarlari



Harakat vaqtida haydovchi va barcha yo'lovchilar doimo xavfsizlik kamarlarini taqib olishlari kerak. Aks holda, yo'l-transport hodisasida jarohat olish ehtimoli va uning og'irligi ortadi. Xavfsizlik kamarlarining holatini muntazam tekshirib turing. Agar xavfsizlik kamari to'g'ri ishlamasa, uni tekshirish va ta'mirlash uchun zudlik bilan rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Taqilmagan xavfsizlik kamari indikator

Haydovchi yoki old yo'lovchi xavfsizlik kamari taqilmagan yoki noto'g'ri taqilgan bo'lsa: xavfsizlik kamari taqilmagan bo'lsa va avtomobil harakat tezligi 25 km/soatdan oshmasa, taqilmagan xavfsizlik  kamarining qizil chirog'i miltillaydi, lekin tovushli signal yoqilmaydi. Avtomobilning harakat tezligi 25 km/soatdan oshganda taqilmagan xavfsizlik kamari "  " qizil chirog'i miltillab, tovushli signalizatsiya ham ishga tushadi.


Agar orqa yo'lovchining xavfsizlik kamari taqilmagan yoki to'liq taqilmagan bo'lsa, quyidagi ogohlantirishlar beriladi. Agar avtomobil tezligi soatiga 25 km dan oshsa, asboblarning panelidagi qizil chiroq  miltillab boshlaydi va tovushli signalizatsiya yonadi. Bir necha soniyadan so'ng qizil chiroq o'chadi va tovush signali o'chadi.

Uchinchi qator o'rindig'i (avtomobilning ba'zi variantlari uchun). Agar avtomobil tezligi 10 km/soat dan kam bo'lmasa va uchinchi qator o'rindig'i xavfsizlik kamari taqilmagan yoki noto'g'ri taqilgan bo'lsa, asboblarning panelidagi qizil chiroq yonadi va 60 soniyadan keyin o'chadi.

Eslatma: agar orqa yo'lovchining tegishli xavfsizlik kamari taqilmagan bo'lsa, qizil chiroq yonadi va ushbu kamar taqilgandan keyin o'chadi.


Xavfsizlik kamarlaridan to'g'ri foydalanish

1-qadam. Xavfsizlik kamarining yuqori qismini (haydovchi va oldingi yo'lovchi o'rindiqdagi) balandligi bo'yicha sozlash



- 1 Xavfsizlik kamarining yuqori mahkamlagichini ko'tarish: xavfsizlik kamarining yuqori mahkamlagichini yuqoriga suring.
- 2 Xavfsizlik kamarining yuqori mahkamlagichini tushirish: mahkamlagich tugmasini bosib, xavfsizlik kamarining yuqori mahkamlagichini pastga siljiting.

2-qadam. Xavfsizlik kamarini taqish va yechish



- 1 Xavfsizlik kamarini taqish: Xavfsizlik kamarini taqish uchun ilgakni qulfga kiritish kerak.
- 2 Xavfsizlik kamarini yechish: xavfsizlik kamarini yechish uchun uning qulfidagi tugmani bosing. Agar tasma inersion g'altakka ravon tortilmayotgan bo'lsa, uni oxirigacha cho'zib, tasmada bukilishlar yoki buralishlar yo'qligini tekshiring. Xavfsizlik tasmasi inersiya g'altagiga silliq kirayotganligiga ishonch hosil qiling.

2. HARAKATNI BOSHLASHGA TAYYORGARLIK


TANISHIB CHIQUING

- Avtomobil qiyalikda bo'lganda xavfsizlik kamari bloklanadi.
- Kamar g'altakdan keskin tortilganda bloklanadi, ohista tortilganda bloklanmaydi.
- Bitta kamardan faqat bir kishi foydalanishi kerak. Bir kamarni bir nafardan ortiq kishiga, jumladan bolaga taqish taqiqlanadi.
- Xavfsizlik kamari yuqori mahkamlagichi balandligini sozlash faqat haydovchi va old yo'lovchi o'rindiqlari uchun mavjud. Ikkinchi qator o'rindig'ining xavfsizlik kamarlarining ishlash tamoyili old o'rindiq xavfsizlik kamarlari bilan bir xil. Xavfsizlik kamarlari qulflarining joylashuvi avtomobilning modifikatsiyasiga bog'liq.

DIQQAT

- Xavfsizlik kamarining qulfi to'g'ri joylashganiga va mahkamlagich qulfga mustahkam o'rnatilganiga ishonch hosil qiling. Qisqichni qulfga noto'g'ri mahkamlash jiddiy jarohatlarga olib kelishi mumkin.
- Qulfga o'rnatilmagan mahkamlagichli xavfsizlik kamaridan foydalanmang. Bu holatda xavfsizlik kamari sizni keskin tormozlash yoki yo'l-transport hodisasida himoya qila olmaydi.

3-qadam. Xavfsizlik kamarlari holatini sozlash



O'rindiq suyanchig'ining qiyalik burchagini sozlang, to'g'ri o'tiring va o'rindiq suyanchig'iga to'liq suyaning. Bel kamarini imkon qadar sonlarga yaqinroq joylashtiring, lekin qoriga emas, keyin xavfsizlik kamari yuqori mahkamlagichini shunday sozlangki, kamar yelkadan o'tsin, lekin undan sirpanib tushmasin va bo'yinga tegmasin.

⚠️ DIQQAT

- Avtomobilda keng kiyim kiyishdan saqlaning. Bu xavfsizlik kamarining to'g'ri taqilishiga xalaqit berishi va himoya darajasini kamaytirishi mumkin.
- Xavfsizlik kamarining yuqori joylashgan belbog'i va mahkam taqilmagan xavfsizlik kamari yo'l-transport hodisasi yoki boshqa kutilmagan holatlarda kamar ostiga "sho'ng'ish" ta'siri tufayli og'ir jarohatlar yoki o'limga olib kelishi mumkin.
- O'rindiqlik suyanchig'ini qulay o'tirish uchun zarur bo'lganidan ortiq bukmang. Xavfsizlik kamari yo'lovchining beli o'rindiqlik suyanchig'iga toliq tegib turganda eng samarali hisoblanadi.
- Xavfsizlik kamari yelka tasmasi yelkangizdan o'tishiga ishonch hosil qiling. Kamarni qo'l ostidan o'tkazish taqiqlanadi. Xavfsizlik kamari bo'yiga tegmasligi yoki yelkadan tushib ketmasligi kerak. Aks holda yo'l-transport hodisasida xavfsizlik kamarining samaradorligi pasayadi.
- Bolalarni ikkinchi qator o'rindig'ida olib yurish tavsiya etiladi. Bolani qanday mahkamlash kerakligi to'g'risida qaror qabul qiling - shtatdagi xavfsizlik kamari yoki ISOFIX bolalar mahkamlash moslamasi - bolaning bo'yiga qarab tanlang. Orqa o'rindiqlikda bolalar xavfsizlik moslamasini mahkamlash uchun standart mahkamlagichlardan foydalaning.

Xavfsizlik kamarlarini parvarishlash

Vahti-vaqti bilan xavfsizlik kamarlari tasmalarining holatini (shikastlanganligi yoki eskirganligini) tekshirib turing.

Shikastlangan xavfsizlik kamarlari rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasida darhol tekshiriladi va zarur hollarda almashtiriladi.

⚠️ DIQQAT

- Inersion g'altak mexanizmiga suv kirishiga yo'l qo'ymang.
- Xavfsizlik kamarlari tasmasini tozalash uchun kimyoviy moddalar, issiq suv, oqartiruvchi va bo'yoq moddalarni qo'llash taqiqlanadi.
- Xavfsizlik kamarlari tasmasini tozalash uchun neytral yuvish vositasi eritmasi yoki toza iliq suvdan foydalaning. Xavfsizlik kamarlarini quritish uchun tabiiy sharoitlardan foydalaning. Buning uchun isitish asboblariidan foydalanish taqiqlanadi.
- Inersion g'altakni va xavfsizlik kamarining qulfini mustaqil ravishda ta'mirlash yoki moylash yoxud kamar tasmasini almashtirish taqiqlanadi. Bu avtomobilning shikastlanishiga yoki odamlarning jarohatlanishiga olib kelishi mumkin.

2. HARAKATNI BOSHLASHGA TAYYORGARLIK


XAVFLI

- Agar avtomobil jiddiy yo'l-transport hodisasiga uchragan bo'lsa, lekin xavfsizlik kamarlari aniq shikastlanmagan bo'lsa, xavfsizlik kamarlarini tekshirish va almashtirish uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qilish kerak.
- Kamarning qulflash qisqichi qulfga to'liq kiritilishi va kamar tasmasi buralmasligiga e'tibor bering. Agar xavfsizlik kamari yaxshi ishlamasa, uni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
- Xavfsizlik kamarlarini mustaqil ravishda o'rnatish, yechish yoki utilizatsiya qilish, shuningdek ularning konstruksiyasini o'zgartirish taqiqlanadi. Yuqorida sanab o'tilgan amallarni bajarish uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Xavfsizlik kamaridan foydalanishda ehtiyot choralari

■ Bolalarning xavfsizlik kamaridan foydalanishi


Avtomobil xavfsizlik kamarlari kattalar foydalanishi uchun mo'ljallangan Bo'yi xavfsizlik kamaridan foydalanishga yo'l qo'ymaydigan bolalarni tashish uchun maxsus bolalar xavfsizlik moslamalaridan foydalaning. Agar bolaning bo'yi xavfsizlik kamaridan to'g'ri foydalanish imkonini bersa, undan foydalanish bo'yicha umumiy talablarga rioya qiling. Agar bola xavfsizlik moslamasidan foydalanish uchun katta bo'lsa, uni ikkinchi qatordagi o'rindiqqa olib o'tirish va xavfsizlik kamari bilan mahkamlash kerak.



Xavfsizlik kamar yelka tasmasi doimo bolaning yelkasi o'rtasida joylashishi kerak. Xavfsizlik kamari bo'yiga tegmasligi yoki yelkadan tushib ketmasligi kerak. Aks holda bola to'satdan tormozlash yoki yo'l-transport hodisasida halok bo'lishi yoki og'ir tan jarohati olishi mumkin.

Bolalar xavfsizlik moslamasidan foydalanishdan bosh tortish (masalan: bolani tizzada yoki kattalar qo'lida olib o'tirish, bolaning o'rindiqda erkin holatda bo'lishi) yo'l-transport hodisasi yoki boshqa favqulodda vaziyatlarda bolaning og'ir jarohat olishi yoki o'limiga olib kelishi mumkin.

■ Homilador ayollarning xavfsizlik kamarlaridan foydalanishi




Homilador ayollar tibbiy maslahat olishlari va unga muvofiq xavfsizlik kamaridan foydalanishlari kerak. Bel tasmasi boshqa yo'lovchilarniki kabi homilador ayolning soniga iloji boricha pastroq joylashgan bo'lishi kerak. Xavfsizlik kamari tasmasini to'liq tortib, yelka va ko'krak qafasi ustidan o'tkazing. Xavfsizlik kamarining bel tasmasi qorinda bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Xavfsizlik kamaridan noto'g'ri foydalanilganda nafaqat homilador ayol, balki uning homilasi ham yo'l-transport hodisasi yoki keskin tormozlanish natijasida og'ir jarohatlanishi mumkin.

XAVFLI

- Tangalar, qisqichlar va boshqa buyumlarni xavfsizlik kamarining qulfiga tiqmang, chunki ular qulfdagi qisqichni ishonchli mahkamlashga xalaqit beradi.
- Qulf ilmog'i qulfga o'rnatilgandan so'ng, qulf ilmog'ining mahkam o'rnatilganligiga va xavfsizlik kamarining bel va yelka tasmalari buralmaganligiga ishonch hosil qiling.
- Xavfsizlik kamari qulfiga asl qisqichdan boshqa biror buyumni o'rnatish taqiqlanadi. Bu xavfsizlik kamari qulfini ishdan chiqarishi va foydalanishga yaroqsiz qilishi mumkin.
- Agar xavfsizlik kamari yaxshi ishlamayotgan bo'lsa, darhol rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling. Ushbu xavfsizlik kamarini ta'mirlashdan oldin ishlatmang.

2. HARAKATNI BOSHLASHGA TAYYORGARLIK

Xavfsizlik kamarlari taranglagichlari (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)



1. Xavfsizlik yostiqlari va xavfsizlik kamarlari taranglagichlarining birgalikda ishlashi jiddiy yo'l-transport hodisalarida oqibatlarining og'irligini kamaytirishga yordam beradi.

2. Xavfsizlik kamarining taranglagichi yengil old yoki yon to'qnashuvda ishga tushmasligi mumkin.

3. Old o'rindiq xavfsizlik kamarining taranglagichi old o'rindiqda yo'lovchi bo'lmaganda ham ishga tushishi mumkin.

4. Xavfsizlik kamari taranglagichi ishga tushgandan so'ng, inersiya g'altagi xavfsizlik kamarini tortadi va haydovchi yoki old yo'lovchini o'z joyida mahkam ushlab turadi.

5. Xavfsizlik kamarlari taranglagichlari ishga tushganda o'ziga xos shovqin eshitaladi va oz miqdorda zaharli bo'lmagan gaz ajralib chiqadi. Xavfsizlik kamarlari taranglagichlari ishga tushganda hosil bo'lgan gaz yong'in keltirib chiqarmaydi va odatda inson salomatligiga zarar yetkazmaydi.

XAVFLI

- Xavfsizlik kamarlari taranglagichlari ishga tushgan taqdirda, xavfsizlik yostiqlari tizimining nosozlik signalizatori yonadi. Avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga darhol murojaat qiling.
- Konstruksiyanı o'zgartirish, demontaj qilish, zarba ta'siriga duchor qilish yoki xavfsizlik kamari taranglagichi to'plami, xavfsizlik yostig'i datchigi va tegishli elektr simlarini ochish taqiqlanadi. Aks holda xavfsizlik kamarlari taranglash moslamalarining ishlashi buzilishi, ular to'satdan ishga tushishi yoki umuman ishlamasligi, natijada og'ir jarohatlar yoki yo'lovchilar o'limiga olib kelishi mumkin.

Funksiya cheklovlari

■ Xavfsizlik kamarlari taranglagichlarining ishlash xususiyati quyidagilar natijasida buzilishi mumkin:

1. Podveska konstruksiyasiga o'zgartirishlar kiritish.
2. Avtomobilning old qismi konstruksiyasiga o'zgartirishlar kiritish.
3. Xavfsizlik kamarlari taranglagichlarini yoki yaqin atrofdagi boshqa qismlarni ta'mirlash.
4. Xavfsizlik kamari taranglagichi to'plami yoki yaqin atrofi shikastlanishi.

5. avtomobilning old qismiga radiator panjarasi himoya qurilmasi yoki boshqa aksessuarlarni o'rnatish.

2-8. Bolalar xavfsizlik qurilmalari

Bolalar xavfsizlik qurilmalari

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bolani old o'rindiqda emas, balki orqa o'rindiqda, bolalar xavfsizlik moslamada olib yurish xavfsizroq.

Avtomobilga mos keluvchi, farzandingizning yoshi va vazniga mos bolalar xavfsizlik qurilmasini tanlang. Xalqaro standartlarga muvofiq, avtomobil xavfsizlik kamarlari tizimi yo'lovchilarning bo'yi 150 sm dan kam bo'lmagan holatda loyihalashtiriladi. Bo'yi 150 sm gacha bo'lgan yo'lovchining xavfsizlik kamaridan foydalanishi yo'l-transport hodisasida bo'yin qismida jiddiy jarohatlarga olib kelishi mumkin.

Ushbu Qo'llanmada faqat ISOFIX xavfsizlik qurilmalarini o'rnatish tavsiflangan. O'rnatish haqida batafsil ma'lumot bolalar xavfsizlik qurilmasiga ilova qilingan yo'riqnomada keltirilgan.

XAVFLI

- Bolalar xavfsizlik moslamasini orqa o'rindiqqa mahkamlash uchun standart mahkamlagichlardan foydalaning.
- Bolalar xavfsizlik qurilmasi xavfsizlik standartlari va qonunchilik talablariga javob berishi kerak. Biz bolalar xavfsizlik moslamasi bilan bog'liq muammolar tufayli yuzaga kelgan shikastlanishlar yoki YTHlar uchun javobgar emasmiz.
- Yo'l-transport hodisasida yoki to'satdan tormozlanganda samarali himoyalani uchun bola xavfsizlik kamari bilan mahkamlangan bo'lishi yoki uning yoshi va vazniga mos bolalar xavfsizlik moslamasida o'tirishi kerak. Agar yo'lovchi bolani qo'lida ushlab turgan bo'lsa, bu bolalar xavfsizlik moslamaning o'rnini bosa olmaydi.

Bolalar xavfsizlik qurilmalari guruhlari

Bolalar xavfsizlik moslamasi bolalar xavfsizligini ta'minlash tizimlari uchun avtomobil standartlariga (ECE R44/R129) muvofiq bo'lishi kerak. Qoida tariqasida, sinovdan o'tgan bolalar xavfsizlik qurilmalarida sertifikat belgisi, shuningdek, ECE R44/R129 standarti talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi to'q sariq rangli yorliq mavjud. Ushbu yorliqda bolaning vazni bo'yicha guruhi, ISOFIX mahkamlash turi va bolalar xavfsizlik moslamasining sertifikati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

2. HARAKATNI BOSHLASHGA TAYYORGARLIK

Bolalar xavfsizlik qurilmalarini o'rnatish jadvali

O'rindiq	Haydovchi o'rindig'i	Old yo'lovchi o'rindig'i		2-qator chap	2-qator markaz	2-qator o'ng	3-qator chap	3-qator o'ng
		Old yo'lovchi xavfsizlik yostig'i yoqilgan	Old yo'lovchi xavfsizlik yostig'i o'chirilgan					
Standart xavfsizlik kamari bilan mahkamlanuvchi universal bolalar xavfsizlik moslamasi (HA/YO'Q)	-	YO'Q	HA	HA	HA	HA	HA	HA
i-Size bolalar xavfsizlik qurilmasi (HA/YO'Q)	-	YO'Q	YO'Q	HA	YO'Q	HA	YO'Q	YO'Q
Bolani yuzi yon tomonga qaratilgan holda o'rnatiluvchi bolalar xavfsizlik moslamasi (L1/L2)	-	YO'Q	YO'Q	YO'Q	YO'Q	YO'Q	YO'Q	YO'Q
Harakat yo'nalishiga teskari o'rnatiluvchi bolalar xavfsizlik qurilmasi	-	YO'Q	YO'Q	R1/ R2X/ R2/R3	YO'Q	R1/ R2X/ R2/R3	YO'Q	YO'Q

(R1/ R2X/R2/R3)								
Harakat yo'nalishi bo'yicha o'rnatiluvchi bolalar xavfsizlik qurilmasi (F2X/F2/F3)	-	YO'Q	YO'Q	F2X/ F2/F3	YO'Q	F2X/ F2/F3	YO'Q	YO'Q
Qo'shimcha yostiq (B2/B3)	-	YO'Q	YO'Q	B2/B3	YO'Q	B2/B3	YO'Q	YO'Q

Eslatma:

1.ECE R16/R44/R129 standartiga muvofiq, bolalar xavfsizlik qurilmalari bir necha toifalarga bo'linadi. Bu ma'lumot qurilmada ko'rsatilgan. Bolalar xavfsizlik qurilmasi bolaning yoshi, vazni va bo'yiga qarab tanlanishi kerak.


2.Old yo'lovchi o'rindig'iga bolalar xavfsizlik moslamani o'rnatish zarur bo'lganda, old yo'lovchi old xavfsizlik yostig'ini o'chirish kerak. Bolalar xavfsizlik moslamasini old yo'lovchi o'rindig'iga o'rnatishdan oldin, imkon qadar o'rindiqni orqaga surish, yostiqni yuqori holatga, suyanchiqni esa vertikalga yaqin holatga o'rnatish kerak.

3.Asosi yoki quyi tayanchi bo'lgan bolalar xavfsizlik moslamasini ikkinchi qatordagi markaziy o'rindiqqa o'rnatish taqiqlanadi.

4.2-qatorning markaziy o'rindig'iga faqat standart xavfsizlik kamari bilan mahkamlanuvchi universal bolalar ushlab turuvchi moslamasini o'rnatish mumkin.

2. HARAKATNI BOSHLASHGA TAYYORGARLIK

Bolalar xavfsizlik moslamalardan foydalanishda ehtiyot choralari



Old yo'lovchi quyoshdan himoya soyabonidagi ushbu yozuv avtomobil old yo'lovchi old xavfsizlik yostig'i bilan jihozlanganligini eslatadi. Quyidagi ehtiyot choralariga rioya qiling.

- Old yo'lovchi o'rindig'iga harakat yo'nalishiga teskari o'rnatiladigan bolalar xavfsizlik moslamani o'rnatish faqat old yo'lovchi xavfsizlik yostig'i tugmasi OFF holatida bo'lgandagina mumkin. "Old yo'lovchi xavfsizlik yostig'ini yoqish va o'chirish" bo'limiga qarang.

- Hech qanday holatda bolalar xavfsizlik moslamasining mahkamlash konstruksiyasiga yoki xavfsizlik kamarlariga o'zgartirishlar kiritmang.

Bunda bolalar xavfsizlik moslamasining to'g'ri o'rnatilishi uchun javobgarlik haydovchiga yuklanadi.

Tavsiya etilgan bolalar xavfsizlik qurilmalari

- Faqat ECE R44 yoki ECE R129 standarti talablariga javob beradigan bolalar xavfsizlik moslamasidan foydalaning. Bolalar xavfsizlik qurilmasidagi muvofiqlik belgisiga qarang.
- Qurilmadan foydalanishdan oldin ishlab chiqaruvchining yo'riqnomasini diqqat bilan o'qing va yo'riqnomada keltirilgan o'rnatish talablariga qat'iy rioya qiling. Bolalar xavfsizlik moslamasini o'rnatgandan so'ng, uning mustahkam o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling.
- Sotib olish va o'rnatish uchun quyidagi jadvalda keltirilgan bolalar xavfsizlik qurilmalari tavsiya etiladi.

Bolaning bo'yi/ vazni bo'yicha guruh	Nomi	Ishlab chiqaruvchi	Mahlamlagich turi
40□83 sm	Baby-Safe 2 i-Size CRS, i-Size asosli	Britax Römer	Quyida tayanchli ISOFIX (harakat yo'nalishiga teskari o'rnatiladigan)
76□105 sm	TRIFIX ² i-Size	Britax Römer	Yuqori arqon bilan mahkamlanadigan ISOFIX

Bolaning bo'yi/ vazni bo'yicha guruh	Nomi	Ishlab chiqaruvchi	Mahkamlagich turi
II guruh (15 - 25 kg)	KidFix i-Size	Britax Römer	Xavfsizlik kamari bilan mahkamlanadigan ISOFIX
III guruh (22 - 36 kg)	KidFix i-Size qo'shimcha yostig'i	Britax Römer	Xavfsizlik kamari bilan mahkamlanadigan ISOFIX

Eslatma:

Britax Römer KidFix o'rnatish bo'yicha tavsiyalar:

- Qo'shimcha SICT yostig'ini ishlab chiqaruvchining ko'rsatmalariga muvofiq bolalar ushlagichiga o'rnatish;
- Xavfsizlik kamarining tasmasini Secure Guard fiksatori orqali o'tkazing. Xavfsizlik kamarining yelka tasmasini Secure Guard fiksatoridan o'tkazish shart emas!

Yuqori arqon



Ushbu avtomobil modeli bolalar xavfsizlik qurilmasining yuqori arqoni uchun maxsus mahkamlagichlar bilan jihozlangan. Ushbu mahkamlagichlar orqa o'rindiq suyanchig'ining orqa tomonida joylashgan.

Yuqori arqondan foydalanishdan oldin tegishli bosh taglik va bagaj bo'limi pardasi olib tashlanishi kerak. O'rindiqqa bolalar xavfsizlik moslamasini o'rnatib, mahkamlagichga yuqorigi arqonni ulash va uni tortish kerak. Bolalar xavfsizlik qurilmasi yo'riqnomasiga qarang.

TANISHIB CHIQUING


- Yechilgan bosh tagliklarini xavfsiz joyga qo'ying.
- Bolalar xavfsizlik moslamasi o'rnatilgandan va yuqori arqon ulangandan so'ng, bagaj bo'limining pardasi joyiga qaytarilishi mumkin.

XAVFLI

Ustki arqonning tegishli mahkamlagichga to'g'ri ulanganligiga ishonch hosil qiling. Bolalar xavfsizlik moslamaning noto'g'ri o'rnatilishi bolaning jarohatlanishiga sabab bo'lishi mumkin.


- Harakat yo'nalishiga teskari o'rnatiladigan bolalar xavfsizlik qurilmasi

2. HARAKATNI BOSHLASHGA TAYYORGARLIK




Harakat yo'nalishiga teskari o'rnatiladigan bolalar xavfsizlik moslamasini old yo'lovchi o'rindig'iga yoki orqa o'rindiqqa o'rnatish mumkin. Harakat yo'nalishiga teskari o'rnatiladigan bolalar xavfsizlik moslamasini old yo'lovchi o'rindig'iga o'rnatish faqat old yo'lovchi xavfsizlik yostig'i tugmasi OFF holatda bo'lganda mumkin. Bu kabi bolalar xavfsizlik moslamasi 4 yoshgacha bo'lgan bolalarni tashish uchun tavsiya etiladi.

■ Harakat yo'nalishi bo'yicha o'rnatiladigan bolalar xavfsizlik qurilmasi



Harakat yo'nalishi bo'yicha o'rnatiladigan bolalar xavfsizlik moslamasi old yo'lovchi o'rindig'iga yoki orqa o'rindiqqa o'rnatilishi mumkin. Bolalarni ushlab turuvchi bunday moslama 4 yoshdan katta bolalarni tashish uchun tavsiya etiladi.

■ Qo'shimcha yostiq (buster)



Orqa suyanchiqli bolalar xavfsizlik moslamasidan allaqachon ulg'aygan bolani orqa o'rindiqning chetki qismiga o'rnatilgan qo'shimcha yostiqda olib yurish mumkin. Shu bilan birga, qo'shimcha yostiqni pastki mahkamlagichlar yordamida mahkamlash yoki qo'shimcha yostiq ishlab chiqaruvchisining yo'riqnomasida ko'rsatilganidek, xavfsizlik kamari bilan mahkamlash kerak.

Bolalar xavfsizlik qurilmasini o'rnatish

Bolalar xavfsizlik qurilmasi



Orqa o'rindiq chetki qismlari ISOFIX/i-Size mahkamlagichlari bilan jihozlangan. Ushbu mahkamlagichlar o'rindiq suyanchig'ida bevosita tegishli mahkamlagichlar ustida maxsus belgilar (rasmga qarang) bilan belgilanadi.

Bolalar xavfsizlik qurilmasini o'rnatish



1-qadam. ISOFIX mahkamlagichini toping. Ikkinchi qator o'rindiq'ini iloji boricha orqaga suring.




2-qadam. ISOFIX mahkamlagichga kirish uchun uning qopqog'ini ko'taring.



3-qadam. Bolalar qurilmasini orqa o'rindiq chetki qismiga o'rnatish.

4-qadam. Bolalar xavfsizlik qurilmasini ISOFIX moslamasiga mahkamlang. Zarur bo'lsa, pastki tirgakdan foydalaning.

2. HARAKATNI BOSHLASHGA TAYYORGARLIK



5-qadam. Agar kerak bo'lsa, yuqori arqonni to'g'ri joylashtiring, tegishli mahkamlagichga mahkamlang va torting.

Eslatma: bagaj bo'limi pardasi mavjud bo'lganda, arqon uchun mahkamlagichga kirish uchun pardani yechish zarur.


Eslatma: bolalar xavfsizlik qurilmasi uchun yuqori arqondan foydalanish kerakligi haqidagi ma'lumotni uning yo'riqnomasidan topasiz.

TANISHIB CHIQING

- Agar o'rnatishda bolalar xavfsizlik moslamasi o'zining yuqori qismi bilan o'rindiqlik bosh tagligiga tiralib tursa, u holda bosh taglikni olib qo'yish mumkin.
- Mahkamlagichga arqon bog'langandan so'ng, arqonni tortish kerak. Bolalar xavfsizlik qurilmasini o'rindiqlikka o'rnatish va mahkamlash to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar muayyan bolalar ushlab turuvchi qurilmasiga ilova qilingan yo'riqnomada keltirilgan.
- Bolalar xavfsizlik qurilmasini o'rindiqlikka o'rnatishdan oldin o'rindiqlik bosh tagligini olib qo'yish kerak. Bu bosh tagligining yuqori arqonga tegishini cheklaydi yoki oldini oladi. Bagaj bo'limi pardasi mavjud bo'lsa, uni olib tashlash kerak.

XAVFLI

- Bolalar xavfsizlik moslamasi o'rnatilgandan so'ng, o'rindiqlik holatini o'zgartirish taqiqlanadi.
- Bolalar xavfsizlik moslamani orqa o'rindiqlik chetki qismiga o'rnatish tavsiya etiladi.
- Ikki va undan ortiq bolalar ushlab turish moslamalarini mahkamlash uchun bitta mahkamlash toplamidan foydalanish taqiqlanadi.
- Ustki arqon to'g'ridan-to'g'ri bosh tagligidan o'tmasligi va uni egib o'tmasligiga ishonch hosil qiling. Bolalar xavfsizlik moslamasini o'rnatgandan so'ng, arqonni ulab, torting. Bolalar xavfsizlik moslamani noto'g'ri o'rnatilishi bolaning jarohatlanishiga sabab bo'lishi mumkin.
- Agar avtomobil yukxona pardasi bilan jihozlangan bo'lsa, bolalar xavfsizlik moslamasini mahkamlagichga o'rnatishdan oldin uni yechish kerak.
- Yo'l-transport hodisasida mahkamlagich shikastlangan yoki katta yuk ta'siriga uchragan bo'lsa, uni almashtirish uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
- Agar haydovchi o'rindiqlik orqasiga bolalar xavfsizlik moslamasini o'rnatish uchun joy yetarli bo'lmasa, uni old yo'lovchi o'rindiqlik orqasiga joylashtiring.
- Bolalar xavfsizlik moslamasi uchun mo'ljallangan mahkamlash skobalaridan bolalar xavfsizlik moslamasidan boshqa biron-bir buyumni mahkamlash uchun foydalanish taqiqlanadi. Aks holda, biz mumkin bo'lgan oqibatlar uchun javobgar bo'lmaymiz.
- Agar bolalar xavfsizlik moslama noto'g'ri mahkamlangan bo'lsa, bola yoki boshqa yo'lovchilar yo'l-transport hodisasida og'ir jarohat olishlari yoki hatto halok bo'lishlari mumkin.
- Ustki arqonning mustahkam o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling. Shuningdek, bolalar xavfsizlik moslamasini turli tomonga chayqatib, uning mustahkamligini tekshiring. Bolalar ushlagichini o'rnatish bo'yicha ishlab chiqaruvchining ko'rsatmalariga amal qiling. Agar bolalarni ushlab turuvchi moslama noto'g'ri o'rnatilgan bo'lsa, bola yo'l-transport hodisasida og'ir jarohat olishi yoki halok bo'lishi mumkin.

Old yo'lovchi xavfsizlik yostig'ini yoqish va o'chirish (avtomobilning ayrim variantlari uchun)

Old yo'lovchi xavfsizlik yostig'i tugmasi o'ng tomondagi boshqaruv panelida joylashgan. Old o'ng tomondagi eshik ochiq bo'lganda tugmani ko'rish mumkin.

■ Old yo'lovchi xavfsizlik yostig'ini o'chirish
Tugmani o'zingizga torting va uni OFF holatiga o'tkazing. Old yo'lovchi xavfsizlik yostig'i o'chadi va indikator yonadi.

■ Old yo'lovchi xavfsizlik yostig'ini yoqish

2. HARAKATNI BOSHLASHGA TAYYORGARLIK

Tugmani OFF holatidan ON holatiga o'tkazing. Old yo'lovchi xavfsizlik yostig'i ishga tushadi va yoqish indikatorini yonadi. Shundan so'ng old yo'lovchi xavfsizlik yostig'i bilan himoyalanaadi.

Xavfsizlik yostig'ini yoqish indikatorini



1 Xavfsizlik yostig'i o'chirilgan

2 Xavfsizlik yostig'i yoqilgan

⚠ XAVFLI

- Agar old o'rindiqda katta yoshli odam o'tirgan bo'lsa, old yo'lovchi xavfsizlik yostig'ini yoqish kerak. Old yo'lovchi xavfsizlik yostig'i holati (yoqilgan yoki o'chirilgan) ni kuzatib borish haydovchining vazifasidir.
- Old yo'lovchi o'rindig'iga harakat yo'nalishiga teskari o'rnatiluvchi bolalar xavfsizlik moslamani o'rnatish faqat oldingi yo'lovchi xavfsizlik yostig'i tugmasi OFF holatda bo'lgandagina mumkin. Aks holda yo'l-transport hodisasida bola og'ir tan jarohati olishi yoki halok bo'lishi mumkin.

Orqa o'rindiqda bolalar qolgani haqida eslatma (avtomobilning ayrim variantlari uchun)

Tavsifi

Ushbu funktsiyaning ishlashi millimetr diapazonli harakat datchigiga asoslangan. Dvigatel OFF holatiga o'tkazilganda va avtomobil qulflangandan so'ng, funktsiya avtomobilda bola mavjudligini aniqlaydi. Agar salonda bola qolgan bo'lsa, ushbu funktsiya haydovchi va atrofdagilarni bu haqda ogohlantiradi: sirena ishga tushadi va favqulodda yorug'lik signalizatsiyasi chiroqlari ikki marta miltillaydi.

Ushbu funktsiya avtomobil qulflangandan so'ng darhol ichkaridan bolani qidirishni boshlaydi. Agar salonda bola bo'lsa, birinchi eslatma avtomobil qulflanganidan 10 soniya o'tgach boshlanib, 5 soniya yoki funktsiya o'chirilgunga qadar davom etadi.

Birinchi ogohlantirish tugagandan so'ng, agar eshiklar hali ham yopiq bo'lsa va salonda hali ham bola bo'lsa, ikkinchi eslatma birinchisi tugaganidan 85 soniya o'tgach uzatiladi. Shundan so'ng, eslatmalar har 60 soniyada davriy ravishda uzatiladi. Bir sikl davomida 30 soniya davomida sirena chalinadi va favqulodda yorug'lik signalizatsiyasi chiroqlari ikki marta yonib-o'chadi. Shundan so'ng 30 soniyalik pauza boshlanadi. Keyinchalik bu sikllar funktsiya o'chirilgunga qadar davom etadi.

Agar birinchi eslatma 5 daqiqadan ortiq davom etgan bo'lsa va funktsiya hali ham salondagi bolani aniqlasa, uchinchi eslatma yuboriladi va CAR APP ilovasida sizga quyidagi matnli xabar yoki SMS xabar keladi:

"Hurmatli foydalanuvchi! Avtomobilingiz salonida odamlar yoki hayvonlar qolgan. Iltimos, zudlik bilan avtomobilga qayting."

Funksiyani vaqtincha o'chirish

Ushbu funksiyani vaqtincha o'chirish imkoniyati mavjud. Uni Vehicle Center menyusining "IN the Vehicle" (avtomobilda) bo'limida o'chirish mumkin. Mazkur funksiyani yuqoridagi menyu orqali o'chirish faqat joriy safar uchun amal qiladi. Avtomobil keyingi marta ishga tushirilganda, bu funksiya birlamchi ravishda yoqiladi.



TANISHIB CHIQING

Bolalarni avtomobilda yolg'iz qoldirmang.

3-1. Masofaviy boshqarish pulti ma'umotlari	funksiyasi.....	100
Masofaviy boshqaruv pulti ma'lumotlari.....	Oyna qisib qolishidan himoya funksiyasi	101
Masofadan boshqarish pulti ta'sir radiusi.....		88
Avtomobilga kalitsiz kirish tizimi		90
O'g'irlashga qarshi tizim qo'riqlash rejimi.....		92
Immobilayzer		94
Masofadan boshqarish pulti yordamida avtomobilni qidirish funksiyasi.....		94
Masofadan boshqarish pulti yordamida avtomobilni ishga tushirish.....		95
3-2. Eshiklar		
Eshiklarni ochish va yopish		95
Eshikning mexanik qulfi		97
Orqa eshik qulflarini ichkaridan ochishdan bloklash		98
3-3. Oynalar		
Elektr oyna ko'targichlar.....		98
Elektr oyna ko'targichlarni masofadan boshqarish funksiyasi.....		100
3-4. Lyuk		
Lyuk (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)		102
Lyukni masofadan boshqarish funksiyasi		104
Lyuk qopqog'i qisib qolishidan himoya funksiyasi		105
3-5. Audio tizim		
Audio tizimni boshqarish paneli.....		107
Boshqaruv markazi.....		108
Sozlash.....		109
Audio tizimni boshqarish tugmalari.....		114
Ovozli buyruqlarni aniqlash funksiyasi.....		115
Telefon aloqasi.....		115
3-6. Konditsioner tizimi		
Old qator o'rindiqlari konditsioner tizimi.....		118
Ikkinchi qator o'rindiqlari konditsioner tizimi		

(avtomobilning ba'zi variantlari uchun)	119	Xushbo'ylantirish funksiyasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)	129
Uchinchi qator o'rindiqlari konditsioner tizimi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)	120	Xushbo'ylantirgichli kartrijni o'rnatish bo'yicha ko'rsatmalar.....	130
Konditsioner tizimi sozlamalari.....	120	Xushbo'ylantirgichli kartrijni almashtirish.....	130
Konditsioner tizimidan foydalanish	120	3-8. Videoregistrator (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)	
Isitgichdan foydalanish.....	124	Videoregistrator (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)	131
Havoni sovutish	125	Sozlash	134
Intellectual rejim (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)	127	3-9. Sizmsiz quvvatlash qurilmasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)	
Salonda doimiy haroratni saqlash funksiyasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)	127	Sizmsiz quvvatlash qurilmasi (CWC) (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)	134
Markaziy tirsak qo'ygich bo'limni sovutish/isitish funksiyasi	128	3-10. OTA yangilanishi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)	
Shamollatish panjaralari ...	128	OTA yangilanishi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)	138
3-7. Xushbo'ylantirish funksiyasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)			

Dasturiy ta'minotni yangilash usullari.....	138	Quvvatni boshqarish markazi	152
Yangilash rejimlari tavsifi ..	139	Shinalar holati monitoringi	152
Yangilanishni o'rnatish	139	Xarita.....	152
Yangilash paytida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish	148	Avtorizatsiya	153
		Hisobni o'chirish.....	154
3-11.Masofadan boshqarish funksiyasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)		3-12.Mayda buyumlar va yuklarni joylashtirish	
Masofadan boshqarish funksiyasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)	149	Mayda buyumlar va yuklarni joylashtirish.....	155
Tavsifi	149	3-13.USB-ulagichi	
Ish muhiti	149	Old USB-ulagichi	158
Funksiyalar tavsifi	149	Orqa USB-ulagichi.....	158
Avtomobilni ulash va avtomobil boshqaruvi funksiyasini yoqish.....	149	3-14.Elektr rozetkasi (12 V)	
Avtomobil holati ma'lumotlarini ko'rish	150	Orqa lekr rozetkasi.....	158
Avtomobilni masofadan boshqarish	150	3-15.Kosmetik ko'zguli quyosh soyabonlari	
Konditioner tizimini masofadan ishga tushirish	151	Kosmetik ko'zguli quyosh soyabonlari	159
		3-16.Kapot	
		Kapotni ochish/yopish	159
		3-17.Bagaj bo'limi eshigi	
		Elektr uzatmasiz bagaj bo'limi eshigi.....	160

Elektr uzatmali bagaj bo'limi
eshigi (avtomobilning ba'zi
variantlari uchun) 160


Bagaj bo'limi eshigini
favqulodda ochish 164

3-18. Yonilg'i baki quyish
bo'g'izining lyuki


3-1. Masofadan boshqarish pulti ma'lumotlari

Masofadan boshqarish pulti

Masofadan boshqarish pulti avtomobil eshiklarini masofadan turib ochish va qulflash, shuningdek, agar pult va avtomobil o'rtasida to'siqlar va elektromagnit to'siqlar bo'lmasa, bagaj bo'limi eshigini avtomobildan 20 metrgacha masofada turib ochish imkonini beradi (ushbu funksiyaning mavjudligi avtomobil tuzilishiga bog'liq).



- 1 Ochish tugmasi
- 2 Bagaj bo'limi eshigini ochish tugmasi
- 3 Yopish tugmasi
- 4 Avtomobilni masofadan ishga tushirish tugmasi



Masofadan boshqarish pultiga o'rnatilgan mexanik kalit favqulodda vaziyatda eshiklarni ochish va yopish uchun mo'ljallangan. Pult korpusidan mexanik kalitni chiqarish uchun izolyatsiya lentasi bilan o'ralgan yassi otvortkadan foydalaning. Mexanik kalitdan foydalanishni tugatgandan so'ng, undan foydalanish qulayligi va uni yo'qotmaslik uchun uni pult korpusiga qayta joylashtiring.

Funksiya cheklolari

Quyidagi belgilar masofadan boshqarish pulti quvvat elementi razryadidan dalolat berishi mumkin:

1. Masofadan boshqarish funksiyasining ta'sir radiusi vaqt o'tishi bilan kamayadi.
2. Masofadan boshqarish funksiyasi to'siqlar bo'lmasa ham ishlamaydi.
3. Asboblarda panelida ogohlantirish paydo bo'ladi: "Smart key battery is low" (masofadan boshqarish pulti batareyasi quvvati tugagan).

■ Quyidagi holatlarda masofadan boshqarish pulti barqaror ishlamasligi mumkin:

1. Avtomobil yaqinida boshqa masofadan boshqarish pultidan foydalanilganda.
2. Masofadan boshqarish pulti avtomobildan 20 metrdan ortiq masofada joylashgan.
3. Metall buyum masofadan boshqarish pultini to'sib qo'ysa yoki unga tegib turgan bo'lsa.

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

4. Masofadan boshqarish pulti boshqa elektron qurilma (masalan, mobil telefon yoki kompyuter) yaqinida joylashgan bo'lsa.


5. Masofadan boshqarish pulti portativ radiostansiya yoki xuddi shu chastotada ishlaydigan boshqa simsiz aloqa qurilmasiga bevosita yaqin joylashgan bo'lsa.

6. Masofadan boshqarish pulti televizion uzatkich, radiostansiya, elektrostansiya, aeroport, temir yo'l stansiyasi yoki kuchli radionurlanish yoki elektr to'siqlarini hosil qiluvchi boshqa obyekt yaqinida joylashgan bo'lsa.

DIQQAT


- Ushbu qurilma kichik quvvatli radiotexnik qurilma bo'lib, uning ishlashiga sanoat, ilmiy va tibbiy asbob-uskunalar tomonidan yaratilgan to'siqlar xalaqit berishi mumkin.
- Chastotalar polosasiga o'zboshimchalik bilan o'zgartirishlar kiritish, uzatish quvvatini oshirish (shu jumladan, yuqori chastotali quvvat kuchaytirgichini o'rnatish), tashqi yoki boshqa uzatuvchi antennalarni o'rnatish taqiqlanadi.
- Avtomobilga kalitsiz kirish tizimi masofadan boshqarish pulti tanib olish rejimida bo'lgan davrda simsiz quvvatlash vaqtincha to'xtatilishi mumkin.
- Ushbu qurilmadan foydalanishda qonuniy ishlaydigan simsiz tarmoqlarning ishiga to'sqinlik qilish taqiqlanadi. To'siqlar yuzaga kelsa, ularni bartaraf etish choralarini ko'rmaguningizcha ushbu qurilmadan foydalanishni darhol to'xtating.

Masofadan boshqarish pulti quvvat elementini almashtirish



1-qadam. Izolyatsiya lentasi bilan o'ralgan yassi otvyorka yordamida avval pult qopqog'ini, keyin esa bosma platani oching va mexanik kalitni chiqarib oling.

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI



2-qadam. Izolyatsiya lentasi bilan o'ralgan yassi otvortka yordamida zaryadsizlangan quvvat elementini chiqarib oling va yangi quvvat elementini o'rnatib, (+) belgisi bo'lgan tomon yuqoriga qaragan bo'lsin.

3-qadam. Masofadan boshqarish pultini qismlarga ajratishga teskari ketma-ketlikda yig'ing.

4-qadam. Quvvat elementini almashtirgach, masofadan boshqarish pulti ishlashini tekshiring. Agar masofadan boshqarish pulti to'g'ri ishlamayotgan bo'lsa, birinchi imkoniyatdayoq rasmiy dilerning servis stansiyasiga murojaat qiling.

ATROF-MUHIT HIMOYASI

Foydalanilgan litiyli ta'minot elementini oddiy maishiy chiqindi sifatida utilitatsiya qilish mumkin emas. Foydalanilgan quvvat elementini mahalliy qoidalar va atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga muvofiq utilitatsiya qiling.

TANISHIB CHIQUING

- Quvvat elementini o'rnatishda qutbga rioya qilinganligiga ishonch hosil qiling.
- Masofadan boshqarish pulti quvvat elementi: 3 V kuchlanishli CR2032 litiy batareyasi.

DIQQAT

- Faqat ishlab chiqaruvchi tomonidan tavsiya etilgan quvvat elementidan foydalaning.
- Quvvat elementini o'rnatishda kontaktlarni bukmang yoki qayirmang.
- Quvvat elementini almashtirishdan oldin qo'llaringiz quruq va yaqin atrofda suv yo'qligiga ishonch hosil qiling.
- Agar qo'lingizda moy izlari bo'lsa, quvvat elementiga tegmang. Bu talabga rioya qilmaslik quvvat elementi korroziasiga sabab bo'lishi mumkin.
- Masofadan boshqarish pulti ichidagi hech qanday komponentlarga tegmang yoki siljitmang. Aks holda uning ish qobiliyati buzilishi mumkin.
- Quvvat elementini almashtirishda ma'lum qiyinchiliklar bo'lishi mumkin, shuning uchun uni mustaqil ravishda almashtirishda masofadan boshqarish pultiga zarar yetkazish ehtimoli mavjud. Quvvat elementini almashtirish uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qilish tavsiya etiladi.


3. AVTOMOBIL JIHOZLARI


XAVFLI

Ayniqsa, bolalar foydalanilgan quvvat elementi yoki boshqa tarkibiy qismni yutib yuborishlariga yo'l qo'ymaslik uchun ehtiyot bo'ling. Bu bolaga og'ir shikast yetkazishi yoki uning o'limiga sabab bo'lishi mumkin.


Masofadan boshqarish pulti ta'sir radiusi

Masofadan boshqarish pulti aniqlash hududi



 Avtomobilni ishga tushirish va quvvat rejimlarini almashtirish.

Masofadan boshqarish pulti avtomobil ichida bo'lganida avtomobilni ishga tushirish va dvigatelni ishga tushirish tugmasi holatini o'zgartirishingiz mumkin.

 Eshiklarni qulflash va ochish


Masofadan boshqarish pulti past chastotali antennaning o'ng yoki chap orqa eshikdagi ta'sir zonasida bo'lganda eshiklarni ochish va yopish mumkin.


 Bagaj bo'limi eshigi ochilish zonasi

Masofadan boshqarish pulti bagaj bo'limidagi tashqi past chastotali antenna ta'sir zonasida bo'lganida bagaj bo'limi eshigini ochishingiz mumkin.


TANISHIB CHIQING

Past chastotali antennaning ta'sir radiusi 1,5 m. Shuning uchun avtomobilga kalitsiz kirish tizimidan yoki dvigatelni ishga tushirish tugmasidan foydalanganda, masofadan boshqarish pulti past chastotali antennaning ta'sir zonasida bo'lishiga e'tibor bering.


Masofadan boshqarish pulti avtomatik aniqlash zonasi

 Kirish va tushishda yoritish tizimining ta'sir doirasi

Haydovchi masofadan boshqarish pulti bilan avtomobilga yaqinlashganda, yoritish tizimi avtomobilga kirish va tushishda avtomatik ravishda yoritish moslamalarini yoqadi.

 Haydovchi avtomobildan uzoqlashganda eshiklarni avtomatik qulflash zonasi.

Haydovchi masofadan boshqarish pulti bilan avtomobildan uzoqlashganda, eshiklar avtomatik ravishda qulflanadi.

 Haydovchi avtomobilga yaqinlashganda eshiklarning avtomatik ochilish zonasi

Haydovchi masofadan boshqarish pulti bilan avtomobilga yaqinlashganda, eshiklar avtomatik ravishda ochiladi.

TANISHIB CHIQING

- Barcha eshiklar, jumladan, bagaj bo'limi eshigi ham yopilgandan so'ng, salonda hech kim qolmasligi kerak. Aks holda tizim noto'g'ri ishlashi mumkin.
- Avtomobilga kalitsiz kirish tizimi, chiqish va tushishdagi yoritish tizimi, avtomobilga yaqinlashganda eshiklarni ochish va avtomobildan uzoqlashganda eshiklarni qulflash funksiyalarining ishlashiga tashqi to'siqlar ta'sir qilishi mumkin. Agar yuqoridagi tizim va funksiyalar ishlamay qolsa, eshiklarni qulflash/ochish yoki avtomobilni ishga tushirishning muqobil usulidan foydalaning (masalan, eshiklarni qo'lda qulflash va ochish, avtomobilni masofadan turib ishga tushirish va hokazo).

Funksiya cheklovlari

■Quyidagi holatlarda tizim masofadan boshqarish pultini aniqlay olmasligi mumkin.:


- 1.Masofadan boshqarish pulti yukxonada bo'lsa.
- 2.Eshiklar qulflanganda, masofadan boshqarish pulti deraza yoki tomga juda yaqin bo'lsa.
- 3.Masofadan boshqarish pulti kuchli elektromagnit to'siqlar manbaiga (masalan, portativ quvvat manbai, ichki aloqa qurilmasi, telefon va boshqalar) bevosita yaqin joylashganda)

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

Avtomobilga kalitsiz kirish tizimi



Eshiklarni ochish




Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazing. Tegishli ekranda avtomobilga yaqinlashganda eshiklarni ochish va avtomobildan uzoqlashganda eshiklarni qulflash funksiyasini yoqing: Audio System (Audio tizim) -Settings (Sozlamalar) - Quick Control (Tezkor boshqaruv).

1-usul. Masofadan boshqarish pulti bilan eshikning oldinga suriluvchi tashqi tutqichidagi kontakt sensoriga tegining. Qulflarni masofadan boshqarish tizimi unda ushbu pult ro'yxatdan o'tkazilganligini tekshiradi va avtomatik ravishda eshikni ochadi (bunda eshikning tashqi tutqichi avtomatik ravishda oldinga suriladi).

2-usul. Masofadan boshqarish pulti bilan avtomobilga yaqinlashing. Chiqish va tushishdagi yoritish tizimi yoritish moslamalarini yoqadi. Keyin qulflarni masofadan boshqarish tizimi ushbu pult unda ro'yxatdan o'tkazilganligini tekshiradi va avtomatik ravishda eshikni ochadi (bunda eshikning tashqi tutqichi avtomatik ravishda oldinga suriladi).

Eshiklarni yopish



1-usul. Masofadan boshqarish pulti bilan eshikning oldinga suriluvchi tashqi tutqichidagi kontakt sensoriga teging. Qulflarni masofadan boshqarish tizimi unda ushbu pult ro'yxatdan o'tkazilganligini tekshiradi va eshikni avtomatik qulflaydi (bunda eshikning tashqi tutqichi avtomatik ravishda qulflash holatida o'tadi).

2-usul. Masofadan boshqarish pulti bilan avtomobilga yaqinlashing. Chiqish va tushishdagi yoritish tizimi yoritish moslamalarini yoqadi. Keyin qulflarni masofadan boshqarish tizimi ushbu pult unda ro'yxatdan o'tkazilganligini tekshiradi va avtomatik ravishda eshikni qulflaydi (bunda eshikning tashqi tutqichi avtomatik ravishda qulflash holatiga o'tadi).

 TANISHIB CHIQUING

- Agar avtomobil 3 kundan ortiq qulflangan bo'lsa, eshiklarni avtomatik ochish va qulflash funksiyasi o'chiriladi. Avtomobilga yaqinlashganda eshiklarni ochish va avtomobildan uzoqlashganda eshiklarni qulflash funksiyasining ishlashi dvigatel ishga tushirilgandan so'ng qayta tiklanadi.
- Avtomobil sovuq mavsumda foydalanilganda, eshikning tashqi tutqichi muzlashi va oldinga surilmay qolishi mumkin. Bunday holda, eshik tutqichi va metalli orasidagi muz qatlamini plastik karta yordamida tozalang. Bunga qo'shimcha ravishda, mushtingizning orqa tomoni bilan eshik tutqichini sekin urishingiz mumkin. Muz to'liq tozalanmaguncha zarba kuchini kerak bo'lganda oshiring. Tutqich surilgach, eshikni bir necha marta ochib-yoping. Avtomobilga chiqishdan oldin, eshikning tashqi tutqichi botiq holatga qaytganligiga ishonch hosil qiling. Avtomobilga kuchli zarba berishdan saqlaning.


3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

DIQQAT

- Masofadan boshqarish pultini kompyuter, simsiz sichqoncha yoki mobil telefon kabi elektron qurilmalar yoniga qo'ymang, aks holda eshiklarni avtomatik ochish va qulflash funksiyasi ishlamasligi mumkin.
- Agar dvigatelni ishga tushirish tugmasi OFF holatida bo'lsa, barcha eshiklar, kapot va bagaj bo'limi eshigi yopiq bo'lsa va masofadan boshqarish pulti avtomobilda bo'lmasa, eshiklarni avtomatik qulflash funksiyasidan foydalanish mumkin.
- Agar barcha eshiklar, jumladan bagaj bo'limi eshigi va kapot yopilgach, masofadan boshqarish pulti avtomobilda qolsa yoki avtomobildan 2,5m dan ortiq masofada bo'lsa, eshiklarni avtomatik ochish va qulflash funksiyasi ishga tushirilmaydi.
- Masofadan boshqarish pulti avtomobildan 2,5 m dan ortiq masofaga uzoqlashtirilgandan so'ng, favqulodda yorug'lik signalizatsiyasi chiroqlari miltillamasa va tovush signali eshitilmasa (bu o'g'irlashga qarshi tizimning qo'riqlash rejimi muvaffaqiyatli yoqilganligini tasdiqlaydi), avtomobil eshiklari qulflanganligini tekshiring. Aks holda avtomobil qulflanmay qolishi mumkin.
- Agar eshiklarni avtomatik ochish va qulflash funksiyasi yoqilgandan so'ng, masofadan boshqarish pulti avtomobilga bevosita yaqin joyda qolsa, eshiklar 3 daqiqadan so'ng qayta ochiladi. Yana 3 daqiqadan keyin, agar masofadan boshqarish pulti avtomobil yonida qolsa, batareya quvvatini tejash uchun eshiklarni avtomatik ochish va qulflash funksiyasi vaqtincha o'chiriladi. Agar istalgan eshik, kapot yoki yukxona eshigi ochilsa va keyin yopilsa, funksiya qayta ishga tushadi.

O'g'irlanishga qarshi tizimning qo'riqlash rejimi

O'g'irlanishga qarshi tizimning qo'riqlash rejimini yoqish



Dvigatelni ishga tushirish tugmasi ON holatida bo'lganda, qo'riqlash rejimi yoqilganda (Arming reminder) yorug'lik (Light) yoki yorug'lik va ovoz (Lights and Speakers) signalizatsiyasini sozlang: Audio System (Audio tizim) - Settings (Sozlamalar) - Vehicle Settings (Avtomobil tizimlarini sozlash).



■ Qo'riqlash rejimi

Dvigatelni ishga tushirish tugmasini OFF holatiga o'tkazing va barcha eshiklar, kapot va yukxona eshigini yoping. Eshiklarni qullang va o'g'irlashga qarshi tizim qo'riqlash rejimiga o'tadi

Muvaffaqiyatli himoya rejimi yoqilganini tasdiqlash

Avariya yorug'lik signalizatsiyasi chiroqlari bir marta yonib-o'chadi va tovush signali ikki marta eshitiladi.

O'g'irlashga qarshi tizimni qo'riqlash rejimiga o'tkazish mumkin emasligi to'g'risidagi bildirishnoma. Avariya yorug'lik signalizatsiyasi chiroqlari ikki marta yonib-o'chadi. Bunda tovush signali eshitilmaydi.

■ O'g'irlashga qarshi tizimni qo'riqlash rejimiga avtomatik qayta o'rnatish

Agar qo'riqlash rejimi o'chirilgandan keyin 30 soniya davomida hech qanday eshik, kapot yoki yukxona eshigi ochilmasa, o'g'irlashga qarshi tizim avtomatik ravishda qo'riqlash rejimiga qayta o'tkaziladi va eshiklar qayta qullanadi. Agar eshiklardan biri, kapot yoki yukxona eshigi ochilsa, o'g'irlashga qarshi tizimni qo'riqlash rejimiga avtomatik qayta o'tkazish rejimi o'chadi.



TANISHIB CHIQING

- Agar dvigatelni ishga tushirish tugmasi OFF holatida bo'lmasa, o'g'irlashga qarshi tizimni qo'riqlash rejimiga o'tkaza olmaysiz.
- Agar biron bir eshik, kapot yoki bagaj bo'lmi eshigi yopilgan bo'lsa, markaziy qulf eshikni qullaydi, lekin o'g'irlashga qarshi tizim qo'riqlash rejimiga muvaffaqiyatli o'ta olmaydi.
- Agar biron bir eshik yopilgan bo'lsa, lekin kapot va bagaj bo'lmi eshigi yopiq bo'lsa, markaziy qulf eshiklarni yopadi va darhol ochadi va o'g'irlashga qarshi tizim qo'riqlash rejimiga muvaffaqiyatli o'ta olmaydi.

O'g'irlanishga qarshi tizimning qo'riqlash rejimini yoqish



Agar o'g'irlashga qarshi tizim qo'riqlash rejimida bo'lsa, eshiklar ochilganidan keyin o'g'irlashga qarshi tizimning qo'riqlash rejimi o'chadi.

Qo'riqlash rejimi muvaffaqiyatli o'chirilganining tasdig'i sifatida favqulodda yorug'lik signali chiroqlari ikki marta yonib-o'chdi.

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

Immobilayzer

Elektron immobilayzer

Masofadan boshqarish pultida o'rnatilgan transponder chipi mavjud. Agar masofadan boshqarish pulti elektron immobilayzer blokida ro'yxatdan o'tmagan bo'lsa, o'rnatilgan chip dvigatelni ishga tushirishga imkon bermaydi.

■ Quyidagi holatlar elektron immobilayzerning nosozligiga olib kelishi mumkin:

1. Metall buyum masofadan boshqarish pultini to'sib turadi yoki unga tegib turadi.
2. Elektron immobilayzer demontaj qilingan yoki konstruksiyasiga o'zgartirishlar kiritilgan.
3. Masofadan boshqarish pulti boshqa avtomobil masofadan boshqarish pulti (o'rnatilgan transponder chipiga ega) bilan yonma-yon bo'lsa.

DIQQAT

Masofadan boshqarish pultini mustaqil ravishda ro'yxatdan o'tkazishga urinmang. Bu elektron immobilayzerning ishlash xususiyatining buzilishiga olib kelishi mumkin.

O'g'irlashga qarshi tizim

Agar qo'riqlash rejimida bo'lgan o'g'irlashga qarshi tizimda avtomobilga ruxsatsiz kirishga urinish sodir etilsa, tizim bu haqda yorug'lik signalizatsiyasini ishga tushirish orqali avtomobil egasini ogohlantiradi.

TANISHIB CHIQING

- Eshiklar mexanik kalit bilan qulflangan bo'lsa, o'g'irlashga qarshi tizimni ishga tushira olmaysiz. Shuning uchun eshiklarni masofadan boshqarish pulti yordamida qulflash tavsiya etiladi.
- Agar eshikni masofadan boshqarish pulti yordamida qulflab, haydovchi eshigini mexanik kalit bilan ochib qo'yilsa, qo'riqlash signalizatsiyasi ishga tushadi.
- Avtomobilning o'g'irlashga qarshi tizimi qo'riqlash rejimida bo'lganda, uni masofadan boshqarish pultidagi ochish tugmasini bosish yoki dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazish orqali o'chirish mumkin.
- O'g'irlashga qarshi tizimning kutilmaganda ishga tushishining oldini olish va avtomobilni o'g'irlashdan himoya qilish uchun avtomobildan chiqishdan oldin unda hech kim qolmaganiga, barcha derazalar to'liq yopilganiga, eshiklar esa yopiq va qulflanganligiga ishonch hosil qiling.

Masofadan boshqarish pulti yordamida avtomobilni qidirish funksiyasi

Bir necha soniya davomida masofadan boshqarish pultidagi qulflash tugmasini ikki marta bosing. Shundan so'ng 6 marta tovush signali eshitiladi va 10 marta avariya yorug'lik signalizatsiyasi chiroqlari miltillaydi. Bu sizga avtomobilingizni topishga yordam beradi.

Masofadan boshqarish puliti yordamida avtomobilni masofadan ishga tushirish

O'g'irlashga qarshi tizim qo'riqlash rejimida bo'lganda va masofadan boshqarish puliti avtomobilda bo'lmaganda, masofadan boshqarish pultidagi qulflash yoki dvigatelni masofadan ishga tushirish tugmasini bosib va dvigatelni masofadan ishga tushirish va konditsionerni avtomatik yoqish uchun uni bir necha soniya bosib turing. Dvigatel masofadan ishga tushirilgandan keyin 10 daqiqa o'tgach, avtomatik ravishda o'chadi.

TANISHIB CHIQING

- Dvigatelni masofadan ishga tushirish paytida avtomobilda hech kim, jumladan haydovchi ham bo'lmasligi kerak.
- Dvigatelni masofadan ishga tushirish amalga oshiriladigan masofa masofadan boshqarish pultining normal ishlash radiusidan (20 m) oshmasligi kerak.
- Dvigatel masofadan turib ishga tushirilgandan so'ng ba'zi boshqaruv organlari va tizimlari ishlamaydi (masalan, fara chiroqlari tugmasi, oyna tozalagich va yuvgichlar tugmasi, audiotizim). Dvigatelni masofadan ishga tushirish rejimidan chiqish va boshqaruv organlari va tizimlarining ish qobiliyatini tiklash uchun masofadan boshqarish puliti yoningizda bo'lgan holda tormoz pedalini bosib.
- Dvigatel masofadan ishga tushirilgandan keyin 10 daqiqa ishlasa, dvigatelning ishini yana 10 daqiqaga uzaytirish mumkin. Buning uchun masofadan boshqarish pultidagi qulflash tugmasini yoki dvigatelni masofadan ishga tushirish tugmasini bosib va uni bir necha soniya bosib turish kerak. Dvigatelni masofadan turib ikki marta ishga tushirish mumkin. Bundan keyin dvigatelni ishga tushirish faqat dvigatelni ishga tushirish tugmasi ON holatiga o'tkazilgandan keyin mumkin bo'ladi.

3-2. Eshiklar

Eshiklarni ochish va qulflash

Haydovchi eshigini mustaqil ochish




Dvigatelni ishga tushirish tugmasi ON holatida bo'lganda, quyidagi ekranda Unlock driver door only (Haydovchi eshigini mustaqil ochish) funksiyasini yoqing: Audio System (Audio tizimi) - Settings (- Sozlamalar) - Vehicle Setting (Avtomobil sozlamalari).

Masofadan boshqarish pultidagi ochish tugmasi birinchi marta bosilganda faqat haydovchining eshigi ochiladi. Masofadan boshqarish pultidagi ochish tugmasi ikkinchi marta bosilganda boshqa uchta eshik ochiladi.

Eshikning mexanik qulfi

Akkumulyator batareyasi zaryadsizlanganda yoki avtomobilda boshqa nosozlik yuzaga kelganda, eshiklarni markaziy elektr qulf yordamida ochish yoki qulflashning iloji bo'lmisligi mumkin. Bunday holda, siz eshiklarni mexanik kalit bilan ochishingiz yoki qulflashingiz mumkin.

Haydovchi eshigini ochish va qulflash



OMT18-2035

1-qadam. Haydovchi eshigi tashqi tutqichini botgan holatdan surilgan holatga o'tkazish uchun eshik tutqichidagi datchikka tegning va bir muddat qo'lingizni olmasdan turing.

2-qadam. Eshik tutqichini torting, mexanik kalitni eshik tutqichidagi teshikka kiriting va eshikni qulflash uchun soat mili bo'ylab yoki eshikni ochish uchun soat miliga teskari aylantiring.

Old yo'lovchi va orqa eshiklarni ochish va qulflash



OMT18-2036

Eshikni oching, qulf teshigiga mexanik kalitni soling va qulflash uchun qulf dastasini pastga suring.

TANISHIB CHIQUING

- Agar eshiklarni markaziy elektr qulf yordamida ochish yoki qulflashning iloji bo'lmasa, birinchi imkoniyatdayoq avtomobilni rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga tekshirish va ta'mirlash uchun olib borish zarur.
- Eshikning mexanik qulfidan foydalanganda, har bir eshik yopilgandan so'ng, eshik qulflanganligini tekshiring. Agar tavsiflangan amalni bajara olmasangiz, avtomobilni imkon qadar tezroq rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga tekshirish va ta'mirlash uchun yetkazib berishingiz kerak.

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

Orqa eshik qulflarini ichkaridan ochishdan bloklash



Orqa eshik qulfini ichkaridan ochishdan bloklash dastagi eshikning yon tomonida joylashgan.

Bloklashni yoqish - mexanik kalit bilan dastakni strelka bilan ko'rsatilgan yo'nalishda burang. Shundan so'ng orqa eshiklarni faqat tashqaridan ochish mumkin.

Bloklashni o'chirish - mexanik kalit bilan dastakni strelka bilan ko'rsatilgan yo'nalishga qarama-qarshi tomonga burang. Shundan so'ng orqa eshiklarni tashqaridan ham, ichkaridan ham ochish mumkin bo'ladi.

XAVFLI


- Ushbu funksiya yordamchi bo'lib, markaziy qulfni o'rnini bosmaydi.
- Agar bolangizni ikkinchi qator o'rindig'ida olib ketayotgan bo'lsangiz, orqa eshik qulflarining ichkaridan ochilmasligidan foydalaning. Aks holda bola avtomobil harakatlanayotganda orqa eshikni ochishi mumkin.
- Shuni yodda tutingki, halokat yoki boshqa baxtsiz hodisa yuz berganda, orqa eshik qulflarining ichkaridan ochilishidan bloklash yoqilganda, orqa eshiklarni mustaqil ravishda ocha olmaydilar. Buni faqat tashqaridan amalga oshirish mumkin.
- Issiq havoda quvvat o'chirilgan va oynalar yopiq bo'lganda yo'lovchilar va hayvonlarni avtomobilida qoldirmang. Avtomobil salonidagi harorat tezda ko'tarilib, salondagilarning og'ir jarohat olishiga va hatto o'limiga sabab bo'lishi mumkin.

3-3. Oynalar

Elektr oyna ko'targichlar

Oynalarni oyna ko'targichlar, ovozli buyruq va masofadan boshqarish pulti yordamida ochish va yopish mumkin.

Tugmalardan foydalanish



OMT18-2041

Avtomatik boshqaruv rejimi

- 1** Oynani avtomatik yopish uchun tugmani oxirigacha yuqoriga torting va qo'yib yuboring. Oyna harakatini to'xtatish uchun tugmani qayta bosing.
- 2** Oynani avtomatik yopish uchun tugmani oxirigacha pastga torting va qo'yib yuboring. Oyna harakatini to'xtatish uchun tugmani qayta bosing.

Qo'lda boshqarish rejimi

- 3** Tugmani yuqoriga tortib, oraliq holatga keltiring va ushlab turing. Oyna ko'tarila boshlaydi. Tugma qo'yib yuborilsa, oyna to'xtaydi.
- 4** Tugmani pastga tortib, oraliq holatga keltiring va ushlab turing. Oyna tusha boshlaydi. Tugma qo'yib yuborilsa, oyna to'xtaydi.

Oynako'targichlarni bloklash tugmasi

Agar avtomobil salonida bola bo'lsa, yo'lovchi eshiklarining oyna ko'targichlarini bloklash tavsiya etiladi. Shundan so'ng, ularni faqat haydovchi eshigidagi tugmalar bloki yordamida boshqarish mumkin.




OMT18-2042

Ushbu tugmani  bosib, yo'lovchi eshiklari oyna ko'targichlari qulfini yoqish/o'chirish amalga oshiriladi.



OMT18-2040

Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazing. Yo'lovchi eshiklari oyna ko'targichlari qulfini yoqish/o'chirish uchun tegishli ekranda ushbu tugmani  bosib: Audio System (Audio tizim) - Settings (Sozlamalar) - Quick Control (Tezkor nazorat).

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

TANISHIB CHIQUING

- Ovozli buyruqlarni aniqlash funksiyasi haqida batafsil ma'lumot uchun "Audio tizim" bo'limiga qarang.
- Oynalarni bir marta bosish orqali yopish funksiyasi faqat qisishdan himoya xususiyatiga ega modellarda mavjud.
- Agar dvigatelni ishga tushirish tugmasi OFF holatiga o'tkazilgandan so'ng 2 daqiqa ichida old eshiklar hech biri ochilmasa, elektr oyna ko'targichlardan foydalanishda davom etishingiz mumkin.
- Agar avtomobilni past haroratli sharoitda uzoq vaqt qoldirgan bo'lsangiz, oynalarni to'liq ochish yoki yopib bo'lmazligi mumkin. Bunda, tugmani qo'yib yuboring va uni qayta bosning yoki yuqoriga torting. Bunday sikllardan 3-5 tasi talab qilinishi mumkin.

XAVFLI

- Bolalarni avtomobilda yolg'iz qoldirmang. Avtomobil salonida bolalar bo'lsa, elektr oyna ko'targich tugmasi tasodifan bosilsa, ularning oyoq-qo'llari qisilib qolishi mumkin.
- Avtomobil harakatlanayotganda, shuningdek, oynani yopishdan oldin yo'lovchilar tanasining barcha qismlari (masalan, qo'llar) avtomobilda bo'lishiga e'tibor bering, aks holda bu jarohatlarga olib kelishi mumkin.
- Yo'lovchilar jarohat olmasligi uchun haydovchi yo'lovchilarning elektr oyna ko'targichlardan foydalanishini, shuningdek, bolalarning ulardan foydalanishini kuzatib borishi kerak. Avtomobilni tark etayotganda, dvigatelni ishga tushirish tugmasini OFF holatiga o'tkazing.
- Oynalarni yopishda ehtiyot bo'ling. Ushbu talabga rioya qilmaslik jiddiy jarohatlarga olib kelishi mumkin! Qisishdan himoya funksiyasiga ega bo'lgan modelda ushbu funksiyaning ish zonasida yo'lovchilarga jarohatlanishdan qochish imkonini beruvchi qisishdan himoya ishga tushadi. Shu bilan birga, ingichka yoki yumshoq narsa to'siq sifatida tan olinmasligi mumkin, bu esa og'ir jarohatga olib kelishi mumkin.

Elektr oyna ko'targichlarni masofadan boshqarish funksiyasi

Oynalarni masofadan ochish funksiyasi

Dvigatelni ishga tushirish tugmasini OFF holatiga o'tkazing, barcha eshiklarni yoping, masofadan boshqarish pultidagi ochish tugmasini bosning va ushlab turing. Barcha eshiklarning oynalari ochila boshlaydi. Oynalar ochilayotganda masofadan boshqarish pultidagi ochish tugmasi qo'yib yuborilsa yoki eshik ochilsa, oynalar tushishdan to'xtaydi.

Oynalarni masofadan yopish funksiyasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)

Agar dvigatelni ishga tushirish tugmasi OFF holatida bo'lsa va eshiklar yopiq bo'lsa, masofadan boshqarish pultidagi qulflash tugmasi bosilsa, o'g'irlashga qarshi tizim qo'riqlash rejimiga o'tadi va barcha to'rtta eshikning oynalari avtomatik ravishda yopiladi. Oynalarning avtomatik yopilishi paytida eshiklarning ochilishi yoki yopilishi oynalarning to'xtashiga olib keladi.

TANISHIB CHIQING

Если во время работы функции дистанционного закрывания окон одним нажатием произойдет сбой в работе электрических стеклоподъемников, фонари аварийной световой сигнализации мигнут 1 раз и 5 раз прозвучит звуковой сигнал, предупреждая водителя о том, что полностью закрыть окна не удалось.

XAVFLI

Oynalarni masofadan yopish funksiyasidan foydalanishda ehtiyot bo'ling. Avtomobil ko'rish maydonida ekanligiga ishonch hosil qiling va oynalar yo'lovchilarning qo'llari yoki boshqa tana qismlarini qisib qo'ymasligiga e'tibor bering.

Oyna qisib qolishidan himoya funksiyasi

Qisishdan himoya funksiyasi

Oynalarni avtomatik yopish yoki bir marta bosish orqali oynalarni masofadan yopish funksiyasi ishlayotganda, agar uning harakatiga biror to'siq xalaqit bersa va u yaratadigan qarshilik ma'lum bir qiymatdan oshsa, oyna ko'tarilishni to'xtatadi va biroz pasayadi. Oynani yopish uchun to'siqni olib tashlang va elektr oyna ko'targichni qayta yoqing.

Elektr oyna ko'targich mexanizmini shikastlanishdan himoya qilish uchun qisilishdan himoya funksiyasi va oynalarni bir marta bosish orqali yopish funksiyasi o'chirilishi mumkin. Shu bilan birga, oynani odatdagidek yopishingiz va ochishingiz mumkin. O'rgatish amali bajarilgandan so'ng, qisishdan himoya funksiyasi va oynalarni avtomatik yopish funksiyasining faoliyati tiklanadi.

Qisishdan himoya funksiyasini o'chirish

Oyna yopilganda ketma-ket ikki marta to'siqqa tiralsa, oyna ko'tarilishi to'xtaydi va qisishdan himoya funksiyasi o'chadi. Akkumulyator batareyasi uzilib, qayta ulangandan so'ng, qisishdan himoya funksiyasi o'chiriladi.

Qizishdan himoya funksiyasi

Oyna ko'targichning elektr dvigatelini oynalarning tez-tez ko'tarilishi va tushishi natijasida qizishdan himoya qilish uchun ushbu funksiya tegishli oyna ko'targich tugmasini o'chirishi mumkin. Oyna ko'targich elektrodvigatelining harorati me'yorga kelganda, tugma ishi tiklanadi. Ushbu funksiya boshqa elektr oyna ko'targichlar ishlashiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi.

O'rgatish jarayoni

Agar oynalarni bir marta bosish orqali yopish funksiyasi yoki qisishdan himoya funksiyasi kutilganidek ishlamasa, quyida tavsiflangan amallarni bajaring. Jarayonda hech qanday to'siqlar oynani yopishga xalaqit bermasligiga e'tibor bering.

1-qadam. Quyida tavsiflangan amallar dvigatelni ishga tushirish tugmasi ON holatida bo'lganda bajariladi.

2-qadam. Elektr oyna ko'targich tugmasini bosib va oynani qo'lda to'liq yopish uchun uni 2 soniya shu holatda ushlab turing, keyin tugmani qo'yib yuboring.

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

3-qadam. Elektr oyna ko'targich tugmasini bosib va oynani qo'lda to'liq ochish uchun uni 2 soniya shu holatda ushlab turing, keyin tugmani qo'yib yuboring.

4-qadam. Oynalarni avtomatik yopish funksiyasining ishlashini tekshirib ko'ring.

5-qadam. Agar oyna avtomatik rejimda yopilmasa, yuqorida ko'rsatilgan amalni qayta bajaring.

Agar elektr oyna ko'targichning sozlamalarini yuqorida keltirilgan tartibda tiklay olmasangiz, birinchi imkoniyatdayoq avtomobilni tekshirish va ta' mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Eslatma: elektr oyna ko'targich sozlamalarini bir marta bosish orqali oynalarni masofadan yopish funksiyasi yordamida ham tiklash mumkin. Bunda oyna to'liq ochiladi, keyin esa to'liq yopiladi. Oynaning normal yopilishi jarayonning muvaffaqiyatli bajarilganidan dalolat beradi.

TANISHIB CHIQUING

Chuqurliklar va yo'l qoplamasining boshqa notekisliklari bo'ylab harakatlanish elektr oyna ko'targichlarning ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, ko'tarilayotgan oyna to'satdan harakat yo'nalishini o'zgartirib, pastga tusha boshlaydi. Bu normal holat, ammo bunday holatning ehtimoli juda past.

DIQQAT

- Agar akkumulyator batareyasini uzib, qayta ulagan bo'lsangiz, oynani avtomatik yopish va qisishdan himoya funksiyasi ishlamaydi.
- Qisishdan himoya funksiyasi faqat haydovchi va yo'lovchilarni himoya qilish uchun mo'ljallangan. Begona jismlar yoki tana qismlaridan foydalanib, ushbu funksiyani ketma-ket bir necha marta ishga tushirishga urinmang. Ushbu talabga rioya qilmaslik elektr oyna ko'targich mexanizmining ishdan chiqishiga va jarohat olishingizga olib kelishi mumkin.
- Oynani yopayotganda, hatto elektr oyna ko'targich qisishdan himoya funksiyasiga ega bo'lsa ham, oyna bo'shlig'ida begona jismlar bo'lmasligiga e'tibor bering. Aks holda, agar begona jism kichik qalinlikka ega bo'lsa, qisishdan himoya funksiyasi ishlamasligi mumkin. Qo'l yoki barmoqlarning qisilib qolishi og'ir jarohatga sabab bo'lishi mumkin.

3-4. Lyuk

Lyuk (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)


Lyukni ochish va yopish lyuk elektr uzatmasining tugmasi va ovoqli buyruqlarni aniqlash funksiyasi yordamida amalga oshiriladi.

Tezkor nazorat







Tugmalardan foydalanish




Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazing. Lyuk elektr uzatmasini yoqish/o'chirish uchun tegishli ekranda ushbu tezkor nazorat tugmasini  bosib tizimni ishga tushiring: Audio System (Audio tizim) -Settings (Sozlamalar) Quick Control (Tezkor nazorat).

Quyosh soyabonini ochish va yopish


Quyoshdan himoyalovchi parda yopiqligida quyoshdan himoyalovchi pardani qisman ochiq holatga o'tkazish uchun ushbu tugmaning orqa tomonini  bosing. quyoshdan himoyalovchi pardani to'liq ochish uchun ushbu tugmaning orqa tomonini yana bir marta  bosing.


Quyoshdan himoyalovchi parda ochiqligida quyoshdan himoyalovchi pardani qisman yopiq holatga o'tkazish uchun ushbu tugmaning orqa tomonini bosing: . Quyoshdan himoyalovchi pardani to'liq yopish uchun ushbu tugmaning orqa tomonini yana bir marta  bosing.

Lyuk qopqog'ini ko'tarish va tushirish


Lyuk qopqog'i yopiq bo'lganda ushbu lyuk tugmasining orqa qismini bosing  ,

lyuk qopqog'i ko'tariladi.


Lyuk qopqog'i ko'tarilgan holatda bo'lganda ushbu tugmaning orqa qismini bosing  va lyuk qopqog'i yopiladi.


Ushbu tugma  old qismini bosing, lyuk qopqog'i quyosh soyaboni bilan birgalikda yopiladi.

Lyuk qopqog'ini ochish va yopish

Lyuk qopqog'i ko'tarilgan holatda bo'lganda ushbu tugmaning orqa qismini bosing  , lyuk qopqog'i qisman ochiq holatga o'tadi.

Tugmaning  orqa qismini qayta bosing, lyuk to'liq ochiq holatga o'tadi.

Lyuk qopqog'i ochiq holatda bo'lganda ushbu tugmaning orqa qismini bosing  va lyuk qopqog'i yopiladi.

Ushbu tugma  old qismini bosing, lyuk qopqog'i quyosh soyaboni bilan birgalikda yopiladi.

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

TANISHIB CHIQUING

- Ovozli buyruqlarni aniqlash funksiyasi haqida batafsil ma'lumot olish uchun "Audio tizim" bo'limiga qarang.
- Agar lyuk qopqog'i qisishdan himoya funksiyasi yolg'on ishga tushsa, avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
- Lyuk va quyosh pardasi elektr uzatmasining pereklyuchatellari ikki xil holatga ega. Birinchi holatda elektr uzatma qo'lda boshqariladigan rejimda, ikkinchi holatda esa avtomatik rejimda ishlaydi. O'zingizga kerakli rejimdan foydalaning.

DIQQAT

- Agar lyuk qopqog'i qisishdan himoya funksiyasi ishlamasa, bu lyuk qopqog'ining boshlang'ich holati buzilganligini bildiradi. Bunday holda, uni kalibrlash kerak.
- Agar lyuk qopqog'i muzlagan yoki qor bilan qoplangan bo'lsa, uni majburan ochish lyuk qopqog'i va uning uzatmasining shikastlanishiga olib kelishi mumkin.
- Avtomobilni yuvgandan so'ng va yomg'irdan keyin lyukni ochishdan oldin uning qopqog'idagi suvni to'liq olib tashlang. Aks holda suv salonga o'tishi mumkin.
- Lyukning yo'naltiruvchi va rezina zichlagichlaridagi chang va boshqa iflosliklarni muntazam ravishda tozalang. Avtomobilni yuvgandan so'ng va yomg'irdan keyin lyukni ochishdan oldin uning qopqog'idagi suvni to'liq olib tashlang.

XAVFLI

- Bolalarni avtomobilda yolg'iz qoldirmang. Ular tasodifan lyukning elektr uzatmasi tugmasini bosib, boshi yoki qo'llariga shikast yetkazishi mumkin.
- Avtomobil harakatlanayotganda, shuningdek, lyukni yopishdan oldin yo'lovchilar tanasining barcha qismlari (masalan, qo'llar) avtomobilda bo'lishiga e'tibor bering, aks holda bu jarohatlarga olib kelishi mumkin.

Lyukni masofadan boshqarish funksiyasi

Lyukni masofadan ochish

Agar dvigatelni ishga tushirish tugmasi OFF holatida bo'lganda va eshiklar yopiq bo'lganda masofadan boshqarish pultidagi ochish tugmasi bir necha soniya bosib turilsa, avval quyoshdan himoyalovchi parda ochiladi, shundan so'ng lyuk qopqog'i avtomatik ravishda ochiladi. Agar lyuk qopqog'ini ochish paytida masofadan boshqarish pultidagi qulflash tugmasi bosilsa, u holda lyuk qopqog'i to'xtaydi.

Lyukni masofadan yopish

Agar dvigatelni ishga tushirish tugmasi OFF holatida bo'lsa va barcha eshiklar yopiq bo'lsa, masofadan boshqarish pultidagi qulflash tugmasi bosilsa, o'g'irlashga qarshi tizim qo'riqlash rejimiga o'tadi. Dastlab lyuk qopqog'i yopiladi, keyin esa quyoshdan himoyalovchi parda yopiladi. Qulflash tugmasi qayta bosilganda, lyuk qopqog'i to'xtaydi.

XAVFLI

Lyukni masofadan yopish funksiyasidan foydalanishda ehtiyot bo'ling. Avtomobil ko'rish maydonida ekanligiga ishonch hosil qiling va lyuk qopqog'i yo'lovchilarning qo'llari yoki boshqa tana qismlarini qisib qo'ymasligiga e'tibor bering.

Lyuk qisishdan himoya funksiyasi

Qisishdan himoya funksiyasi

Agar lyuk yoki quyoshdan himoyalovchi pardaning bir marta bosish orqali yopish funksiyasi ishlayotgan vaqtda ularning harakatiga qandaydir to'siq xalaqit bersa va u hosil qilgan qarshilik ma'lum miqdordan oshsa, lyuk qopqog'i yoki quyoshdan himoyalovchi parda to'xtaydi, so'ngra teskari tomonga harakatlana boshlaydi.

O'rgatish jarayoni

Agar bir marta bosish funksiyasi lyuk qopqog'ini yoki quyoshdan himoyalovchi pardani to'g'ri ochish, yopish, ko'tarish yoki tushirish imkonini bermasa, bu o'quv jarayonini o'tkazish zarurligini ko'rsatadi.

1-qadam. Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazing. Lyuk qopqog'ini / quyoshdan himoyalovchi pardani to'liq oching va keyin to'liq yoping. Elektr uzatma ovoz chiqarmaguncha lyuk qopqog'i / quyoshdan himoyalovchi parda elektr uzatmasi tugmasini yopish holatiga bosing va ushlab turing (bunda lyuk qopqog'i va quyoshdan himoyalovchi parda biroz silkinadi). Tugmani qo'yib yuboring va bir marta bosish funksiyasining ishlashini qayta tekshiring.

Eslatma: Yuqorida tavsiflangan jarayonni faqat lyuk qopqog'i / quyoshdan himoyalovchi parda yopilgandan so'ng amalga oshirish kerak. Agar lyuk qopqog'i / quyoshdan himoyalovchi parda tugmani bosishga javob bermasa yoki yopilgandan so'ng teskari tomonga harakatlanishni boshlasa, 2- qadamga o'ting.

2-qadam. Lyuk/quyoshdan himoyalovchi parda qopqog'ini avtomatik ochish tugmasini bosib , qo'yib yuboring. Ular harakatlana boshlaganda, lyuk qopqog'ini yopish tugmasini uzoq vaqt bosib turing. Ularning harakatini boshidan to yopiq holatgacha vizual nazorat qiling. Elektr uzatma shiqillashni boshlamaguncha yopish tugmasini bosishda davom eting (bunda lyuk qopqog'i va quyoshdan himoyalovchi parda biroz silkinadi).

Eslatma: yopish tugmasini bosishdan oldin, avtomatik ochish tugmasini tushirish kerak.

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

DIQQAT

- Agar siz yuqorida keltirilgan jarayon yordamida elektr uzatmaning ishlashini tiklay olmasangiz, birinchi imkoniyatdayoq avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
- Lyuk qopqog'i elektr uzatmasining ishlamay qolishiga akkumulyator batareyasining uzilishi ham sabab bo'lishi mumkin. Bunda ham o'qitish jarayoni talab etiladi.
- Qisishdan himoya funksiyasi mavjud bo'lsa ham, lyuk qopqog'ini yopishdan oldin uning harakatiga hech narsa to'sqinlik qilmasligiga ishonch hosil qilish kerak. Agar to'siq qalinligi kichik bo'lsa, qisishdan himoya funksiyalari ishlamasligi mumkin. Qo'l yoki barmoqlarning qisilishi og'ir jarohatga sabab bo'lishi mumkin.
- Qisishdan himoya funksiyasi faqat haydovchi va yo'lovchilarni himoya qilish uchun mo'ljallangan. Begona buyumlar yoki tana qismlaridan foydalanib, ushbu funksiyani ketma-ket bir necha marta ishga tushirishga urinmang. Bu talabga rioya qilmaslik elektr uzatma mexanizmining ishdan chiqishiga va shikastlanishga olib kelishi mumkin.

3-5. Audio tizim

Audio tizim boshqaruv paneli



OMT18-2060

- 1** Bosh ekran
Bosh ekranga qaytish uchun bosing.
- 2** Ilovalar
Ilovalar ekraniga o'tish uchun bosing.
- 3** O'rindiqlarni boshqarish
O'rindiqlarni boshqarish ekraniga o'tish uchun bosing.
- 4** Interaktiv plitkali ekran
Ochish uchun ekranni suring. Ilovani ochish uchun ilova piktogrammasini bosing. Uzoq vaqt bosib turish orqali ekranda plitkalar holatini o'zgartirish mumkin.
- 5** Haydovchi tomonidagi haroratni sozlash tugmasi
Haydovchi tomondagi konditsioner haroratini sozlash uchun chap yoki o'ngga suring yoki bosing.
- 6** Konditsioner tizimi ekraniga o'tish uchun bosing.
- 7** Old yo'lovchi tomonidagi harorat sozlagichi
Sozlash uchun chap yoki o'ngga suring
- 8** O'rindiqlarni boshqarish
O'rindiqlarni boshqarish ekraniga o'tish uchun bosing.
- 9** Navigatsiya tizimi
Navigatsiya tizimi ekraniga o'tish uchun bosing.

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

- 10 Multimedia tizimi
Multimedia tizimi ekraniga o'tish uchun bosing.

Eslatma: Ushbu ikki ☆ va 📄 tugmani 10 soniya davomida bir vaqtda bosish orqali a udiotizimni qayta ishga tushirish amalga oshiriladi.

Ba'zi modellarda radiopriyomnik DAB va RDS funksiyalari mavjud

Boshqaruv markazi



Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazing. Boshqaruv markazi ekranini displeyga chiqarish uchun audio tizim ekranini pastga suring.

Boshqaruv markazi avtomobilning quyidagi tizimlari va funksiyalaridan foydalanishni ta'minlaydi: haydash rejimini tanlash, displeyni o'chirish, avtomobilni avtomatik ushlab turish tizimi, ESP tizimini o'chirish, HDC tizimi, ekranni tozalash, kirish nuqtasi, "qulay" yoritish, aylanma ko'rish monitori, old oyna tozalagichning sezgirligi, orqa oynalarning tashqi oynalarini yig'ish va boshqalar.

Sozlash


Tezkor nazorat




Central locking (Markaziy qulf):


Ushbu tugmani «» bosib eshiklarni yopig/oching.


Rear lock (Bagaj bo'limi eshigi):

Ushbu tugmani «» bosib bagaj bo'limi eshigini oching/ yoping.

Rearview Mirror Folding (Tashqi orqa ko'rish oynalarini yig'ish):

tugmani bosib «» va tashqi orqa ko'rish oynalarini yig'ing/ ish holatiga o'tkazing.

Vehicle window lock (Oyna ko'targichlarni qulflash): ushbu tugmani bosib «» va yo'lovchi eshigi oyna ko'targichini bloklashni yoqish/o'chirish amalga oshiriladi. Bloklash yoqilgandan so'ng, yo'lovchi eshiklari elektr oyna ko'targichlarini faqat haydovchi eshigidagi tugmalar yordamida boshqarish mumkin (agar avtomobilda bolalar bo'lsa, tavsiya etiladi).

Sunroof (Lyuk): tugmani bosib «» va lyukni oching/yoping.

Smart Key (Masofadan boshqarish pulti): Ushbu menyu bandi Approach unlocking and away locking (Avtomobilga yaqinlashganda eshiklarni ochish va avtomobildan uzoqlashganda eshiklarni qulflash) funksiyasini sozlash imkonini beradi.

Rear view mirror (Orqa ko'rish oynalari): tashqi orqa ko'rish oynalarini yig'ish funksiyasini sozlash, orqaga yurishda ularni oynalarni sozlash va avtomatik tushirishni o'rnatish.

More (Boshqalar): rul g'ildiragidagi tugmalar funksiyasini sozlash va avtomobilga chiqish va undan tushishni yangillashtirish tizimini boshqarish.

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

Yoritish va yorug'lik signalizatsiyasi asboblari




Tashqi yoritish va yorug'lik signalizatsiyasi asboblari yoqish va o'chirish.

Light setting (yoritish asboblari sozlash): avtomobilga yaqinlashganda chiroqlarni yoqish, faralarni o'chirishning kechikishi, faralar yorug'ligini avtomatik boshqarish tizimi va musiqa ritmi bilan sinxronlashtirish funksiyalarini sozlash.

Smart Welcome Light (Salomlash chirog'i): quyidagi variantlar mavjud: "uchar ajdar," "sakrayotgan yo'lbars," "o'kirayotgan yo'lbars" va "kuylayotgan ajdar."

Headlight leveling adjusting (Fara korrektori) faralar nurining qiyalik burchagini sozlash (quyidagi darajalar mavjud: 0 / 1 / 2 / 3).

Haydash



Drive mode (haydash rejimi): haydash rejimini tanlash (Eco / Normal / Sport / Snow / Mud / Sand / Off-Road) va tanlangan rejimni xotirada saqlash. Quvvat rejimi: HEV, EV va EV+ rejimlari mavjud.

Haydovchiga yordam tizimlari




OMT18-2065

Driver assistance (Haydovchiga yordam tizimi): ICCS va to'qnashuvni oldini olish intellektual tizimini o'chirish bildirishnomasini sozlash.

Active Safety (Faol xavfsizlik tizimlari): frontal to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimini sozlash, avtomatik favqulodda tormozlash tizimi, orqaga harakatlanib yo'lga chiqishda xavf haqida ogohlantirish tizimi, orqa tomondan to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi, harakatlanish yo'lga o'zgarishining oldini olish tizimi, favqulodda vaziyatda avtomobilni harakatlanish yo'lga markazida ushlab turish tizimi, intellektual kruiz nazorati tizimi, "o'lik" hududlarni nazorat qilish tizimi, eshik ochilganda xavf haqida ogohlantirish tizimi va yo'l belgilarini aniqlash tizimi.

Proyeksiyon displey



OMT18-2066

Proyeksiyon displeyni yoqish/o'chirish: proyeksiyon displey tasvirining yorqinligini sozlash, tasvirni balandlik bo'yicha sozlash, tasvirni burish, qor yog'ishi rejimi, chiqarilgan axborotni sozlash va birlamchi sozlamalarni tiklash.

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

Avtomobil tizimi sozlamalari



Back door opening height (Bagaj bo'limi eshigining ochilish balandligi): bagaj bo'limi eshigining ochilish balandligini sozlash imkonini beradi.


Wiper sensitivity (Old oynasi tozalagich sezgirligi): quyidagi sezgirlik darajalaridan birini tanlash imkonini beradi: Low (Past), Standard (Standart), High (Yuqori), Maximum (Eng yuqori).

Door lock (Eshik qulflari): o'g'irlashga qarshi tizimni qo'riqlash rejimiga o'tkazish, eshiklarni avtomatik qulflash va haydovchi eshigini mustaqil ochish to'g'risidagi bildirishnomani sozlash.

Maintenance (Texnik xizmat ko'rsatish): texnik xizmat ko'rsatish zarurligi haqidagi eslatmani sozlash va texnik xizmat ko'rsatish oraliq'ini tiklash.

Chassis (yurish qismi): rul boshqaruvi elektr kuchaytirgichining ish rejimini tanlash.

Display




Fon rasmi va ekran xotirasini sozlash

Display mode (Display rejimi): display rejimini sozlash (Day / Night / Auto).

Brightness (yorqinlik): markaziy display va asboblardan panelidagi display yorqinligini sozlash.

More (Boshqalar): video ijrosi cheklovi, ekranni tozalash va birlamchi sozlamalarni tiklash.

Ulanish



OMT18-2070

Bluetooth, Wi-Fi va simsiz quvvatlagichni sozlash.

Tovush




OMT18-2071

Volume (Tovush balandligi): navigatsiya tizimi, ovozli buyruqlarni aniqlash tizimi, multimedia tizimi, telefon va boshqalarning tovush balandligini sozlash.

More (Boshqalar): harakat tezligi, ogohlantirish signali turi, tugmani bosish signali va kiruvchi xabarlarga qarab tovush balandligini avtomatik sozlash funksiyasini sozlash, birlamchi sozlamalarni tiklash.

Ovozli boshqaruv



OMT18-2072

Voice (ovozli boshqaruv): tovush kelgan yo'nalishni aniqlash va so'zlovchini aniqlash uchun ovozli buyruqlarni aniqlash funksiyasini yoqish va o'chirish.

Privacy permission settings (Shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish ruxsati): shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish ruxsatini ko'rish.

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

Tizim



About (Tizim haqida ma'lumot): Version information (Dasturiy ta'minot versiyasi), Device name (Qurilma nomi), Storage (Bo'sh joy hajmi) va Reset (Standart sozlamalarni tiklash).

Privacy (Maxfiylik): Permission management (Shaxsiy ma'lumotlardan foydalanishga ruxsat) va Privacy policy (Maxfiylik siyosati).

Umumiy: imo-ishoralarni aniqlash, til tanlash, vaqtni sozlash va haydovchi holatini kuzatish tizimi, ogohlantirishlarni sozlash,


Quvvat iste'moli birligini tanlash: Vt/km yoki kVt/km/100 km.


Shinalarda havo bosimi birligini tanlash: kPa, psi va bar.


TANISHIB CHIQQING


Sozlash punktlari dasturiy ta'minot versiyasiga qarab farq qilishi mumkin. Bu avtomobilning tuzilishiga bog'liq.


Audio tizim boshqaruv tugmalari





Tugma «  »: qisqa bosish asboblari paneli haydash ma'lumotlari ekranidan chiqish.


Tugma «  »: короткое нажатие qisqa bosish ovozi buyruqlarni aniqlash funksiyasini yoqadi; uzoq bosish ovozi yordamchi funksiyasini yoqadi (bu uchun tizimni telefon bilan ulash talab etiladi).

Tugma «  »: audiotizim/radiopriyomnik rejimida qisqa bosish ijroni to'xtadi.

Tugma « + »: Qisqa bosish — tovush balandligining oshirish.

Tugma « - »: Qisqa bosish — tovush balandligining kamaytirish.

Tugma «  »: audiotizim rejimida qisqa bosish - avvalgi kompozitsiyaga o'tish. Radiopriyomnik rejimida qisqa bosish - avvalgi radiostansiyaga o'tish; kiruvchi qo'ng'iroqni tugatish.

Tugma  »: audiotizim rejimida qisqa bosish - keyingi kompozitsiyaga o'tish. Radiopriyomnik rejimida qisqa bosish - keyingi radiostansiyaga o'tish; kiruvchi qo'ng'iroqni qabul qilish.




Tugmachaning yuqori qismini bosish tovush balandligini oshiradi, pastki qismini bosish esa tovush balandligini pasaytiradi.

Ovozli buyruqlarni aniqlash funksiyasi

Ovozli buyruqlarni aniqlash funksiyasi navigatsiya tizimi, telefon, oyna ko'targichlar, lyuk, konditsioner tizimi, o'rindiqlarni isitish, o'rindiqlarni shamollatish va boshqalarni boshqarish imkonini beradi, bu esa sizning qulayligingizni oshiradi.

Audiotizimning bosh qurilmasi yoqilgandan so'ng, ovozli buyruqlarni aniqlash funksiyasini quyidagi usullar bilan faollashtirish mumkin.


1-usul. Ovozli buyruqlarni aniqlash funksiyasini yoqish uchun "Hi, Xiaoqi" deb ayting.

2-usul. Ovozli buyruqlarni aniqlashda  ushbu tugmani qisqa bosing.

Telefon aloqasi


Apple Carplay (iOS)

■ Ulash usuli



1-qadam. "Salom, Siri" deb ayting va telefon sozlamalari ekranida Siri funksiyasini yoqish uchun Home tugmasini bosing (Siri&search).

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI




2-qadam. Telefon sozlamalari (umumiy) ekranida Apple CarPlay funksiyasini yoqing.



3-qadam. Ma'lumotlarni uzatish uchun mobil telefoningizni asl kabel bilan USB ulagichga ulang.

Eslatma: telefonning Apple CarPlay ilovasi bilan ishlashini faqat ushbu USB konnektorida mavjud:



4-qadam. So'rov ekranida Apple CarPlay ilovasining ishlashiga ruxsat bering
5-qadam. Apple CarPlay ilovasini oching

■ Apple CarPlay ilovasiga simsiz ulanish (avtomobilning ayrim variantlari uchun)

1-qadam. Apple telefonida hotspotni yoqing. Audio tizim bosh qurilmasining Wi-Fi interfeysi telefondagi hotspotga ulanadi.

2-qadam. Apple telefoningizni Bluetooth orqali audio tizim bosh qurilmasiga ulang.

3-qadam. Audio tizim bosh qurilmasida yoki telefonda qalqib chiquvchi oyna paydo bo'lganda Apple CarPlay funksiyasini tanlang.

4-qadam. Telefoningizdagi qalqib chiquvchi oynadagi ko'rsatmalarga muvofiq ulaning. Ulanish muvaffaqiyatli amalga oshirilgandan so'ng, audio tizimning bosh qurilmasida Apple CarPlay interfeysi ko'rsatiladi.

5-qadam. Apple CarPlay ilovasini oching

Android uchun

■ Ulanish usuli


3. AVTOMOBIL JIHOZLARI




1-qadam. Google Framework dasturini o'rnatish
2-qadam. Google Play yordamida o'rnatish va Android Auto ilovasini ishga tushirish, tizim tavsiyasiga muvofiq barcha yordamchi dasturlarni o'rnatish va o'rnatilgan dasturni yangilash. Yangilash yakunlangach, Android Auto funksiyasidan foydalanishingiz mumkin.



3-qadam. Ma'lumotlarni uzatish uchun mobil telefoningizni asl kabel bilan USB ulagichga ulang.

Eslatma: telefonning Android Auto ilovasi bilan ishlashini faqat ushbu USB konnektorida mavjud:  Telefonni USB ulagichga ulashdan oldin telefonda ishlab chiquvchi rejimini yoqing.



4-qadam. Agar telefon avtomobilga birinchi marta ulanayotgan bo'lsa (bunday holatda audiotizimning bosh qurilmasida ogohlantirish paydo bo'ladi; avtomobilni to'xtatib va to'xtash tormozini yoqib, mobil telefondagi ogohlantirishga muvofiq harakat qiling), birinchi ulanish uchun sozlashni amalga oshirish zarur.

5-qadam. Android Auto ilovasidan foydalanishni boshlash uchun audio tizim bosh ekranida "Android Auto" bandini tanlang.

■ Android Auto ilovasiga simsiz ulanish (avtomobilning ayrim variantlari uchun)

1-qadam. Telefoningizda Android Auto simsiz ilovasini ishga tushirish.

2-qadam. Bosh qurilmada Wi-Fi hotspotni yoqing.


3-qadam. Bosh qurilma va mobil telefonni Bluetooth orqali juftlang.

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

4-qadam. Bluetooth orqali muvaffaqiyatli ulangandan so'ng, bosh qurilmada Android Auto simsiz ilovasini ishga tushirish zarurligi haqida eslatma paydo bo'ladi. Android Auto ilovasiga avtomatik simsiz ulanish uchun START tugmasini bosing.

3-6. Konditsioner tizimi

Old o'rinliqlar konditsioner tizimi



- 1** Haydovchi tomonidagi harorat sozlagichi
- 2** Intellektual rejim tugmasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)
- 3** Old oynani isitish tugmasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)
- 4** Rul g'ildiragini isitish tugmasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)
- 5** Ventilyator tezligi sozlagichi
- 6** Sozlash tugmasi
- 7** Old yo'lovchi tomonidagi harorat sozlagichi
- 8** Ikki zonali rejim tugmasi
- 9** Konditsioner tizimini o'chirish tugmasi
- 10** AUTO tugmasi
- 11** Konditsioner tizimini yoqish tugmasi
- 12** Markaziy va yon shamollatish panjaralari orqali havo uzatish rejimi tugmasi

13 Pastki shamollatish panjaralari orqali havo uzatish rejimi tugmasi

14 Old oynaga puflash rejimi tugmasi

15 Old oynani maksimal shamollatish va isitish rejimi tugmasi

16 Orqa oynani isitish tugmasi

17 Tashqi havo uzatish/resirkulyatsiya rejimi tugmasi

18 Havoni tozalash funksiyasi tugmasi (avtomobilning ayrim variantlari uchun)



OMT18-2091


«A/C»: konditsionernioqish tugmasi.

«»: old oynani maksimal shamollatish va isitish rejimi tugmasi.

«AUTO»: AUTO rejimi tugmasi.

«»: orqa oynani isitish tugmasi.


Ikkinchi qator o'rindiqlari konditsioner tizimi (avtomobilning ayrim variantlari uchun)



OMT18-2082

1 Bolalar foydalanishidan bloklash

2 Ventilyator aylanish tezligining sensorli sozlagichi



OMT18-2093

1 Ikkinchi qator chap o'rindiqni isitish tugmasi

2 Ventilyator aylanish tezligini kamaytirish tugmasi

3 Ventilyatorning aylanish tezligini oshirish tugmasi

4 Ikkinchi qatordagi o'ng o'rindiqni isitish tugmasi

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

Uchinchi qator o'rindiqlari konditsioner tizimi (avtomobilning ayrim variantlari uchun)



Ventilyator tezligi sozlagichi: Ventilyator tezligini o'zgartirish uchun ekranni barmoq bilan suring.

Uchinchi qator o'rindiqlari konditsioner tizimini yoqish yoki o'chirish yoki ventilyator tezligini o'zgartirish uchun tutqichni (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) burang.

Konditsioner tizimini sozlash



Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazing. HVAC tizimi ekranida quyidagi funksiyalarni sozlash mumkin: kondensatni avtomatik tozalash (Off / Low / Medium / High), konditsioner ish rejimini sozlash (Eco / Mid / Strong), ventilyatorni o'chirishni kechiktirish, ventilyatorni masofadan yoqish, salondagi termostatik rejim (On, NO A/C, Off), havoni avtomatik tozalash.

Avtomatik defogging function (Kondensatni avtomatik tozalash funksiyasi): kondensat hosil bo'lish xavfi tug'ilganda, avtomobilni boshqarish xavfsizligini oshirish uchun konditsioner tizimi old oynani tozalaydi.

Automatic cabin ventilation (Ventilyatorni masofadan yoqish): haydovchi eshikni ochib, avtomobilga o'tirishidan oldin, ventilyator avtomatik ravishda yoqiladi.

Konditsioner tizimidan foydalanish

Haroratni sozlash

Harorat sozlagichi yordamida kerakli haroratni o'rnatang.

Ventilyator tezligi

Ventilyator tezligini sozlagich yordamida ventilyatorning kerakli tezligini belgilang.

Konditsioner tizimini o'chirish tugmasi

Ushbu tugma konditsioner tizimini yoqish va o'chirish uchun mo'ljallangan.

Konditsioner tizimini yoqish tugmasi

Ushbu tugma konditsioner tizimini yoqish uchun mo'ljallangan (bosilganda konditsioner kompressori ishga tushadi).

Ikki zonali rejim tugmasi

Ushbu tugma bir zonali va ikki zonali rejimlarni almashtirish imkonini beradi (ikki zonali rejim haydovchi va old yo'lovchi tomonidagi konditsioner tizimi haroratini alohida sozlash imkonini beradi).



TANISHIB CHIQING

Audio tizim bosh qurilmasi o'chirilganidan keyin foydalanuvchi sozlamalari saqlanadi va keyingi safar yoqilganda birlamchi holatda qo'llaniladi.

Havo taqsimlash rejimlari tugmasi

Quyidagi rejimlar va ularning kombinatsiyalari mavjud (jami 7 ta): old oynaga puflash rejimi; markaziy va yon shamollatish panjaralari orqali havo uzatish rejimi; salonni pastki qismiga havo uzatish rejimi; markaziy va yon shamollatish panjaralari orqali havo uzatish va salonni pastki qismiga havo uzatish rejimi; old oynaga puflash va salonni pastki qismiga havo uzatish rejimi; old oynaga puflash va markaziy va yon shamollatish panjaralari orqali havo uzatish rejimi; old oynaga puflash, markaziy va yon shamollatish panjaralari orqali havo uzatish va salonni pastki qismiga havo uzatish rejimi.

Old oynani puflash rejimi: old oynaga havo puflash soplolari orqali havo uzatiladi. Salonning pastki qismiga havo uzatish rejimi: havo pastki shamollatish teshiklari orqali uzatiladi.

Markaziy va yon shamollatish panjaralari orqali havo uzatish rejimi: havo markaziy va yon shamollatish panjaralari orqali uzatiladi.

Old oynaga puflash va salonning pastki qismiga havo uzatish rejimi: havo old oyna puflash soplolari va pastki shamollatish teshiklari orqali uzatiladi.

Markaziy va yon shamollatish panjaralari orqali havo uzatish va salonni pastki qismiga havo uzatish rejimi: havo markaziy va yon shamollatish panjaralari va pastki shamollatish teshiklari orqali uzatiladi.

Old oynaga puflash va markaziy va yon shamollatish panjaralari orqali havo uzatish rejimi: havo old oyna puflash soplolari hamda markaziy va yon shamollatish panjaralari orqali uzatiladi.

Old oynaga puflash, markaziy va yon shamollatish panjaralari orqali havo uzatish va salonning pastki qismiga havo uzatish rejimi: havo old oyna puflash soplolari, markaziy va yon shamollatish panjaralari va pastki shamollatish teshiklari orqali uzatiladi.

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

TANISHIB CHIQING

Harakat paytida old oyna terlaganda, old oynaga havo puflash rejimini yoqish tavsiya etiladi. Old oynani maksimal shamollatish va isitish rejimi tugmasini bosib

Tashqi havo uzatish/resirkulyatsiya rejimi tugmasi

Ushbu tugma tashqi havo uzatish /retsirkulyatsiya rejimlarini almashtirish uchun mo'ljallangan.

Quyidagi holatlarda retsirkulyatsiya rejimini yoqing.

1. Chang yo'llarda harakatlanayotganda.
2. Salondagi havoni tez sovutish uchun.
3. Salonga yoqimsiz hidlarning kirishini oldini olish uchun.
4. Chiqindi gazlarni salonga tushishini oldini olish uchun.

AUTO tugmasi

AUTO tugmasi avtomatik rejimni yoqish uchun xizmat qiladi.

■ Quyidagi shartlar bajarilganda tizim avtomatik rejimda ishlaydi.

1. Tizim avtomatik rejimda ishlayotganda AUTO tugmasini bosish ushbu rejimning o'chishiga olib kelmaydi.
2. Avtomatik rejim yoqilganda tashqi havo / retsirkulyatsiya tugmasini bosish tashqi havo / retsirkulyatsiya funksiyasini avtomatik boshqarishning o'chirilishiga olib keladi. Bunda qolgan funksiyalar avtomatik rejimda ishlashda davom etadi.
3. Avtomatik rejim yoqilganda, konditsioner tizimini yoqish tugmasi, havo taqsimlash rejimlari tugmasi yoki ventilyatorning tezlik sozlagichi bosilganda, tegishli funksiyani avtomatik boshqarish o'chiriladi. Bunda qolgan funksiyalar avtomatik rejimda ishlashda davom etadi.

Havoni tozalash tugmasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)

Havoni tozalash tizimini yoqish va o'chirish old boshqaruv panelidagi tegishli tugma yordamida amalga oshiriladi. Bunda audiotizim bosh qurilmasi displeyida PM2.5 belgisi paydo bo'ladi.

■ Quyidagi shartlar bajarilganda havoni tozalash tizimi avtomatik ravishda o'chadi:

1. Tashqi havo uzatish/retsirkulyatsiya rejimlarini almashtirish.
2. Ventilyatorni o'chirish.
3. Minimal yoki maksimal haroratni o'rnatish.
4. Old oynani maksimal shamollatish va isitish rejimini yoqish.

 TANISHIB CHIQING

- Yilning sovuq mavsumida atrof-muhit harorati past bo'lganligi sababli, havoni tozalash tizimining samaradorligi unchalik sezilmasligi mumkin.
- Havo tozalash tizimi tugmasi bosilganda tashqi havo uzatish/retsirkulyatsiya rejimi, ventilyator tezligi va havo taqsimlash rejimi o'zgarishi mumkin..
- Oynalarni terlashdan saqlash maqsadida havoni tozalashning eng yuqori samaradorligiga erishish uchun konditsioner tizimining ishlash algoritmi yil fasllariga qarab o'zgartirilishi mumkin.
- Quyidagi holatlarda havoni tozalash funksiyasi ishlamaydi va tegishli tugmani bosish hech qanday natija bermaydi:
 - Agar havo harorati ushbu funksiyadan foydalanish imkonini bermasa.
 - Old oynani maksimal shamollatish va isitish rejimi yoqilganda.
 - Oyna tozalagich yoqilgandan keyin bir necha soniya ichida (past yoki yuqori tezlikda).

Old oynani maksimal shamollatish va isitish rejimi tugmasi

Dvigatel ishlab turganda, old oynani maksimal shamollatish va isitish rejimi tugmasini bosing (bu rejimda havoning katta qismi shamol oynasiga va kamroq qismi old eshik oynalariga uzatiladi). Ushbu tugmani qayta bosish old oynani maksimal shamollatish va isitish rejimini o'chiradi.

Agar ventilyator o'chirilmagan bo'lsa, old oynani maksimal shamollatish va isitish rejimi tugmasi bosilganda avtomatik ravishda tashqi havo uzatish rejimi va konditsioner kompressori yoqiladi.

 TANISHIB CHIQING

- Konditsioner havoni sovutmasa, oynalardan kondensatni tozalash qiyinlashadi. Birinchi imkoniyatdayoq avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerlarning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
- Yuqori namlik sharoitida (yomg'ir yoki qor yog'ayotganda) oynalardan kondensatni tozalash uchun konditsionerni yoqing. Konditsioner o'chirilgan bo'lsa, kondensatni oynadan tozalash qiyinlashadi.
- Yuqori namlik sharoitida (yomg'ir yoki qor yog'ayotganda) oynalardan kondensatni tozalash uchun tashqi havo rejimini yoqing. Agar retsirkulyatsiya rejimi tanlangan bo'lsa, bu kondensatni oynalardan tozalashni qiyinlashtiradi.
- Oynalardan qirov yoki kondensatni tozalagandan so'ng, salonda qulay mikroiklim yaratish uchun havo taqsimlash rejimi va ventilyator tezligini sozlang.
- Qish mavsumida oynalardan qirov yoki kondensatni tozalash uchun tashqi havo rejimi va isitgichni yoqing. Havo faqat old oyna va old eshik oynalariga uzatilishi kerak. Agar tashqi havo harorati 0 °C dan oshsa, old oynani maksimal shamollatish va isitish rejimini yoqing.

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

DIQQAT

- Xavfsizlik nuqtai nazaridan, old oynaga puflash rejimidan to'g'ri foydalaning.
- Qish paytida retsirkulyatsiya rejimidan uzoq vaqt foydalanmang, chunki bu rejimda old oyna tezroq terlaydi.
- Oynalarning terlashi natijasida yuzaga keladigan noqulaylik yo'l-transport hodisalari va jarohatlar xavfini oshiradi. Shuning uchun transport vositasini boshqarish paytida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash uchun siz yaxshi ko'rishga ega bo'lishingiz kerak.

Orqa oynani isitish tugmasi

Avtomobilni ishga tushirgandan so'ng, orqa oynani isitish tugmasini bosing. Orqa oyna va tashqi orqa ko'rish oynalarini isitish yoqiladi. Isitishni o'chirish uchun ushbu tugmani qayta bosing. Taxminan 20 daqiqadan so'ng orqa oyna va tashqi orqa ko'rish oynalarni isitish avtomatik ravishda o'chadi.

DIQQAT

- Tashqi orqa ko'rish oynalarini isitish standart komplektatsiyaga kirmaydi. Bu avtomobilning tuzilishiga bog'liq.
- Orqa oyna va tashqi orqa ko'rish oynalarini tozalashda isitgich iplarini tirnab yoki shikastlab qo'ymaslik uchun ehtiyot bo'ling.
- Orqa oyna va tashqi orqa ko'rish oynalarini tozalashdan oldin isitgich o'chirilganligiga ishonch hosil qiling.
- Akkumulyator batareyasi quvvat darajasi past bo'lganda, avtomobilni ishga tushirishdan oldin orqa oyna va tashqi orqa ko'rish oynalarini isitish ishga tushmaydi. Bu avtomobilni ishga tushirishni osonlashtirish uchun qilingan.

XAVFLI

Kuyib qolmaslik uchun isitgich ishlayotganda yoki o'chirilgan zahoti orqa oyna va tashqi orqa ko'rish oynalariga tegmang.

Old oynani isitish tugmasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)

Old oynani isitishni yoqish/o'chirish uchun tegishli tugmani bosing. Old oyna elektr isitgichini uzoq vaqt yoqib qo'yamang.

Isitgichdan foydalanish

Dvigatel ishlab turganda ventilyatorning kerakli tezligini va havoning kerakli haroratini belgilang. Pastki shamollatish teshiklari orqali havo uzatish rejimini tanlang va konditsioner tizimini o'chiring (kompresor o'chiq, konditsioner tizimi indikatorini yonmayapti) yoki havo haroratini 22 °C yoki undan yuqori qilib belgilang va AUTO tugmasini bosing. Konditsioner tizimi avtomatik ravishda qulay haroratni saqlab turadi.

Sovuqlik unumdorligi va energiya sarfi o'rtasidagi optimal muvozanat uchun AUTO rejimini yoqing va 22 °C haroratni sozlang. Havoni kuchliroq sovitish talab qilinsa, AUTO rejimini

yoqing va haroratni 22 °C dan past qilib belgilang.

Havoni sovutish

Dvigatel ishlayotganda, audiotizim boshqaruv panelidagi AUTO tugmasini bosib. Shundan so'ng, konditsioner tizimi avtomatik ravishda havo taqsimlash rejimini, ventilyator tezligini, tashqi havo uzatish va retsirkulyatsiya rejimlarini sozlaydi, shuningdek, konditsioner kompressorini yoqadi va o'chiradi. Havo harorati 22 °C atrofida saqlanib turadi.

Sovuqlik unumdorligi va energiya sarfi o'rtasidagi optimal muvozanat uchun AUTO rejimini yoqing va 22 °C haroratni sozlang. Agar havoni kuchliroq sovutish talab qilinsa, AUTO rejimini yoqing va haroratni 22 °C dan past qilib belgilang.

■ Eng samarali havo sovutish uchun konditsioner filtrining holatini kuzatib boring va uni o'z vaqtida almashtiring. Quyidagi sozlamalarni o'rnatib:

1-qadam. Ventilyatorning aylanish tezligi: maksimal.

2-qadam. Harorat: maksimal sovutish.

3-qadam. Tashqi havo uzatish rejimi yoki retsirkulyatsiya rejimi.

4-qadam. Havoni taqsimlash rejimi: markaziy va yon shamollatish panjaralari orqali.

5-qadam. Konditsioner tizimini yoqing (konditsioner tizimi indikator yonib, kompressor ishlayapti).

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

TANISHIB CHIQING

- Tizim samaradorligining pasayishiga konditsioner kondensorining ifloslanishi sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun konditsioner kondensatorini toza tuting.
- Issiq va nam havo tez sovutilganda ventilyatsion panjaralardan tuman chiqishi mumkin. Bu normal fizik hodisa.
- Agar tashqi havoning harorati past bo'lsa (masalan, qishda), u holda konditsioner tizimini yoqish tugmasi bosilganda, tegishli indikator yonib tursa-da, konditsioner kompressori o'chirilgan holda qolishi mumkin.
- Konditsioner tizimi ishlayotganda avtomobil tagida yig'iladigan suv nosozlik belgisi emas - bu tizimning drenaj quvuridan oqib chiqadigan kondensatdir.
- Salondagi havo harorati ma'lum darajagacha pasaygandan so'ng, kompressor yuklamani kamaytirish va yonilg'i sarfini kamaytirish uchun avtomatik o'chadi.
- Konditsioner tizimidagi xladagent vaqt o'tishi bilan kamayadi. Shuning uchun, agar tizimning ishlash samaradorligi pasayganini his qilsangiz, tizimni tekshirish va unga xladagent quyish uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
- Konditsioner tizimini oynalarni ochgan holda har oy kamida 5 daqiqaga yoqish tavsiya etiladi. Bu kompressorda moy yetarli emasligi sababli konditsioner tizimi shikastlanishining oldini olishga, shuningdek, namlik va bakteriyalar tufayli bug'latgichdan yoqimsiz hid paydo bo'lishining oldini olishga yordam beradi.
- Keskin tezlikni oshirish, quvib o'tish yoki uzoq davom etadigan ko'tarilishlarda avtomobilning kuch agregatiga tushadigan yuklama ortadi. Bu vaqtda konditsioner kompressori avtomatik ravishda o'chishi mumkin. Agar bunday bo'lmasa, lekin avtomobilning quvvati yetarli emasligini his qilsangiz, konditsionerni mustaqil ravishda o'chirishingiz kerak.
- Agar konditsioner ishlab turganda avtomobil uzoq vaqt davomida uzluksiz balandliklarda harakatlansa yoki transport tirbandligida sekin harakatlansa, dvigatel qizib ketishi mumkin. Dvigatel sovutish suyuqligi qizish signalizatorini kuzating. Dvigatel qiziganda avtomobilni xavfsiz joyga to'xtatish, konditsionerni o'chirish va dvigatelni bir necha daqiqa davomida neytral ishga tushirish tavsiya etiladi. So'ngra dvigatel sovutish suyuqligining qizish signalizatori o'chganligini tekshiring. Agar bunday bo'lmasa, avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun zudlik bilan rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

XAVFLI

- Konditsioner tizimining xizmat muddatini uzaytirish uchun ventilyatorning past tezligida konditsionerning uzoq vaqt ishlashiga yo'l qo'ymang.
- Konditsioner tizimini mustaqil ta'mirlash taqiqlanadi, chunki tizimdagi xladagent yuqori bosim ostida bo'ladi va inson uchun xavf tug'diradi. Tizimni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
- Konditsionerni to'ldirish rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish shoxobchasida asl xladagent va kompressor moyidan foydalangan holda amalga oshirilishi kerak. Ushbu talabni bajarmaslik oqibatida konditsionerning buzilishi kafolat bilan qoplanmaydi.
- Issiq havoda to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlari salondagi havoni tez isitishi mumkin. Bu salonda bo'lganlarning, birinchi navbatda, bolalarning jarohatlanishi yoki halok bo'lishi xavfini tug'diradi.

Intellektual rejim (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)

Tezkor isitish funksiyasi

Agar barcha eshiklar yopiq bo'lsa, ushbu funksiya o'rindiqlarni isitish (avtomobilning ba'zi variantlari uchun), tashqi havo rejimi, ventilyatorning maksimal tezligi, maksimal harorat va salonning pastki qismiga havo uzatishni o'z ichiga oladi. Ushbu funksiya salondagi havo harorati qulay darajaga yetganidan keyin avtomatik ravishda o'chadi. Uni tegishli tugmani bosish orqali qo'lda o'chirish ham mumkin.

Tez sovutish funksiyasi

Agar barcha eshiklar yopiq bo'lsa, bu funksiya o'rindiqlarni shamollatishni (avtomobilning ba'zi variantlari uchun), retsirkulyatsiya rejimini, ventilyatorning maksimal tezligini, minimal haroratni va markaziy va yonbosh shamollatish panjaralari orqali havo uzatishni o'z ichiga oladi. Ushbu funksiya salondagi havo harorati qulay darajaga yetganidan keyin avtomatik ravishda o'chadi. Uni tegishli tugmani bosish orqali qo'lda o'chirish ham mumkin.

Intellektual dezodoratsiya

Ushbu funksiya tashqi havo uzatish rejimini va ventilyatorning maksimal tezligini o'z ichiga oladi.

Salondagi doimiy haroratni saqlab turish funksiyasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)

Ushbu funksiya salondagi haroratni doimiy ushlab turish imkonini beradi (haydovchi avtomobilni tark etgandan keyin 12 soatgacha bo'lgan vaqt davomida 45 °C gacha). Atrof-muhit harorati juda yuqori bo'lsa, ushbu funksiya ishlashi uchun konditsionerni yoqish talab qilinishi mumkin. Konditsionerning ishlash turini tanlash: On (yoqilgan), NO A/C (konditsionersiz), Off (o'chirilgan).

- Ushbu funksiyadan foydalanish yo'l zaxirasining qisqarishiga olib keladi..
- Agar NO A/C (konditsionersiz) ish turi tanlansa, bu energiya sarfini kamaytirishi mumkin, ammo salondagi havo harorati 45 °C dan oshishi mumkin.

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

Markaziy tirsak qo'ygich bo'limi sovutish/isitish funksiyasi



Sovutiladigan / isitiladigan buyumni (masalan, ichimlik bankasi) markaziy konsoldagi bo'limga qo'ying va markaziy va yon tomondagi ventilyatsiya panjaralari/pastki ventilyatsiya teshiklari orqali havo uzatish rejimini tanlab, sovutish / isitish funksiyasini yoqing. Bo'limda sovutish/isitishni yoqish uchun bo'lim ichidagi tutqichni yuqoriga burang.

XAVFLI

Agar markaziy konsoldagi bo'limga joylashtirilgan sovutiladigan / isitiladigan buyum juda katta bo'lsa, qopqoq yopilmasligi mumkin. Yopilgan qopqoq haydovchining qo'l harakatiga xalaqit berishi va jarohatlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shamollatish panjaralari

Old shamollatish panjaralari



Havo oqimining yo'nalishini o'zgartirish uchun ikkinchi qator o'rindiqlari atrofidagi ventilyatsiya panjarasidagi dastakni yuqoriga, pastga, chapga yoki o'ngga suring.

Yon shamollatish panjaralari




Havo oqimining yo'nalishini o'zgartirish uchun ikkinchi qator o'rindiqlari atrofidagi ventilyatsiya panjarasidagi dastakni yuqoriga, pastga, chapga yoki o'ngga suring.

Ikkinchi qator o'rindiqlari atrofidagi shamollatish panjaralari

Havo oqimining yo'nalishini o'zgartirish uchun ikkinchi qator o'rindiqlari atrofidagi ventilyatsiya panjarasidagi dastakni yuqoriga, pastga, chapga yoki o'ngga suring.

3-7. Xushbo'ylashtirish funksiyasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)**Xushbo'ylashtirish funksiyasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)**

Aromatizatsiya funksiyasi avtomobil salonidagi havoning tozaligini saqlaydi, yoqimsiz hidlarni yo'qotadi va havoni tozalaydi. Ushbu funksiya haydovchining xavfsizligini ta'minlaydi va salonda shinam va qulay muhit yaratish imkonini beradi, bu esa haydovchining hushyorligi va xotirjamligiga hissa qo'shadi va shu bilan yo'l-transport hodisasi xavfini kamaytiradi.



- 1** Iforni tanlash tugmasi
- 2** Xushbo'ylantirish funksiyasini yoqish va o'chirish tugmasi
- 3** xushbo'lantirgich konsentratsiyasi tugmalari

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

Xushbo'ylantirgichli kartrijni o'rnatish bo'yicha ko'rsatmalar



Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazing va konditsioner tizimini sozlash ekranida aromatizatorli kartridjni o'rnatish bo'yicha ko'rsatmalarga amal qiling. Kerakli iforni tanlang.

Aromatizator darajasi past bo'lsa, kartridjda "Insufficient remaining amount" xabari paydo bo'ladi. Agar xushbo'ylantirgich bo'lmasa, kartridjda "No Fragrance" xabari paydo bo'ladi. Ekrandagi animatsiyada ko'rsatilganidek, yangi aromatizatorli kartrijni o'rnatish.

Xushbo'ylantirgichli kartridjni almashtirish



Xushbo'ylantirgichli kartridjlar markaziy konsolda tegishli uyalarda joylashgan.

1-qadam. Xushbo'ylantirgichli kartridjni dastasidan ushlab, o'zingizga torting

2-qadam. Qadoqdan yangi xushbo'ylantirgichli kartridjni oling, uni tegishli kanalga o'rnatish va kartridj unga avtomatik ravishda mahkamlanadi.

3-qadam. Katta displeyda yangi ifor tanlang va darhol sinab ko'ring.

⚠️ DIQQAT

- Xushbo'ylantirgichning og'iz yoki burunga to'g'ridan-to'g'ri tushishiga yo'l qo'ymang. Hidlarga sezgir bo'lsangiz, ehtiyot bo'ling.
- Aromatizator konsentratsiyasi vaqt o'tishi bilan pasayadi, shuning uchun ochilgandan so'ng darhol aromatizatorli kartrijdan foydalaning.
- Bolalarga zarar yetkazmaslik uchun (bolalar tasodifan yutib yubormasligi uchun) xushbo'ylantirgichli kartrijni bolalar qo'li yetmaydigan joyda saqlang.
- Aromatizatorli almashtiriladigan kartridjlarni xarid qilish masalalari bo'yicha rasmiy dilerning servis stansiyasiga murojaat qiling. Bu aromatizatsiya tizimiga zarar yetishining oldini oladi va uning eng yaxshi ishlashini ta'minlaydi.
- Xushbo'ylantirgichli kartridjni yechish va o'rnatishda, xushbo'ylantirgich teriga tegib ketmasligi uchun klapan shtokiga tegmang.
- Aromatizator tayyorlangan tabiiy xom ashyoning kimyoviy beqarorligi tufayli klapan shtogining rangi oksidlanish jarayonida va yorug'lik ta'sirida o'zgarishi mumkin. Bu havoni xushbo'ylashtirish tizimining ishlashiga, uning xavfsizligiga va hokazolarga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi.

3-8. Videoregistrator (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)

Videoregistrator (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)

Videoregistrator butun safar davomida video tasvir va ovozni yozib olish uchun mo'ljallangan bo'lib, YTH sodir bo'lganda dalil sifatida qo'l kelishi mumkin. Shuningdek, videoregistrator safarning alohida epizodlarini - masalan, murakkab yoki xavfli hududni bosib o'tishni yozib olmoqchi bo'lgan haydovchilar uchun ham qo'l keladi. Videoregistrator "qora quti" tamoyili asosida ishlaydi: u video tasvir va ovozdan tashqari, avtomobilning vaqti va tezligini ham qayd etadi.

Micro SD xotira kartasini o'rnatish



Videoregistratorni yoqishdan oldin unga 10 yoki undan yuqori sinfdagi Micro SD xotira kartasini joylashtirish kerak. FAT32 xotira kartasi formati.

Micro SD xotira kartasi ichki orqa ko'rish oynasi orqasida joylashgan (rasmda ko'rsatilgandek).

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

Ulanish va yoqish



Videoregistrator audiotizimga Wi-Fi orqali ulanadi va tasvirni audiotizim bosh qurilmasi displeyiga chiqaradi. Videoregistratoridan foydalanish uchun tegishli ilovani ochish kerak.

TANISHIB CHIQING

- Wi-Fi orqali ma'lumotlarni uzatishda ma'lum bir kechikish bo'ladi, shu sababli audiotizim bosh qurilmasi ekranidagi tasvir avtomobil oldidagi haqiqiy holatga nisbatan biroz kechikadi.
- Videoregistrator ilovasi o'chirilgach audio tizim va videoregistrator o'rtasidagi Wi-Fi aloqasi uzilib qolishi mumkin. Videoregistrator ilovasi qayta yoqilganda, Wi-Fi orqali ulanishni qayta tiklash talab etiladi. Bunga biroz vaqt ketadi. Kutib turing.

Video

Avtomobilni ishga tushiring va videoregistrator yozib olishni boshlaydi. Ekraning yuqori chap burchagida qizil nuqta millatlay boshlaydi, REC belgisi paydo bo'ladi va ekraning o'rtasida vaqtni hisoblash jarayoni boshlanadi.

Videoregistrator tomonidan yozib olingan videofayllar tegishli papkalarda saqlanadi. Papka to'lganida videoregistrator eski yozuvlar ustiga yangi yozuvlarni qayta yoza boshlaydi.

TANISHIB CHIQING

Favqulodda ish rejimida videoregistrator qizil chiroq yonadi. Odatdagi ish rejimida videoregistrator ko'k chiroq yonadi.

DIQQAT

Micro SD xotira kartasini videoregistrator ishlayotgan vaqtda chiqarib olish taqiqlanadi. Agar Micro SD xotira kartasini olish zarur bo'lsa, avval yozib olishni to'xtating va videoregistratorni o'chiring.

Favqulodda yozuvlar

Agar videoregistrator odatdagi rejimda ishlayotganda avtomobil YTHga uchrasa va favqulodda rejim funksiyasi yoqilgan bo'lsa, u holda videoregistrator avtomatik ravishda YTHdan 10 soniya oldin va keyin videoni alohida-alohida yozib oladi.

Ushbu favqulodda vaziyat yozuvi maxsus papkada saqlanadi. Favqulodda yozuvlar papkasi to'lganida avtomatik ravishda eng yangi yozuv saqlanadi va audiotizimning bosh qurilmasi displeyida "Driving recorder emergency video folder is full" (Favqulodda yozuvlar papkasi to'lgan) xabari paydo bo'ladi.

TANISHIB CHIQING

Kichik YTHlar sodir bo'lganda, ularni favqulodda yozuvlar ko'rinishida qayd etish kafolatlanmagan. Bu YTHning og'irligi va boshqa omillarga bog'liq. Favqulodda yozuvlar bo'lmasa, oddiy yozuvlar papkasidan YTH yozuvi faylini qidiring.

Avtomobil to'xtashi monitoringi


Avtomobil YTHga uchraganda avtomobil to'xtashini monitoring qilish funksiyasi yoqilgan bo'lsa va videoregistrator shikastlanmagan bo'lsa, elektr quvvati o'chirilgandan so'ng u yana 20 soniya ishlaydi va o'chadi.


Ushbu yozuv favqulodda yozuvlar papkasida saqlanadi. Favqulodda yozuvlar papkasi to'lganida avtomatik ravishda eng yangi yozuv saqlanadi va audiotizimning bosh qurilmasi displeyida "Driving recorder emergency video folder is full" (Favqulodda yozuvlar papkasi to'lgan) degan ogohlantirish paydo bo'ladi.

TANISHIB CHIQING

- Standart holatda avtomobilning to'xtashini monitoring qilish funksiyasi yoqilgan bo'ladi. Uni audio tizimning bosh qurilmasi yordamida o'chirish mumkin.
- Akkumulyator batareyasining kuchlanishi ma'lum qiymatdan past bo'lsa va avtomobil to'xtashini monitoring qilish funksiyasi yoqilgan bo'lsa, videoregistrator yoqilmaydi.
- Kichik YTHlar sodir bo'lganda, ularni favqulodda yozuvlar ko'rinishida qayd etish kafolatlanmagan. Bu YTHning og'irligi va boshqa omillarga bog'liq.

Suratlar va tasvirlar


1-usul. Ushbu tugmani bosib "  ", audio tizim bosh qurilmasi ekranida joylashgan, va suratga oling. Har bosilganda faqat bitta surat olinadi.

2-usul. Dvigatelni ishga tushirish tugmasi ON holatida bo'lsa, suratga olish uchun ushbu ko'rsatilgan belgili "  " tugmani bosib. Buning uchun ushbu tugmaga tegishli funktsiya tayinlanishi kerak: Audio System (Audio tizim) - Settings (Sozlamalar) - Quick Control (tezkor boshqarish) - Steering Wheel Buttons (rul g'ildiragidagi tugmalar).

Suratlarni ko'rish va video tomosha qilish

Oddiy yozuv, favqulodda yozuvlar va fotosuratlarni ko'rish davriy rejimida amalga oshiriladi.

Oddiy yoki favqulodda yozuvlar papkasida fayllar ro'yxatini yuqoriga va pastga siljitish mumkin. Faylni ijro etish uchun ustiga bosib. Faylni ijro etishdan tashqari, quyidagi amallar ham mavjud: ijro etishni to'xtatib turish, oldingi/keyingi faylga o'tish, faylni o'chirish.

Fayllar ro'yxati ekranida fayl nomini uzoq bosish ekranining yuqori o'ng burchagida kichik doira paydo bo'lishiga olib keladi. "  " belgisi fayl tanlanganligini bildiradi. Siz bir vaqtning o'zida bitta yoki bir nechta faylni tanlashingiz mumkin. Tanlangan faylni o'chirish uchun Delete (o'chirish) tugmasini bosib. O'chirilgan fayllarni tiklash mumkin emas.


Agar videofaylni yozishda qo'shimcha ma'lumotlarni qo'shish funksiyasi yoqilgan bo'lsa, ekrandagi holat satrida avtomobilning sanasi, vaqti va holati ko'rsatiladi.

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

⚠️ DIQQAT

Xotira kartasiga zarar yetkazmaslik uchun uni DVR-dan chiqarib olish yoki fayllarni o'chirish paytida DVR-ning quvvatini o'chirish taqiqlanadi.

Sozlash

Ushbu tugmani «  » videoregistrator sozlamalari menyusiga o'tish, axborotni qayta yozish, avtomatik yozish, ruxsat noma, yozish davomiyligi, suratlarni olish usuli, tebranishga sezuvchanlik, kameraning kengaytirilgan dinamik diapazoni, xotiradagi bo'sh joy, xotira kartasini formatlash, dasturiy ta'minot versiyasi haqidagi axborot va birlamchi sozlamalarni tiklash uchun.

TANISHIB CHIQING

Videoregistrator va xotira kartasiga zarar yetkazmaslik uchun xotira kartasini formatlash paytida xotira kartasini chiqarib olish yoki quvvatni o'chirish taqiqlanadi.

3-9. Simsiz quvvatlash qurilmasi (avtomobilning ayrim variantlari uchun)

Simsiz quvvatlash qurilmasi (avtomobilning ayrim variantlari uchun)

Simsiz quvvatlash qurilmasi elektromagnit induksiya hisobiga simlardan foydalanmasdan mobil telefonni quvvatlash imkonini beradi. Bu qulay, xavfsiz va sizga avtomobilni boshqarishdan ko'proq zavq olish imkonini beradi.



Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazing. Tegishli ekranda simsiz quvvatlagichni yoqing: Audio System (Audio tizimi) - Settings (Sozlamalar) -Connect (Ulanish).

Eslatma: Simsiz quvvatlash qurilmasi yoqilgan holatda bo'ladi.

Foydalanish usullari



Dvigatelni ishga tushirish tugmasini OFF holatiga o'tkazing. Mobil telefonni quvvatlash yuzasiga qo'yganingizdan keyin simsiz quvvatlash qurilmasi ishga tushadi. Bunda audiotizimning bosh qurilmasi displeyida quvvatlash belgisi paydo bo'ladi. Simsiz quvvatlash imkonsiz bo'lsa, quvvatlash belgisi rangi qizilga o'zgaradi.

■ Quyidagi holatlarda simsiz quvvatlash qurilmasi kutilganidek ishlamasligi mumkin.

1. Mobil telefonning orqa devori va quvvatlash yuzasi orasidagi masofa 6 mm dan ortiq.
2. Mobil telefonning orqa devorida katta qalinlikdagi begona metall buyum (tanga, metall g'ilof va boshqalar) mavjud va audio tizimning bosh qurilmasi displeyida quvvatlash imkonsizligi belgisi ko'rsatiladi.
3. Agar quvvatlash qurilmasi yuzasining yoki telefonning harorati ma'lum bir qiymatdan oshsa, simsiz quvvatlash qurilmasining himoyasi ishga tushadi va mobil telefonni quvvatlash imkonsiz bo'ladi. Quvvatlashni boshlashdan oldin harorat pasayishini kutish tavsiya etiladi.
4. Turli mobil telefon ishlab chiqaruvchilari tomonidan qo'yiladigan axborot xavfsizligi talablari turlicha bo'lganligi sababli, ba'zi telefon modellari to'liq quvvatlash haqidagi ma'lumotni simsiz quvvatlash qurilmasi moduliga uzatmasligi mumkin. Bunday holda, telefon to'liq quvvatlangandan keyin ham audio tizimning bosh qurilmasi ekranida quvvatlash belgisi ko'rsatiladi.
5. Telefon nosoz bo'lsa, uni quvvatlashning iloji bo'lmasligi mumkin. Quvvatlash imkonsizligi sababini aniqlash uchun - telefon nosozligi yoki simsiz quvvatlash moslamasi nosozligi - boshqa mos mobil telefondan foydalaning.

 TANISHIB CHIQING

- Simsiz quvvatlash qurilmasida ayrim telefon modellarini tezkor (15 Vt) quvvatlash funksiyasi mavjud.
- Mobil telefonni quvvatlash yuzasining markaziga qo'ying. Agar avtomobil tezlashganda, sekinlashganda yoki keskin burilganda mobil telefon yon tomonga siljisa, bu uning quvvatlanish samaradorligiga ta'sir qiladi.

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

DIQQAT

- Avtomobilga kalitsiz kirish tizimi masofadan boshqarish pulti tanib olish rejimida bo'lgan davrda simsiz quvvatlash vaqtincha to'xtatilishi mumkin. Simsiz zaryadlash qurilmasi noviga masofadan boshqarish pulti kabi metall buyumlarni qo'yish taqiqlanadi.
- Agar avtomobil ishlayotganida mobil telefon quvvatlanmayotgan bo'lsa, simsiz quvvatlash qurilmasi zonasida begona jismlar yo'qligiga ishonch hosil qiling va quvvatlashga urinishda davom etishdan oldin simsiz quvvatlash qurilmasi sovishini kuting. Agar quvvatlash hali ham amalga oshmasa, rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
- Simsiz quvvatlash faqat ushbu funksiyaga ega telefonlar uchun mavjud. Agar mobil telefoningizda simsiz quvvatlash funksiyasi bo'lmasa, uni simsiz quvvatlagich yordamida quvvatlashga urinmang. Simsiz quvvatlash qurilmasining resursi partiyaga bog'liq, shuning uchun simsiz quvvatlash qurilmasidan tez-tez foydalanilganda uning ishdan chiqishi kuzatilishi mumkin (masalan, ish qobiliyatini yo'qotish, quvvatlash yuzasi bilan yomon aloqa, begona metall buyumlarni aniqlashning buzilishi).

XAVFLI

- Agar haydovchi yoki yo'lovchi kardiostimulyator yoki boshqa tibbiy qurilmadan foydalansa, safarni boshlashdan oldin simsiz quvvatlash moslamasini o'chirish kerak.
- Safar davomida mobil telefon quvvatlash holatini tekshirish uchun uzoq vaqt chalg'imang, chunki bu yo'l harakati xavfsizligiga tahdid solishi mumkin.
- Simsiz quvvatlash qurilmasini shikastlamaslik uchun quvvatlash sohasiga og'ir buyumlarni qo'ymang yoki uning yuzasiga zarba bermang.
- Dasturiy yangilanish paytida yangilanishdan keyin simsiz quvvatlash qurilmasi ishdan chiqmasligi uchun quvvatlash hududiga hech narsa joylamang.
- Simsiz quvvatlash qurilmasi bir vaqtda faqat bitta telefonni quvvatlaydi.
- Simsiz quvvatlash qurilmasi ishlayotganida quvvatlash joyiga ETC/ID/NFC/kredit kartasini qo'ymang, aks holda undagi ma'lumotlarga zarar yetishi mumkin.
- Akkumulyator batareyasi zaryadsizlanishining oldini olish uchun dvigatel o'chirilgan holda simsiz quvvatlash moslamasidan uzoq vaqt foydalanmang. Avtomobilni tark etayotganda telefoningizni simsiz quvvatlash qurilmasida qoldirmang, chunki bu xavfsizlikka tahdid soladi.
- Suyuqlik (suv, ichimliklar) simsiz quvvatlash qurilmasi paneliga to'kilishiga yo'l qo'ymang. Aks holda, paneldagi tirqishlar orqali suyuqlik simsiz zaryadlash qurilmasining o'ziga kirib, uni ishdan chiqarishi mumkin. Simsiz quvvatlagich paneliga moylovchi modda, moy yoki spirt tushmasin. Agar siz tasodifan simsiz zaryadlash qurilmasi paneliga biror suyuqlikni to'kib yuborgan bo'lsangiz, uni darhol quruq mato bilan artib oling.
- Quvvatlash hududiga karta, tanga va boshqa metall buyumlarni qo'ymang. Quvvatlash zonasiga tushgan metall buyum kuchli qizishi, bu esa simsiz quvvatlash qurilmasining ishlashini buzishi va xavfsizlikka tahdid solishi mumkin. Agar mobil telefon va simsiz quvvatlash qurilmasi paneli orasida begona metall buyum bo'lsa, darhol simsiz quvvatlash qurilmasini o'chiring. Kuyishning oldini olish uchun begona metall buyumni darhol olib tashlamang.

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

Quvvatlash qurilmasida qolgan telefon haqida eslatma funksiyasi



Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazing. Tegishli ekranda quvvatlash qurilmasida qolgan telefonni eslatish funksiyasini yoqing: Audio System (Audio tizim) - Settings (Sozlamalar) - Connect (Ulanishlar).

Dvigatelni ishga tushirish tugmasini OFF holatiga o'tkazing va chap old eshikni oching. Agar mobil telefon simsiz zaryadlash qurilmasida qoldirilsa, telefonni olib ketish kerakligini eslatuvchi tovushi signal eshitiladi.


3-10. OTA yangilanishi (avtomobil ba'zi variantlari uchun)

OTA yangilanishi (avtomobil ba'zi variantlari uchun)

1.1. Yangilanishni o'rnatish uchun zarur shartlar

1. Yangilash paketini simsiz tarmoq (4G yoki Wi-Fi) orqali yuklab olish mumkin.
2. Yangilash jarayonida avtomobil to'xtash tormozi yoqilgan holda xavfsiz joyda bo'lishi lozim.
3. Butun yangilash jarayoni davomida IVI dan foydalanmaslik tavsiya etiladi va OTA yangilash interfeysi birinchi o'rinda bo'lishi kerak.

1.2. Tizim sozlamalari




Avtomobil allaqachon ishga tushirilgan bo'lsa, o'rnatish paketini 4G yoki Wi-Fi orqali yuklab oling. Faollashtirilmagan avtomobil uchun Wi-Fi tarmoqqa ulanish talab qilinadi. Wi-Fi tarmoqni sozlash tartibi quyida keltirilgan.

Dasturiy ta'minotni yangilash usullari

"Vehicle Upgrades" (Avtomobilni yangilash) menyusiga ikki usulda kirish mumkin:

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI



OMT28-2122

1-usul. Agar dasturiy ta'minot yangilanishi mavjud bo'lsa, dvigatelni ishga tushirish tugmasi OFF holatiga o'tkazilgandan so'ng, displeyda quyidagi rasmda ko'rsatilganidek System update (Tizimni yangilash) ekrani paydo bo'ladi. Dasturiy yangilanish interfeysiga o'tish uchun Check (Tekshirish) tugmasini bosing.




OMT28-2121

2-usul. Ekranni varaqlash orqali "OTA" ilovasini toping, keyin dasturiy ta'minotni yangilash interfeysiga o'tish uchun uning piktogrammasini bosing.

Yangilash rejimlari tavsifi

Ikkita yangilash rejimi mavjud. Ushbu rejimlarga yangilash bosh ekranidagi ikki xil nomli tugmalar mos keladi:



OMT28-2122


«Upgrade now» (Hozir yangilash) va «Schedule upgrade» (Rejaviy yangilash). Bu ikki rejimdan birini tanlashingiz mumkin.

Yangilashni o'rnatish

Upgrade Now (Hozir yangilash) rejimidan foydalanish

1. Upgrade now (Hozir yangilash) rejimi
Darhol yangilashni boshlash uchun "Hozir yangilash" tugmasini bosing.
2. Javobgarlikdan voz kechish bayonoti ekrani

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI




"Hozir yangilash" tugmasini bosganingizdan keyin siz avtomobil egasini dasturiy yangilanish shartlari va tegishli bayonnomalardan xabardor qiladigan javobgarlikdan voz kechish bayonnomasi sahifasiga yo'naltirilasiz. "Agree - 30 seconds" tugmasi kulrang tusga kiradi. 30 soniyadan so'ng uning nomi quyidagi rasmda ko'rsatilganidek "Agree" (Roziman) ga o'zgaradi. "Agree" (Roziman) tugmasini bosish orqali siz shartlarga rozilik bildirasiz va keyingi bosqichga o'tasiz. "Cancel" (Bekor qilish) tugmasi bosilsa, qalqib chiquvchi oyna yopiladi.


3. Avtomobil quvvati uzilganini tekshirish.

Javobgarlikdan voz kechish bayonnomasiga avtomobil holatini tekshiring.

rozilingizni tasdiqlaganingizdan keyin




■ Dvigatelni ishga tushirish tugmasi OFF holatiga o'rnatilgandan so'ng, displeyda avtomobilning dasturiy ta'minotini yangilashga tayyorgarlik ekrani paydo bo'ladi.



■ Dvigatelni ishga tushirish tugmasi ON holatiga qo'yilganda displeyda qalqib chiquvchi oyna paydo bo'ladi va unda "Please turn off the vehicle" (Dvigatelni ishga tushirish tugmasini OFF holatiga o'tkazing) yozuvi paydo bo'ladi. Keyin displeyda 120 soniyalik taymer ko'rsatiladi, bu vaqt ichida haydovchi elektr quvvatini o'chirishi kerak. Haydovchi dvigatelni ishga tushirish tugmasini OFF holatiga o'tkazganidan so'ng, dasturiy ta'minotni yangilashga tayyorgarlik bosqichi boshlanadi. Agar haydovchi dvigatelni ishga tushirish tugmasini OFF holatiga o'tkazmasa yoki "Cancel" (Bekor qilish) tugmasini bossa, qalqib chiquvchi oyna yopiladi.

4. OTA yangilash rejimi

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI




Dvigatelni ishga tushirish tugmasi OFF holatida bo'lishi kerak, shunda OTA quvvatni ON holatiga o'tkazishga harakat qiladi. Agar quvvatni ON holatiga o'tkazishga urinish muvaffaqiyatsiz tugasa, "Power-on failure" (quvvatni qayta ulash imkonsiz) bildirishnomasi paydo bo'ladi. "OK" tugmasi bosilsa, muloqot oynasi yopiladi. Agar "OK" tugmasi bosilmasa, keyingi safar elektr quvvati yoqilganda "Power-on failure" (quvvatni qayta ulash imkonsiz) xabari paydo bo'ladi.

Quvvatni ON holatiga muvaffaqiyatli o'tkazganingizdan keyin OTA yangilash rejimi yoqiladi. Agar OTA yangilash rejimiga o'tishga urinish amalga oshmasa, quvvat avtomatik ravishda OFF holatida almashtiriladi. "OK" tugmasi bosilsa, muloqot oynasi yopiladi. Agar "OK" tugmasi bosilmasa, keyingi safar elektr ta'minoti yoqilganda yangilash rejimiga o'tish mumkin emasligi haqida bildirishnoma paydo bo'ladi. OTA rejimida quyidagi funksiyalar va tizimlar ishlamaydi: dvigatelni tugma orqali ishga tushirish, oyna tozalagich va yuvgichlar, ichki va tashqi yoritish moslamalari, konditsioner tizimi, asboblarni paneli displeyi va boshqalar.


5. Yangilash uchun dastlabki shartlarni tekshirish oynasi

OTA yangilash rejimiga muvaffaqiyatli o'tganingizdan keyin yangilash uchun dastlabki shartlarga muvofiqlikni tekshirish ekrani ochiladi.




■ Yangilash uchun dastlabki shartlarga muvofiqlik quyidagi rasmda ko'rsatilganidek ekranda aks ettiriladi.

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI




6. Vazifaning to'g'riligini tekshirish



■ Yangilash uchun dastlabki shartlar bajarilsa, avtomatik ravishda keyingi bosqichga o'tiladi. Agar yangilash shartlari bajarilmasa, quyidagi rasmda ko'rsatilganidek, bildirishnoma qalqib chiquvchi oynasi paydo bo'ladi. Tegishli tavsiyalarga amal qilgan holda, yangilash uchun dastlabki shartlarga amal qiling.

OTA dasturiy ta'minotini yangilash jarayonini boshlashdan oldin, tizim OTA serveriga ushbu vazifaning haqiqiyligini tekshirish uchun so'rov yuboradi. Agar vazifa yaroqsiz bo'lsa, tizim bu haqda xabar beradi va keyingi safar yangilashga qayta urinishni taklif qiladi. Vazifaning to'g'riligini tekshirish muvaffaqiyatli o'tsa, tizim yangilanishni o'rnatishga o'tadi.

7. Yangilashni o'rnatish



OMT28-2128


Yangilash rejimiga muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng, keyingi qadam quyidagi rasmda ko'rsatilganidek, yangilash jarayoni ekranini ko'rsatishdir. Yangilash yakunlanishini kuting.

Eslatma: Yangilash paytida qurilmalar paneli va multimedia tizimi qayta ishga tushirilishi mumkin. Bu normal holat.

8. Yangilash natijalari xabari

Yangilanish o'rnatilgandan so'ng, displeyda yangilanish natijalari haqida xabar beruvchi qalqib chiquvchi oyna paydo bo'ladi. Bu quyida tavsiflangan uchta variantdan biri bo'ladi.


■ Yangilash muvaffaqiyatli yakunlandi



OMT28-2143

Agar barcha boshqaruv bloklarining dasturiy ta'minoti yangilangan bo'lsa, tegishli bildirishnoma paydo bo'ladi. Quyidagi rasmda ko'rsatilganidek, ko'rsatmalarga amal qiling. Yangilanish bosh ekraniga qaytish uchun OK tugmasini bosing.

■ Yangilash yakunlandi




OMT28-2144

Agar biror boshqaruv bloki dasturiy ta'minoti yangilanmasa va uni ortga qaytarish ham imkonsiz bo'lsa, yangilanish muvaffaqiyatsizligi haqida bildirishnoma chiqadi. Rasmda ko'rsatilganidek, ko'rsatmalarga amal qiling. Yangilanish ekraniga qaytish uchun OK tugmasini bosing.

■ Yangilashda xatolik yuz berdi

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI




Agar biror boshqaruv bloki dasturiy ta'minoti yangilanmasa va uni ortga qaytarish ham imkonsiz bo'lsa, yangilanish muvaffaqiyatsizligi haqida bildirishnoma chiqadi.

Rasmda ko'rsatilganidek, ko'rsatmalarga amal qiling. Yangilanish ekraniga qaytish uchun OK tugmasini bosing.


«Schedule Upgrade» (Rejali yangilash) rejimi

1. «Schedule Upgrade» (Rejali yangilash) rejimidan foydalanish



Dasturiy yangilanish bosh ekraniga o'tganingizdan keyin sizda ikkita variant mavjud bo'ladi: "Upgrade Now" (Hozir yangilash) va "Schedule Upgrade" (Rejalashtirilgan yangilanish). Quyida ikkinchi variant bayon etilgan. Quyidagi rasmda ko'rsatilganidek, Schedule Upgrade (Rejali yangilanish) ni tanlang.

2. Yangilash shartlari va tegishli bayonnomalar



«Schedule Upgrade» (Rejali yangilash) tugmasini bosganingizdan so'ng, siz avtomobil egasini dasturiy yangilanish shartlari va tegishli bayonnomalar bilan tanishtiradigan javobgarlikdan voz kechish bayonnomasi sahifasiga yo'naltirilasiz. "Agree (30 seconds)" (Roziman 30 soniyadan keyin) tugmasi kulrang tus oladi. 30 soniyadan so'ng uning nomi quyidagi rasmda ko'rsatilganidek "Agree" (Roziman) ga o'zgaradi. "Roziman" tugmasini bosish orqali siz shartlarga rozilik bildirasiz va keyingi bosqichga o'tasiz. Cancel (Bekor qilish) tugmasi bosilsa, muloqot oynasi yopiladi.




3. Rejali yangilash vaqtini tanlash

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI



4. Vaqtni tanlash natijalari haqida xabar berish

"OK" tugmasi bosilgandan so'ng, tizim vaqtni tanlash natijalari haqida xabar beradi.



"OK" tugmasi bosilgandan so'ng, rejalashtirilgan yangilash vaqtini tanlash ekraniga o'tiladi. Birinchi ustunda sanani, ikkinchi ustunda soatni, uchinchi ustunda daqiqalarni tanlang. Rejalashtirilgan yangilash vaqtini yaqin 24 soat ichida tanlashingiz mumkin. Vaqtni tanlab, "OK" tugmasini bosing.

■ Yangilash vaqti muvaffaqiyatli belgilandi

Yangilash vaqti muvaffaqiyatli tanlangandan so'ng, quyidagi rasmda ko'rsatilganidek, tasdiqlash muloqot oynasi paydo bo'ladi. Jarayonni yakunlash uchun "OK" tugmasini bosing.


■ "OK" tugmasini bosganingizdan so'ng, belgilangan yangilash vaqti ko'rsatiladigan bosh ekranga qaytasiz. Yangilash vaqti belgilanganidan keyin, dvigatelni ishga tushirish tugmasini OFF holatiga o'tkazing, avtomobilni tark eting va barcha eshiklarni qulflang. Avtomobil kutish rejimiga o'tadi.

■ Agar belgilangan yangilash vaqtini bekor qilish kerak bo'lsa, yangilash bosh ekraniga qaytishda Cancel (Bekor qilish) tugmasini bosing va belgilangan yangilash vaqti bekor qilinadi.

Agar darhol yangilashni boshlashni istasangiz, Upgrade Now (Hozir yangilash) tugmasini bosing.

Agar yangi rejalashtirilgan yangilash vaqtini o'rnatishingiz kerak bo'lsa, Reschedule (Qayta belgilash) tugmasini bosing va yangi rejalashtirilgan yangilash vaqtini kiriting.

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI




OMT28-2147

■ Yangilash vaqti o‘rnatilmadi
Agar rejalashtirilgan yangilash vaqti muvaffaqiyatli belgilanmagan bo‘lsa, tegishli bildirishnoma chiqadi.



OMT28-2148

■ Yangilash vaqtini tanlash ekraniga o‘tish uchun Reschedule (Qayta belgilash) tugmasini bosing. Vaqt tanlangandan so‘ng, quyidagi rasmda ko‘rsatilganidek, "OK" tugmasini bosing



OMT28-2149

■ Agar "Cancel" tugmasi bosilsa, rejalashtirilgan yangilash vaqtini tanlash oynasi yopiladi va siz quyidagi rasmda ko‘rsatilganidek avvalgi ekranga qaytasiz.

5. Yangilash uchun dastlabki shartlarni aniqlash

Belgilangan vaqt kelganda avtomobil kutish rejimidan chiqadi va dastlabki shartlarning bajarilishi tekshiriladi.

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI




■ Agar dvigatelni ishga tushirish tugmasi OFF holatida bo'lsa va o'g'irlashga qarshi tizim qo'riqlash rejimida bo'lsa, avtomobil avtomatik ravishda yangilanish rejimiga o'tadi. Agar yangilash shartlari bajarilmasa, avtomobil yangilash rejimidan chiqadi va keyingi quvvat yoqilganda yangilash zarurligi haqida xabar chiqadi.

■ Agar dvigatelni ishga tushirish tugmasi OFF holatida bo'lmasa yoki o'g'irlashga qarshi tizim qo'riqlash rejimida bo'lmasa, rejali yangilash rejimi o'chiriladi va displeyda quyidagi rasmda ko'rsatilgan xabar paydo bo'ladi. Avtomobilda harakatlanish kerak bo'lsa, OK tugmasini bosning.

Agar yangi rejalashtirilgan yangilash vaqtini belgilashingiz kerak bo'lsa, "Reschedule" (Qayta belgilash) tugmasini bosning va yangi rejalashtirilgan yangilash vaqtini ko'rsating.

6. Avtomobilni yangilash rejimiga o'tkazish



Agar rejali yangilash vaqti kelsa va uning dastlabki shartlariga rioya qilinsa, avtomobil yangilash rejimiga o'tadi, shundan so'ng haydovchi avtomobilni boshqara olmaydi yoki undan boshqa tarzda foydalana olmaydi.


7. Yangilanishni o'rnatish

Dastlabki shartlar bajarilganligi aniqlangandan so'ng, dasturiy ta'minotni yangilash avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Yangilanish paytida avtomobildan foydalanish mumkin emas.

8. Yangilash natijalari xabari


Yangilanish o'rnatilgandan so'ng, displeyda yangilanish natijalari haqida xabar beruvchi qalqib chiquvchi oyna paydo bo'ladi. Bu quyida tavsiflangan uchta variantdan biri bo'ladi.

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI




OMT28-2150

- Yangilash muvaffaqiyatli yakunlandi
Agar barcha boshqaruv bloklarining dasturiy ta'minoti yangilangan bo'lsa, tegishli bildirishnoma paydo bo'ladi.



OMT28-2151

- Yangilash yakunlanmadi.
Agar biror boshqaruv blokining dasturiy ta'minoti yangilanmasa va uning muvaffaqiyatli qaytarilishi amalga oshirilgan bo'lsa, yangilanish tugallanmaganligi haqida xabar paydo bo'ladi.



OMT28-2152

- Yangilash xatoligi.
Agar biror boshqaruv bloki dasturiy ta'minoti yangilanmasa va uni ortga qaytarish ham imkonsiz bo'lsa, yangilanish muvaffaqiyatsizligi haqida bildirishnoma chiqadi.

Yangilash paytida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish

Boshqa noodatiy holatlarda quyidagi amallarni bajaring:

1. Quvvatni o'chiring.
2. Avtomobil salonida hech kim yo'qligiga va kalitlar yo'qligiga ishonch hosil qiling.
3. Eshiklar qulflanganini tekshiring.
4. 15 daqiqa kuting.
5. Quvvatni yoqing va OTA yangilanishini qayta ishga tushiring.

Agar muammo hal etilmasa yoki OTA yangilanishi ishdan chiqsa, rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

3-11. Masofadan boshqarish funksiyasi (avtomobilning ayrim variantlari uchun)

Masofadan boshqarish funksiyasi (avtomobilning ayrim variantlari uchun)

Foydalanuvchi mobil telefonidagi ilovada avtomobil haqidagi ma'lumotlarni (qulflar, dvigatel, oynalar, yukxona lyuki va eshiklarining holati, shinalardagi havo harorati va bosimi, bakdagi yonilg'i qoldigi va hokazo) masofadan ko'rishi va avtomobilning ayrim funksiyalarini masofadan boshqarishi mumkin. Bu esa undan foydalanish, holatini nazorat qilish va himoyalash samaradorligini oshiradi.



TANISHIB CHIQING

Avtomobilni masofadan boshqarish funksiyasini ishga tushirish va undan foydalanish haqida batafsil ma'lumot olish uchun mobil ilovadagi elektron qo'llanmaga yoki rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.



DIQQAT

Ishlab chiqaruvchi mahsulot versiyasi yangilanganligi munosabati bilan yoki boshqa sabablarga ko'ra ushbu hujjatning mazmunini oldindan xabardor qilmasdan istalgan vaqtda yangilash yoki qayta ko'rib chiqish huquqini o'zida saqlab qoladi. Mahsulotdan foydalanishdan oldin hujjatning oxirgi versiyasi bilan tanishib chiqing.

Tavsifi

Hujjat maqsadi

Ushbu hujjat avtomobilni boshqarish funksiyalarini umumiy tarzda tavsiflaydi.

Hujjat turi

Ushbu hujjat foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan.

Ish muhiti

Dasturiy va apparat ta'minoti

Funksiyalar tavsifi

Foydalanuvchini ro'yxatdan o'tkazish

■ Mobil telefon raqami orqali ro'yxatdan o'tish

Avtomobilni boshqarish ilovasini oching va ekranning pastki qismidagi "Profile" sahifasiga kiring. Tizimga birinchi marta kirganingizda, quyidagi ekran ochiladi:

Hisob yaratilganidan keyin displeyda ilovaning ishchi ekrani avtomatik ochiladi.

Avtomobilni ulash va avtomobil boshqaruvi funksiyasini yoqish

Ushbu funksiya imkoniyatlari quyida keltirilgan.

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

Add Vehicle (Avtomobilni qo'shish) funksiyasi

Hisobga kiringach "Vehicle" (Avtomobil) yorlig'ini tanlang, so'ngra "Owner verification" (Foydalanuvchi avtorizatsiyasi) bandini tanlang.

Yoki "Me" yorlig'iga o'tib, "My car" menyusini tanlang va "Owner verification" (Foydalanuvchini avtorizatsiya qilish) tugmasini bosing.

Qalqib chiquvchi oynada avtomobil haqidagi ma'lumotlarni kiriting: VIN raqami, dvigatel raqami, ro'yxatga olish raqami va boshqalar.

Qalqib chiquvchi oynada avtomobil haqidagi ma'lumotlarni kiriting: VIN raqami, dvigatel raqami, ro'yxatga olish raqami va boshqalar.

Avtomobilni qo'shish uchun SUBMIT FOR AUTHENTICATION (Tekshiruvga yuborish) bandini tanlang. Kiritilgan ma'lumotlar tekshirilgach, "Successfully bound vehicle" (Avtomobilni ulash amalga oshirildi) xabari paydo bo'ladi. Aks holda, "Owner certification record does not exist" (Ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchi haqida ma'lumot topilmadi) xabari paydo bo'ladi. VIN raqami va dvigatel raqami bexato kiritilganini tekshiring.

Avtomobilni boshqarish funksiyasini faollashtirish

Agar foydalanuvchi avtomobilni boshqarish funksiyasini birinchi marta ishga tushirsa, avtomobilni masofadan boshqarish ekraniga o'tish uchun "Car" (Avtomobil) sahifasiga, so'ngra "Car Control" (Avtomobilni boshqarish) sahifasiga o'tish kerak.

Avtomobil boshqaruvi funksiyasini faollashtirish uchun Activate (Faollashtirish) tugmasini bosing.

Avtomobil holati ma'lumotlarini ko'rish

Avtomobilni tanlash

Agar bir nechta avtomobilga kirish imkoniyati mavjud bo'lsa, kerakli avtomobil sahifasini bosing va avtomobil holati haqidagi axborotni ko'rish uchun "DEFAULT VEHICLE" (Birlamchi avtomobil) bandini tanlang.

Avtomobil holati ma'lumotlarini ko'rish

Vehicle (Avtomobil) sahifasida avtomobilning yo'l zaxirasi ko'rsatiladi.

Avtomobilni masofadan boshqarish

Ushbu funksiya imkoniyatlari quyida keltirilgan.

Qulflarni masofadan ochish va yopish

Agar avtomobil qulflari qulflangan bo'lsa, tegishli tugmani bosish ularning ochilishiga, keyingi bosish esa qulflanishiga olib keladi.

Oynalarni masofadan ochish va yopish

Agar avtomobil oynalari yopiq bo'lsa, tegishli tugmaning birinchi bosilishi ularning qisman ochilishiga, ikkinchisi to'liq ochilishiga, uchinchisi esa yopilishiga olib keladi. Har gal tugma bosilganda ushbu funksiyalar siklik ravishda o'zgaradi.

Bagaj bo'limini masofadan ochish va yopish

Agar bagaj bo'limi qulflari qulflangan bo'lsa, tegishli tugmani bosish ularning ochilishiga, keyingi bosish esa qulflanishiga olib kelad.

Avtomobilni qidirish funksiyasi

Avtomobilni qidirish funksiyasi tugmasini bosib. Bunda ovozli signal eshitila boshlaydi va favqulodda yorug'lik signalizatsiyasi chiroqlari miltillaydi. Biroz vaqtdan keyin ular o'chadi.

Konditsioner tizimini masofadan ishga tushirish

Ushbu funksiya konditsioner tizimining quyida tavsiflangan parametrlarini sozlash imkonini beradi²:

Konditsioner tizimi harorati/ishlash davomiyligini sozlash

Avtomobil holati/avtomobil boshqaruvi ekranida konditsioner tizimi belgisini tanlang. Konditsionerlash tizimini boshqarish menyusi havo haroratini va tizimning ishlash vaqtini boshqarish imkonini beradi.

Havo harorati va konditsioner tizimining ishlash davomiyligi o'rnatilgach, "Switch" (Yoqish) tugmasini bosib, keyin "ON" ni bosib, konditsioner tizimi ishga tushadi. "OFF" tugmasini bosib va konditsioner tizimi o'chadi.

Isitish/shamollatishni boshqarish

Konditsioner tizimini boshqarish menyusi o'rindiqlarni isitish va shamollatish funksiyalarini ham boshqarish imkonini beradi. Rul g'ildiragi, old oyna va o'rindiq isitgichlari hamda o'rindiq ventilyatsiyasini boshqarish avtomobilning virtual tasviridagi tegishli belgilarni bosish orqali amalga oshiriladi.

Rul g'ildiragi, old oyna va o'rindiq isitgichlarini o'chirish, shuningdek o'rindiqlarni shamollatish tegishli belgilarni qayta bosish orqali amalga oshiriladi.

Havoni tozalash/oynadan kondensatni olib tashlash

Konditsioner tizimini boshqarish menyusida tegishli funksiyalarni boshqarish uchun "AIR PURIFICATION" / "DEFROST" (Havo tozalash / oynalardan kondensatni olib tashlash) ni tanlang.

"AIR PURIFICATION" / "DEFROST" (Havoni tozalash / oynalardan kondensatni olib tashlash) funksiyasini o'chirish tegishli belgilarni qayta bosish orqali amalga oshiriladi.

Tugmani bir marta bosish orqali isitishni yoqish funksiyasi

Konditsioner tizimini boshqarish menyusidan "ONE BUTTON HEATING" (Bitta tugmani bosish orqali isitishni yoqish funksiyasi) ni tanlang. Ushbu funksiya yoqilgandan so'ng, isitgich ishi bilan bog'liq barcha funksiyalar yoqiladi.

Bitta tugmani bosish orqali isitishni yoqish funksiyasi haydovchiga salonda belgilangan havo haroratiga tezda erishishni ta'minlash imkonini beradi. Ushbu funksiyani o'chirish uchun "ONE BUTTON HEATING" (Bitta tugmani bosish orqali isitishni yoqish funksiyasi) ni qayta tanlang.

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

TANISHIB CHIQING

- Shuni hisobga olish kerakki, sozlashning ma'lum funksiyalari va imkoniyatlari muayyan modelga bog'liq.
- Ular har bir avtomobilda turlicha bo'lishi mumkin. Masofadan boshqarish funksiyasidan foydalanishdan oldin avtomobil xavfsiz joyda ekanligiga va yo'l harakati qoidalariga rioya qilinayotganiga ishonch hosil qiling.

Energiyani boshqarish markazi

Tortish akkumulyator batareyasining quvvat darajasi va yurish zaxirasi avtomobil tasvirining tepasida ko'rsatiladi. Uning rangi zaryad darajasi 20% dan yuqori bo'lganda yashil, zaryad darajasi 20% dan past bo'lganda esa qizil rangga aylanadi.

Jadval bo'yicha quvvatlash uchun soat 00:00 dan 23:45 gacha 15 daqiqa oralig'ida vaqt belgilash mumkin. Standart holatda soat 08:00 dan 14:00 gacha (quvvatlanish davomiyligi 6 soat) jadval bo'yicha quvvatlash vaqti belgilangan.

Jadval bo'yicha zaryadlash uchun nafaqat vaqtni, balki haftaning dushanbadan yakshanbagacha bo'lgan kunini ham tanlash mumkin. Jadval bo'yicha quvvatlash sanasi tanlangandan so'ng, tizimda dasturlanadi.

Shinalar holati monitoringi

"Tire monitoring" (Shinalar holati monitoringi) bo'limida barcha to'rtta shinadagi havo bosimi va ularning harorati ko'rsatiladi. Har qanday me'yordan og'ishlarda tegishli ko'rsatkich ekranda qizil rangda ko'rsatiladi.

Xarita

Ushbu funksiya imkoniyatlari quyida keltirilgan.

Yorug'lik va ovozli signalizatsiya

"VEHICLE SEARCH" (Avtomobilni qidirish) menyusida, shuningdek, xarita menyusida

"FLASHING LIGHTS AND WHISTLING" (Yorug'lik va ovozli signalizatsiya) funksiyasini sozlash mumkin.

Tasdiqlangandan keyin avtomobilni topishni osonlashtirish uchun yorug'lik va ovozli signalizatsiya yoqiladi.

Avtomobil joylashuvi

"Map Service" (Xarita) menyusida "Vehicle Location" (Avtomobil joylashuvi) funksiyasini yoqing. Yoki shunchaki xaritada avtomobil belgisini bosing.

Funksiya yoqilsa, avtomobilning joylashuvi xaritada piktogramma shaklida ko'rsatiladi.

Avtomobilgacha marshrut tuzish

Tegishli menyuga o'tish uchun "MAP SERVICE" (Xarita) bandini tanlang, so'ngra " NAVIGATE TO VEHICLE" (Avtomobilga marshrut tuzish) bandini tanlang.

Ilova tashqi navigatsiya tizimini (Google Maps / Here We Go) ochadi.

Tashqi navigatsiya tizimi ochilgach, foydalanuvchining joriy joylashuvi va avtomobilning joriy joylashuvi boshlang'ich va yakuniy nuqta sifatida qabul qilinadi. Keyinchalik navigatsiya tizimi yordamida avtomobilga optimal marshrutni belgilash mumkin bo'ladi.

Himoya zonasi

Ushbu funksiya imkoniyatlari quyida keltirilgan.

■ **Himoya zonasi funksiyasi ma'lumotlarini ko'rish**

Tegishli menyuga o'tish uchun "MAP SERVICE" (Xarita) tanlang, so'ngra "ELECTRONIC FENCE" (Himoya zonasi) ni tanlang.

Bu yerda siz himoya zonasi chegaralari, o'lchami va nomini ko'rishingiz, bildirishnomalar yuborishni sozlashingiz mumkin va hokazo.

■ **Yangi himoya zonasini qo'shish**

Yangi himoya zonasini qo'shish uchun "ADD A FENCE" tugmasini bosing. Bu yerda siz himoya zonasi chegaralari, o'lchami va nomini ko'rishingiz, bildirishnomalar yuborishni sozlashingiz mumkin va hokazo.

■ **POI obyektlari ma'lumotlari so'rovi**

Bosh ekranda POI (point of interest) obyektlari haqida ma'lumot so'rash mumkin.

Shu bilan birga, ma'lumotlarni banklar, yoqilg'i quyish shoxobchalari, avtoturargohlar va boshqalar kabi aniq joylar yoki obyektlar turlari bo'yicha qidirish mumkin.

Manzilni topgach "SEND TO VEHICLE" (Avtomobilga yuborish) tugmasini bosing. Ilova ko'rsatilgan obyekt haqidagi ma'lumotni avtomobilga yuboradi va navigatsiya tizimi vositalari yordamida ushbu obyektga marshrutni belgilaydi.

 **TANISHIB CHIQING**

Ushbu xaritalash funksiyalari avtomobilni oson topish, marshrutni rejalashtirish, himoya zonasini o'rnatish va yaqin-atrofdagi POI obyektlari haqida ma'lumot so'rashga yordam beradi. U yoki bu funksiyalarning mavjudligi ilova versiyasi va mintaqaga bog'liq.

Avtorizatsiya

Shu bilan birga, banklar, yoqilg'i quyish shoxobchalari, avtoturargohlar va boshqalar kabi aniq joylar yoki obyektlar turlari bo'yicha ma'lumotlarni qidirish mumkin.

Ushbu funksiya beradigan imkoniyatlar quyida keltirilgan.

Добавление авторизованного пользователя

Yuqori o'ng burchakdagi sozlash tugmasini bosing va ro'yxatda "PRIVACY SETTINGS" (Ma'lumotlar maxfiyligi sozlamalari) bandi paydo bo'ladi.

Tegishli avtomobil uchun "REMOTE ACCESS OVERVIEW" (Masofaviy foydalanuvchilar avtorizatsiyasini boshqarish) bandini tanlang.

Add remote authorization (Ruxsat etilgan masofaviy foydalanuvchini qo'shish) bandini tanlang va ism, mobil telefon raqamini kiriting, avtorizatsiya muddatini ko'rsating, parolni kiriting (egasining parolidan tashqari) va qalqib chiquvchi oynada avtorizatsiya qilingan foydalanuvchi vakolatlarini cheklashni belgilang.

Avtomobil egasi vakolatli shaxsning avtomobilni masofadan boshqarish va uning turgan joyini aniqlash bo'yicha avtomobildan foydalanish huquqlarini cheklashi mumkin.

- Basic permission ruxsati avtomobil ma'lumotlarini ko'rish imkonini beradi.
- Masofadan boshqarish ruxsati avtomobilni masofadan boshqarish imkonini beradi.

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

- Vehicle positioning kartografik xizmatlar funksiyalaridan foydalanish imkonini beradi.

Foydalanuvchini avtorizatsiya qilish

Ilovada avtorizatsiyani sozlash yoki boshqarish sahifasida yakuniy foydalanuvchi avtorizatsiyasi parametrlarini tahrirlash mumkin.

Buning uchun tegishli avtorizatsiyalangan foydalanuvchini tanlash va uning ma'lumotlarini tahrirlash yoki huquqlarini o'zgartirish kerak.

Avtorizatsiyani o'chirish

Ilovada avtorizatsiyani sozlash yoki boshqarish sahifasida yakuniy foydalanuvchi avtorizatsiyasini o'chirish mumkin.

Bundan tashqari, ushbu sahifada avtorizatsiyalangan foydalanuvchini o'chirish mumkin. Shundan so'ng o'chirish amalini tasdiqlash kerak.

TANISHIB CHIQING

Avtorizatsiya funksiyasi yordamida avtomobil egasi boshqalarning avtomobilga kirishini nazorat qila oladi. Mulkdor yangi foydalanuvchini avtorizatsiya qilishi, boshqa avtorizatsiya qilingan foydalanuvchilarning ma'lumotlari va kirish darajalarini kuzatishi, ushbu ma'lumotlarni tahrirlashi va kirish darajalarini o'zgartirishi hamda avtorizatsiya qilingan foydalanuvchilarni o'chirishi mumkin. Shunday qilib, avtomobil egasi avtomobilga kirishni ta'minlash bilan bog'liq muammolarni osonlik bilan hal qilishi mumkin. U yoki bu funksiyalarning mavjudligi ilova versiyasi va mintaqaga bog'liq.

Hisobni o'chirish

«MY» sahifasiga o'ting

Ekranda «ACCOUNT SETTING» (Hisob sozlamalari) tanlang.

Hisobni o'chirish

Hisobni sozlash sahifasida «DELETE ACCOUNT» (Hisobni o'chirish) bandini tanlang.

Hisobni o'chirishni tasdiqlash

Hisobni o'chirishni tasdiqlang.

Eslatma: Hisob o'chirib tashlansa, unga tegishli barcha ma'lumotlar o'chadi va ularni tiklash imkonsiz bo'ladi. Ushbu amalni bajarishda ehtiyot bo'ling.

3-12. Mayda buyumlar va yuklarni joylashtirish

Mayda buyumlar va yuklarni joylashtirish

Eshikdagi cho'ntaklar



Old va orqa eshiklardagi cho'ntaklar yo'l xaritalari, stakanlar va boshqa buyumlarni saqlash uchun qo'llanilishi mumkin.

Qo'lqop qutisi



Qo'lqop qutisi yo'l xaritalari, avtomobildan foydalanish bo'yicha qo'llanma va boshqalarni saqlash uchun xizmat qiladi. Qo'lqop qutisini ochish uchun uning qopqog'ini tutqichidan tortish kerak.

XAVFLI

Avtomobil harakatlanayotganda qo'lqop qutisi yopiq bo'lishi kerak. Aks holda keskin tormozlash yoki to'satdan manyovr paytida yo'lovchi qo'lqop qutisining ochiq qopqog'iga yoki unda saqlanayotgan buyumlarga urilib jarohatlanishi mumkin.

Markaziy tirsak qo'ygich bo'limi



Markaziy tirsak qo'ygichdagi bo'lim yo'l xaritalari, avtomobildan foydalanish bo'yicha qo'llanmalar va boshqa buyumlarni saqlash uchun xizmat qiladi. Markaziy konsoldagi bo'lim qopqog'ini ochish uchun tegishli tugmani bosing.

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

XAVFLI

- Bolalarga markaziy tirsak qo'ygichdagi bo'lim qopqog'ida o'tirishga ruxsat bermang.
- Avtomobil harakatlanayotganda markaziy tirsak qo'ygichdagi bo'linma qopqog'i yopiq bo'lishi kerak. Markaziy tirsak qo'ygichdagi bo'linma qopqog'i ochiqligi haydovchining qo'l harakatiga xalaqit berishi va jarohatlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Markaziy stakay tutqich

Markaziy stakan tutqich ikkinchi qator o'rindig'i tirsak qo'ygichida joylashgan.

Ushbu stakan tutqichdan foydalanish uchun tirsak qo'ygichni tushirish kerak. Agar ushbu stakan tutqichdan foydalanmayotgan bo'lsangiz, tirsak qo'ygichni dastlabki holatiga qaytaring.

O'rindiq suyanchig'idagi cho'ntak



Ikkala old o'rindiqning orqa tomonida cho'ntaklar mavjud bo'lib, ularda hujjatlar, avtomobilidan foydalanish bo'yicha qo'llanma va boshqa buyumlarni saqlash mumkin.

Bagaj bo'limi



Orqa o'rindiq band bo'lmaganda, bagaj bo'limining foydali hajmini oshirish uchun orqa o'rindiqlarni yig'ish mumkin.

■ Yukni avtomobilga ortishda quyida tavsiflangan ehtiyot choralariga rioya qiling:

1. Yuk bagaj bo'limiga bir tekisda taqsimlanishi kerak.
2. Yonilg'i sarfini kamaytirish uchun avtomobilida keraksiz buyumlarni tashimang.
3. Yuklangan bagaj yuxkonga eshigini yopishga xalaqit bermasligiga ishonch hosil qiling.

XAVFLI

- Ochiq yoki to'liq yopilmagan bagaj bo'limi eshigi bilan harakatlanish taqiqlanadi. Ushbu talabning bajarilmasligi bagaj bo'limidan buyumlarning tushib ketishiga va odamlarning jarohatlanishiga olib kelishi mumkin.
- Bagaj bo'limida yo'lovchilarni tashish taqiqlanadi. Yo'lovchilar o'z o'rindiqlarida xavfsizlik kamarlarini taqib o'tirishlari kerak. Aks holda, yo'lovchilar to'satdan tormozlash yoki yo'l-transport hodisasida og'ir jarohat olishlari mumkin.
- Yukni bagaj bo'limiga joylashtirayotganda, uning orqa o'rindiqlik suyanchig'idan yuqorida joylashmasligiga e'tibor bering. Tormozlash paytida yukning oldinga siljishini istisno qilish uchun uni iloji boricha pastroq joylashtiring, chunki bu yo'lovchilarning jarohatlanishiga olib kelishi mumkin.

Yuqori yukxona



Yuqori yukxona tomda yuk tashish uchun mo'ljallangan. Avtomobil tomiga tushadigan maksimal ruxsat etilgan yukdan oshmang, bu yuk yuqori yukxona va unga qo'yilgan yuk massasidan iborat.

DIQQAT

- Yuqori yukxonaga uzun yoki keng yukni joylashtirishda uning avtomobil o'lchamlaridan chiqishiga yo'l qo'ymang.
- Avtomobil tomiga tushadigan maksimal ruxsat etilgan yukdan oshish yukxona, lyuk qopqog'i, kuzov va boshqa qismlarning kafolat bilan qoplanmaydigan shikastlanishiga olib kelishi mumkin.
- Harakatni boshlashdan oldin, yukning yuqori bagajga mahkam o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling. Zarur bo'lsa, yuk va tom orasiga himoya materiali soling. Tomni tirnashdan ehtiyot bo'ling.

XAVFLI

- Yukni bir tekis taqsimlang. Yukning noto'g'ri taqsimlanishi avtomobil boshqaruviga yoki tormozlash samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu esa o'z navbatida jarohatlar, shu jumladan o'limga olib kelishi mumkin.
- Yukni yuqori bagajga joylashtirish avtomobilning og'irlik markazi balandligining oshishiga olib keladi. Bunday holda, yuqori tezlikda harakatlanish, keskin tezlashish yoki avtomobilning boshqaruvchanligini yo'qotishi yoki ag'darilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan keskin manevrlarni cheklash kerak.

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

3-13. USB ulagich

Old USB ulagich



USB old ulagichi markaziy konsolning pastki qismida joylashgan (rasmda ko'rsatilgan).

Type-A ulagichi: ushbu ulagichga xotira qurilmasi yoki mobil telefonni ulash, shuningdek, kichik toklarni iste'mol qiladigan elektr jihozlarni, masalan, mobil telefonni zaryadlash mumkin.

Type-C ulagichi: ushbu ulagich yordamida kichik tok iste'mol qiladigan elektr jihozlarni, masalan, mobil telefon va boshqalarni zaryadlash mumkin.

Orqa USB ulagich



USB orqa ulagichi rasmda ko'rsatilgandek markaziy tirsak qo'ygich orqa qismida joylashgan.

Type-A ulagichi: ushbu ulagich yordamida kichik tok iste'mol qiladigan elektr jihozlarni, masalan, mobil telefon va boshqalarni zaryadlash mumkin.

Type-C ulagichi: ushbu ulagich yordamida kichik tok iste'mol qiladigan elektr jihozlarni, masalan, mobil telefon va boshqalarni zaryadlash mumkin.

3-14. Elektr rozetkasi (12 V)

Orqa elektr rozetkasi




Orqa elektr rozetkasi yukxonaning chap tomonida joylashgan (rasmda ko'rsatilgandek). Dvigatelni ishga tushirish tugmasi ACC yoki ON holatida bo'lgandagina elektr rozetkadan foydalanish mumkin.

DIQQAT

- Akkumulyator batareyasi zaryadsizlanishining oldini olish uchun elektr rozetkasidan keragidan ortiq foydalanmang.
- Saqlagichning ortiqcha yuklanishi va kuyib qolishining oldini olish uchun ulanadigan iste'molchining quvvati 12 V kuchlanishda 120 Vt dan oshmasligi kerak.
- Elektr rozetkasiga maxsus mo'ljallangan shtepseldan boshqa biror buyumni o'rnatish taqiqlanadi. Elektr rozetkasiga suyuqlik tushmasligiga e'tibor bering. Bu talabga rioya qilmaslik elektr uskunalarni ishdan chiqarishi yoki qisqa tutashuvga sabab bo'lishi mumkin.

3-15. Pardoz ko'zgusi bo'lgan quyoshdan himoyalovchi soyabonlar

Pardoz ko'zgusi bo'lgan quyoshdan himoyalovchi soyabonlar



Kosmetik ko'zgodan foydalanish uchun quyoshdan himoyalovchi soyabonni tushiring va kosmetik ko'zgu qopqog'ini oching. Bunda uning chirog'i yonadi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun).

- 1** Quyosh soyabonini tushiring.
- 2** Soyabonni ilgakdan ajratib va quyosh nuridan himoya qilish uchun uni yon tomonga buring.

3-16. Kapot

Kapotni ochish/yopish



- 1-qadam. Kapotni ochish dastasini torting. Bunda kapotning old qismi bir oz ko'tariladi.
- 2-qadam. Kapotni oching. Kapot ochiq holatda gaz to'ldirilgan ustunlar bilan ushlab turiladi.
- 3-qadam. Kapotni tushiring va kapot qulfi yopilishi uchun bosing.
- 4-qadam. Kapotni yopgandan so'ng, uni biroz ko'tarishga harakat qiling va kapot to'liq yopilganligiga ishonch hosil qiling.


3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

DIQQAT

- Kapotni yopishdan oldin uning ostida asboblari, mato va boshqa buyumlar qolmaganligiga ishonch hosil qiling.
- Kapotni yopayotganda, uni deformatsiya lamaslik uchun qo'lingiz bilan qattiq bosmang.
- Harakatni boshlashdan oldin kapotning yopiqligiga ishonch hosil qiling. Ushbu talabga rioya qilmaslik jarohatlar va avtomobilning shikastlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

3-17. Bagaj bo'limi eshigi

Elektr uzatmasiz bagaj bo'limi eshigi



1-usul. Eshiklar markaziy qulf bilan ochilganda, avtomobilning orqa tomoniga o'ting va yukxona eshigidagi tashqi tugmani bosib oching.

2-usul. Eshiklar markaziy qulf bilan qulflanganda, avtomobilning orqa tomoniga masofadan boshqarish pulti bilan boring va yukxona eshigidagi tashqi tugmani bosib oching.

TANISHIB CHIQING

Agar eshiklar markaziy qulf yordamida qulflangan bo'lsa, avval ularni markaziy qulf yordamida oching, keyin bagaj bo'limi eshigidagi tashqi tugmani bosib oching.

XAVFLI

Harakatni boshlashdan oldin, bagaj bo'limining eshigi to'liq yopiqligiga ishonch hosil qiling. Bagaj bo'limi ochiq eshigi shikastlanishi yoki baxtsiz hodisaga sabab bo'lishi mumkin.


Elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)

Qulaylik uchun elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigini ochish va yopishning bir nechta usullari mavjud. Buni haydovchi eshigidagi tugma, bagaj bo'limi eshigidagi tashqi tugma, bagaj bo'limi eshigini ochish tugmasi, masofadan boshqarish pulti va ovozi buyruq yordamida amalga oshirish mumkin. Bundan tashqari, bagaj bo'limi eshigining ochilish balandligini sozlash imkoniyati mavjud.


Masofadan boshqarish pulti


Ushbu amalni bajarish uchun dvigatelni ishga tushirish tugmasi OFF holatida bo'lishi kerak. Masofadan boshqarish pultidagi bagaj bo'limi eshigini ochish tugmasini uzoq vaqt bosib turish elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigining ochilishi yoki yopilishiga olib keladi.

Haydovchi tomonidagi tugma yordamida bagaj bo'limi eshigini ochish



OMT18-2211


Eshiklar markaziy qulf yordamida ochilganda, tugmani "  " bosib turing. Avariya yorug'lik signalizatsiyasi chiroqlari yonib-o'chadi va elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigi ochiladi yoki yopiladi.

Agar harakat paytida quyidagi elektr uzatmali yukxona eshigi tugmasi bosilsa,  yukxona eshigi to'xtaydi.


Tezkor nazorat



OMT18-2212

Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazing. Bagaj bo'limi eshigining elektr uzatmasini yoqish/o'chirish uchun tegishli "  " tugmasini bosib: Audio System (Audio tizim) -Settings (Sozlamalar) - Quick Control (Tezkor nazorat).

Bagaj bo'limi eshigi tashqi tugmasi



OMT18-2213

1-usul. Markaziy qulf yordamida eshiklarni oching. Avtomobilning orqa tomoniga yaqinlashib, yukxona eshigidagi tashqi tugmani bosib. Avariya yorug'lik signalizatsiyasi chiroqlari yonib-o'chadi va elektr uzatmali yukxona eshigi ochiladi yoki yopiladi.

2-usul. Ushbu amalni bajarish uchun eshiklar markaziy qulf yordamida qullangan bo'lishi kerak. Masofadan boshqarish pulti bilan avtomobilning orqa tomoniga o'ting va yukxona eshigidagi tashqi tugmani bosib. Avariya yorug'lik signalizatsiyasi chiroqlari yonib-o'chadi va elektr uzatmali yukxona eshigi ochiladi yoki yopiladi.


3. AVTOMOBIL JIHOZLARI


TANISHIB CHIQUING

Agar eshiklar markaziy qulf yordamida qulflangan bo'lsa, avval ularni markaziy qulf yordamida oching, keyin esa bagaj bo'limi eshigidagi tashqi tugmani bosib oching.

Bagaj bo'limi eshigi ichki tugmasi



Elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigi ochiq bo'lsa, "  " tugmasini bosib bagaj bo'limi eshigi yopila boshlaydi.


Agar harakat paytida elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigi tugmasi bosilsa, bagaj bo'limi  eshigi to'xtaydi.

Bagaj bo'limi eshigi ochilish balandligi



Dvigatelni ishga tushirish tugmasi ON holatida bo'lganda, quyidagi ekranda bagaj bo'limi eshigining ochilish balandligini o'rnatish: Audio System (Audio tizim) - Settings (Sozlamalar) - Vehicle Settings (Avtomobil sozlamalari).



Bagaj bo'limi eshigini ochganingizdan keyin tugmani  uzoq bosib, uning ochilish balandligini belgilashingiz mumkin. Ochilish balandligi belgilanganda, tasdiqlash uchun favqulodda yorug'lik signalizatsiyasi chiroqlari yonib-o'chadi.

TANISHIB CHIQING

- Ovozli buyruqlarni aniqlash funksiyasi haqida batafsil ma'lumot olish uchun "Audio tizim" bo'limiga qarang.
- Bagaj bo'limi eshigining ochilish balandligini juda kichik yoki juda yuqori qilib o'rnatolmaysiz.
- Agar elektr uzatmali bagaj bo'linmasi eshigini ochish yoki yopish paytida istalgan tugma - bagaj bo'linmasi eshigini ochish tugmasi, bagaj bo'linmasi eshigini elektr uzatmasi tugmasi yoki masofadan boshqarish pultidagi bagaj bo'linmasi eshigini ochish tugmasi bosilsa, - bagaj bo'linmasi eshigi to'xtaydi.

DIQQAT

- Agar bagaj bo'limi eshigi elektr uzatmasi soz bo'lmasa, avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
- Elektr uzatma ishlayotganda, bagaj bo'limi eshiklari ustunini yon tomonga tortmang, chunki bu bilan siz uzatma qismlariga zarar yetkazishingiz mumkin.
- Harakatni boshlashdan oldin bagaj bo'limining eshigi yopiq ekanligiga ishonch hosil qiling. Ushbu talabga rioya qilmaslik jarohatlar va avtomobilning shikastlanishiga sabab bo'lishi mumkin.
- Yukxona eshigini ochishdan oldin uning harakat yo'nalishida devorlar va boshqa begona jismlar yo'qligiga ishonch hosil qiling. Aks holda, unga zarar yetkazishingiz mumkin.
- Yukxona eshigini yopishdan oldin, u hech kimni qisib qo'ymasligiga ishonch hosil qiling. Agar biror jism yukxona eshigini yopishga xalaqit bersa, uni qayta berkitishga urining.
- Yukxona eshigi maksimal balandlikka ko'tarilganda, uni qo'lda yanada balandroq ko'tarishga urinmang, bu bilan siz uzatma qismlariga zarar yetkazishingiz mumkin.
- Yukxona eshigini qo'lda yopayotganda, unga ortiqcha kuch sarflamang. Aks holda elektrodvigatel va uzatma mexanizmiga shikast yetkazishingiz mumkin.
- Agar avtomobil qiyalikda turgan bo'lsa, bagaj bo'limi eshigining elektr uzatmasi ishga tushmasligi mumkin. Bu normal holat. Yukxona eshigini oching yoki yoping.
- Akkumulyator batareyasi uzilgandan va qayta ulangandan so'ng quyidagi amallar bajarilishi kerak. Yukxona eshigini to'liq yopiq holatga keltiring. Shu bilan birga, uni bir tekisda, doimiy tezlikda yopish kerak. Tugmani bosing va odatdagidek elektr uzatma yordamida yukxona eshigini oching va yoping.

XAVFLI

Harakatni boshlashdan oldin, bagaj bo'limi eshigi to'liq yopiqligiga ishonch hosil qiling. Bagaj bo'limining ochiq eshigi shikastlanish yoki baxtsiz hodisaga sabab bo'lishi mumkin.

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

Bagaj bo'limi eshigi qisishdan himoya funksiyasi


Ochilganda qisishdan himoya funksiyasi - agar ochilganda bagaj bo'limi eshigi to'siqqa (masalan, devorga) tiralsa, qisishdan himoya funksiyasi eshikni shikastlanishdan saqlash uchun uni to'xtatadi.

Yopilish paytida qisishdan himoya funksiyasi - agar yopilish paytida bagaj bo'limi eshigi to'siqqa (masalan, bolaga yoki bagajga) tegsa, qisishdan himoya funksiyasi bolaga jarohat yetkazmaslik va avtomobilga zarar yetkazmaslik uchun eshikni to'xtatadi.

XAVFLI

Avtomobil bagaj bo'limi eshigi qisishdan himoya funksiyasiga ega bo'lsa-da, bu funksiyani suiste'mol qilmaslik kerak. Bu jarohatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Bagaj bo'limi eshigini favqulodda ochish




Akkumulyator batareyasi zaryadsizlanganda va boshqa shu kabi holatlarda bagaj bo'limi eshigini elektr uzatma yordamida ocha olmaysiz. Bunday holda, siz yukxona eshigini favqulodda ochish funksiyasidan foydalanishingiz kerak (buni faqat harakatsiz avtomobilda amalga oshirish mumkin).


1-qadam. Orqa o'rindiqli suyanichig'ini yig'ing.

2-qadam. Bagaj bo'limiga o'ting va favqulodda ochish mexanizmi qopqog'ini oching.

3-qadam. Favqulodda ochish dastagini o'ngga bosib, uni qo'yib yuboring va ochish uchun bagaj bo'limi eshigini itaring.

3-18. Yonilg'i baki quyish bo'g'zining lyuki



1-qadam. Dvigatelni ishga tushirish tugmasini OFF holatiga o'tkazing. Ushbu tugmani bosib ushlab turing:  Asboblar paneli displeyida yonilg'i quyishga tayyorlik ("It is ready to refuel, please refuel") xabari paydo bo'ladi va bosim pasaygandan so'ng yonilg'i bakining quyish bo'g'zi lyuki ochiladi.

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI



2-qadam. Yonilg'i baki quyish bo'g'zi lyukini ochgandan so'ng, uni bosing. Lyuk biroz ochiladi.



3-qadam. Yonilg'i baki quyish bo'g'zi qopqog'ini soat miliga teskari yo'nalishda burang.

4-qadam. Avtomobilga yonilg'i quyilgandan so'ng yonilg'i baki quyish bo'g'zi qopqog'ini joyiga o'rnatib va uni soat mili yo'nalishi bo'yicha shiqillaguncha burang.

5-qadam. Yonilg'i baki quyish bo'g'zi lyukini dastlabki holatiga keltiring va uni bosish orqali qulflang.

TANISHIB CHIQING

- Yonilg'i baki quyish bo'g'zi lyuki yopilgach, u 30 soniyadan keyin qayta bloklanadi.
- Yonilg'i baki quyish bo'g'zi lyuki ochilgandan keyin 10 daqiqa davomida ochilmasa, lyuk qayta yopiladi.
- Yoqilg'i atrof-muhitni ifloslantiradi. To'kilgan yoqilg'ini yig'ib, utilizatsiya qilish kerak.

3. AVTOMOBIL JIHOZLARI

DIQQAT

- Bakka dizel yoqilg'isini quyish taqiqlanadi.
- Yonilg'i bakining quyish bo'g'zi qopqog'ini kuch bilan tortib, qo'yib yuboring. Qopqoq biroz teskari tomonga buriladi. Bu normal holat.
- Qopqoq shikastlanmasligi uchun unga faqat qopqoq aylanadigan tomonga kuch bilan ta'sir qiling. Qopqoqni bosmang va uni o'zingizga tortmang.
- Yonilg'i bakining quyish bo'g'zi qopqog'ini ochganda, yengil vishillashni eshitishingiz mumkin. Bu normal holat.
- Past harorat sharoitida yonilg'i bakining quyish bo'g'zi lyuki muzlab qolishi mumkin va o'g'irlashga qarshi tizimning qo'riqlash rejimi o'chirilgandan so'ng, lyukni ochish uchun uni bosish kerak bo'lishi mumkin. Bu normal holat.
- Yonilg'i quyish vaqtida bakdan yonilg'i sachrab ketgan bo'lsa, lak-bo'yoq qoplamasi shikastlanmasligi uchun to'kilgan yonilg'ini darhol artib tashlash kerak.
- Agar harakatlanayotganda yonilg'i baki quyish bo'g'zining lyuki ochiqligini sezsangiz, avtomobilni to'xtating va yonilg'i baki quyish bo'g'zining lyukini yoping.
- O'g'irlashga qarshi tizimning qo'riqlash rejimi yoqilganda, yonilg'i bakining quyish bo'g'zi lyukiga ortiqcha kuch sarflamang. Aks holda, siz lyuk uzatmasining qismlariga zarar yetkazishingiz mumkin.

XAVFLI

- Yonilg'i baki quyish bo'g'zi lyuki to'liq yopilmagan bo'lsa, dvigatelning nosozlik signalizatori yonishi mumkin.
- Yoqilg'i bug'laridan nafas olish taqiqlanadi, chunki ular tarkibida sog'liq uchun xavfli moddalar mavjud.
- Avtomobilga yoqilg'i quyishdan oldin dvigatelni ishga tushirish tugmasini OFF holatiga o'tkazing va barcha eshik va derazalarni yoping.
- Yonilg'i quygach, yonilg'i baki quyish bo'g'zi qopqog'i ishonchli mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling, chunki bu baxtsiz hodisaga sabab bo'lishi mumkin.
- Yonilg'i quyish kolonkasi avtomatik o'chirilgach yonilg'i quyishni davom etmang! To'la bakdan yonilg'i otilib chiqishi yong'in, portlash va jiddiy jarohatlarga sabab bo'lishi mumkin.
- Yonilg'i bakining quyish bo'g'zi qopqog'ini sekin burash kerak. Issiq havoda yonilg'i bakining quyish bo'g'zi qopqog'ini tezda ochsangiz, unda yuqori bosim ostida bo'lgan yonilg'i bug'lari sizni jarohatlashi mumkin.
- Avtomobildan tushgach, yonilg'i baki quyish bo'g'zining tiqinini ochishdan oldin, statik elektr zaryadini olib tashlash uchun avtomobilning bo'yalmagan metall qismiga teging. Bu statik elektr razryadida yonilg'i bug'larini alanga oldirishi mumkin bo'lgan uchqunlarning oldini olishga imkon beradi.
- Benzin yengil alanganuvchi suyuqliklar toifasiga kirgani uchun yoqilg'i quyishda chekish va mobil telefondan foydalanish taqiqlanadi. Bundan tashqari, yaqin atrofda uchqun yoki ochiq alanga manbalari bo'lmasligi kerak.

4-1. Avtomobilning elektr ta'minoti rejimlarini almashtirish	4-4. Uzatmalar qutisi
Dastlabki amallar 168	Avtomatik uzatmalar qutisi..... 178
Quvvatni yoqish 168	Rul kolonkasidagi tugma ... 179
Quvvatni o'chirish..... 169	4-5. Intellektual to'liq uzatmali tizim (AWD) (avtomobilning ayrim variantlari uchun)
4-2. Rul boshqaruvi	Intellektual to'liq uzatmali tizim (AWD) (avtomobilning ayrim variantlari uchun) 180
Rul boshqaruvi elektr kuchaytirgichi (EPS)..... 170	Haydash rejimi..... 181
4-3. Tormoz tizimi	4-6. Xavfsizlik yostiqlari
Elektr uzatmali to'xtash tormozi (EPB) 171	Xavfsizlik yostiqlari 186
Avtomobilni avtomatik ushlab turish tizimi (AUTO HOLD) 174	
Ishchi tormoz tizimi 176	

4. AVTOMOBILNI BOSHQARISH

4-1. Avtomobilning elektr ta'minoti rejimlarini almashtirish

Dastlabki harakatlar

- 1-qadam. Avtomobilga chiqishdan oldin uning atrofidagi joyni tekshiring.
- 2-qadam. O'rindiq holati, suyanchiq balandligi va rul g'ildiragi qiyalik burchagini sozlang.
- 3-qadam. Ichki va tashqi orqa ko'rish oynalarining holatini sozlang.
- 4-qadam. Xavfsizlik kamarlarini taqing.
- 5-qadam. To'xtash tormozi yoqilgani va selektor R holatida ekaniga ishonch hosil qiling.
- 6-qadam. Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazing va asboblار panelida faqat yonishi kerak bo'lgan signalizatorlar va indikatorlar yonayotganligiga ishonch hosil qiling. Aks holda, avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga zudlik bilan murojaat qilish kerak.
- 7-qadam. Tizim masofadan boshqarish pultini aniqlashi uchun u haydovchi yoki avtomobilda bo'lishi kerak. Kuch agregatini yoqish uchun tormoz pedalini bosing, yashil **READY** rangli indikator yonadi.

Quvvatni yoqish


Oddiy sharoitlarda quvvatni yoqish

Quflarni ochgandan so'ng, oldingi chap eshikni oching. Avtomobilning ta'minotini ulash avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

DIQQAT

Dvigatelni ishga tushirish tugmasi ON holatida bo'lganda, avtomobilning elektr jihozlaridan uzoq vaqt foydalanmang. Agar tortish batareyasining quvvat darajasi pastligi haqida ogohlantirish paydo bo'lsa, uni quvvatlash stansiyasidan yoki IYODdan o'z vaqtida quvvatlang. Aks holda tortish akkumulyator batareyasining quvvatsizlanishi natijasida avtomobilni ishga tushirishning iloji bo'lmay qolishi mumkin. Agar tortish batareyasining quvvatsizlanishi tufayli avtomobilni ishga tushirishning iloji bo'lmasa, uni quvvatlash pistoleti ulangandan keyin ishga tushirish mumkin. Agar avtomobilni ishga tushira olmasangiz, rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Oddiy sharoitlarda ishga tushirish



Elektr quvvati yoniq bo'lsa, avtomobilga masofadan boshqarish pult bilan o'tiring. Avtomobilni ishga tushirish uchun tormoz pedalini bosing va asboblار panelida tizimning yashil indikator yonadi: **READY**

TANISHIB CHIQING

Avtomobil tayyor holatda (READY) va dvigatel o'chirilgan bo'lsa, avtomobilni tark etishdan oldin selektor R holatiga o'tkazilganini tekshiring.

Ekstremal sharoitda ishga tushirish

Masofadan boshqarish pulti quvvat elementi zaryadsizlanganda yoki signallariga to'siq bo'lganda, avtomobil ishga tushirish funksiyasi beqaror ishlashi mumkin. Bunday holda, avtomobilni ishga tushirish uchun quyida tavsiflangan amallardan foydalanish kerak.



OMT18-3021

Masofadan boshqarish pulti rasmda ko'rsatilgandek, old tomoni yuqoriga qaragan holda markaziy konsoldagi bo'limga qo'yiladi. Tormoz pedalini bosib va asboblar panelida yashil chiroq **READY** yonadi.

DIQQAT

- Dvigatelning uzoq vaqt yoki tez-tez neytral ishlashidan saqlaning.
- Qizdirilmagan dvigatelni tirsakli valning yuqori aylanish chastotasida yoki katta yuklanish ostida ishlashiga yo'l qo'ymaslik kerak. Agar tortish batareyasi zaryadsizlangan bo'lsa va avtomobilni ishga tushirish Sport rejimida amalga oshirilsa, dvigatel yuqori tezlikda ishlashi mumkin. Bu normal hodisa.

Quvvatni o'chirish

Oddiy sharoitlarda quvvatni o'chirish



OMT18-3022


1-usul. Agar elektr ta'minoti yoqilgan avtomobilda haydovchi o'rindiqda bo'lmaganida, eshiklar yopiq va selektor R holatida bo'lganida qulflar yopilsa, avtomobilning elektr ta'minoti o'chiriladi.

2-usul. Agar harakatga tayyor holatda bo'lgan avtomobilda haydovchi o'rindiqda haydovchi bo'lmaganida, oldingi chap eshik ochiq va selektor R holatida bo'lganda, avtomobilning elektr ta'minoti yoqilsa, so'ngra barcha eshiklar yopilsa va qulflar qullansa, avtomobilning elektr ta'minoti o'chiriladi.

⚠️ DIQQAT

- Tez-tez manyovra qilish va rul g'ildiragini uzoq vaqt davomida burish rul boshqaruvining elektr kuchaytirgichi mexanizmini ishdan chiqarishi mumkin.
- Avtomobil qo'zg'almay turganda rul g'ildiragini tez va tez burish taqiqlanadi - bu kuchaytirgich qismlarining qizishiga olib keladi. Kuchaytirgich qismlari qizib ketganda rul g'ildiragi "og'ir" bo'lib qoladi, bu normal holat. Rul g'ildiragini burishni to'xtatib, dvigatelni ishga tushirish tugmasini ACC/OFF holatiga o'tkazib va kuchaytirgich qismlarining sovishiga imkon bering.


Rul boshqaruvi elektr kuchaytirgichi signalizatori

Tizim nosoz bo'lsa, asboblar panelidagi qizil signalizator doimiy  yonadi.

⚠️ XAVFLI

Rul boshqaruvi elektr kuchaytirgichi ishdan chiqqan taqdirda, rul boshqaruvi tizimi ishlash qobiliyatini saqlab qoladi, ammo avtomobilni ehtiyotkorlik bilan boshqarish kerak. Birinchi imkoniyatdayoq avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Rul boshqaruvi elektr kuchaytirgichi ish rejimlari



Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazib va tegishli ekranda rul boshqaruvi kuchaytirgichining reaktiv kuchini sozlang: Audio System (Audiotizim) - Settings (Sozlamalar) Vehicle Setting (Avtomobil tizimlari sozlamalari). Ikki kuch darajasi mavjud: Mid (o'rta) va Sport (sport). Yangi sozlamalar keyingi o't oldirish siklida kuchga kiradi.

4-3. Tormoz tizimi

Elektr uzatmali to'xtash tormozi (EPB)

Tavsifi

Elektr uzatmali to'xtash tormozi (EPB) ikki vazifani bajaradi: avtomobil qisqa vaqt to'xtaganda uni o'z joyida ushlab turish va uzoq vaqt to'xtab turganda uni o'z joyida ushlab turish. Elektr uzatmali to'xtash tormozi mexanik uzatmali to'xtash tormozining o'rnini egalladi.

4. AVTOMOBILNI BOSHQARISH

Foydalanish usullari



Elektr uzatmali to'xtash tormozi ishlash shartlari (EPB)

Avtomobil harakatga tayyor holatda, haydovchining xavfsizlik kamari taqilgan, chap old eshik yopilgan va tormoz pedali bosilgan.

Elektr uzatmali to'xtash tormozini yoqish (EPB)

Agar elektr uzatmali (EPB) to'xtash tormozini yoqish shartlari bajarilsa, boshqaruv markazidagi ushbu tugmani bosib (P). Asboblar panelidagi tizimning qizil indikator yonib (P), elektr uzatmali to'xtash tormozi (EPB) yoqilganini bildiradi.

Elektr uzatmali to'xtash tormozi (EPB) avtomobilning elektr ta'minoti o'chirilganda yoki selektor R holatiga o'tkazilganda avtomatik ravishda ishg tushadi.

Elektr uzatmali to'xtash tormozini o'chirish (EPB)

Elektr uzatmali to'xtash tormozi (EPB) yoqilgan bo'lsa, boshqaruv markazidagi tugmani (P) bosib. Asboblar panelidagi qizil indikator o'chib (P), elektr uzatmali to'xtash tormozi (EPB) o'chirilganini bildiradi.

Elektr uzatmali to'xtash tormozini avtomatik o'chirish (EPB)

Agar avtomobil gorizontaal yuzada turgan bo'lsa, haydovchining xavfsizlik kamari taqilgan va oldingi chap eshik yopilgan bo'lsa, u holda selektor P holatidan D yoki R holatiga o'tkazilganda elektr uzatmali to'xtash tormozi (EPB) avtomatik ravishda o'chadi. Bunda asboblar panelidagi ushbu tizimning qizil indikator o'chadi. (P)

Agar avtomobil qiyalikda turgan bo'lsa, haydovchining xavfsizlik kamari taqilgan va oldingi chap eshik yopiq bo'lsa, u holda selektor P holatdan D yoki R holatga o'tkazilganda va akselerator pedali yetarlicha kuchli bosilganda elektr uzatmali (EPB) to'xtash tormozining avtomatik o'chishi faqat yetakchi g'ildiraklarga uzatilayotgan dvigatelning tortish kuchi qiyalikda turgan avtomobil g'ildiraklariga ta'sir etuvchi kuchdan katta bo'lgandagina sodir bo'ladi.



TANISHIB CHIQING

Avtomobilni shatakka olishdan oldin to'xtash tormozini o'chirish va selektorni N (neytral) holatiga o'tkazish kerak.


⚠️ DIQQAT

- Akkumulyator batareyasining zaryadlanish darajasi past (12 V) bo'lganda elektr uzatmali to'xtash tormozi va avtomobilni avtomatik ushlab turish tizimi ishlamaydi. Ishga tushirish simlari yordamida dvigatelni ishga tushiring.
- Agar to'xtash tormozini yoqish yoki o'chirish paytida tormoz pedali bosilgan bo'lsa, u biroz yuqoriga ko'tarilishi yoki pastga tushishi mumkin. Bunday holda, tormoz pedalini bosishda davom eting.
- Elektr uzatmali to'xtash tormozini avtomatik o'chirishdan oldin haydovchining xavfsizlik kamarini taqish va chap old eshikni yopish kerak. Agar to'xtash tormozini avtomatik o'chirish uchun ushbu shartlar bajarilmasa, to'xtash tormozi o'chmaydi.
- Elektr uzatmali to'xtash tormozi yoqilganda va o'chirilganda, avtomobilning orqa qismida vishillagan tovush eshitiladi. Ushbu tovush to'xtash tormozining ishlashi natijasida yuzaga keladi. Bu normal hodisa.
- Agar avtomobil to'xtatilgandan va to'xtash tormozi yoqilgandan so'ng ko'p o'tmay avtomobil oldinga yoki orqaga siljisa, tizim avtomatik ravishda avtomobilni o'z joyida ushlab turish uchun tormoz mexanizmlaridagi bosimni oshiradi. Tormoz mexanizmlarida bosimning ortishi o'ziga xos tovush bilan kuzatiladi. Bu normal hodisa.

⚠️ XAVFLI

Elektr uzatmali to'xtash tormozi (EPB) ishga tushirilgandan so'ng avtomobil to'xtaganda yoki undan chiqishda avtomobilning ixtiyorsiz harakatlanishini oldini olish uchun asboblardan panelidagi to'xtash tormozi tizimining qizil signalizatori  va to'xtash tormozi tugmasidagi indikator qisqa muddatga yonadi, so'ngra o'chadi. Elektr uzatmali to'xtash tormozi yoqilganini tekshirish uchun asboblardan panelidagi qizil tormoz signalizatori va to'xtash tormozi tugmasi  indikatorini yoqilishini kuting.

Favqulodda tormozlash

Ishchi tormoz tizimi ishlamay qolganda, elektr uzatmali to'xtash tormozining ulagichini torting va uni shu holatda ushlab turing. To'xtash tormozi yordamida favqulodda tormozlash boshlanadi. Favqulodda tormozlash paytida asboblardan panelidagi to'xtash tormozi  qizil signali millitlaydi. Favqulodda tormozlashni o'chirish uchun elektr uzatmali to'xtash tormozining ulagichini qo'yib yuboring.

4. AVTOMOBILNI BOSHQARISH

XAVFLI

- Avtomobilni normal sharoitda boshqarishda ushbu funksiyadan ehtiyotkorlik bilan foydalaning. Avtomobil harakatlanayotganda, yo'lovchilar tasodifan to'xtash tormozining ulagichini tortib qo'ymasligiga e'tibor bering. Aks holda, bu yo'l-transport hodisasiga sabab bo'lishi mumkin.
- Shoshilinch tormozlash paytida g'uvillagan tovush eshitiladi. Bu normal hodisa.
- Favqulodda tormozlashda elektr uzatmali to'xtash tormozi o'zgarmas tormozlash kuchini hosil qiladi, uning qiymati haydovchi mo'ljallagan tormozlash kuchiga mos kelmasligi mumkin. Shunga ko'ra, tormozlanish yo'li kutilganidan farq qilishi mumkin.
- Ishchi tormoz tizimi ishlamay qolganda yoki tormoz pedalini bosish imkoniyati bo'lmaganda shoshilinch tormozlashdan foydalanish kerak. Dinamik barqarorlashtirish tizimi (ESP) va uning tarkibiy qismlari shinalarning yo'l bilan ilashishining fizik chegaralarini o'zgartirishga qodir emas. Shuning uchun egri-bugri yo'lda, yo'lning xavfli qismida, serqatnov yo'lda yoki ekstremal ob-havo sharoitida shoshilinch tormozlash avtomobilning sirpanib ketishiga, chetga chiqib ketishiga yoki ag'darilishiga olib kelishi mumkin. Ehtiyot bo'ling! Bu yo'l-transport hodisasiga sabab bo'lishi mumkin.

Avtomobilni avtomatik ushlab turish tizimi (AUTO HOLD)

Harakatsiz turgan avtomobilda ushbu tizim haydovchi harakatni boshlash uchun oyog'ini tormoz pedalidan akselerator pedaliga o'tkazganda avtomobilning surilishiga yo'l qo'ymaydi.

Foydalanish usullari



Avtomatik ushlab turish tizimini faollashtirish

Avtomobil dvigateli ishga tushirilgan, haydovchining xavfsizlik kamari taqilgan, oldingi chap eshik yopiq.

Avtomatik ushlab turish tizimini yoqish

Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazing. Boshqaruv markazi ekranini displeyga chiqarish uchun audio tizim ekranini pastga suring. Avtomobilni avtomatik tutib turish tizimi ishga tushadigan shartlar bajarilsa, uni yoqish uchun " (A) " tugmani bosing. Bunda asboblardagi " (A) " oq indikator yonadi.

Avtomatik ushlab turish tizimini faollashtirish

Avtomobilni avtomatik ushlab turish tizimi yoqilgan va selektor D (harakat) holatida bo'lganda, avtomobilni sekinlashtirish va to'liq to'xtatish uchun tormoz pedalini bosing. Avtomobilni avtomatik ushlab turish tizimi ishga tushadi va asboblardan panelida (A) yashil indikator yonadi.

Harakatsiz avtomobilda avtomobilni avtomatik ushlab turish tizimi yoqilgan holda tormoz pedalini bosing. Agar tizimni faollashtirish shartlariga rioya qilinsa, ushbu tizim faollashadi va (A) asboblardan panelidagi yashil indikator yonadi.

Avtomatik ushlab turish tizimini o'chirish

Avtomobilni ushlab turish tizimi yoqilganida, uni o'chirish uchun boshqaruv markazi ekranidagi " (A) " tugmani bosing. Bunda asboblardan panelida joylashgan tizimning oq indikator o'chadi: (A) .

Avtomatik tutib turish tizimi yoqilgan bo'lsa, uni o'chirish uchun boshqaruv markazi ekranidagi " (A) " tugmani bosing. Bunda asboblardan panelidagi yashil indikator o'chib, avtomobilni avtomatik (A) ushlab turish tizimi o'chganini va elektr uzatmalari to'xtash tormozi yoqilganini ko'rsatadi.

Avtomatik to'xtab turish tizimi tomonidan yoqilgan to'xtash tormozini o'chirish
Ushbu jarayon elektr uzatmalari to'xtash tormozini qo'lda yoki avtomatik ravishda o'chirish jarayonidan farq qilmaydi.

DIQQAT


- Avtomobil yuvish joyiga kirishdan oldin avtomatik ushlab turish tizimini o'chiring.
- Avtomobilni avtomatik ushlab turish tizimi faqat selektor D (harakat) holatida bo'lganda faollashtirilishi mumkin va selektor R (orqaga yurish) holatida bo'lganda faollashtirilmaydi.
- Avtomobilni har doim yo'l harakati qoidalari va xavfsizlik talablariga muvofiq to'xtating. O'zingizga yoki piyodalarga jarohat yetkazmaslik uchun ehtiyot bo'ling.
- Agar haydovchi akselerator pedalini juda sekin bossa, avtomatik ushlab turish tizimi darhol o'chmasligi mumkin. Bu normal hodisa.
- Avtomobilni avtomatik ushlab turish tizimi yoqilgan bo'lsa, chap old eshikni oching yoki haydovchi xavfsizlik kamarini yechib, ushbu tizimni o'chiring va elektr uzatmalari to'xtash tormozini yoqilgan holda qoldiring.
- Avtomobilni avtomatik ushlab turish tizimi yoqilgan bo'lsa, tizimni o'chirish uchun chap old eshikni oching yoki haydovchi xavfsizlik kamarini yeching. Avtomatik ushlab turish tizimini qayta yoqish uchun chap old eshikni yoping va haydovchi xavfsizlik kamarini taqing.
- Agar avtomatik ushlab turish tizimi yoqilgan bo'lsa, haydovchi avtomobilni tormoz pedalini bosib to'xtatsa, avtomatik ushlab turish tizimi avtomatik ravishda ishga tushadi. Bunda selektor ilgariidek D holatda bo'lishi mumkin (harakat). Agar to'xtash uzoq davom etmasa, selektorni N (neytral) holatiga, agar uzoq davom etsa, P (to'xtash) holatiga o'tkazing.

4. AVTOMOBILNI BOSHQARISH

⚠ XAVFLI

Avtomobilni avtomatik ushlab turish tizimi yoqilganda, avtomobilning beixtiyor harakatlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun, akselektor pedalini bosishdan oldin, selektorning holatini tekshiring.

Ishchi tormoz tizimi



Ushbu avtomobil ikki mustaqil konturdan iborat ikki konturli tormoz tizimiga ega. Konturlardan biri ishdan chiqqan taqdirda, tormoz tizimining ishlash qobiliyati ikkinchi konturni ta'minlaydi. Ammo bunda haydovchi tormoz pedalini odatdagidan kuchliroq bosishiga to'g'ri keladi, avtomobilning tormoz yo'li uzayadi va tormoz tizimidagi nosozlik signalizatori yonadi.

⚠ XAVFLI

Tormoz tizimining faqat bitta ishchi konturi bo'lgan avtomobilni boshqarish taqiqlanadi. Bunday holda, avtomobilni rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga tekshirish va ta'mirlash uchun imkon qadar tezroq yetkazib berish kerak.

Tormoz tizimi nosozlik signalizatori

Tormoz tizimi nosoz bo'lganda asboblardan panelida qizil indikator  yonadi.

⚠ XAVFLI

Tormoz tizimining nosozlik signalizatori yonib, o'chmasa, asosiy tormoz silindri baki ichidagi tormoz suyuqligi sathini tekshirish kerak. Agar u MIN belgisidan past bo'lsa, bakka tormoz suyuqligini quyish kerak. Agar nosozlik sababi aniqlanmasa, birinchi imkoniyatdayoq rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Tormoz tizimidan foydalanishda ehtiyot choralarini

1. Tormozlash paytida rul g'ildiragiga uzatiladigan doimiy zarba yoki tebranish paydo bo'lsa, avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun zudlik bilan rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
2. Tushishda harakatlanishda dvigatel bilan tormozlashdan maksimal foydalanish va ishchi tormoz tizimining doimiy qo'llanilishini istisno qilish uchun pasaytirilgan uzatmani yoqish kerak. Aks holda tormoz mexanizmlari qizib ketib, tormoz yo'li uzayadi va tormoz tizimi ishdan chiqishi mumkin.
3. Ish paytida tormoz tizimi ba'zan o'ziga xos tovushlar chiqarishi mumkin. Biroq, agar uzoq vaqt hushtak yoki shovqin eshitilsa, bu tormoz kolodkalarining kuchli yeyilishidan dalolat berishi mumkin. Ularni almashtirish uchun birinchi imkoniyatdayoq rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

4. Eng yaxshi sekinlashishni ta'minlash uchun yangi tormoz kolodkalari moslashish davrini o'tishi kerak. Bunda kolodkalar almashtirilgandan keyin 200 km davomida tormoz tizimining samaradorligi yetarli bo'lmasligi mumkin. Bu ta'sirni qoplashning yagona yo'li - tormoz pedalini bosish kuchini mos ravishda oshirishdir.

5. Tormoz mexanizmlari namlanganda, tormozlash paytida avtomobilning sekinlashishini aniqlab bo'lmaydi va avtomobilning chetga chiqib ketishi kuzatilishi mumkin. Bu holda tormozlash samaradorligini tekshirish uchun tormoz pedalini biroz bosing. Chuqur ko'lmakdan o'tgandan keyin xavfsiz tezlikda harakatlaning. Tormoz mexanizmlarini quritish uchun tormoz pedalini bir necha marta yengil bosing va tormoz tizimining ishlash samaradorligini tiklang.

6. Tormoz kolodkalarining yeyilishi ko'p jihatdan ekspluatatsiya sharoitiga va avtomobilni haydash uslubiga bog'liq. Asosan shahar sharoitida foydalaniladigan avtomobillarda tez-tez to'xtash va joyidan qo'zg'alish tormoz kolodkalarining tez yeyilishiga olib keladi. Shuning uchun muntazam ravishda (avtomobilga texnik xizmat ko'rsatish reglamentiga muvofiq) tormoz kolodkalarining qalinligini tekshirish va ularni almashtirish uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qilish kerak.

4. AVTOMOBILNI BOSHQARISH

4-4. Uzatmalar qutisi

Avtomatik uzatmalar qutisi

Avtomobil elektron boshqaruvli avtomatik uzatmalar qutisi bilan jihozlangan.




Tormoz pedalini bosib va selektorni D (harakat) holatiga o'tkazing. Avtomobil sekin harakatlanishi uchun to'xtash tormozini o'chirib (qo'lda yoki elektr uzatma yordamida) va akselerator pedalini ohista bosib.

XAVFLI

- Avtomobilni uzoq masofaga yoki katta tezlikda shatakka olish taqiqlanadi. Avtomobilni shatakka olishda yetakchi g'ildiraklarni yerdan ko'tarish yoki yetakchi valni ajratish kerak.
- Agar selektor N (neytral) holatda bo'lsa, to'xtash tormozini yoqish yoki tormoz pedalini bosish kerak. Ushbu talabga rioya qilmaslik yo'l-transport hodisasiga sabab bo'lishi mumkin.

Uzatmalar qutisi avariya ishlash rejimi

Uzatmalar qutisi nosoz bo'lganda avtomatik ravishda avariya rejimiga o'tadi va asboblar panelida uzatmalar qutisining nosozlik signalizatori bo'lgan sariq rangli  signalizator yonadi. Bu rejimda uzatmalar qutisining imkoniyatlari cheklangan bo'lib, avtomobil faqat past tezlikda harakatlanishi mumkin.

DIQQAT

Uzatmalar qutisining avariya rejimida uzoq masofalarga yurish taqiqlanadi. Aks holda uzatmalar qutisi ishdan chiqishi mumkin. Avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerlarning xizmat ko'rsatish stansiyasiga darhol murojaat qiling.

Rul kolonkasidagi tutqich



P holati: avtomobil to'xtab turgan, tormoz pedali bosilgan va selektor P (to 'xtab turish) holatida emas: selektorni P (to'xtash) holatiga o'tkazish uchun rul kolonkasidagi pereklyuchatelning o'ng tomonidagi tugmani bosing.

R holati: avtomobil qo'zg'almas holatda turibdi, tormoz pedali bosilgan: selektorni R (orqaga yurish) holatiga o'tkazish uchun rul kolonkasidagi pereklyuchatelni ko'taring.

D holat: avtomobil qo'zg'almas holatda turibdi, tormoz pedali bosilgan: selektorni D (harakat) holatiga o'tkazish uchun rul kolonkasidagi pereklyuchatelni tushiring.

N holati: avtomobil harakatsiz turibdi, tormoz pedali bosilgan: selektorni quyida ko'rsatilgandek N (neytral) holatiga o'tkazing.

1. Agar D/P diapazoni yoqilgan bo'lsa, rul kolonkasidagi pereklyuchatelni ko'tarib, N (neytral) holatiga o'tkazing.
2. Agar R diapazoni yoqilgan bo'lsa, N (neytral) holatiga o'tish uchun rul kolonkasidagi pereklyuchatelni tushiring.

Diapazon qiymatlari

Selektor holati	Описание
P holati	Ushbu holat avtomobilni to'xtab turishi uchun belgilangan. Avtomobilni ishga tushirish mumkin.
R holati	Ushbu holat orqaga yurish uchun mo'ljallangan. Bu holatda orqaga yurish chiroqlari va to'xtash joyida signalizatsiya tizimi yoqiladi.
N holati	Ushbu holatda uzatmalar qutisida neytral yoqilgan. U elektr ta'minotini o'chirmasdan avtomobilni qisqa muddatli to'xtatish uchun mos keladi.
D holati	Ushbu holat oldinga harakatlanish uchun mo'ljallangan. Unda uzatmalarni o'zgartirish avtomobil tezligi va yuklanishini hisobga olgan holda avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

4. AVTOMOBILNI BOSHQARISH

DIQQAT

- Selektor N (neytral) holatda bo'lganida yurish taqiqlanadi, chunki bu uzatmalar qutisini ishdan chiqarishi mumkin.
- Avtomobil to'liq to'xtamaguncha selektorni P (to'xtash joyi) holatiga qo'yish taqiqlanadi. Bu talabga rioya qilmaslik natijasida o'ziga xos tovush va transmissiyaning ishdan chiqishi mumkin.
- Avtomobil oldinga harakatlanayotganda selektorni D (harakat) holatidan chiqarish taqiqlanadi. Aks holda transmissiya jiddiy shikastlanishi mumkin.
- Avtomobil orqaga harakatlanayotganda selektorni R (orqaga yurish) holatidan chiqarish taqiqlanadi. Aks holda transmissiya jiddiy shikastlanishi mumkin.
- Selektorni P (to'xtash) holatidan chiqarishdan oldin, avtomobilning to'liq harakatsiz holatini ta'minlash uchun tormoz pedalini bosib va ushlab turing. Shundan so'ng selektorni kerakli holatga o'tkazing. Aks holda mexanizm shikastlanishi mumkin.
- Akkumulyator batareyasi zaryadsizlanganda, hatto tormoz pedalini bosganingizda ham selektorni P (to'xtash) holatidan chiqara olmaslik holati yuzaga kelishi mumkin. Bunday holda, avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilemning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
- Avtomobilni qiyalikda to'xtatishda avval to'xtash tormozi yoqiladi va shundan so'ng selektor P (to'xtash joyi) holatiga o'tkaziladi. Sirpanchiq yo'lda harakatni boshlashda avval selektorni P (to'xtash joyi) holatidan chiqaring, so'ngra to'xtash tormozini o'chirib, harakatni boshlang.

4-5. Intellektual to'liq uzatma tiziml (AWD) (avtomobilning ayrim variantlari uchun)

Intellektual to'liq uzatma tiziml (AWD) (avtomobilning ayrim variantlari uchun)

6 ta haydash rejimi mavjud: ECO / NORMAL / SPORT / SNOW / MUD / OFF-ROAD.

Ushbu rejimlarning barchasida to'liq uzatma tizimi intellektual asosda bir o'qli uzatma va ikkala o'qli uzatma o'rtasida o'tishni amalga oshiradi.

Haydash rejimini yo'l sharoitlarini hisobga olgan holda qo'lda tanlash mumkin. Off-road (yo'lsizlik) rejimi og'ir haydash sharoitlari uchun eng mos keladi.

DIQQAT

- Agar dinamik barqarorlashtirish tizimi o'chirilgan bo'lsa, hatto Snow / Mud / Sand / Off-road rejimlarida ham sirpanishga qarshi funktsiya ishlamaydi va avtomobilning yo'lsizlikdan o'tish qobiliyati pasayadi.

Haydash rejimi

Haydash rejimi



OMT18-3055

Dvigatelni ishga tushirish tugmasi ON holatida va avtomobil harakatsiz va xavfsiz sharoitda bo'lganda, quyida tavsiflangan amallarni bajaring.

Kontekst menyudan haydash rejimlarini o'zgartirish tugmasini bosing (NORMAL / SPORT / ECO / SNOW / MUD / OFF-ROAD). Bunda asboblar panelida tegishli rejim piktogrammasi va haydash rejimi muvaffaqiyatli almashtirilgani haqidagi xabar paydo bo'ladi.



OMT18-3056

Dvigatelni ishga tushirish tugmasi ON holatida va avtomobil harakatsiz va xavfsiz sharoitda bo'lganda, quyida tavsiflangan amallarni bajaring. Quyidagi ekranda haydash rejimini tanlang (NORMAL / SPORT / ECO / SNOW / MUD / OFF-ROAD): Audio System (Audio tizim) - Vehicle Setting (Avtomobil tizimi sozlamalari) - Drive (Haydash). Bunda asboblar panelida tegishli rejim piktogrammasi va haydash rejimi muvaffaqiyatli almashtirilgani haqidagi xabar paydo bo'ladi.



OMT18-3054

Dvigatelni ishga tushirish tugmasi ON holatida bo'lganda va avtomobil qo'zg'almas (yoki xavfsiz sharoitlarda harakatlanayotgan) bo'lganda, tugma dastasini burang. Audiotizim bosh qurilmasi displeyida kerakli haydash rejimini tanlang. Asboblar panelida tegishli rejimning piktogrammasi paydo bo'ladi va haydash rejimi muvaffaqiyatli almashtirilgani haqida ovoqli tasdiq eshutiladi.

Dvigatelni ishga tushirish tugmasi ON holatida bo'lganda va avtomobil qo'zg'almas (yoki xavfsiz sharoitlarda harakatlanayotgan) bo'lganda, tugma dastasini burang. Audiotizim bosh qurilmasi displeyida kerakli haydash rejimini tanlang. Asboblar panelida tegishli rejimning piktogrammasi paydo bo'ladi va haydash rejimi muvaffaqiyatli almashtirilgani haqida ovoqli tasdiq eshutiladi.

4. AVTOMOBILNI BOSHQARISH

TANISHIB CHIQING

Tanlangan haydash rejimini xotirada saqlash funksiyasini quyidagi ekranda yoqish yoki o'chirish mumkin: Audio System (audio tizim) - Vehicle Center (avtomobilni boshqarish markazi) - Vehicle Settings (avtomobil sozlamalari) (faqat ECO / NORMAL / SPORT rejimlari uchun amal qiladi).

Haydash rejimlari tavsifi

Quyidagi jadvalda haydashning turli rejimlari va ularning vazifalari haqida ma'lumot berilgan.

Haydash rejimi	Tavsifi
Standard	NORMAL rejimi foydalanish xususiyatlari va yoqilg'i tejamkorligining optimal kombinatsiyasini ta'minlaydi va ko'pchilik yo'l sharoitlari uchun mos keladi.
ECO	ECO rejimida avtomobilning yoqilg'i tejamkorligi oshadi. Ushbu rejim qattiq qoplamali yo'llarning gorizontaal qismlarida (shahar ko'chalarida) harakatlanish uchun mos.
Sport	SPORT rejimida avtomobilning tortish-dinamik xususiyatlari yaxshilanadi. Bu rejim keng yo'llarning transport kam bo'lgan gorizontaal qismlarida (masalan, tezyurar avtomagistrallarda) harakatlanish uchun mos keladi.
Snow	qor, muz, o't, shag'al va shunga o'xshash qattiq va silliq yuzalarda harakatlanish uchun mo'ljallangan.
Mud	ushbu rejim loy va notekis yuzalarda tekis va sayoz loy qatlami bilan harakatlanish yoki g'ildirak izlari bo'lgan yo'llar uchun mo'ljallangan.
Off-road	Bu rejim tezlik dinamikasini yaxshilaydi va avtomobilning o'tkazuvchanligini oshiradi. Bu rejim toshlar ustida harakatlanish va tiqilib qolgan avtomobilni chiqarib olish uchun mos keladi.

TANISHIB CHIQING

- Snow / Mud / Off-road rejimlarida "stop-start" tizimi odatiy sozlamalarda o'chirilgan.
- Avtomobil oynalari va lyuki ochiq holda harakatlanganda suv salonga tushib, avtomobilni ishdan chiqarishi mumkin. Yo'lsizlikda harakatlanayotganda, deraza va lyuklarni doimo yopiq tuting.
- ECO /Snow / Mud rejimlarida adaptiv kruiz-nazorat tizimi (ACC) avtomobilning kamroq intensiv tezlanishini, Sport / Off-road rejimlarida esa ko'proq intensiv tezlanishini ta'minlaydi.

Yo'lsizlikda yurishga tayyorgarlik

Yo'lsizlikda harakatlanishdan oldin avtomobilni xavfsiz boshqarishning tegishli usullarini nazariy jihatdan o'rganish va amalda o'zlashtirish zarur. Yo'lsizlikda avtomobilni boshqarish texnikasi umumiy foydalanishdagi yo'llarda avtomobilni boshqarish texnikasidan farq qiladi. Haydovchining bilimi, mahorati va ehtiyotkorligiga uning ham, yo'lovchilarning ham xavfsizligi bog'liq.

XAVFLI

- Yo'lsizlikda haydashda qiyalikka ko'ndalang harakatlanishdan saqlanang.
- Avtomobil tezligi va haydash uslubingiz atrofidagi sharoitlarga mos kelishini ta'minlang.
- Avtomobilda noma'lum yo'lsizlikni bosib o'tishdan oldin marshrutni piyoda bosib o'tgan holda diqqat bilan o'rganib chiqing.
- Juda tez haydashdan (ayniqsa burilishlarda) va xavfli manyovrlardan saqlanang.
- Avtomobil tezligi va haydash uslubingizni avtomobil yuklamasi, ko'rinish shartlari, shuningdek, yo'l va ob-havo sharoitlarini hisobga olgan holda moslashtiring.
- Bu, ayniqsa, yo'lsizlikda taalluqlidir.
- Avtomobil ag'darilsa, kamarsiz yo'lovchilar kamarli yo'lovchilarga qaraganda halok bo'lish ehtimoli yuqori.
- Yuqori yukxonada yuk va boshqa buyumlarning mavjudligi avtomobilning ag'darilib ketish xavfini oshiradi.
- Og'irlik markazi yuqori bo'lgan avtomobil oddiy yengil avtomobilga qaraganda harakatlanish paytida ko'proq ag'dariladi.
- Avtomobil yerdan uzilgan taqdirda, old g'ildiraklarni to'g'ri chiziqli harakatlanish holatiga o'rnatang. Aks holda, avtomobil yerga tushgandan keyin ag'darilishi mumkin.
- Kruiz-nazorat tizimi qattiq qoplamali yo'llarda harakatlanish uchun mo'ljallangan bo'lib, yo'lsiz joylarda yurish uchun mos emas. Ushbu tizimni yo'lsiz joylarda qo'llash xavfli.
- Yo'lsizlik sharoitida alohida ehtiyotkorlik va puxtalik talab etiladi. Ruxsat etilgan tezlikni oshirish va noto'g'ri harakatlar jiddiy jarohatlarga va avtomobilning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.
- Daryo qirg'oqlari, tepaliklar yoki qiyaliklarda juda yuqori tezlikda harakatlanmang. Avtomobil sakrab yerdan uzilib ketishi mumkin, natijada siz burilishni bajara olmaysiz va avtomobil boshqaruvini yo'qotasiz.

4. AVTOMOBILNI BOSHQARISH

XAVFLI

- Haydovchi va yo'lovchilar uchun xavf tug'diradigan yo'nalishlar va harakatlardan saqlanib, Marshrut xavfsizligiga shubha qilsangiz, orqaga qayting va boshqa marshrutni tanlang.
- Yo'lsizlikda haydash bir qarashda unchalik qiyinchilik tug'dirmasa-da, haydovchi va yo'lovchilar uchun o'ziga xos nozik jihatlar va xavflar mavjud. Yaxshisi, xavfli joydan piyoda o'tib, oldindan atrofni ko'zdan kechirish kerak.
- Bir qarashda xavfli tuyulmaydigan yo'lsizlik qismi kutilmagan holatlarni yashirishi mumkin. Suv, o't-o'lan yoki yerda yotgan shox-shabbalar bilan to'liq yoki qisman berkitilgan chuqurlar, ariqlar, izlar, katta toshlar, loyli joylar va boshqa to'siqlarni darhol payqamasligingiz mumkin. Zarur bo'lsa, marshrutni piyoda bosib o'tib o'rganing.
- Agar avtomobil qiyalikka ko'ndalang to'xtagan bo'lsa, qiyalik etagiga qaragan eshiklar orqali avtomobilni tark etmang. Salondagi odamlar va yuklarning siljishi avtomobil og'irlik markazining o'zgarishiga va uning ag'darilishiga olib kelishi mumkin. Avtomobilni faqat qiyalik cho'qqisiga qaragan eshiklar orqali tark etish kerak.
- Bir qarashda xavfli tuyulmaydigan yo'lsizlik qismi kutilmagan holatlarni yashirishi mumkin. Suv, o't-o'lan yoki yerda yotgan shox-shabbalar bilan to'liq yoki qisman berkitilgan chuqurlar, ariqlar, izlar, katta toshlar, loyli joylar va boshqa to'siqlarni darhol payqamasligingiz mumkin. Bu kabi o'ydin-chuqur joylarda harakatlanish jiddiy jarohat olish va avtomobilga zarar yetkazish xavfini tug'diradi.

Tiqilib qolgan avtomobilni chiqarib olish

Tiqilib qolgan avtomobilni chiqarib olishda noto'g'ri harakatlar uning yanada ko'proq tiqilib qolishiga olib kelishi mumkin. Bunday holda, tashqi yordamga murojaat qilish kerak.

■ G'ildiraklar qiyin aylansa nima qilish kerak?

To'rtta g'ildirakni ehtiyotkorlik bilan qazib oling va avtomobilning qolgan qismlari ham erkin ekanligiga ishonch hosil qiling. Selektorni R (orqaga yurish) holatiga o'tkazing va o'z yo'lingiz bo'ylab orqaga yuring. Agar g'ildiraklardan biri sirpanayotgan bo'lsa, shina old qismi ostiga daraxt shoxi, oyoq uchun gilamcha yoki xaltacha qo'yiladi. Bu uning tuproq bilan ilashishini yaxshilaydi va g'ildirakdagi tortish kuchini oshiradi.

■ Tiqilib qolgan avtomobilni chiqarib olish

Rul g'ildiragini to'g'ri chiziqli harakatlanish holatiga qo'ying. G'ildiraklarning sirpanishi boshlanguncha orqaga yuring. Shundan so'ng darhol 1-uzatmani yoqing va g'ildiraklarning sirpanishi boshlanmaguncha oldinga harakatlaning. G'ildirak izi uzunligi oldinga yoki orqaga harakatlanish uchun yetarli bo'lmaguncha sakrab harakatlanishda davom eting.

 XAVFLI

- Uzoq vaqt davomida g'ildiraklarning sirpanishiga yo'l qo'ymang. Aks holda avtomobil yanada chuqurroq ko'milishi mumkin.
- Avtomobilning oldida yoki orqasida hech kim bo'lmasligi kerak.
- To'xtab qolgan avtomobil joyidan keskin qo'zg'alishi va o'zidan oldinda yoki orqada turgan odamni urib yuborishi mumkin.
- G'ildiraklar ostidan uchib chiqayotgan toshlar, shoxlar, taxtalar va boshqa jismlar odamga halokatli jarohat yetkazishi mumkin.

Yo'lsizlikda yurgach amalga oshiriladigan ishlar

1. Off-Road rejimini o'chiring.
2. Zarur bo'lsa, shatak qulog'ini burab chiqaring va sirpanishga qarshi zanjirlarni olib tashlang.
3. Radiator panjarasi va avtomobil ostonalaridagi kirlarni tozalang.
4. Kapotni ochib, motor bo'limini ko'zdan kechiring. Unda dvigatelning ishlashiga xalaqit beradigan loy bo'laklari yo'qligiga ishonch hosil qiling.
5. Yoritish va yorug'lik signalizatsiyasi asboblari, shuningdek, barcha eshiklarning oynalarini kirdan tozalang.
6. Shinalar, amortizatorlar va ko'priklar shikastlanmaganligini tekshiring. Shina protektoridan yirik loy bo'laklari, toshlar va boshqa begona jismlarni olib tashlang.
7. Avtomobil ostonalari ko'zdan kechiring, tormoz mexanizmlari, shassi qismlari, chiqarish tizimi va dvigateldan shoxlar va barglar kabi begona jismlarni olib tashlang. Yonilg'i yoki ishchi suyuqliklarning shikastlanishi yoki sizib chiqishi aniqlanganda, zudlik bilan rasmiy dilerlarning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

 XAVFLI

- Agar ostonalar, tormoz mexanizmlari, g'ildiraklar, shassi, chiqarish tizimi yoki dvigatel qismlarida begona jismlar tiqilib qolgan bo'lsa, harakatni davom ettirmang.
- Quruq barglar va shoxlar kabi yonuvchan materiallar chiqarish tizimining issiq komponentlari bilan aloqa qilish natijasida yonib ketishi mumkin. Yonilg'in og'ir jarohatlarga olib kelishi mumkin.
- Ostonalar ostida qolib ketgan obyektlar xavf tug'diradi. Har safar yo'lsizlikda harakatlangach ostonada begona narsalar qolib ketmaganligini tekshirish kerak.
- Tiqilib qolgan begona jismlar yonilg'i magistrallari, zichlagichlar, tormoz tizimi qismlari va shassini shikastlashi mumkin. Bu avtomobil ustidan nazoratni yo'qotish va yo'l-transport hodisasi bilan bog'liq.


4. AVTOMOBILNI BOSHQARISH

4-6. Xavfsizlik yostiqdari

Xavfsizlik yostiqdari

Kuchli old yoki yon zarbada xavfsizlik yostiqdari ishga tushadi. Ular xavfsizlik kamarlari bilan birgalikda haydovchi va yo'lovchilarning himoyasini ta'minlaydi. Xavfsizlik yostiqdari ishga tushgach eshiklar avtomatik ravishda ochiladi, salinni yoritish plafonlari va favqulodda yorug'lik signalizatsiyasi yoqiladi.


Xavfsizlik yostiqdari joylashuvi




OMT18-3060

- 1 Haydovchi xavfsizlik yostig'i
- 2 Old yo'lovchi xavfsizlik yostig'i
- 3 Markaziy xavfsizlik yostig'i (avtomobilning ayrim variantlari uchun)
- 4 Old o'rindiq suyanchig'idagi yon xavfsizlik yostiqdari
- 5 Ikkinchi qator o'rindiqlari suyanchig'idagi yon xavfsizlik yostiqdari (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)
- 6 Xavfsizlik darpardalari

Xavfsizlik yostig'idan foydalanish qoidalari



Kuchli old to'qnashuvda haydovchi xavfsizlik yostig'i, old yo'lovchi xavfsizlik yostig'i va haydovchi tizzalarini himoyalovchi xavfsizlik yostig'i (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) xavfsizlik kamarlari bilan bir qatorda haydovchi va old yo'lovchining interyer qismiga urilishi natijasida bosh va ko'krak qafasining shikastlanish darajasini kamaytirishga yordam beradi (old yo'lovchining xavfsizlik yostig'i yo'lovchi o'rindiqda bo'lmagan taqdirda ham ishga tushishi mumkin).



Xavfsizlik yostig'i faqat to'qnashuvdagi zarba kuchi ma'lum miqdordan oshgandagina ishga tushadi. Ba'zi turdagi to'qnashuvlarda haydovchi va yo'lovchilarni himoya qilishning yagona vositasi xavfsizlik kamarlari hisoblanadi. Yo'l-transport hodisasida xavfsizlik kamarlaridan foydalanish haydovchi va yo'lovchilarning avtomobildan chiqib ketishi yoki salon elementlariga urilishi ehtimolini kamaytiradi, bu esa haydovchi va yo'lovchilarni himoya qilish samaradorligini oshiradi. Shuning uchun salondagi barcha odamlar xavfsizlik kamarlaridan foydalanishlari kerak. Xavfsizlik yostiqlari va xavfsizlik kamarlari kattalar va katta yoshdagi bolalarni himoya qila oladi, lekin emizikli bolalar va kichik yoshdagi bolalarni himoya qilish uchun mo'ljallanmagan.

Xavfsizlik yostig'i katta kuch bilan to'ldiriladi. Xavfsizlik yostig'ining ishga tushishi natijasida jarohatlanishning oldini olish uchun haydovchi va yo'lovchilar o'rindiqda to'g'ri joylashishlari, xavfsizlik kamari va o'rindiqlarning holatini sozlashlari, shuningdek, xavfsizlik yostig'iga yaqinlashmasliklari, masalan, o'rindiqlarning chetiga o'tirishlari yoki oldinga egilishlari mumkin emas. Agar avtomobil yon xavfsizlik yostiqlari va deraza pardalari bilan jihozlangan bo'lsa (avtomobilning ba'zi variantlari uchun), haydovchi va yo'lovchilarning yuqori oyoqlari yostiqlar va pardalarning ishlashi paytida jarohat olmaslik uchun avtomobil bortidan yetarli masofada bo'lishi kerak.

4. AVTOMOBILNI BOSHQARISH


DIQQAT

- Xavfsizlik yostig'i ishga tushgandan so'ng, uning tarkibiy qismlari yuqori haroratga ega bo'ladi. Shikastlanishning oldini olish uchun xavfsizlik yostig'ining ishlashi natijasida qizib ketgan komponentlarga tegish taqiqlanadi.
- Xavfsizlik yostiqlari qayta foydalanilmaydi. Ishga tushgandan so'ng xavfsizlik yostig'i moduli almashtirilishi kerak.
- Agar xavfsizlik yostiqlarini o'rnatish joylaridagi komponentlar (rul g'ildiragi gupchagining qoplamasi yoki boshqaruv paneli) shikastlangan bo'lsa, birinchi imkoniyatdayoq ularni almashtirish uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
- Gaz xavfsizlik yostiqlarini to'ldiradi va ulardan juda tez chiqib ketadi, yostiqlar yo'lovchilarni takroriy zarbadan himoya qila olmaydi.
- Xavfsizlik yostiqlari avtomobilning orqa qismiga zarba berilganda, old tomondan kuchsiz zarba berilganda va avtomobil ag'darilganda, shuningdek, favqulodda tormozlanganda ishga tushmaydi.
- Xavfsizlik yostig'idan gaz chiqayotganda tutun va chang paydo bo'ladi. Bu astma yoki boshqa respirator kasalliklar bilan og'rigan odamlarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun, xavfsizlik yostiqchasi ishga tushgandan so'ng, avtomobil ichidagilarning barchasi iloji boricha tezroq uni tark etishlari yoki toza havoga kirish uchun oynalarni ochishlari kerak. Zarur bo'lsa, tibbiy yordamga murojaat qilish kerak.

XAVFLI

- Old o'rindiqlarga g'ilof taqish taqiqlanadi, chunki bunday holda yon xavfsizlik yostiqlari (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) to'qnashuv paytida ishga tushmasligi mumkin, bu esa haydovchi va old yo'lovchining himoya darajasini pasaytiradi.
- Xavfsizlik yostiqlarining qoplamalarini tozalash uchun quruq yoki biroz nam matodan foydalaning. Xavfsizlik yostig'i moduliga suv kirishiga yo'l qo'ymang, chunki bu uning ishlashini buzishi mumkin.
- Avtomobil salonida to'kilgan suv xavfsizlik yostiqlarini ishdan chiqarishi mumkin. Natijada xavfsizlik yostig'i to'qnashuv bo'lmaganda ham ishga tushishi mumkin. Bunday holda, dvigatelni darhol o'chiring va simni akkumulyator batareyasining "manfiy" qutb chiqishidan uzing. Dvigatelni ishga tushirishga urinmang. Avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga darhol murojaat qiling.

Xavfsizlik yostig'i signalizatorlari

Xavfsizlik yostiqlari tizimi nosoz bo'lsa, asboblari panelidagi qizil rangli tizimning signalizatori  yonadi. Avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun birinchi imkoniyatdayoq rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.


Xavfsizlik yostig'i ishga tushish shartlari

Xavfsizlik yostiqlarining ishga tushish sharti avtomobil to'qnashuvdan oldingi tezligi emas, balki to'siq turi, zarba yo'nalishi va avtomobilning sekinlashish intensivligidir. Agar zarba kuchi kuzov tomonidan yutilgan bo'lsa, xavfsizlik yostig'i ishga tushmasligi mumkin. Xavfsizlik yostig'ining ishga tushishi zarba kuchiga ham, yo'nalishiga ham bog'liq. Shunday qilib, avtomobilning shikastlanish darajasi xavfsizlik yostiqchasining ishlash mezonini emas.

4. AVTOMOBILNI BOSHQARISH

Agar xavfsizlik yostig'i ishga tushmagan bo'lsa, bu uning avariya paytida shikastlanganini ham ko'rsatishi mumkin. Agar xavfsizlik yostig'i shikastlangan bo'lsa, u keyingi avariya da haydovchi yoki yo'lovchini himoya qila olmaydi, bu esa jarohatlarga sabab bo'lishi mumkin. Ehtimoliy YTHda xavfsizlik yostiqlarining ishlashini ta'minlash uchun, birinchi imkoniyatdayoq avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

- To'qnashuv bo'lmasa ham xavfsizlik yostiqlari ishga tushishi mumkin bo'lgan holatlar



Haydovchi va old yo'lovchining xavfsizlik yostiqlari, shuningdek, haydovchi tizzalarini himoyalovchi xavfsizlik yostig'i (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) kuzovning pastki qismiga kuchli zarba berilganda ishga tushishi mumkin.

- To'qnashuvda xavfsizlik yostiqlari ishga tushishi mumkin bo'lgan holatlar




Ishga tushish shartlari: qoida tariqasida, haydovchi va old yo'lovchi xavfsizlik yostig'i, shuningdek, haydovchining tizzalarini himoyalovchi xavfsizlik yostig'i (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) old to'qnashuvda, agar avtomobilning sekinlashish tezligi ma'lum qiymatdan oshsa, ishga tushadi.

- To'qnashuvda xavfsizlik yostiqlari ishga tushmaydigan vaziyatlar




Haydovchi va old yo'lovchi xavfsizlik yostiqlari, shuningdek, haydovchining tizzalarini himoyalovchi xavfsizlik yostig'i (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) orqa yoki yon to'qnashuvda, avtomobil ag'darilganda va past tezlikda old to'qnashuvda ishga tushmasligi mumkin.

4. AVTOMOBILNI BOSHQARISH



Haydovchi va old yo'lovchi xavfsizlik yostiqlari, shuningdek, haydovchining tizzalarini himoyalovchi xavfsizlik yostig'i (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) avtomobil ustunga yengil urilganda, yuk avtomobili yoki boshqa to'siq ostiga kimganda yoki yon tomondan burchak ostida urilganda ishga tushmasligi mumkin.



Yon xavfsizlik yostiqlari, deraza pardalari (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) va markaziy xavfsizlik yostig'i (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) yon tomondan to'qnashuvda, kuzov orqa qismiga yoki orqa g'ildirakka urilganda, shuningdek, ma'lum burchak ostida yon tomondan to'qnashuvda ishga tushmasligi mumkin.




Yon xavfsizlik yostiqlari, deraza pardalari (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) va markaziy xavfsizlik yostig'i (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) old yoki orqa to'qnashuvda, ag'darilganda va past tezlikda old to'qnashuvda ishga tushmasligi mumkin.


Xavfsizlik yostig'i bilan bog'liq ehtiyot choralari



Xavfsizlik yostig'ining ochilishiga begona jismlar xalaqit bermasligi kerak. Haydovchi (yo'lovchi) va xavfsizlik yostig'i orasida hech narsa bo'lmasligi kerak (mobil telefonlar va boshqalar). Xavfsizlik yostig'ining g'ilofiga yoki uning yoniga biron-bir buyumni yopishtirish yoki joylashtirish taqiqlanadi. Agar haydovchi (yo'lovchi) va xavfsizlik yostig'i o'rtasida begona jism bo'lsa, xavfsizlik yostig'i mo'ljallanganidek ishlamasligi yoki bu jismni haydovchi (yo'lovchi) tanasiga siqib, unga jiddiy shikast yetkazishi yoki uning o'limiga sabab bo'lishi mumkin.




O'rindiq chetida o'tirish yoki boshqaruv paneliga suyanish taqiqlanadi.



Harakat paytida bolaga old yo'lovchining xavfsizlik yostig'i moduli oldida turishga yoki old yo'lovchining tizzasida o'tirishga ruxsat bermang.

4. AVTOMOBILNI BOSHQARISH



Eshiklarga, shuningdek, kuzovning A, B va C ustunlariga suyanmang.

Yo'lovchilarga o'rindiqlarda tiz cho'kib, qo'llarini yoki boshini derazadan chiqarishga ruxsat bermang.



Boshqaruv paneliga, rul g'ildiragiga va boshqaruv panelining pastki qismiga har qanday buyumlarni mahkamlash yoki suyab qo'yish taqiqlanadi. Bu buyumlar haydovchi va old yo'lovchining xavfsizlik yostiqchalari ishga tushganda kuch bilan otilib ketishi mumkin.



Eshiklarga, deraza oynalariga, eshik oynalariga, kuzov A, B va C ustunlariga, tomga yoki tutqichlarga har qanday begona buyumlarni o'rnatish taqiqlanadi.

Xavfsizlik yostiqlari tizimining tarkibiy qismlari joylashgan hududga zarba berish yoki katta kuch ishlatish taqiqlanadi. Aks holda xavfsizlik yostig'i shikastlanishi mumkin.

Xavfsizlik yostig'i qismlarini almashtirish

Xavfsizlik yostiqlari tizimining tarkibiy qismlari avtomobil sotib olingandan keyin 10 yil o'tgach almashtirilishi kerak. Xavfsizlik yostiqchalarining normal ishlashini va shaxsiy xavfsizligingizni ta'minlash uchun belgilangan muddat tugagandan keyin rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.

Avtomobil boshqa shaxsga sotilgan taqdirda, unga xavfsizlik yostiqlarining joylashuvi va ularni rejalashtirilgan almashtirish sanasi haqida xabar bering.

Avtomobil tuzilishiga o'zgartirish kiritish va xavfsizlik yostig'i tizimi qismlarini utilizatsiya qilish

Rasmiy dilerning servis stansiyasi bilan oldindan maslahatlashmasdan avtomobilingizni utilizatsiya qilish yoki uning konstruksiyasiga quyida sanab o'tilgan o'zgartirishlarni kiritish taqiqlanadi. Ushbu talabga rioya qilmaslik baxtsiz hodisaga va odamlarning jarohatlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

1. Podveska konstruksiyasiga o'zgartirishlar kiritish.
2. Old bamber konstruksiyasiga o'zgartirishlar kiritish va h.k.

4. AVTOMOBILNI BOSHQARISH

3. Eshiklar konstruksiyasiga, eshiklar qoplamasiga, kuzov o'rtasidagi ustunlari qoplamasiga va boshqalarga o'zgartirishlar kiritish.
4. Xavfsizlik yostiqlarini o'rnatish, demontaj qilish, qismlarga ajratish yoki ta'mirlash.
5. Rul g'ildiragi, asboblar paneli, boshqaruv paneli va o'rinli qismlarni ta'mirlash, o'zgartirish, demontaj qilish yoki almashtirish.

- 5-1. Yo'l belgilarini aniqlash tizimi
(avtomobil ba'zi variantlari uchun)
Tezlikni cheklash belgilarini
aniqlash tizimi (SLA)
(avtomobilning ba'zi variantlari
uchun) 198
- 5-2. Harakat tezligini cheklash
tizimlari
Kruiz nazorati tizimi (CCS)
(avtomobilning ba'zi variantlari
uchun) 198
Adaptiv kruiz nazorati tizimi
(avtomobilning ba'zi variantlari
uchun)..... 200
Tezlikni intellektual boshqarish
(avtomobilning ba'zi variantlari
uchun) 206
Tezlik cheklovchisi (ASL)
(avtomobilning ba'zi variantlari
uchun) 207
- 5-3. Avtomobilni harakat yo'lagi
chegasida ushlab turish tizimi
Avtomobilni harakat yo'lagi
chegasida ushlab turish
tizimi (avtomobilning ba'zi
variantlari uchun)..... 208
- Harakat yo'lagini o'zgartirish
haqida ogohlantirish tizimi
(avtomobilning ba'zi variantlari
uchun) 209
Harakat yo'lagini
o'zgartirishning oldini olish
tizimi (avtomobilning ba'zi
variantlari uchun) 210
Favqulodda vaziyatlarda
avtomobilni harakat yo'lagi
markazida ushlab turish tizimi
(avtomobilning ba'zi variantlari
uchun) 212
- 5-4. "O'lik" zonalar nazorat tizimi
"O'lik" zonalarini nazorat qilish
tizimi (avtomobilning ba'zi
variantlari uchun) 213
Ochiq eshiklar haqida
ogohlantirish tizimi (DOW)
(avtomobilning ba'zi variantlari
uchun) 215
Ortdan zarba bilan to'qnashuv
xavfi haqida ogohlantirish tizimi
(RCW)

(avtomobilning ayrim variantlari uchun)	216	To'qnashuvni oldini olishning intellektual tizimi (IES) (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)	227
Orqaga harakatlanib yo'lga chiqishda xavf haqida ogohlantirish tizimi (RCTA) (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)	216	5-7. Haydovchi holatini kuzatish tizimi (DMS) (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)	
5-5. Haydash xavfsizligini ta'minlashga yordam beruvchi tizimlar		Haydovchi holatini kuzatish tizimi (DMS) (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)	227
Proyeksion displey (HUD) (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)	216	5-8. To'xtashda yordam tizimi	
Shinalardagi havo bosimini nazorat qilish tizimi (TPMS)	218	Aylana ko'rish monitori (AVM)	228
Avtomatik favqulodda tormozlash tizimi (AEB) / old to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi (FCW) .	220	To'xtashda yordam tizimi.....	232
5-6. Intellektual kruiz-nazorat tizimlari		5-9. Tormoz kuchini nazorat qilish tizimlari	
Tirbandlikda harakatlanishga yordam tizimi (TJA) / avtomobilni yo'lak markazida ushlab turish tizimi (ICA) (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)	223	Dinamik barqarorlashtirish tizimi	235
		Boshqariladigan tushish tizimi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)	236
		Antibloklash tormoz tizimi (ABS)	237
		Boshqa haydovchiga yordam tizimlari	239

5-10. Elektr tarmog'idan
quvvatlanadigan gibrid avtomobil
tizimi haqida ma'lumot (PHEV)

Tortish akkumulyator bataryasi	241
New Energy tizimi	244
Energiya rekuperatsiyasi darajasi	245
Ish rejimlari	246
Quvvatlash qurilmasi.....	250
Quvvatlash jarayoni.....	254


O'zgaruvchan tok manbaidan quvvat olish porti elektron qulfi	259
Quvvat pistoletini qo'lda ochish (faqat o'zgaruvchan tok manbaidan quvvatlashda). 260	
Quvvatlashda ehtiyot choralari	260
Tashqi qurilma orqali energiya olish	262
Past tezlikda harakatlanayotganda piyodalarni ogohlantirish signali	265

5. HAYDOVCHIGA YORDAM TIZIMLARI

5-1. Yo'l belgilarini aniqlash tizimi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)

Tezlikni cheklash belgilarini aniqlash tizimi (SLA) (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)

SLA tizimi old kamera ma'lumotlari va navigatsiya tizimi ma'lumotlari asosida haydovchiga amaldagi tezlik cheklovini eslatadi. Ushbu vizual va ovozli eslatmalar haydovchiga ruxsat etilgan tezlikni ushlab turishga yordam beradi va shu bilan yo'l harakati qoidalariga rioya qilishga ko'maklashadi.



Agar SLA tizimi tezlikni cheklash belgisini aniqlasa va bu navigatsiya tizimi ma'lumotlari bilan tasdiqlansa, asboblar panelida ushbu indikator yonadi "⊖". Avtomobilning tezligi 5 km/soatdan oshsa, bir marta ogohlantiruvchi tovush signali eshittiladi.

Funksiya cheklovlari

■ Tizim yo'l belgisini taniy olmasligi mumkin, agar u:

1. Rangi o'chgan bo'lsa.
2. Notekis yo'lga o'rnatilgan bo'lsa.
3. Ag'darilgan yoki shikastlangan bo'lsa.
4. Juda yuqori joylashgan (yo'lning qatnov qismi ustida osilib turgan bo'lsa).
5. To'liq yoki qisman yopilgan yoki uni aniqlash qiyin bo'lgan joyda joylashgan bo'lsa.
6. To'liq yoki qisman qirov, qor yoki loy bilan qoplangan bo'lsa.

⚠ XAVFLI


SLA tizimi ob-havo sharoiti va yorug'likka bog'liq bo'lgan old kameradan foydalanganligi sababli, ba'zi sharoitlarda ishlamasligi mumkin.


5-2. Harakat tezligini cheklash tizimlari


Kruiz nazorati tizimi (CCS) (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)


Kruiz-nazorat tizimi avtomobilga haydovchi tomonidan belgilangan tezlikni saqlab qolish imkonini beradi.

Kruiz-nazorat tizimi boshqaruv organlari




Kruiz-nazorat tizimini yoqish va o'chirish tugmasi: ushbu tugma yordamida  tizimini yoqish va o'chirish mumkin.

Tezlikni cheklash tugmasi: ushbu tugma  yordamida tezlikni cheklash tugmasini yoqish va o'chirish mumkin.

«  » tugmasi: kruiz-nazorat tizimi ishini boshlash va belgilangan tezlikni oshirish.


Tugma «SET-»: kruiz-nazorat tizimi yoki tezlik cheklagichi uchun tezlikni belgilash va berilgan tezlikni kamaytirish.


TANISHIB CHIQING

Ushbu «  » va «SET-» tugmalari kruiz-nazorat tizimi va tezlik cheklagichini boshqarish uchun xizmat qiladi.

Foydalanish usullari



■ Tizimni yoqish



Dvigatelni ishga tushirish tugmasini ON holatiga o'tkazing, ushbu tugmani bosing va kruiz-nazorat tizimining kutish rejimiga o'ting. 


Ushbu «  » indikator yonadi. Kruiz nazorati tizimi yoqilganda va avtomobil tezligi 40 dan 150 km/soat oralig'ida bo'lsa, kruiz nazorati tizimi uchun joriy tezlikni belgilash uchun "SET-" tugmasini bosing.


Asboblarda panelida «  » indikator yonadi.

■ Tizimni o'chirish

O'chirish uchun «  » ushbu tugmani bosing, va asboblarda panelidagi indikator «  » o'chadi.

Tizimni o'chirish uchun kruiz nazorat tizimi ishlayotganda ushbu «  » tugmani bosing, va asboblarda panelidagi ushbu yashil indikator «  » o'chadi.

Tizim kutish rejimiga o'tadi va asboblarda panelida joylashgan ushbu indikator yonadi «  ».

Tormoz pedalini bosish kruiz-nazorat tizimining o'chishiga va kutish rejimiga o'tishiga olib keladi. Bunda asboblarda panelidagi ushbu ko'rsatilgan indikator miltillaydi: . Avtomobil tezligi soatiga 40 km dan oshmaganda "RES+" tugmasini bosing. Avtomobil kruiz-nazorat tizimi o'chirilgan paytdagi tezlikka tezlasha boshlaydi.

■ Tezlikni belgilash

Kruiz nazorati tizimi ishlayotganda "RES+" tugmasini qisqa bosing. Berilgan tezlik 1 km/soatga ortadi.

5. HAYDOVCHIGA YORDAM TIZIMLARI

Kruiz nazorati tizimi ishlayotganda "RES+" tugmasini bosib turing.

Berilgan tezlik bosqichma-bosqich ortib boradi.

Kruiz nazorati tizimi ishlayotganda ushbu ko'rsatilgan tugmani qisqa bosib SET- .

Belgilangan tezlik soatiga 1 km kamayadi.

Kruiz nazorati tizimi yoniqligida ushbu belgi bilan ko'rsatilgan tugmani bosib turing: SET-

Berilgan tezlik bosqichma-bosqich kamayadi.

Funksiya cheklovlari


■ Quyidagi holatlarda kruiz nazorati tizimidan foydalanmang. Ushbu talabga rioya qilmaslik yo'l-transport hodisalari, jarohatlar yoki hatto o'limiga olib kelishi mumkin.


1. Nosoz avtomobilni shatakka olishda (evakuatsiya qilishda).
2. Transport serqatnov bo'lganda.
3. Egri-bugri yo'llarda.
4. Tik burilishli yo'llarda.
5. Sirpanchiq yo'llarda, masalan, nam, muz yoki qor qoplagan yo'llarda.
6. Tik qiyalikda harakatlanayotganda, agar avtomobilning tezligi belgilangan tezlikdan oshishi mumkin bo'lsa.

Adaptiv kruiz nazorati tizimi (ACC) (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)

ACC tizimi avtomobilga haydovchi tomonidan belgilangan tezlikni va oldindagi transport vositasigacha bo'lgan xavfsiz masofani saqlab qolish imkonini beradi.

Adaptiv kruiz-nazorat tizimi boshqaruv organlari




Adaptiv kruiz tizimini yoqish va o'chirish tugmasi «  »:

Tizimni yoqish va o'chirish —

ACC tizimi yoqilgan yoki kutish rejimida bo'lganda kruiz-nazorat tizimini yoqish va o'chirish tugmasini qisqa bosib, mos ravishda uni yoqish yoki o'chirish mumkin.

Rejimlarni almashtirish funksiyasi: ACC tizimi yoqilgan yoki kutish rejimida bo'lganda yoki TJA/ICA tizimi yoqilgan yoki kutish rejimida bo'lganda kruiz-nazorat tizimini yoqish va o'chirish tugmasini uzoq bosib turish orqali ACC va TJA/ICA rejimlarini almashtirish mumkin.

Tezlik cheklagich tugmasi «  »: yoqish va o'chirish.

«  »: Oldindagi transport vositasigacha masofani oshirish.

«  »: Oldindagi transport vositasigacha masofani kamaytirish.

" RES+ " tugmasi: adaptiv kruiz-nazorat tizimini qayta ishga tushirish va belgilangan tezlikni oshirish.

Tugma « SET- »: adaptiv kruiz-nazorat tizimi yoki tezlik cheklovchisi uchun tezlikni belgilash va belgilangan tezlikni kamaytirish.

TANISHIB CHIQUING

Ushbu «RES+» , « SET-» tugmalari ham adaptiv kruiz nazorat tizimini, ham tezlik cheklovchisini boshqarish uchun xizmat qiladi.


Adaptiv kruiz-nazorat tizimi ishga tushirish shartlari




ACC tizimi quyida sanab o'tilgan barcha shartlar bajarilgan taqdirdagina ishga tushishi mumkin:




1. Selektor D holatda.
2. Kapot yopiq.
3. Tezlik cheklovi yoqilmagan.
4. Chap old eshik yopiq.
5. Haydovchining xavfsizlik kamari taqilgan.
6. To'xtash tormozi o'chirilgan.
7. Antibloklovchi tormoz tizimi faollashtirilmagan.
8. Dinamik barqarorlashtirish tizimi yoqilgan.
9. Dinamik barqarorlashtirish tizimi yoqilmagan.
10. Boshqariladigan tushish tizimi yoqilmagan.
11. Tormoz pedali bosilmagan (avtomobil harakatda).
12. Avtomobilning tezligi 15 km/soatdan oshsa yoki tizim oldinda ketayotgan transport vositasini aniqlasa.

Foydalanish usulari

■ Adaptiv kruiz-nazorat tizimini yoqish

Quyida tavsiflangan amallar dvigatelni ishga tushirish tugmasi ON holatida bo'lganda bajariladi. Tizimni yoqish uchun zarur shartlar bajarilganda tizim kutish rejimiga o'tadi. Bunda asboblardagi panelida kulrang  indikator yonadi.

1-usul. Adaptiv kruiz nazorati tizimi kutish rejimi yoqilganda va avtomobil tezligi 15 km/soatdan oshganda, adaptiv kruiz nazorati tizimining ushbu tugmani  yoki  bosib hamda joriy tezlikni belgilash va ushbu tizimni yoqish amalga oshiriladi. Bunda asboblardagi panelidagi yashil rangli ushbu indikator yonadi:  .

2-usul. Adaptiv kruiz nazorati tizimi kutish rejimi yoqilganda, avtomobil tezligi 15 km/soatdan past bo'lganda, tizim oldinda transport vositasini aniqlasa, adaptiv kruiz nazorati tizimi uchun 15 km/soat tezlikni belgilash va ushbu tizimni  yoki  yordamida yoqish uchun ushbu tugmasilarni bosib. Ushbu  indikator yonadi.

8. Avtomobilga kichik o'lchamli ehtiyot g'ildirak o'rnatilgandan so'ng, old to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi va avtomatik favqulodda tormozlash tizimini o'chirish kerak. Birinchi imkoniyatdayoq kichik o'lchamli zaxira g'ildiragini to'liq o'lchamli standart g'ildirakka almashtiring.

9. Ba'zi hollarda (masalan, temir yo'ldan o'tishda, yer osti avtoturargohiga kirishda va h.k.) avtomatik favqulodda tormozlash tizimining noto'g'ri ishlashi (ogohlantirish yoki tormozlash) mumkin. Muayyan sharoitlarda (tunnelda harakatlanayotganda, qarama-qarshi yo'nalishdagi transport chiroqlari ta'sirida yoki yorug'likning nam yoki muzlagan yo'ldan qaytishi natijasida) datchiklarning ishlash qobiliyati pasayishi mumkin.

10. Kamera old oyna orqasiga o'rnatilgan. Kamera linzasi va datchik oldida iflosliklar yo'qligiga ishonch hosil qiling. Avtomobilning old qismi konstruksiyasiga ham o'zgartirishlar kiritmaslik kerak. Kamera yoki datchik butunlay bloklangan bo'lsa (masalan, qor bilan), adaptiv tizim o'chadi. Avtomatik shoshilinch tormozlash tizimining ishlash qobiliyati to'qnashuv paytida olingan tebranish yoki zarbalar tufayli pasayishi yoki butunlay yo'qolishi mumkin. Bunday holda, birinchi imkoniyatdayoq datchikni qayta kalibrlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qilish lozim.

Avtomatik shoshilinch tormozlash tizimining ishlashiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan barcha omillar yuqorida sanab o'tilmagan. Avtomatik shoshilinch tormozlash tizimining ishlamay qolishi boshqa sabablarga ko'ra ham sodir bo'lishi mumkin. Haydovchi har doim avtomobilni nazorat qilishi va buning uchun to'liq javobgar bo'lishi kerak.


5-6. Intellektual kruiz-nazorat tizimlari

Tirbandlikda harakatlanishga yordam tizimi (TJA) / avtomobilni yo'lak markazida ushlab turish tizimi (ICA) (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)



Old kamera yordamida TJA/ICA tizimi ufq chizig'ini va unga nisbatan avtomobilning holatini aniqlaydi. Ushbu ma'lumotlar asosida tizim avtomobilni boshqarish organlariga tuzatish ta'sirini ko'rsatadi, haydovchiga monoton haydashda yoki transport tirbandligida harakatlanishda yuklamani kamaytiradi. Ushbu tizim to'qnashuvning oldini olishning intellektual tizimini o'z ichiga oladi.


5. HAYDOVCHIGA YORDAM TIZIMLARI

Tirbandlikda yordam tizimi / avtomobilni yo'lak markazida ushlab turish tizimini faollashtirish



Tizimni o'chirish va yoqish tugmasi «»:

tizimni yoqish va o'chirish - TJA/ICA tizimi yoqilgan yoki kutish rejimida bo'lganda, TJA/ICA tizimini yoqish va o'chirish tugmasini qisqa bosib, mos ravishda uni yoqish yoki o'chirish mumkin. Rejimlarni almashtirish funksiyasi: ACC tizimi yoqilgan yoki kutish rejimida bo'lganda yoki TJA/ICA tizimi yoqilgan yoki kutish rejimida bo'lganda kruiz-nazorat tizimini yoqish va o'chirish tugmachasini uzoq bosib turish orqali ACC va TJA/ICA rejimlari o'rtasida almashtirish mumkin. Agar TJA/ICA tizimini faollashtirish shartlariga rioya qilinmasa, asboblarda panelida ushbu kulrang indikator  yonadi. Agar TJA/ICA tizimini faollashtirish shartlariga rioya qilinsa, panelda ko'k  indikator yonadi.




TJA tizimi: agar avtomobilning tezligi 60 km/soatdan oshmasa, ushbu tizim avtomobilni harakatlanish yo'lagining markazida ushlab turadi. Agar tizim yo'l chiziqlarini aniqlay olmasa, u oldinda ketayotgan transport vositasiga qarab mo'ljal oladi. Agar yo'l chiziqlari va oldinda ketayotgan transport vositasi bo'lmasa, TJA tizimi o'chiriladi.


ICA tizimi: agar avtomobilning tezligi 60 dan 130 km/soat oralig'ida bo'lsa, ushbu tizim avtomobilni harakatlanish yo'lagining markazida ushlab turadi. Agar ICA tizimi yo'l chiziqlarini aniqlay olmasa, oldinda harakatlanayotgan transport vositasidan qat'i nazar, tizim o'chiriladi.


TANISHIB CHIQING

Avtomobilning ikki tomonida yo'l chiziqlari yaxshi ko'rinadigan yo'lda TJA/ICA tizimidan birinchi marta foydalanganda, TJA/ICA tizimini yoqing va ma'lum vaqt davomida yo'l chiziqlari o'rtasida harakatlaning (u ma'lum bir avtomobilga qarab farq qilishi mumkin). Bu vaqt davomida TJA/ICA tizimi avtomatik ravishda o'z-o'zini o'qitishni amalga oshiradi. O'z-o'zini o'qitish jarayonida avtomobilning yo'lkadagi holatini ko'ndalang yo'nalishda nazorat qilish parametrlari optimal darajaga yetgunga qadar avtomatik ravishda moslashtiriladi. Shu bilan o'z-o'zini o'qitish yakunlanadi. **Eslatma:** o'z-o'zini o'qitish tugaguniga qadar avtomobilni yo'lak markaziga qaytarish bo'yicha TJA/ICA tizimining tuzatish ta'siri sezilmasligi mumkin.

Tizim indikator va signalizatori

Tizim kutish rejimiga o'tganda, asboblarda panelida ushbu tizimning kulrang indikator yonadi: .

 ushbu indikator yonib, tizim faollashganligini bildiradi.

Nosozlik bo'lsa  ushbu sariq indikator asboblarda panelida yonadi.

Funksiya cheklovleri


■ TJA/ICA tizimining normal ishlashi quyidagi holatlarda buzilishi mumkin:

1. Haydovchi qo'llarini rul g'ildirigidan olsa.
2. Haydovchi burilish ko'rsatkichini yoqsa.
3. Haydovchi avariya chirog'ini yoqsa.
4. Aniqlangan yo'l chiziqlari mavjud bo'lmasa.
5. Harakatlanish yo'lga juda tor yoki juda keng bo'lsa.
6. Avtomobilning tezligi 1 km/soat dan kam bo'lsa.
7. Burilish egriligi juda yuqori bo'lsa.
8. Haydovchi rul g'ildiragini shiddat bilan bursasa.
9. Adaptiv kruiz-nazorat tizimini o'chirish uchun har qanday shart mavjud bo'lsa.

XAVFLI

- Xavfli vaziyatga tushib qolmaslik uchun haydovchi butun yo'l davomida avtomobilni boshqarish uchun zarur bo'lgan barcha harakatlarni bajarishi kerak.
- TJA/ICA tizimi faqat yordamchi funksiyalarni bajaradi. U muayyan yo'l, ob-havo sharoitlari va avtomobildan foydalanish rejimlarida to'g'ri ishlamasligi mumkin.

Tirbandlikda yordam tizimini /avtomobilni yo'lak markazida ushlab turish tizimini yoqish tavsiya etiladi

Agar TJA/ICA tizimi avtomobil harakat tezligi 60 km/soatdan oshgani, aniq va uzluksiz yo'l chiziqlari mavjudligini va ACC tizimi ishlayotganini aniqlasa, ko'k  chiroq asboblarda panelida yonadi. Ma'lum vaqtdan so'ng asboblarda panelida "Road conditions

5. HAYDOVCHIGA YORDAM TIZIMLARI

are good, we suggest you to turn on Intelligent Cruise Control system" (Yo'l sharoitlari yaxshi, intellektual kruiz-nazorat tizimini yoqish tavsiya etiladi) xabari bilan qalqib chiquvchi oyna paydo bo'ladi.

Tirbandlikda yordam tizimini /avtomobilni yo'lak markazida ushlab turish tizimini o'chirish ogohlantirishi

TJA/ICA tizimi ishga tushirilgan holatdan chiqqanida, u tovush signalini beradi va asboblar panelida "Intelligent Cruise Control system has exited, please note" (E'tibor bering: intellektual kruiz nazorati tizimi o'chirilgan) xabari bilan qalqib chiquvchi oyna paydo bo'ladi. Bu haydovchini tizimni o'chirish haqida ogohlantirish uchun zarur.



Quyida tavsiflangan amallar dvigatelni ishga tushirish tugmasi ON holatida bo'lganda bajariladi. Quyidagi ekranda tizimni o'chirish ogohlantirishini yoqing: Audio System (Audio tizimi) - Settings (Sozlamalar) - Driver Assistance (Haydovchiga yordam tizimlari).

Agar bu ogohlantirish sizni avtomobilni boshqarishdan chalg'itsa, uni o'chirish mumkin.


Tirbandlikda yordam tizimini /avtomobilni yo'lak markazida ushlab turish tizimidan foydalanishda ehtiyot choralari

1.TJA/ICA tizimi haydovchiga yordam berish tizimini anglatadi. U cheklovlarga ega va avtomobilingizga ta'sir qiluvchi jismoniy qonunlarni bekor qila olmaydi. Haydovchi har doim avtomobilni nazorat qilishi va buning uchun to'liq javobgar bo'lishi kerak.

2.TJA/ICA bo'ylama yo'nalishda nazorat qilish uchun ACC tizimidan, ko'ndalang yo'nalishda nazorat qilish uchun esa LKA tizimidan foydalanadi. TJA/ICA tizimidan foydalanganda ACC va LKA tizimlaridan foydalangandagi kabi ehtiyot choralarini ko'ring.

3.TJA/ICA tizimi avtomatik tormozlashni ta'minlamaydi va haydovchiga rul g'ildiragini ushlab turmasdan avtomobilni boshqarish imkonini bermaydi. Haydovchi burilishlarni bajarishda, chorrahalaridan o'tishda, harakatlanish yo'laklari tutashganda va boshqa transport vositasi avtomobil oldidagi harakatlanish yo'lagiga qayta tizilishida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash uchun har doim avtomobilni nazorat qilishi kerak.


4.TJA/ICA tizimining ishlash qobiliyatiga ob-havo sharoiti, yoritilganlik darajasi va yo'l chiziqlarining sifati ta'sir qiladi. Tizimning ishlash qobiliyati fon yoritilishi natijasida, quyosh botganda, kunning qorong'i vaqtida, yorug'lik nam yoki muzlagan yo'ldan aks etganda yoki yo'l chiziqlarining eskirishi natijasida aniqligini yo'qotganligi sababli sezilarli darajada yomonlashishi yoki butunlay yo'qolishi mumkin.

5.TJA/ICA tizimi nosoz bo'lsa, asboblar panelidagi tizim nosozligini bildiruvchi ushbu sariq indikator "  " yonadi va ushbu tizim ishlashdan to'xtaydi. Bunday holda, birinchi imkoniyatdayoq avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qilish kerak.

Yuqorida tizimning ishlashiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan barcha omillar sanab o'tilmagan. Tizimning ishdan chiqishi boshqa sabablarga ko'ra ham sodir bo'lishi mumkin. Haydovchi har doim avtomobilni nazorat qilishi va buning uchun to'liq javobgar bo'lishi kerak.

To'qnashuvni oldini olishning intellektual tizimi (IES) (avtomobilning ayrim variantlari uchun)

Agar TJA/ICA tizimi faol holatda 60 dan 130 km/soatgacha bo'lgan tezlikda harakatlanayotgan bo'lsa, haydovchi qo'shni yo'lakda harakatlanayotgan katta hajmli transport vositasini (yuk mashinasi yoki avtobus kabi) quvib o'tmoqchi bo'lsa, tizim quvib o'tish tugagunga qadar ushbu katta hajmli transport vositasigacha xavfsiz masofani saqlab qolish uchun avtomobilning ko'ndalang harakatini tegishli ravishda boshqaradi.



Dvigatelni ishga tushirish tugmasi ON holatida bo'lganda, quyidagi ekranda to'qnashuvning oldini olish intellektual tizimini yoqing: Audio System (Audio tizim) - Settings (Sozlamalar) - Driver Assistance (Haydovchiga yordam tizimi).

5-7. Haydovchi holatini kuzatish tizimi (DMS) (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)

Haydovchi holatini kuzatish tizimi (DMS) (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)

Haydovchi holatini kuzatish tizimi (DMS) haydovchining yuz ifodasi (esnash, ko'zni yumishi, boshni egish va boshqalar) va uning nigohi yo'nalishini kuzatish va to'plash uchun salondagi infraqizil kameradan foydalanadi. Bu tizimga real vaqt rejimida haydovchining holatini kuzatish imkonini beradi. Kamera faqat haydovchining yuzini suratga oladi, qolgan salonnii emas. Haydovchi yuzini suratga olish shaxsni aniqlash maqsadida qo'llanilmaydi va saqlanmaydi. Birlamchi holatda ushbu tizim yoqilgan bo'ladi.

■ Asosiy funksiyalar

1. Tizim haydovchining yuz ifodasi, ko'zlarini yumishi, kiprik qoqish chastotasi va boshqalarni kuzatish orqali uning charchagan yoki charchamaganini aniqlay oladi. Agar tizim haydovchining charchaganini aniqlasa, asboblarda panelida qalqib chiquvchi oyna paydo bo'ladi va tovush signalizatsiyasi ishga tushadi.



2. Tizim haydovchining nigohi yo'nalishi bo'yicha qayerga qarayotganini va chalg'ib ketmaganini aniqlaydi. Agar tizim haydovchi chalg'iganini aniqlasa, asboblarda panelida qalqib chiquvchi oyna paydo bo'ladi va tovush signalizatsiyasi ishga tushadi.

3. Ushbu tizim avtomobil har safar ishga tushirilganda birlamchi bo'lib yoqiladi, lekin uni audiotizimning bosh qurilmasi yordamida qo'lda o'chirish mumkin. Har safar elektr quvvati yoqilganda, tizim o'z-o'zini diagnostika qiladi. Agar tizim ishlamasa yoki kamera bloklangan

5. HAYDOVCHIGA YORDAM TIZIMLARI

bo'lsa, asboblar panelida tegishli ogohlantirish paydo bo'ladi.

⚠️ DIQQAT

- DMS tizimini audio tizimning bosh qurilmasi yordamida sozlash mumkin. Tafsilotlar uchun "Audio tizim" bo'limiga qarang.
- Haydovchi holatini kuzatish tizimi yoqilganda, asboblar panelida ushbu tizim yoqilganligi indikator yonadi: . Ushbu tizim nosoz bo'lsa, asboblar panelida ushbu tizimning nosozlik indikator yonadi . Avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun birinchi imkoniyatdayoq rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
- Agar avtomobilning tezligi 10 km/soatdan oshsa, haydovchining holatini kuzatish tizimi haydovchining charchaganini aniqlasa, bu haqda ogohlantiradi.
- Agar avtomobilning tezligi 20 km/soatdan oshsa, haydovchining holatini kuzatish tizimi haydovchining charchaganini yoki oldingi ogohlantirishni e'tiborsiz qoldirganini aniqlasa, ogohlantirish beradi.

⚠️ XAVFLI

Haydovchining holatini kuzatish tizimi faqat yordamchi vazifani bajaradi. Avtomobilni xavfsiz boshqarish uchun haydovchining o'zi javobgar. Avtomobilni charchoq holatida boshqarish yoki uni boshqarish paytida chalg'ish taqiqlanadi. Haydovchi diqqatini avtomobilni boshqarishga qaratishi kerak.

5-8. TO'XTASHDA YORDAM TIZIMI


Aylana ko'rish monitori (AVM)

Aylana kuzatuv monitori kameralardan olingan avtomobil atrofidagi bo'shliq tasvirini audio tizimning bosh qurilmasi displeyiga chiqaradi va unga bashorat qilingan trayektoriya chiziqlarini joylashtiradi, bu esa avtomobilni to'xtash joyini soddalashtiradi va uni xavfsizroq qiladi.


Kameralar joylashuvi



Old kamera: old ro'yxatga olish belgisi yonida markazda joylashgan.




Orqa kamera: orqa ro'yxatga olish belgisi ustida markazda joylashgan.



Chap va o'ng kameralar: tashqi orqa ko'rish oynalarining pastki qismida joylashgan.

Foydalanish usullari



Qo'zg'almas avtomobilda aylana kuzatish monitorini ^{AVM} yoqish uchun boshqaruv markazidagi usbu tugmani bosing. Aylana ko'rinish monitorini o'chirish uchun ushbu  tugmani bosing.

Dvigatelni ishga tushirish tugmasi ON holatida bo'lishi va avtomobilning tezligi soatiga 30 km dan oshmasligi kerak.

1-usul. Aylana kuzatish monitorini yoqish uchun selektorni R (orqaga yurish) holatiga o'tkazing. Aylana kuzatish monitorini o'chirish uchun selektorni R (orqaga yurish) holatidan chiqaring.

2-usul. Aylana ko'rish monitorini yoqish uchun rul g'ildiragini katta burchakka buring (buning uchun rul g'ildiragining burilishi bilan sinxronlash funksiyasi yoqilgan bo'lishi kerak).

3-usul. Aylana ko'rish monitorini yoqish uchun chapga/o'ngga burilish ko'rsatkichini yoqing (buning uchun aylana ko'rish monitorining sozlamalarida burilish ko'rsatkichi bilan sinxronlash funksiyasi yoqilishi kerak). Burilish ko'rsatkichi o'chirilgandan so'ng, aylana ko'rish monitori o'chadi.

5. HAYDOVCHIGA YORDAM TIZIMLARI


Eslatma: Agar dvigatelni ishga tushirish tugmasi OFF holatiga o'tkazilsa, shuningdek, avtomobil tezligi 30 km/soatdan oshsa, aylana ko'rish monitori avtomatik ravishda o/chadi.




TANISHIB CHIQUING




Aylana ko'rish monitori avtomobilni boshqarishni osonlashtiradi, biroq bunda haydovchi displeydagi to'siq tasviri va to'siqqacha ko'rsatiladigan masofa haqiqiy to'siqdan farq qilishini yodda tutishi kerak. Bundan tashqari, "o'lik" zonalar mavjud va tasvirni displeyga chiqarishda biroz kechikish kuzatiladi. Shuning uchun aylana kuzatish monitori haydovchini vaziyatni mustaqil baholash va barcha zarur harakatlarni amalga oshirish majburiyatidan ozod qilmaydi. Haydovchi atrofdagi vaziyatni kuzatib borishi va aylana kuzatish monitori yoqilganda ham, o'chirilganda ham avtomobilni ehtiyotkorlik bilan boshqarishi kerak.




Tasvirni almashtirish






Tugmani bosib  va aylana ko'rish monitoridan chiqish uchun R (orqaga yurish) dan boshqa istalgan holatdagi selektorda tugmani bosib.

Tugmani bosib    va 2D/3D tasvirni tanlang.

Tugmani bosib    va muayyan tasvirga o'ting.

Tugmani bosib    va g'ildirak tomondandagi tasvirga o'ting.

Tugmani bosib    aylana ko'rish monitorini sozlash ekraniga o'ting.

TANISHIB CHIQUING

Aylana ko'rish monitori avtomobilni to'xtatish va xavfsiz boshqarishni sezilarli darajada osonlashtiradi. Aylana ko'rish monitorining ishlashi bilan tanishish uchun to'siqlar soni minimal bo'lgan ochiq joylar eng mos keladi.

⚠️ DIQQAT

- Kamera obyektivini kir yoki qordan tozalashda uni tirnamaslik uchun ehtiyot bo'ling.
- Kamera obyektiviga begona buyumlarni qo'ymang.
- Aylana bo'ylab ko'rish monitorida aks ettirilgan to'siqqacha bo'lgan masofa haqiqiy masofadan farq qiladi.
- Aylana ko'rish monitoridan foydalanishni boshlashdan oldin tashqi orqa ko'rish oynalari ish holatida ekanligiga va yukxona eshigi to'liq yopiqligiga ishonch hosil qiling.
- Aylana ko'rish monitori zavod sharoitida kalibrangan. Kameralarning har qanday ruxsatsiz o'rnatilishi yoki demontaj qilinishi, shuningdek, ularning joylashuvining o'zgarishi aylana ko'rish monitorining ishlashiga ta'sir qilishi mumkin.
- Aylana ko'rish monitori avtomobilni boshqarishni osonlashtiradi, biroq bunda haydovchi displeydagi to'siq tasviri va to'siqqacha bo'lgan masofaning ko'rinishi haqiqiy to'siqdan farq qilishini yodda tutishi kerak. Bundan tashqari, "o'lik" zonalar mavjud va tasvirni displeyga chiqarishda biroz kechikish kuzatiladi. Shuning uchun aylana ko'rish monitori haydovchini vaziyatni mustaqil baholash va barcha zarur harakatlarni amalga oshirish majburiyatidan ozod qilmaydi. Haydovchi atrofdagi vaziyatni kuzatib borishi va aylana ko'rish monitori yoqilgan yoki o'chirilgan holda avtomobilni ehtiyotkorlik bilan boshqarishi kerak.

Tizimni sozlash



[Panoramic startup animation] (Aylana ko'rish monitori bosh ekranini).

Ushbu tugmani «^{AVM}» bosib aylana ko'rish monitori bosh ekraniga o'ting. Bunda boshlang'ich animatsiya ko'rsatiladi.

[Steering linkage] (Rul g'ildiragi burilganda doiraviy ko'rish monitorini yoqish). Aylana ko'rish monitori rul g'ildiragi katta burchakka burilganda yoqiladi. Chap yoki o'ngga burilish ko'rsatkichi yoqilganda, displeyga mos ravishda chap yoki o'ng tomondagi 3D ko'rinish chiqariladi.

[Automatically zoom in on the view] (Avtomatik masshtablash). Ekrandagi tasvir masshtabi to'siqqacha bo'lgan masofaga qarab avtomatik ravishda o'zgaradi.

[Open door prompt] (Eshik ochilishi indikator). Ushbu funktsiya ochilgan lyuk yoki eshiklar, jumladan, yukxona eshigi haqida ogohlantiradi.

5. HAYDOVCHIGA YORDAM TIZIMLARI

[Vehicle auxiliary line display] (Bashorat qilinayotgan trayektoriya chiziqlari). Aylana ko'rish monitori yoqilganda, bashorat qilinayotgan trayektoriyaning statik/dinamik chiziqlari, shuningdek, avtomobilning gabarit chiziqlari avtomatik ravishda displeyga chiqariladi.

[Parking radar display] (To'xtashda yordam tizimi displeyi). Ekranida to'siqlik bo'lgan masofa haqidagi ma'lumot qizil, sariq yoki yashil rangda ko'rsatiladi.

[Transparent vehicle body]. Displeydagi avtomobil tasviri shaffoqligini sozlash.

[License Plate Number Setting] (Ro'yxatdan o'tkazish belgi raqami). Displeydagi avtomobil tasvirida uning ro'yxatdan o'tkazish raqami ko'rsatiladi.

[Restore the default value]. Zavod sozlamalarini tiklash.

DIQQAT

Aylana ko'rish monitori yoqilganda, uning ekрани displeyga chiqariladi. Agar tizimning o'zi yoki bir yoki bir nechta kamera nosoz bo'lsa, bir tomondan yoki yuqoridan ko'rinish o'rniga qora ekran ko'rsatiladi va tegishli xabar yoki belgi paydo bo'ladi. Bunda aylana ko'rish monitori ishlash qobiliyati yo'qolishi mumkin. Qora ekran quyida keltirilgan amallar natijasida ham ko'rsatilishi mumkin.

- Kameralar atrofini tozalash uchun yuqori bosimli suv yoki bug'dan foydalanmang. Aks holda suv yoki bug' kamera ichiga kirib, obyektivda kondensatsiyalanishi mumkin. Bu tasvirning "xiralashishiga" yoki kamerada qisqa tutashuvga olib keladi, natijada kameradagi tasvir o'rniga qora ekran paydo bo'lishi mumkin.
- Kamerani zarbalardan himoya qiling. Kameraga kuchli zarbalar uning joylashuvining o'zgarishiga olib kelishi mumkin, bu kamera tasvirining siljishiga yoki kameradagi tasvir o'rniga qora ekran paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.
- Professional bo'lmaganlar kamerani qismlarga ajratmasligi kerak. Avtomobil uskunalar va kamera o'rtasidagi aloqa yomon bo'lsa, kameradagi tasvir o'rniga qora ekran paydo bo'lishi mumkin.
- Agar kuchli yomg'ir paytida kameradagi tasvir o'rniga qora ekran paydo bo'lsa, kamera o'rnatilgan joyga suv kirmaganini tekshiring. Agar suv ulagichga tushsa, aylanma ko'rinish monitorida qisqa tutashuv sodir bo'lishi mumkin, natijada kameradagi tasvir o'rniga qora ekran paydo bo'lishi mumkin.
- Agar boshqa elektr uskunalar to'liq yuklama bilan ishlasa, kuchlanishning o'zgarishi tizimning ishlashiga ta'sir qilishi mumkin, natijada kameradagi tasvir o'rniga qora ekran paydo bo'lishi mumkin. Kameraning normal ishlashini tiklash uchun boshqa elektr jihozlarini o'chirib, avtomobilni qayta ishga tushirishingiz mumkin.

Yuqorida aylana ko'rish monitorida kameradagi tasvir o'rniga qora ekran paydo bo'lgan ba'zi holatlar sanab o'tildi. Aylana ko'rish monitoring normal ishlashini ta'minlash uchun kameradagi tasvir o'rniga qora ekran paydo bo'lsa, avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

To'xtashda yordam tizimi

To'xtashda yordam tizimi avtomobilning oldi va orqasidagi to'siqlarni aniqlash uchun xizmat qiladi. Bu uchun tizim 4 yoki 8 ta ultratovush datchiklaridan foydalanadi. Tizim haydovchiga

tovush signallari va audio tizimning bosh qurilmasi displeyidagi tasvir yordamida avtomobilning old/orqa bamperlari va tegishli to'siq orasidagi masofa haqida xabar beradi. Bu piyodalarning jarohatlanishi va boshqa transport vositalarining shikastlanishi xavfini minimallashtirishga imkon beradi, shuningdek, avtomobilni turargohga qo'yishni osonlashtiradi.



Quyida tavsiflangan operatsiyalar dvigatelni ishga tushirish tugmasi ON holatida bo'lganda bajariladi. Qo'zg'almas avtomobilda va selektor D/N/R holatida bo'lganda, to'xtashga yordam berish tizimi avtomatik ravishda ishga tushadi. Ushbu tizim yoqilganda va selektor D/N holatida bo'lganda (tugma yoritilgan holatda P_{Δ}), ushbu tugmani bosish orqali P_{Δ} to'xtash vaqtida yordam tizimini qo'lda yoqish/o'chirish mumkin.

TANISHIB CHIQING

To'xtashda yordam tizimini yoqish tugmasi va uning dizayni farq qilishi mumkin. Bu avtomobilning tuzilishiga bog'liq.

Foydalanish usuli

1-usul. Quyida tavsiflangan operatsiyalar dvigatelni ishga tushirish tugmasi ON holatida bo'lganda bajariladi. Agar selektor R holatda bo'lganda ultratovush datchigi to'siqni aniqlasa, audiotizim bosh qurilmasi displeyida bu to'siqqacha bo'lgan masofa (qizil, sariq yoki yashil zona ko'rinishida) aks etadi va tovush signali eshutiladi.

2-usul (avtomobilning ba'zi variantlari uchun). Quyida tavsiflangan amallar dvigatelni ishga tushirish tugmasi ON holatida bo'lganda bajariladi. Agar selektor D/N/R holatida bo'lganda ultratovush datchigi to'siqni aniqlasa, audiotizim bosh qurilmasi displeyida bu to'siqqacha bo'lgan masofa (qizil, sariq yoki yashil zona ko'rinishida) aks etadi va tovush signali eshutiladi.

Agar to'xtashda yordam tizimi yoqilgan bo'lsa, avtomobilning tezligi 15 km/soatdan oshsa, ushbu tizim avtomatik ravishda o'chiriladi. Avtomobil tezligi 15 km/soatdan pastga tushganda to'xtashda yordam tizimi avtomatik ravishda ishga tushadi. Selektor D/N holatida bo'lsa, ushbu P_{Δ} tugma orqali to'xtashda yordam tizimini o'chirish mumkin. Shundan so'ng, ushbu tizim avtomobilning tezligidan qat'i nazar avtomatik ravishda yoqilmaydi.

Eslatma: Ultratovush datchiklaridan biri nosoz bo'lgan taqdirda, to'xtashda yordam tizimi yoqilgandan so'ng 2 soniya davomida ogohlantiruvchi tovush signalini uzatadi. To'xtash tormozi yoqilganda yoki selektor P (to'xtash) holatiga qo'yilganda ogohlantirish berish to'xtatiladi.

5. HAYDOVCHIGA YORDAM TIZIMLARI

TANISHIB CHIQUING

- To'siqqacha aniqlangan masofa to'siq konturlari va ultratovush datchigining gorizonta tekislikdagi proyeksiyalari orasidagi eng qisqa masofaga to'g'ri keladi.
- Ultratovush datchiklari yoqilgan holda to'xtash tormozi yoqilgan bo'lsa, ogohlantiruvchi tovush signali uzatilmaydi, balki faqat audio tizimning bosh qurilmasi displeyida to'siq haqidagi ma'lumot aks ettiriladi.
- To'xtash joyida yordam tizimini faollashtirish maqsadida 8 ta datchikli modifikatsiyada, ushbu tizim ilgari yoqilgan yoki yoqilmaganligidan qat'i nazar, selektorni R (orqaga yurish) holatiga o'rnatish. Shundan so'ng, selektor boshqa holatlarga (P dan tashqari) o'tkazilganda, to'xtashga yordam tizimi yoqilgan holda qoladi.

DIQQAT

- Datchiklar ta'sir doirasidan tashqaridagi to'siqlar to'xtashda yordam tizimi tomonidan aniqlanmaydi.
- Avtomobil harakatlanayotganda kuzovning narigi tomonidagi to'xtashga yordam berish tizimi datchiklari boshqa to'siqlarga yaqinlashishi mumkinligini hisobga oling.

Funksiya cheklavlari

■ To'xtashda yordam tizimining ishlashi quyidagi hollarda buzilishi mumkin:

1. Avtomobil tik qiyalikda bo'lganda.
2. Nam qor yoki yomg'irda harakatlanayotganda.
3. Tizim aniqlay olmaydigan past joylashgan to'siqlar (toshlar va boshqalar) mavjud bo'lganda.
4. Bampordan yuqorida joylashgan to'siqlar mavjud bo'lganda.
5. Sim, to'rt to'siq, arqon va shu kabi to'siqlar mavjud bo'lganda.
6. Avtomobilda yuqori chastotali radiopriyomnik yoki antenna qo'llanilganda.
7. Agar suv tomchilari ultratovush datchiklari yuzasiga tushib, muzlab qolgan bo'lsa, datchiklar to'siqlarni aniqlay olmaydi.
8. Agar ultratovush datchiklarining yuzasi qor yoki loy bilan qoplangan bo'lsa, datchiklar to'siqlarni aniqlay olmaydi.
9. Ultratovush datchiklari ultratovush to'lqinlarini oson yutadigan obyektlarni, masalan, yumshoq qor, paxta, porolon va boshqalarni aniqlay olmaydi.
10. Agar avtomobil yaqinida kuchli ultratovush nurlanish manbalari bo'lsa, masalan, boshqa avtomobillarning tovush signallari, mototsikl dvigatellari yoki og'ir transport vositalarining tormoz tovushi eshitilayotgan bo'lsa.
11. Bir vaqtning o'zida bir nechta datchiklar tomonidan to'siqlar aniqlanganda, tegishli datchiklar va to'siqlar orasidagi masofalar displeyda bir vaqtning o'zida ko'rsatiladi. Bunda tovush signali faqat eng yaqin to'siqa yaqinlashish haqida ogohlantiradi.

Ultratovush datchiklarini tozalash



OMT18-4127

To'xtashda yordam tizimi normal ishlashi uchun datchiklar yuzasi muntazam ravishda qor, loy va changdan tozalanishi kerak. Buning uchun yumshoq mato yoki past bosimli suv oqimidan foydalaning. Ultratovush datchiklarini yuvish uchun yuqori bosimli quzilmadan foydalanish, shuningdek, ularga yuqori tashqi yuklamalar ta'sir qilishi datchiklarni ishdan chiqarishi mumkin. Datchiklarni bosmang va ularga zarba bermang. Bu datchiklarning ishlashini izdan chiqarishi mumkin.


5-9. Tormoz kuchini nazorat qilish tizimlari

Dinamik barqarorlashtirish tizimi

Dinamik barqarorlashtirish tizimi avtomobilning ortiqcha yoki yetarli bo'lmagan buriluvchanligi holatida uning barqarorligini ta'minlashga yordam beradi. Agar tizim ortiqcha yoki yetarli bo'lmagan buriluvchanlikni aniqlasa, u avtomobilning barqarorligini oshirish uchun g'ildiraklarning tormoz mexanizmlarini individual ravishda ishga tushiradi.





OMT18-4132

Dvigatel ishga tushirish tugmasini ON Holatga o'tkazing va boshqaruv markazida ushbu «  » tugmani bosing. Dinamik barqarorlashtirish tizimini yoqish yoki o'chirish amalga oshiriladi.

TANISHIB CHIQUING

- Dinamik barqarorlashtirish tizimini u ishlayotgan paytda o'chirib bo'lmaydi.
- Yangi avtomobilda ESP tizimi standart sozlamalarda yoqilgan bo'ladi.
- Kichik o'lchamli zaxira g'ildirakni o'rnatish dinamik barqarorlashtirish tizimining nosozlik signalizatorining ishga tushishiga olib keladi. Kichik o'lchamli zaxira g'ildiragi to'liq o'lchamli g'ildirakka almashtirilgandan so'ng 1 km yurilgandan so'ng, ushbu signalizator avtomatik ravishda o'chadi.

Dinamik barqarorlashtirish tizimi indikator/stabilizatori

Tizim o'chirilgan holatda bo'lganda, asboblarda panelida ushbu sariq signalizator yonadi:  . Tizim ishlayotganda asboblarda panelidagi ushbu sariq  signalizator miltillaydi.

5. HAYDOVCHIGA YORDAM TIZIMLARI

Ushbu sariq  signalizator yonibm tizim nosozligini bildiradi.

XAVFLI

- Dinamik barqarorlashtirish tizimi nosoz bo'lgan taqdirda, birinchi imkoniyatdayoq avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
- ESP tizimi ishlayotgan bo'lsa ham, yuqori tezlik, keskin burilishlar va yomon yo'l sharoitlari yo'l-transport hodisasiga sabab bo'lishi mumkin.
- ESP tizimi ekstremal haydash sharoitlarida avtomobil ustidan to'liq nazoratni saqlab qolishni kafolatlay olmaydi. Avtomobil ESP tizimi bilan jihozlangan bo'lsa ham, yo'l-transport hodisasiga uchramaslik uchun barcha zarur qoidalarga qat'iy rioya qilish kerak.
- Haydovchiga yordam berish tizimining ishlashi ESP tizimiga bog'liq. Agar ESP tizimi o'chirib qo'yilsa, haydovchiga yordam berish tizimining bir qator funksiyalari ishlamaydi. Shu bilan birga, asboblarda vaqtinchalik nosozlik indikatorini yonib, u yoki bu funksiyaning mavjud emasligini ko'rsatishi mumkin (haydovchiga yordam tizimining o'zi nosozligini emas). Haydovchiga yordam tizimidan foydalanish uchun ESP tizimini yoqing.

Funksiya cheklovlari

■ ESP tizimi o'chirilishi kerak bo'lgan holatlar:

1. Sirpanishga qarshi zanjirlardan foydalanilganda.
2. Avtomobilni dinamometrik stendda sinashda.
3. Qalin qorda yoki yumshoq joyda harakatlanayotganda.


TANISHIB CHIQUING

Chuqur qum yoki shag'al ustida harakatlanayotganda avtomobilning harakatlanishini yaxshilash uchun ESP tizimini o'chirib qo'yish tavsiya etiladi.

Boshqariladigan tushish tizimi (HDC) (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)

HDC tizimi tik qiyalikda harakatlanayotgan avtomobilning tezligini nazorat qilish orqali xavfsizlikni ta'minlaydi. Agar HDC tizimi yoqilgan bo'lsa, avtomobil tik qiyalik bo'ylab harakatlanayotganda u 10 dan 35 km/soatgacha bo'lgan oraliqda tezlikni saqlab qoladi. Agar avtomobilning boshlang'ich harakat tezligi tizim tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan minimal tezlikdan past bo'lsa, tizim standart ravishda tizim tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan minimal tezlikni saqlab qoladi. Avtomobilning joriy tezligini akselerator pedali yoki tormoz pedalini bosish orqali ko'rsatilgan oraliqda oshirish yoki kamaytirish mumkin.



Avtomobil tezligi soatiga 60 km dan ortiq bo'lganda boshqaruv markazidagi ushbu  tugmani bosib, HDC tizimi yoqiladi.

DIQQAT

- Tik qiyalikda harakatlanishdan oldin HDC tizimini yoqing. Bu sizga avtomobilni boshqarishdan chalg'imaslik va ikkala qo'lingizni rulda ushlab turish imkonini beradi.
- HDC tizimi ishlayotganda, g'ildiraklar bloklanganda, ABS tizimi avtomatik ishga tushadi.
- Agar HDC tizimi ishlayotganda g'ildiraklardan biri tuproq bilan aloqani yo'qotsa, tormoz kuchi tuproq bilan yaxshiroq ilashadigan boshqa g'ildirakka qayta taqsimlanadi.
- HDC tizimi dinamik barqarorlashtirish tizimi yordamida tormoz mexanizmlarining ishlashini boshqaradi. Tizim ishlayotganda o'ziga xos gidravlik tovush eshinishi mumkin, bu normal holat. Dinamik barqarorlashtirish tizimi nosoz bo'lsa, HDC tizimi ishlamay qoladi. Avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.


XAVFLI

Xavfli vaziyatga tushib qolmaslik uchun haydovchi butun yo'l davomida avtomobilni boshqarish uchun zarur bo'lgan barcha harakatlarni bajarishi kerak.

Boshqariladigan tushish indikatori/signalizatori

Tizim faollashtirilganda, asboblarda yashil indikator yonadi.:




Tizim nosozligi  asboblarda panelidagi sariq signalizator yonishi bilan belgilanadi.

Antiblokash tormoz tizimi (ABS)

ABS tizimi g'ildiraklar juda kuchli tormozlanganda yoki sirpanchiq yo'lda tormozlanganda bloklanishning oldini olishga yordam beradi. Bu g'ildiraklarning sirpanishi va avtomobilning siljishining oldini olish, shuningdek, avtomobilning barqarorligini oshirish imkonini beradi.

5. HAYDOVCHIGA YORDAM TIZIMLARI




ABS tizimi faqat tormozlash paytida g'ildiraklarni bloklash xavfi bo'lganda ishga tushadi, ammo normal tormozlash paytida emas. Agar tormozlash paytida tormoz pedali tebranib, shovqin eshitilsa, bu ABS tizimining ishlashini ko'rsatadi. Bunday tebranishlar va shovqinlar odatiy holdir. Masofa yetarli bo'lsa, ABS tizimi tormozlash paytida to'siqni aylanib o'tish va shu bilan to'qnashuvdan qochish imkonini beradi. Tormoz pedalini qo'yib yubormang.

XAVFLI

- Avtomobilni ehtiyotkorlik bilan boshqaring va burilishlarda tezlikni kamaytiring.
- ABS tizimi nosoz bo'lsa, birinchi imkoniyatdayoq avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
- ABS tizimi tormozlashning mumkin bo'lgan maksimal samaradorligini ta'minlaydi, biroq tormoz yo'lining uzunligi ko'p jihatdan yo'l qoplamasining holatiga bog'liq.
- Bundan tashqari, ABS tizimi oldinda ketayotgan transport vositasigacha bo'lgan masofa juda qisqa bo'lganda, suv bosgan joylardan o'tayotganda, burilish joylarida yoki nosoz yo'llarda juda tez harakatlanayotganda, shuningdek, avtomobilni ehtiyotsiz yoki beparvo boshqarganda sizni xavfdan himoya qila olmaydi.
- ABS tizimi yo'l qoplamasining har qanday holatida tormoz yo'lini qisqartirishni kafolatlamaydi. Agar avtomobilda sirpanishga qarshi zanjirilar o'rnatilgan bo'lsa yoki avtomobil qumli yoki qorli yo'lda harakatlanayotgan bo'lsa, ABSli avtomobil ABSsiz avtomobillarga qaraganda uzoqroq tormoz yo'lga ega bo'lishi mumkin.

Antiblokash tormoz tizimi nosozlik signalizatori

Ushbu indikator  yonib, tizim nosozligini bildiradi.

XAVFLI

Agar ABS tizimining nosozlik signalizatori va tormoz tizimining nosozlik signalizatori bir vaqtning o'zida yonsa, avtomobilni yo'l chetidagi xavfsiz joyda to'xtatib va birinchi imkoniyatdayoq avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Funksiya cheklovlari

■ ABS tizimi ishlayotganda quyidagi tovushlarni chiqarishi mumkin:

1. Tormoz pedali tebranishida hosil bo'ladigan tovush.

2. Favqulodda tormozlashda podveska qismlarining avtomobil kuzoviga urilish tovushi.
3. Tizimning gidravlik blokidagi elektr dvigatel, elektromagnit klapan va teskari ta'minot nasosining ishlash tovushi.
4. Tormozlash jarayoniga tormoz kuchlarining elektron sozlagichi aralashganda elektromagnit klapaning ishlash tovushi.
5. Tizimning o'z-o'zini diagnostika qilish jarayonida - elektr quvvati yoqilganda yoki dvigatel ishga tushirilganda qisqa "g'o'ng'illagan" tovush.

■ Quyidagi holatlarda oldindagi transport vositasigacha xavfsiz masofani saqlang.

1. Buzilgan yo'llarda harakatlanayotganda.
2. O'ydim-chuqur yoki notekis qoplamali yo'llarda harakatlanishda.
3. Sirpanishga qarshi zanjirlardan foydalanilganda.
4. Tuproq, shag'al yoki qorli yo'llarda harakatlanishda.

DIQQAT

ABS tizimining normal ishlashi uchun shinalarning o'lchami, ularning spetsifikatsiyasi va protektorining holati katta ahamiyatga ega. Almashtirish paytida zavodda o'rnatilgan shinalar bilan bir xil o'lchamdagi, ruxsat etilgan yuklama va dizayndagi shinalarni o'rning. Shina ishdan chiqqanda, nosoz shinani yangi asl shinaga almashtirish uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

XAVFLI

- Yomg'irda haydashda avtomobil tezligini diqqat bilan nazorat qilish kerak. G'ildiraklarning sirpanishi yoki siljishi holatida antiblokash tormoz tizimi samarasiz bo'lishi mumkin.
- ABS tizimi avtomobilni nazorat qilishni saqlab qolishga yordam bersa-da, avtomobilni ehtiyotkorlik bilan boshqarish va o'rta tezlikni va oldindagi transport vositasigacha xavfsiz masofani saqlash juda muhimdir. ABS tizimi ishlayotganda ham avtomobilning barqarorligi va rul boshqaruvi samaradorligining chegarasi mavjud.

Boshqa haydovchiga yordam tizimlari

Tormoz kuchlarining elektron sozlagichi (EBD)

Tormoz kuchlarining elektron sozlagichi oldingi va orqa o'qlar o'rtasida tormoz kuchlarining taqsimlanishini ularga tushadigan yuklamaga qarab avtomatik ravishda sozlaydi. Bu tormozlash samaradorligini oshirish uchun zarur. Elektron tormoz kuchi sozlagichi va ABS tizimining birgalikda ishlashi avtomobilning tormozlanishdagi barqarorligini oshiradi. Bundan tashqari, burilishda tormozlashda tizim g'ildiraklarning burilish markaziga nisbatan ichki va tashqi tormoz mexanizmlaridagi kuchni tartibga soladi, bu esa avtomobilning tormozlanishdagi barqarorligini yanada oshiradi.

Sirpanishga qarshi tizim (TCS)

Harakat keskin boshlanganda, shuningdek, tezlanish vaqtida oldingi g'ildiraklar sirpanishi mumkin. Sirpanchiq (masalan, qor yoki muz bilan qoplangan) yo'lda bu avtomobilni nazorat qila olmaslikka va avariya holatiga olib kelishi mumkin. Agar g'ildirak datchiklaridan olingan

5. HAYDOVCHIGA YORDAM TIZIMLARI

signal asosida TCS tizimi yetakchi g'ildiraklar aylanish chastotasi yetaklanuvchi g'ildiraklar aylanish chastotasidan yuqori ekanligini aniqlasa (bu sirpanish belgisi bo'lishi mumkin), u o't oldirishni tezlatish burchagini sozlaydi, drosselning ochilish burchagini kamaytiradi, pastroq uzatmani yoqadi yoki yetakchi g'ildiraklarning sirpanishini to'xtatish uchun ularni tormozlaydi.

Qiyalikka ko'tarilishda yordam tizimi (HAC)

HAC tizimi tepalikka ko'tarilishda avtomobilning orqaga dumalab ketishini oldini oladi. Avtomobil to'xtagandan so'ng, HAC tizimi bo'ylama tezlanish datchigi yordamida avtomobilning qiyalikda ekanligini aniqlaydi. Agar avtomobil qo'zg'almas holatdan ko'tarilishga qarab oldinga yoki orqaga yurishni boshlasa, HHC tizimi avtomatik ravishda ishga tushadi. Avtomobil harakatlana boshlaganda, haydovchi oyog'ini tormoz pedalidan akselerator pedaliga o'tkazguncha, tizim 1-2 soniya davomida tormoz mexanizmlaridagi bosimni saqlab turadi. Tormoz mexanizmlaridagi bosim elektr dvigatel hosil qiladigan tortish kuchi ortishi bilan ravon pasayib boradi. Bu avtomobil harakatining to'satdan boshlanishi natijasida avariya holatining oldini olish imkonini beradi.

Shoshilinch tormozlashda yordam tizimi (BAS)

BAS tizimi shoshilinch tormozlashda avtomobilning tormozlash yo'lini kamaytirish imkonini beradi. Favqulodda vaziyatda haydovchi odatda o'z vaqtida tormozlashni boshlaydi, lekin odatda tormoz pedalini yetarli kuch bilan bosmaydi va bu tormoz yo'lini uzaytiradi. Bunday vaziyatlarda BAS tizimi yordam berishi mumkin. Agar favqulodda vaziyatda haydovchi tormoz pedalini tez, lekin yetarlicha kuchli bosmasa, BAS tizimi tormoz tizimi konturlaridagi bosimni darhol maksimal darajaga ko'taradi. Bu ABS tizimining tezkorligi va samaradorligini oshiradi hamda tormozlash yo'lini samarali qisqartirish imkonini beradi.

Tormozlash ustuvorligi tizimi (BOS)

Akselerator pedali va tormoz pedali bir vaqtning o'zida bosilganda, bu tizim dvigatel tomonidan hosil qilinadigan burovchi momentni cheklab, tormozlashga ustuvorlik beradi.

Shoshilinch tormozlashda yordam tizimi (EBA)

EBA tizimi shoshilinch tormozlashda avtomobilning tormozlash yo'lini kamaytirish imkonini beradi. Favqulodda vaziyatda haydovchi odatda o'z vaqtida tormozlashni boshlaydi, lekin odatda tormoz pedalini yetarli kuch bilan bosmaydi va bu tormoz yo'lini uzaytiradi. Bunday vaziyatlarda EBA tizimi yordam berishi mumkin. Agar favqulodda vaziyatda haydovchi tormoz pedalini tez, lekin yetarlicha kuchli bosmasa, EBA tizimi tormoz tizimi konturlaridagi bosimni darhol maksimal darajaga ko'taradi. Bu ABS tizimining tezkorligi va samaradorligini oshiradi hamda tormozlash yo'lini samarali qisqartirish imkonini beradi.

5-10. Elektr tarmog'idan quvvatlanadigan gibrid avtomobil tizimi haqida ma'lumot (PHEV)

Elektr tarmog'idan quvvat oluvchi gibrid avtomobil (PHEV) IYODli avtomobil va elektromobilning afzalliklarini o'zida mujassamlashtirgan va shu bilan birga ularning kamchiliklaridan xoli: siz elektr tortqida yurish zaxirasi yetarlimi yoki yo'qmi, deb tashvishlanishingiz shart emas, shuningdek, siz yoqilg'i sarfining oshishi haqida ham qayg'urishingiz shart emas. Gibrid kuch agregati - bu mablag'ni tejash, energiyadan tejamkorlik bilan foydalanish va atrof-muhitga g'amxo'rlik qilishdir.

Tortish akkumulyator batareyasi

Tortish akkumulyator batareyasi asosiy funksiyalari

Tortish akkumulyator batareyasini zaryadlashning asosiy usuli uni tashqi quvvat manbaiga zaryadlash pistoleti orqali ulashdir. Shuningdek, tortish batareyasi ishlayotgan IYOD va rekuperativ tormozlash paytida ham zaryadlanishi mumkin.

Avtomobil intellektual zaryad funksiyasiga ega. Bu funksiya faol bo'lganda, 12 V kuchlanishli batareya tortish akkumulyator batareyasidan quvvatlanadi. Avtomobil uzoq vaqt to'xtab turgandan so'ng kuch agregatini ishga tushirishda asboblardan panelida ko'rsatilgan tortish akkumulyator batareyasining quvvat darajasi (SOC) va elektr tortishda bosib o'tilgan yo'lning qiymati pasayishi mumkin. Bu normal holat.

■ Past harorat sharoitida tortish akkumulyator batareyasining sig'imi pasayishi sababli, quyida keltirilgan tavsiyalarga amal qilish sizga avtomobildan yanada samarali foydalanishga yordam beradi.

1. Tashqi havo harorati - 10 °C dan past bo'lsa, avtomobilni issiq xona yoki garajga qo'ying.
2. Bunday imkoniyat bo'lmasa, zaryadlash portiga zaryadlash pistoletini ulang: tortish akkumulyator batareyasini zaryadlash bilan bir vaqtda uning isitish tizimi ham ishga tushadi. Zaryadlash pistoletini ulaganingizdan so'ng, safarga tayyorgarlik funksiyasini dasturlash tavsiya etiladi, bu funktsiyani ishga tushirish vaqtini jo'nashdan yarim soat oldin belgilash kerak. Bu funksiya oldindan tortish akkumulyator batareyasini isitish va konditsioner tizimini yoqadi, shunda safardan maksimal zavq olasiz.

■ Quyidagi tavsiyalarga amal qilish tortish batareyasini optimal holatda saqlashga yordam beradi

1. Tortish akkumulyator batareyasini kamida oyiga bir marta quvvatlash moslamasi bilan to'liq quvvatlang.
2. Agar siz avtomobildan uzoq vaqt davomida foydalanishni rejalashtirmagan bo'lsangiz, lekin tortish batareyasi quvvat darajasi 20% dan past bo'lsa, uni quvvatlang.
3. Agar avtomobildan uzoq vaqt davomida foydalanishni rejalashtirmayotgan bo'lsangiz, uni havo harorati 45 °C dan oshmaydigan, quyosh nuri to'g'ridan-to'g'ri tushmaydigan va suv bosish xavfi bo'lmagan joyga qo'ying.
4. Agar uzoq vaqt avtomobildan foydalanmagan bo'lsangiz, qurilmalar panelidagi quvvat darajasi (SOC) xato ko'rsatilishi mumkin. Bunday vaziyatda tortish akkumulyator batareyasi qoldiq quvvatini ko'rsatilgan zaryad darajasi (SOC) bo'yicha baholash kerak emas. Safar oldindan tortish batareyasini to'liq zaryadlang.
5. Agar siz uzoq vaqt avtomobildan foydalanmayotgan bo'lsangiz, tortish akkumulyator batareyasining (SOC) quvvat darajasini 50-70% darajada ushlab turish kerak. Bu talabning bajarilmasligi akkumulyator batareyasining chuqur zaryadsizlanishiga va xususiyatlarining yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Buning natijasida yuzaga kelgan nosozliklar va avtomobil shikastlanishi kafolat bilan qoplanmaydi.
6. Quvvatlangan tortuv akkumulyator batareyasiga ega bo'lgan yangi avtomobilda elektr tortish kuchi bilan bosib o'tiladigan masofa qiymati haydash uslubiga (masalan, tez-tez tezlashish va sekinlashish), yo'l sharoitlariga (masalan, tik va davomli ko'tarilishda harakatlanish), atrofdagi havo haroratiga (masalan, qishki vaqtda avtomobildan foydalanish) va elektr jihozlaridan (masalan, konditsioner) foydalanishga qarab o'zgarishi mumkin. Bu normal holat.

5. HAYDOVCHIGA YORDAM TIZIMLARI

7. Tortish akkumulyator batareyasida kimyoviy reaksiyalar sodir bo'ladi, shuning uchun uning ishlash xususiyatlarini saqlab qolish uchun undan har kuni to'g'ri foydalanish va oldini olish juda muhimdir. Shu bilan birga, tortish akkumulyator batareyasining sig'imi vaqt o'tishi bilan tabiiy ravishda kamayadi. Agar avtomobil uzoq vaqtdan beri foydalanilayotgan bo'lsa va tortish batareyasi to'liq zaryadlangan bo'lsa-da, elektr tortish yo'li zaxirasi kamaygan bo'lsa, avtomobilni tekshirish uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qilish tavsiya etiladi. Agar rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasida avtomobilni tekshirish tortish akkumulyator batareyasining sig'imi me'yorda ekanligini ko'rsatsa, elektr tortish yo'lining kamayishi haydash uslubi, atrofdagi havo harorati va boshqalar kabi tashqi sabablar tufayli yuzaga kelishi mumkin.

Tortish akkumulyator batareyasini utilizatsiya qilish

■ Utilizatsiya qilish mezonlari

Agar tortish akkumulyator batareyasining qoldiq sig'imi va uning zaryadsizlanish xususiyatlari avtomobilning normal ishlashini kafolatlay olmasa, tortish akkumulyator batareyasi avtomobildan yechib olinishi kerak. Shundan so'ng u keyinchalik foydalanish uchun yaroqsiz bo'lib, utilizatsiya qilinishi kerak.

■ Utilizatsiya tartibi

Avtomobilga o'rnatilgan tortish akkumulyator batareyasi tarkibida litiy elementlari mavjud. Uni noto'g'ri utilizatsiya qilish atrof-muhitga zarar yetkazishi mumkin.

Tabiatni muhofaza qilish qonunchiligi talablariga muvofiq, avtomobil egasi xizmat muddatini o'tab bo'lgan tortish akkumulyator batareyasini utilizatsiya punktiga topshirishi shart. Xizmat muddatini o'tab bo'lgan tortish akkumulyator batareyasini boshqa tashkilot yoki shaxslarga berish taqiqlanadi. Avtomobil egasi tortish batareyasini ruxsatsiz ajratib olish yoki qismlarga ajratish natijasida atrof-muhitning ifloslanishi va xavfsizlik bilan bog'liq baxtsiz hodisalar uchun javobgar bo'ladi.

Utilizatsiya quyida keltirilgan ma'lumotlar va talablarga muvofiq amalga oshirilishi lozim. Tortish akkumulyator batareyasini utilizatsiya qilish bo'yicha qo'shimcha ma'lumot olish uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

1. Rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasi xizmat muddati o'tgan tortish akkumulyator batareyasini birlamchi qabul qilish punkti hisoblanadi.
2. Tortish akkumulyator batareyasini qismlarga ajratish tortish akkumulyator batareyasini yetkazib beruvchidan tegishli ruxsatnomaga ega bo'lgan professional mutaxassis tomonidan amalga oshirilishi kerak.
3. Tortish akkumulyator batareyasi xavfliligi bo'yicha 9-klass yuklar qatoriga kiradi va tegishli ruxsatnoma mavjud bo'lganda transport vositalarida tashilishi kerak.
4. Yechib olingan tortish akkumulyator batareyasi odatdagi haroratda, quruq xonada, yonuvchan materiallar, issiqlik manbalari, suv va boshqa xavfli omillardan uzoqda saqlanishi kerak.

XAVFLI

- Tortish batareyasini mustaqil ravishda utilizatsiya qilish taqiqlanadi.
- Tortish akkumulyator batareyasini uchinchi shaxslarga sotish yoki berish, uning konstruksiyasiga o'zgartirishlar kiritish taqiqlanadi.
- Tortish akkumulyator batareyasini ta'mirlash, demontaj qilish, almashtirish va utilizatsiya qilish zarur bo'lsa, rasmiy dilemning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Ehtiyot choralari

Tortish akkumulyator batareyasi yuqori kuchlanishli energiya to'plagichlar va xavfli buyumlar toifasiga kiradi. Tortish akkumulyator batareyasini o'rnatish va profilaktika qilish masalalari bo'yicha rasmiy dilemning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling, uning mutaxassislari tegishli xavfsizlik texnikasi talablariga rioya qilgan holda barcha zarur harakatlarni amalga oshiradilar. Professional bo'lmagan shaxslarga murojaat qilish va noto'g'ri xatti-harakatlar elektr toki urishi, yong'in chiqishi, portlash va boshqalar kabi jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Professional bo'lmagan shaxslarga tortish akkumulyator batareyasini o'rnatish, ta'mirlash yoki ruxsat etilgan diapazonlardan tashqarida foydalanish taqiqlanadi. Tortish akkumulyator batareyasining shikastlanishi va talablarni buzgan holda yoki ruxsat etilgan chegaralardan tashqarida foydalanilishi natijasida yuzaga keladigan boshqa nosozliklar kafolat bilan qoplanmaydi. Quyidagi tavsiyalarga amal qiling.

1. Tebranish va zarbalardan himoya

Tortish akkumulyator batareyasi tarkibiga ketma-ket ulangan quvvat elementi, shuningdek, boshqaruv qurilmalari va datchiklar kiradi. Shuning uchun notekis yo'llarda harakatlanayotganda tortish batareyasiga zarar yetkazmaslik uchun ehtiyot bo'ling.


2. Atrof-muhitning ekstremal haroratidan himoya

Tortish batareyasini optimal ish harorati oralig'ida ushlab turish uning ishlash muddatini sezilarli darajada uzaytirishi va xavfsizlik ko'rsatkichlarini oshirishi mumkin, shuning uchun avtomobilni yaxshi shamollatiladigan va minimal harorat o'zgarishi bo'lgan joylarda to'xtatishga harakat qiling.

3. Suyuqlik va namlikdan himoya

Tortish akkumulyator batareyasi boshqarish zanjirlari va akkumulyator elementlariga ega yuqori kuchlanishli energiya tejavchi qurilmadir. Tortish akkumulyator batareyasiga suyuqlik kirishi qisqa tutashuvga, tokning sizib chiqishiga va batareya elementlari, elektr zanjirlari va ulagichlarining korroziyasiga olib kelishi mumkin. Tortish batareyasiga hech qanday suyuqlik va nam havo kirmasligini nazorat qiling.

New Energy tizimi



Energy Consumption List (Energiya iste'moli statistikasi): quyidagi davrlar uchun energiya iste'moli ma'lumotlarini ko'rish uchun bosing: avtomobildan foydalanish boshlanganidan buyon, safar davomida bosib o'tilgan masofa hisoblagichi oxirgi marta nolga tenglashtirilganidan buyon, oxirgi 50 km uchun, oxirgi marta ishga tushirilganidan buyon, oxirgi marta ma'lumotlar asliga qaytarilganidan buyon.

Energy flow (Energiya oqimi): avtomobilda energiya oqimlarini taqsimlash sxemasini displeyga chiqarish.

Quvvatlash pistoletini sekin quvvatlashda blokdan chiqarish: Quvvatlash pistoletini o'zgaruvchan tok manbaidan quvvatlashda blokdan chiqarish va quvvatlashni to'xtatish uchun ushbu bandni tanlang.

Charging / discharge management (Tashqi manba tomonidan quvvat olishni boshqarish): External discharge (Tashqi qurilma tomonidan quvvat olish):

Energy management (Energiyani boshqarish): tortish akkumulyator batareyasining zaryad darajasini, qayta tiklanish darajasini, elektr tortish rejimida yurish ekranini va yurish zaxirasini ta'minlash ekranini sozlash.

More (Boshqalar): ECO rejimi va javobgarlikdan voz kechish bayonoti.

Rejim	Tavsifi
Elektr uzatmali harakat	Elektr dvigatel avtomobilni harakatga keltiradi. IYOD o'chirilgan.
Maksimal yurish zaxirasini ta'minlash rejimi	IYOD tortish akkumulyator batareyasini zaryadlaydi va avtomobilni harakatga keltiradi.
Parallel uzatma	IYOD va elektrodvigatel bir vaqtning o'zida ishlaydi.
IYOD bevosita uzatmasi	IYOD avtomobilni to'g'ridan-to'g'ri harakatga keltiradi.
Harakat paytida elektr energiyasini ishlab chiqarish	IYOD tortish akkumulyator batareyasini zaryadlaydi va avtomobilni harakatga keltiradi.


Rejim	Tavsifi
To'xtash vaqtida elektr energiyasi ishlab chiqarish	To'xtash vaqtida IYOD tortish batareyasini quvvatlaydi.
Rekuperativ tormozlash	Elektr dvigatel tormozlashda energiyani rekuperatsiya qiladi va tortish akkumulyator batareyasini quvvatlaydi.

XAVFLI

Piyodalarni ogohlantirish funksiyasini faqat avtomobil yaqinida boshqa yo'l harakati ishtirokchilari bo'lmaganda va atrofdagi sharoitlar ogohlantiruvchi tovush signalini berishni aniq talab qilmagandagina o'chirish mumkin. Agar avtomobilingiz yonida piyodalarning paydo bo'lish ehtimoli bo'lsa, ushbu funksiyani o'chirmaslik kerak.

Energiya rekuperatsiyasi darajasi

Avtomobil nakat bilan harakatlenganda, transmissiya elektr dvigatelning mexanik energiyasini elektr energiyasiga aylantirib, energiyani qayta tiklaydi va tortish akkumulyator batareyasini quvvatlaydi, bu esa energiya sarfini kamaytiradi.



Harakatga tayyorlik rejimi (READY) yoqilganda, quyidagi ekranda energiyani qayta tiklash darajasini tanlang: Audio System (Audio tizim) -Settings (Sozlamalar) - New Energy (Yangi energiya tizimi). Quyidagi darajalar mavjud: Low (past) /Medium (o'rta) / High (yuqori).

Energiya rekuperatsiyasi	Tavsifi
Energiya rekuperatsiyasi past intensivligi	Uzoq masofalarni bosib o'tish uchun mos keladi. Maksimal darajadagi qulaylikni ta'minlaydi.
Energiya rekuperatsiyasi o'rta intensivligi	Aksariyat holatlar uchun mos keladi, qulaylik va samarali tiklanishni uyg'unlashtiradi.
Energiya rekuperatsiyasi yuqori intensivligi	Avtomobilning eng jadal sekinlashishini va eng samarali rekuperatsiyasini ta'minlaydi.

TANISHIB CHIQING

- Muayyan sharoitlarda (zaryadning yuqori darajasi yoki atrofdagi havoning past harorati) energiya rekuperatsiyasida sezgilar turlicha bo'lishi mumkin.
- Energiyani rekuperatsiya qilishning past va o'rta darajasi qulaylik va tejamkorlik o'rtaidagi optimal muvozanatni ta'minlaydi. Energiya rekuperatsiyasi yuqori darajasi dvigatelning kuchli tormozlash hissini keltirib chiqaradi, shu sababli u tez yurish uchun tavsiya etiladi.

5. HAYDOVCHIGA YORDAM TIZIMLARI

Ish rejimlari

Quvvat rejimlari



OMT18-1133

Avtomobil harakatga tayyor holatda (READY) bo'lganda, quvvat rejimini tanlash uchun boshqaruv markazidagi EV/HEV kalit tugmasini bosing. Asboblar panelidagi tegishli rejim indikatorini yoqiladi va quvvat rejimi muvaffaqiyatli almashtirilgani haqida ogohlantiradi.



OMT18-1134

Avtomobil harakatga tayyor holatda (READY) bo'lganda, quyidagi ekranda quvvat rejimini tanlash uchun HEV/EV/EV + tugmasini bosing: Audio System (Audio tizim) - Settings (Sozlamalar) Driving (Haydash). Asboblar panelidagi tegishli rejim indikatorini yoqiladi va quvvat rejimi muvaffaqiyatli almashtirilgani haqida ogohlantiradi.



OMT18-1135

Avtomobil harakatga tayyor holatda (READY) bo'lganda, quvvat rejimini tanlash uchun EV/HEV tugmasini burang. Qurilmalar panelidagi tegishli rejim indikatorini yoqiladi va quvvat rejimi muvaffaqiyatli almashtirilgani haqida ogohlantiradi.

Quvvat rejimi		Tavsifi
EV rejimi	EV	Avtomobil faqat elektr tortqi bilan harakatlanadi. IYOD ishlamaydi.
	EV+	Tortish akkumulyator batareyasining elektr toki yordamida eng ko'p yurishini ta'minlash uchun batareyani chuqurroq razryadlashga ruxsat etiladi. Ushbu rejimdan faqat favqulodda vaziyatlarda foydalanish tavsiya etiladi, chunki unda tortish akkumulyator batareyasining chuqur zaryadsizlanishi sodir bo'ladi va bu uning ishlash muddatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.
HEV rejimi	HEV	Avtomobil gibrid kuch agregati yordamida harakatga keltiriladi va IYOD istalgan vaqtda yoqilishi yoki o'chirilishi mumkin, bu esa avtomobilni boshqarishda ishtirok etish yoki foydalanish shartlariga muvofiq elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun ishlatiladi.

TANISHIB CHIQING

- Tortish akkumulyator batareyasining zaryad darajasi yuqori bo'lganda, agar avtomobil tayyor holatda bo'lsa (READY), avtomatik ravishda elektr tortish rejimiga (EV rejimi) o'tadi. Iloji boricha EV rejimidan foydalanish tavsiya etiladi.
- Agar avtomobil tayyorlik rejimida (READY) bo'lsa, selektor P holatida va HEV rejimi tanlangan bo'lsa, u holda akselerator pedali bosilganda to'xtash vaqtida elektr energiyasi generatsiyasi rejimi ishga tushishi mumkin.
- Elektromobil rejimida harakatlanganda, tortish akkumulyator batareyasining zaryadlanish darajasi pasayishi bilan elektr tortqining yurish zaxirasi kamayadi. Tortish akkumulyator batareyasining zaryad darajasi past bo'lsa, HEV rejimi avtomatik ravishda yoqiladi.
- Ba'zi sharoitlarda (masalan, tortish akkumulyator batareyasining zaryad darajasi past bo'lganda) HEV rejimidan EV rejimiga o'tish mumkin bo'lmisligi mumkin. Bunday holda, asboblarda panelida "Current Conditions Not Met, Mode Can't Be Switched" (Joriy shartlar mos emas, rejimni almashtirish mumkin emas) xabari paydo bo'ladi.
- Agar avtomobil uzoq vaqt davomida faqat EV rejimida, IYODdan foydalanmasdan ishlatilsa, IYODning moylash holati yomonlashishi mumkin. Shuning uchun IYODni ishga tushirish vaqti-vaqti bilan avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Bir qancha vaqt ishlagandan so'ng, IYOD avtomatik ravishda o'chadi.

Haydash rejimi



Avtomobil harakatga tayyor holatda (READY) bo'lganda, boshqaruv markazidagi haydash rejimi tugmasini bosib, haydash rejimini tanlang.

Asboblarda panelida mos rejim indikatoriyonadi va avtomobil rejimi almashtirilganini bildiradi.

5. HAYDOVCHIGA YORDAM TIZIMLARI



OMT18-1136

Avtomobil harakatga tayyor holatda bo'lganda (READY) quyidagi ekranda haydash rejimini tanlang: Audio System (Audio tizim) - Settings (Sozlamalar) - Driving (Haydash). Asboblar panelidagi tegishli rejim indikatorini yonib, avtomobil rejimi almashtirilganini bildiradi.



OMT18-1137

Avtomobil harakatga tayyor holatda (READY) bo'lganda, kerakli rejimni tanlash uchun haydash rejimi selektori dastasini burang.

Asboblar panelidagi tegishli rejim indikatorini yonib, avtomobil rejimi almashtirilganini bildiradi.

Haydash rejimi	Tavsifi
Normal	Ushbu rejim quvvat va tejamkorlikning optimal kombinatsiyasini ta'minlaydi va ko'p yo'l sharoitlari uchun mos keladi.
Eco	ECO rejimida avtomobilning yoqilg'i tejamkorligi oshadi. Ushbu rejim qattiq qoplamali yo'llarning gorizontallari qismlarida (masalan, shahar ko'chalarida) harakatlanish uchun mos keladi.
Sport	Ushbu rejimda avtomobilning tortish-dinamik xususiyatlari oshadi. Bu rejim transport tirbandligi kam bo'lgan keng yo'llarning gorizontallari qismlarida (masalan, tezyurur avtomagistrallarda) harakatlanish uchun mos keladi.
Snow:	Ushbu rejim qor, muz, o't, shag'al va shunga o'xshash qattiq va silliq yuzalarda harakatlanish uchun mo'ljallangan.
Mud:	Ushbu rejim loy va notekis yuzalarda tekis va sayoz loy qatlami bilan harakatlanish yoki g'ildirak izlari bo'lgan yo'llar uchun mo'ljallangan.
Off-road:	Bu rejim tezlik dinamikasini yaxshilaydi va avtomobilning o'tkazuvchanligini oshiradi. Bu rejim toshlar ustida harakatlanish va tiqilib qolgan avtomobilni chiqarib olish uchun mos keladi.

TANISHIB CHIQING

Eco rejimida adaptiv kruiz nazorati tizimi (ACC) avtomobilning kamroq intensiv tezlanishini, Sport rejimida esa ko'proq intensiv tezlanishini ta'minlaydi.

Energiya tejas rejimi



Harakatga tayyorlik rejimi (READY) yoqilganda, quyidagi ekranda energiya tejas rejimini tanlang: Audio System (Audio tizim) -Settings (Sozlamalar) - New Energy (-New Energy tizimi). Quyidagi rejimlar mavjud: Initial (Boshlang'ich) / Smart (Intellektual) / Forced (Majburiy).

Quvvat va yoqilg'i tejamkorligining optimal muvozanatini ta'minlaydigan intellektual energiya tejas rejimini tanlash tavsiya etiladi.

Energiya tejas rejimi	Tavsifi	Avtomobildan foydalanish holatlari
Boshlang'ich energiya tejas rejimi	Tortish akkumulyator batareyasining maksimal zaryadsizlanishiga yo'l qo'yiladi, bundan maqsad elektr tortqida yurish uchun maksimal yo'l zaxirasini ta'minlashdir.	Quvvatlash imkoniyati mavjud bolsa, avtomobilni kundalik boshqarish uchun mos keladi.
Intellektual energiya tejas rejimi	Yoqilg'i tejasga ustunlik beriladi. Tizim harakat paytida quvvat olish uchun eng maqbul vaqtni o'zi tanlaydi va elektr energiyasi bilan harakatlanish yoki maksimal quvvat berish zarur bo'lgan holatlar uchun energiya zaxirasini yaratadi.	Avtomobildan foydalanishning turli holatlari uchun mos keladi va shuning uchun tavsiya etilgan rejim hisoblanadi.
Majburiy energiya tejas rejimi	Tortish akkumulyator batareyasining quvvat darajasini belgilangan darajada ushlab turishga ustuvorlik beriladi. Tizim elektr energiyasi bilan harakatlanish yoki maksimal quvvat talab qilinadigan holatlar uchun energiya zaxirasini saqlaydi. Ushbu rejimda yonilg'i tejamkorligi pasayadi.	Tashqi iste'molchilarni quvvatlash uchun tortish batareyasidan foydalanish uchun mos keladi - masalan, kempingda.

TANISHIB CHIQUING

- Majburiy energiya tejash rejimidan tashqari barcha rejimlarda, avtomobilning elektr ta'minoti o'chirilganda va keyinchalik yoqilganda, avval yoqilgan rejim saqlanib qoladi.
- Majburiy energiya tejash rejimida tortish akkumulyator batareyasining quvvati saqlanadigan darajani qo'lda belgilash mumkin. Shuningdek, majburiy energiya tejash rejimi sozlamalari saqlanishi yoki saqlanmasligini tanlash mumkin. Agar Memorized (Sozlamalarni saqlash) bandini tanlasangiz, keyingi safar quvvat yoqilganda majburiy quvvat tejash rejimi yoqiladi. Agar Not memorized (Sozlamalarni saqlamaslik) bandini tanlasangiz, keyingi safar quvvat yoqilganda intellektual quvvat tejash rejimi yoqiladi.

Elektr tortish kuchi bilan harakatlanishda yurish zaxirasi


■ Elektr uzatmada harakatlanishda yurish zaxirasi qiymatiga quyida sanab o'tilgan bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi.

1. Haydash uslubi: tez-tez tezlikni oshirish va kamaytirish, shuningdek, shiddatli haydash uslubi doimiy tezlikda harakatlanishga nisbatan yurish zaxirasining kamayishiga olib keladi.
2. Konditioner tizimi kabi uskunalardan foydalanish: ushbu tizimdan foydalangan holda avtomobil salonidagi havoni sovutish yoki isitish undan foydalanishni bekor qilish bilan solishtirganda yurish zaxirasining kamayishiga olib keladi.
3. Yo'l sharoiti: notekis yo'lda harakatlanish yoki past-baland joylarda harakatlanish tekis va gorizontal yo'lda harakatlanishga nisbatan yurish zaxirasining kamayishiga olib keladi.
4. Atrof-muhit harorati: atrof-muhit harorati qanchalik past bo'lsa, tortish akkumulyator batareyasining sig'imi shunchalik past bo'ladi va shunga mos ravishda elektr tortishning yurish zaxirasi shunchalik past bo'ladi.
5. Real sharoitlarda mavjud yo'l zaxirasi ob-havo, yo'l, transport va boshqa sharoitlarga qarab o'zgarishi mumkin.

Quvvatlash qurilmasi

Quvvatlash qurilmasi bo'lgan quvvatlash kabeli (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)

Quvvat kabeli quvvatlash qurilmasi bilan birgalikda avtomobilning ta'minot to'plamiga kiradi va tortish akkumulyator batareyasini quvvatlash qurilmasidan iborat. Quvvat kabeli yordamida avtomobilni mahalliy elektrotexnik talablarga javob beradigan 220 V, 20 A o'zgaruvchan tokli uch kontaktli elektr rozetkaga ulash mumkin. Tortish akkumulyator batareyasi quvvatlanishda katta tok iste'mol qilganligi sababli, qo'llaniladigan rozetka uchun avtomatik o'chirgich bilan himoyalangan alohida ta'minot liniyasi talab qilinadi. Bu talabga rioya qilmaslik tarmoqqa ulangan boshqa elektr asboblarning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.



- 1 Quvvat pistoleti
- 2 Boshqarish bloki
- 3 Shteker

(Quvvat kabeli vilkasining dizayni avtomobil yetkazib beriladigan mamlakatga qarab farq qilishi mumkin)

XAVFLI

Quyida o'zgaruvchan tok tarmog'idan sekin quvvatlash pistoletidan xavfsiz foydalanish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan. Ularni diqqat bilan o'qib chiqing va zarur bo'lganda qo'llang.

1. Mamlakatingizda qabul qilingan elektrotexnik talablarga mos bo'lgan bir fazali rozetkadan (250 V o'zgaruvchan tok, 16 A) foydalaning. Rozetkaga ulash uchun sim kesimi kamida 2,5 mm² bo'lgan mis simlarga va yerga ulanishga ega bo'lishi kerak.
2. Rozetka nominal toki 20 A va nominal o'chiruvchi differensial toki 30 mA bo'lgan bir fazali himoyaviy o'chirish qurilmasi bilan himoyalangan bo'lishi kerak.
3. Nostandart elektr jihozlaridan foydalanish qat'iy man etiladi: eski rusumdagi rozetkalar, troyniklar, kabel-tarmoqlagichlar, qo'lbola yerga ulash qurilmalari va boshqalar.
4. Agar quvvatlash pistoleti yoki rozetkasi shikastlangan, zanglagan, qoraygan, erigan, deformatsiyalangan yoki boshqa shikastlangan bo'lsa, quvvatlashni boshlamang.
5. Quvvat kabeli vilkasini yoki o'zgaruvchan tok manbaidan quvvatlash pistoletini suvga botirish qat'iy man etiladi. Yomg'ir yoki qor yog'ayotganda, shuningdek, tez alanganuvchi, portlovchi moddalar yaqinida yoki boshqa xavfli sharoitlarda ochiq havoda quvvatlash qat'iy taqiqlanadi. Quvvatlash paytida avtomobilni yuvish taqiqlanadi.
6. Quvvatlash kabelini rozetkadan uzayotganda, uni simdan emas, vilkadan ushlang. Quvvat kabelini rozetkaga ulab, vilkaning rozetkada mahkam turganiga ishonch hosil qiling.
7. Quvvatlash paytida quvvatlash pistoletini avtomobildan ajratish yoki quvvatlash kabeli vilkasini rozetkadan chiqarish qat'iy man etiladi. Favqulodda holatlarda himoyaviy o'chirish qurilmasi yordamida quvvatni oddiy usulda o'chiring.
8. Agar quvvatlash kabeli vilkasining uzilishi yoki himoyaviy o'chirish qurilmasining ishg'a tushishi natijasida quvvatlash to'xtatilgan bo'lsa, quvvatlash pistoletini quvvatlash portidan uzib qo'yish kerak.
9. Quvvatlash pistoleti quvvatlash portidan uzilgandan keyin pistolet shikastlanmasligi uchun uni yerga tashlamang. Quvvatlash yakunlangach, himoya qopqoqlarini quvvatlash porti va quvvatlash pistoletiga taqing.
10. Agar quvvatlash paytida rozetkaning harorati sezilarli darajada ko'tarilsa, uning sozligini tekshiring va zarur bo'lsa, rozetkani almashtiring.

5. HAYDOVCHIGA YORDAM TIZIMLARI

XAVFLI

- Foydalaniladigan rozetka soz yerga ulanishi kerak.
- Hech qachon quvvatlash kabelini bosmang, zarba bermang, tortmang yoki ortiqcha bukman.
- Quvvatlash tugagandan so'ng, avval quvvatlash pistoletini avtomobildan va faqat shundan keyingina kabel shtekerini rozetkadan ajrating.
- Hech qachon elektr uzaytirgich va troyniklardan foydalanmang. Quvvat yoniqligida shtekerni hech qachon rozetkaga ulamang yoki rozetkadan uzmang.
- Quvvatlash kabelini qismlarga ajratmang va uni o'zingiz ta'mirlashga urinmang. Ishlab chiqaruvchi buning oqibatlari uchun javobgar emas.
- Quvvatlash pistoletidan foydalanmaganingizda himoya qopqog'i taqilgan bo'lishi kerak.
- Baxtsiz hodisaning oldini olish uchun yonuvchan gaz mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan joyda quvvatlashni amalga oshirmang.
- Yong'inga olib kelishi mumkin bo'lgan qisqa tutashuvning oldini olish uchun quvvatlash porti quruq va unda begona zarralar yo'qligiga ishonch hosil qiling.
- Quvvatlash faqat ta'minot liniyasi qisqa tutashuvdan himoya qilish uchun himoya o'chirish qurilmasi bilan jihozlangan bo'lsagina amalga oshirilishi mumkin.
- Quvvatlash kabelining fizik yaxlitligini buzamang, uni tushirib yubormang yoki unga og'ir buyumlarni qo'ymang.
- Quvvatlash kabelini ishlatishdan oldin uning shtekeri rozetkaga mahkam o'rnatilganligiga va tegishli indikator yonib turganiga ishonch hosil qiling.
- Ushbu quvvatlash kabeli faqat avtomobilingiz modeliga mos keladi va shikastlanishining oldini olish uchun boshqa avtomobillarni quvvatlash uchun ishlatilmasligi kerak.
- Avtomobilni ishga tushirishdan oldin quvvatlash pistoleti tarmoqdan to'liq uzilganligiga ishonch hosil qilish kerak, aks holda quvvatlash moslamasi va avtomobil shikastlanishi mumkin.
- Quvvatlash kabelini suvga, boshqa suyuqliklarga, qorga solish yoki yomg'ir ostida qoldirish taqiqlanadi. Shikastlanishning oldini olish uchun shtekerni nam qo'llar bilan rozetkaga ulamang yoki uzmang.
- Ishchi harorat: $-30\text{ }^{\circ}\text{C}$ dan $50\text{ }^{\circ}\text{C}$ gacha. Quvvatlash kabelini issiq buyumlar yonida saqlamang va quyosh ta'sirida qoldirmang.
- Faqat asl quvvatlash kabelidan foydalaning. Asl bo'lmagan quvvatlash kabelidan foydalanish tortish batareyasi nosozligiga olib kelishi yoki uning to'g'ri quvvatlanishi ta'minlamasligi mumkin.
- Quvvatlash kabeli nosoz bo'lsa, uni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Boshqaruv bloki indikatorlari

Ish rejimi/ nosozlik	Quvvat indikator (yashil)	Quvvat indikator (qizil)	Nosozlik indikator (qizil)	Quvvatlash tugaganligi indikator (yashil)
Boshlang'ich holat	Yonadi	Bir marta miltillaydi	Bir marta miltillaydi	Bir marta miltillaydi
Quvvat rejimini kutish	Yonadi	Yonmaydi	Yonmaydi	Yonmaydi
Normal quvvatlash rejimi	Yonadi	Yonadi	Yonmaydi	Yonmaydi
Quvvatlash yakunlandi	Yonadi	Yonmaydi	Yonmaydi	Yonadi
O'z-o'zini tekshirish	Yonadi	Yonmaydi	Miltillaydi	Yonmaydi
Aloqa xatoligi	Yonadi	Yonadi	Miltillaydi	Yonmaydi
Kirish kuchlanishi juda yuqori yoki past	Yonadi	Yonmaydi	Yonadi	Yonmaydi
Yerga ulash nosozligi	Yonadi	Yonmaydi	Yonadi	Miltillaydi
Yuqori tok	Yonadi	Miltillaydi	Yonadi	Yonmaydi
Toq sizishi	Yonadi	Yonmaydi	Miltillaydi	Miltillaydi
Qizishdan himoya	Yonadi	Yonadi	Yonadi	Yonadi

 **DIQQAT**

Boshqaruv blokini kabeldan olishga yoki uni o'zingiz ta'mirlashga urinmang. Nosozlik yuz berganda, rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Eng ko'p uchraydigan nosozliklarni aniqlash

■ Quvvat olmayapti

1. Indikatorning ishlash rejimini tekshiring va uni yuqoridagi jadval yordamida oching.
2. Yerga ulashning sozligini tekshiring.
3. Quvvat kuchlanishini tekshiring.
4. Quvvatlash kabeli to'g'ri ulanganligini tekshiring.

5. HAYDOVCHIGA YORDAM TIZIMLARI

■ Quvvat vaqti-vaqti bilan uziladi

1. Indikatorning ishlash rejimini tekshiring va uni yuqoridagi jadval yordamida oching.
2. 220 V o'zgaruvchan tok ta'minot kuchlanishining barqarorligini tekshiring.
3. Ruxsat etilgan harorat oshib ketmaganini tekshiring.

■ Quvvatlash paytida quvvatning o'chirilishi

1. Yerga ulashning sozligini tekshiring.
2. Qisqa tutashuv yo'qligini tekshiring.
3. Barcha elektr uskunalarning umumiy quvvati juda yuqori emasligini tekshiring.

■ Quvvatlash paytida har safar quvvat yoqilganda nosozlik yuzaga keladi

Quvvatlash kabelining uch kontaktli shtekerini rozetkadan va quvvatlash pistoletini quvvatlash portidan uzing va ularni qaytadan ulang. Agar nosozlik yo'qolmagan bo'lsa, darhol rasmiy dilarning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Quvvatlash tartibi

Quvvatlashdan avval tekshirish

■ Quyidagi holatlarning birortasi mavjud bo'lganda, quvvatlash taqiqlanadi, chunki bu qisqa tutashuvga yoki elektr toki urishiga va jarohatlanishga olib kelishi mumkin.

1. Qurilma ulagichida tirqish bo'lsa, quvvatlashga urinmang.
2. Quvvatlash portida namlik va begona zarrachalar yo'qligiga va metall klemmalar oksidlanmaganiga ishonch hosil qiling.
3. Quvvatlash moslamasi soz, korpusida yoriqlar mavjud emasligi, kabelda yeyilish izlari yo'qligi, shtekerda esa zanglash izlari yo'qligiga ishonch hosil qiling.

O'zgaruvchan tok manбайдan quvvatlash (sekin quvvatlash)

⚠ XAVFLI

Avtomobilni maishiy elektr tarmog'idan quvvatlashda rozetka va kabel ko'rsatkichlari bortdagi quvvatlash qurilmasida ko'rsatilganidan past bo'lmali kerak. Uch kontaktli maishiy rozetka ishonchli yerga ulanganligiga ishonch hosil qiling. Aks holda elektr toki urishi mumkin.



OMT18-1143

1. Avtomobilni quvvatlash stansiyasi yonida to'xtating, selektorni P holatiga o'tkazing va to'xtash tormozini yoqing.

2. Bosh qurilmangizdagi New Energy ekranida "Charge now" (Darhol quvvatlash) rejimini tanlang va avtomobil quvvati o'chiriladi.

3. Quvvatlash porti lyukining orqa tomonini bosib, uni oching.



4. Bortdagi quvvatlagichni oling va vilkani rozetkaga ulang.

5. Quvvatlash porti va quvvatlash pistoleti (bortdagi quvvatlash moslamasi yoki quvvatlash stansiyasi) dan himoya qopqoqlarini oling va quvvatlash portiga quvvatlash pistoletini ishonchli joylashtiring.

6. Quvvatlash yakunlangach, quvvatlash pistoletidagi yuqori tugmani bosib turing va uni quvvatlash portidan chiqarib oling.

7. O'zgaruvchan tok manбайдan quvvat olish portiga va zaryadlash pistoletiga himoya qopqoqlarini kiydiring va quvvatlash porti lyukini yoping.

8. Bortdagi quvvatlash moslamasini olib tashlang (yoki quvvatlash pistoletini quvvatlash stansiyasiga qaytarib joylashtiring).

Quvvatlash yakunlangach yoki u to'xtatilgach, quyida tavsiflanganidek, quvvatlash pistoletini o'zgaruvchan tok manбайдan qulfdan chiqaring.

- Avtomobilni oching.
- Bosh ekranida sekin quvvatlash uchun pistolet qulfini ochish tugmasini bosing.

■ Tashqi manba tomonidan quvvatlash/quvvat olish indikatori



Tashqi manba tomonidan quvvatlash/quvvat olish indikatori portning quvvatlash lyukida joylashgan. Indikator uchta rangga (sariq, yashil, havorang) ega va tashqi manbaning quvvatlash/olish jarayonini ko'rsatadi.

Sariq yonganda: Quvvatlash rejimini kutish;

Yashil rangda miltillaydi: quvvatlash jarayoni ketmoqda;

Yashil yonganda: quvvatlash yakunlandi;

Qizil yonganda: quvvatlash/quvvat olishda xatolik yuz berdi;

Moviy miltillaydi: energiya tanlovi;

Ko'k rangda yonganda: quvvat olinishi kutilmoqda.

5. HAYDOVCHIGA YORDAM TIZIMLARI

TANISHIB CHIQING

- Portativ quvvatlagich yordamida quvvatlash yakunlangach, avval quvvatlash pistoletini portdan chiqarib oling, keyin kabelni rozetkadan uzing.
- Agar jadval asosida quvvatlash amalga oshirilsa, bosh qurilma orqali quvvatlash boshlanish vaqtini belgilang. Belgilangan vaqt kelganda ulangan quvvatlagich quvvatlashni boshlaydi.
- Jadval bo'yicha quvvatlash faqat quvvatlash stansiyasi, portativ yoki uydagi quvvatlash moslamasidan o'zgaruvchan tok manbaidan quvvatlanganda mavjud. Ushbu funksiyani amalga oshirish uchun quvvat pistoleti portga o'rnatilishi kerak. Bu funksiya bank kartasi yoki kodni skanerlash orqali to'lanadigan quvvatlash stansiyalarida ishlamaydi.
- Agar dvigatelni ishga tushirish tugmasi OFF holatida bo'lsa, kapot to'liq yopilmagan bo'lsa, darhol quvvatlash, jadval bo'yicha quvvatlash va rejalashtirilgan safar funksiyalari noto'g'ri ishlashi mumkin.

 **DIQQAT**

- Atrofdagi havo harorati 50 °C dan yuqori bo'lganda quvvatlagichni saqlamang va undan foydalanmang, aks holda quvvatlash qurilmasi shikastlanishi mumkin.
- Tashqi elektr ta'minoti o'chirilganda va u keyinchalik yoqilganda, quvvatlash qurilmasi qayta yoqilmasdan avtomatik ravishda qayta ishga tushadi.
- Quvvatlash porti lyukini yopishdan oldin, quvvatlash porti himoya qopqog'i joyiga o'rnatilganini tekshiring. Agar port himoya qopqog'i bo'lmasa, lyuk yopilsa, unga suv va loy kirib, nosozlik yuzaga kelishi mumkin.
- Quvvatlash vaqtida avtomobil tagida joylashgan tortish akkumulyator batareyasi va avtomobilning old qismida joylashgan bortli quvvatlash qurilmasi ishlaydi. Ularning ishlashi rele uskunasi bilan birga kechishi mumkin. Bu normal hodisa.
- Quvvatlash yakunlangach, quvvat pistoletini avtomobildan uzing, keyin quvvat kabeli shtekerini rozetkadan uzing.
- Agar avtomobil uzoq vaqt foydalanilmayotgan bo'lsa, uning xizmat muddatini uzaytirish uchun tortish batareyasini har oyda bir marta quvvatlash va quvvatsizlantirish tavsiya etiladi.
- Avtomobilni ishga tushirishdan oldin quvvatlash moslamasi uzilganini, quvvatlash porti himoya qopqog'i va quvvatlash porti lyuki yopiqligini tekshiring. Aks holda, suv yoki loy portga kirishi va uning ishlashiga ta'sir qilishi mumkin.
- Agar quvvatlash porti muzlab qolgan bo'lsa, uni eritish uchun fen yoki shunga o'xshash qurilmadan foydalaning. Quvvat pistoletini kuch bilan portga joylashga urinish ularning shikastlanishiga olib keladi.
- Quvvat pistoletida yoki portida begona zarralar mavjud bo'lsa, pistoletni portga kuch bilan kiritish taqiqlanadi. Buning uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling. Quvvat pistoletini portga kuch bilan kiritishga urinish ularning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.
- Dvigatelni ishga tushirish tugmasi ON holatida bo'lganda, avtomobilning elektr jihozlaridan uzoq vaqt foydalanmang. Agar tortish batareyasining quvvat darajasi pastligi haqida ogohlantirish paydo bo'lsa, uni quvvatlash pistoleti yoki harakatga tayyor holatda (READY) IYOD bilan quvvatlang. Aks holda tortish akkumulyator batareyasining quvvati tugaganligi sababli kuch agregatini ishga tushirish imkoni bo'lmaydi. Agar shunday bo'lsa, tortish batareyasini zaryadlash pistoleti yordamida quvvatlang. Agar shundan keyin ham quvvat agregatini ishga tushira olmasangiz, rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
- Asboblar panelidagi quvvat darajasi ko'rsatkichi qizil zonaga yaqinlashganda, tortish batareyasi zaryadsizlanganini bildiradi. Bunda akkumulyator batareyasini quvvatlash kerak. Aks holda elektr uzatmali (EV) rejimdan gibrid rejimga (HEV) o'tish sodir bo'ladi. Akkumulyator batareyasi to'liq quvvatsizlantirilgandan so'ng quvvatlashga kirishish tavsiya etilmaydi, chunki bu batareyaning ishlash muddatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tortish akkumulyator batareyasi quvvati past bo'lganda gibrid transmissiyaning normal ishlashini ta'minlash uchun quvvat rejimi avtomatik ravishda EV dan HEV ga o'tkaziladi.

5. HAYDOVCHIGA YORDAM TIZIMLARI

Doimiy tok manбайдan quvvatlash (tezkor quvvatlash)



1. Avtomobilni quvvatlash stansiyasi yonida to'xtating, selektorni P holatiga o'tkazing va to'xtash tormozini yoqing.
2. Bosh qurilmangizdagi New Energy ekranida "Charge now" (Darhol quvvatlash) rejimini tanlang va avtomobil quvvati o'chiriladi.
3. Quvvatlash porti qopqog'ini ochish uchun uning orqa tomonini bosing.
4. Quvvatlash stansiyasidan quvvatlash pistoletini oling, quvvatlash portidan himoya qopqog'ini olib tashlang va quvvatlash portiga quvvatlash pistoletini quvvatlash joylashtiring.
5. Quvvatlash yakunlangach, quvvatlash pistoletidagi yuqori tugmani bosib turing va uni quvvatlash portidan chiqarib oling.
6. Quvvat pistoleti va quvvatlash portiga himoya qopqoqlarini kiydiring va quvvatlash portining qopqog'ini yoping.

XAVFLI

- Avtomobilni quvvatlash uchun o'zgaruvchan tokni doimiy tokka aylantiruvchi moslamadan foydalanish qat'iyan man etiladi, chunki bu avtomobil shikastlanishiga va odamlarning jarohatlanishiga olib kelishi mumkin.
- Avtomobilni quvvatlash paytida hech qachon quvvat pistoletini majburan uzming. Ushbu talabga rioya qilmaslik shikastlanish va boshqa xavflarga olib kelishi mumkin.
- Quvvatlash moslamasini bolalar qo'li yetmaydigan joyda saqlang. Bolalar va yordamga muhtojlar insonlar quvvatlash moslamasidan foydalanishga ruxsat bermang.
- Bir vaqtning o'zida avtomobilni quvvatlash va yonilg'i quyish taqiqlanadi. Avtomobilga yonilg'i quyish paytida quvvat pistoletini ulash mumkin emas. Quvvatlash paytida avtomobil yonuvchan buyumlar va moddalardan yetarlicha uzoqda bo'lishi kerak. Ushbu talabga rioya qilmaslik, agar quvvatlash kabeli qoidalarni buzgan holda ulansa yoki uzilsa, quvvatlash moslamasining shikastlanishiga va odamlarning jarohatlanishiga olib kelishi mumkin.

O'zgaruvchan tok manбайдan quvvat olish portining elektron qulfi

O'zgaruvchan tok manбайдan quvvat olish porti elektron qulf bilan jihozlangan bo'lib, u xavfsizlik nuqtayi nazaridan portga kuchlanish ostida bo'lgan quvvat pistoletini kiritish yoki chiqarish imkonini bermaydi.

■ Elektron qulfni qulflash

Avtomobilni quvvatlash uchun milliy standartlar talablariga mos va 32 A tokka mo'ljallangan o'zgaruvchan tokli quvvat stansiyasidan foydalaning. Quvvat pistoleti portga o'rnatilgandan so'ng, elektron qulf uni avtomatik qulflaydi va avtomobilni quvvatlantirish boshlanadi.

⚠ XAVFLI

Agar quvvatlash pistoleti qulflanganidan keyin uni uzish kerak bo'lsa, avval elektron qulfni oching. Quvvat pistoletini portdan kuch bilan chiqarishga urinmang - bu elektron qulf, quvvat pistoleti va quvvat portining shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

■ Elektron qulfni ochish

Elektron qulfni ikki usulda ochish mumkin.

1. Elektron qulfni ochish uchun masofadan boshqarish pultidagi qulflash tugmasini, keyin esa ochish tugmasini bosing. Quvvat pistoletidagi mexanik qulf tugmasini ehtiyotkorlik bilan bosib, uni portdan chiqaring.


2. Ikkinchi usul masofadan boshqarish pultidan foydalanishni talab qilmaydi: qo'lingiz bilan quvvatlash pistoletini oling va undagi tugmani bosh barmog'ingiz bilan bosing. Elektron qulfning ochilish tovushini eshitganingizda, avval bosh barmog'ingizni ko'taring, keyin portdan chiqarish uchun quvvatlash pistoletidagi mexanik qulf tugmasini tezda bosing.

📖 TANISHIB CHIQUING

- Agar elektron qulf ochilgandan keyin quvvatlash pistoleti chiqarilmasa, elektron qulf bir necha soniyadan keyin avtomatik ravishda qayta berkitiladi.
- Agar avtomobil qulflanmagan, elektron qulf esa qulflangan holatda bo'lsa, yuqorida keltirilgan elektron qulfni ochish amalini bajarishdan oldin eshiklarni yopish va avtomobilni qulflash kerak.

5. HAYDOVCHIGA YORDAM TIZIMLARI

Quvvat pistoleti qulfini qo'lda ochish (faqat o'zgaruvchan tok manбайдan quvvat olayotganda)



O'zgaruvchan tok manбайдan quvvatlash paytida quvvatlash pistoletining yuqori tugmasini bosib turish orqali portdan chiqarib olinmasa, uni qulfdan chiqarish moslamasi yordamida qo'lda uzish mumkin.

1. Quvvatlash amalga oshmayotganligiga ishonch hosil qiling (buni asboblari panelidagi ma'lumotlardan aniqlash mumkin).
2. Yukxona eshigini oching va yukxonaning gilam qoplamasini ko'taring.
3. Quvvatlash portidan quvvatlash pistoletini chiqarish uchun favqulodda blokdan chiqarish arqonini torting.

⚠️ DIQQAT

Favqulodda blokdan chiqarish arqonidan faqat zaryadlash pistoletini portdan oddiy yo'l bilan chiqarib bo'lmaganda foydalanish mumkin. Favqulodda blokdan chiqarish arqonidan tez-tez foydalanish uning sinishiga yoki quvvatlash portining buzilishiga olib kelishi mumkin.

⚠️ XAVFLI

• Favqulodda qulfdan chiqarish arqonini tortish bilan bir vaqtda quvvatlash portidan to'punchani chiqarishga urinmang. Avval favqulodda qulfdan chiqarish arqonini torting va shundan keyingina quvvatlash pistoletini quvvatlash portidan chiqaring. Ushbu talabni bajarmaslik elektr toki urishi va jiddiy jarohatlarga olib kelishi mumkin.

• Avtomobilni quvvatlash paytida yoki to'q sariq rangli yuqori kuchlanishli kabel ochilgan bo'lsa, bu amalni bajarmang. Ushbu talabni bajarmaslik elektr toki urishiga va jiddiy jarohatlanishga yoki avtomobil shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Agar ushbu amalni xavfsiz bajarishni bilmasangiz, vakolatli dilerlarning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Quvvatlashda ehtiyot choralari

Yomg'irda quvvatlashda ehtiyot choralari

1. Yomg'ir paytida quvvatlashda quvvatlagichga namlik kirmasligiga e'tibor bering.
2. Kuchli yomg'ir, to'fon, do'l va boshqa ekstremal ob-havo sharoitlarida, milliy elektrotexnika standartlari shartlariga rioya qilinmaganda, ochiq havoda zaryadlashni amalga oshirish qat'iy tanqislanadi.

Bu quvvatlashni amalga oshira olmaslikka olib kelishi va hatto avtomobil yoki quvvatlash moslamasiga zarar yetkazishi mumkin.

3. Yomg'ir paytida quvvatlash zarur bo'lsa, avvalo quvvatlash porti ichida namlik yo'qligiga ishonch hosil qiling. Quvvatlash portida namlik mavjud bo'lsa, quvvatlashni boshlamang, chunki bu quvvatlashning imkonsizligiga, ayrim hollarda esa avtomobil yoki quvvatlash qurilmasining shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Quvvatlashda ehtiyot chorolari

■ Quvvatlashni qo'lda tugatish

1. Quvvatlashni to'xtatish va quvvatlash porti elektron qulfi blokdan chiqarilganini tekshiring.
2. Quvvatlash pistoletini oling va uni ochish uchun tugmani bosing.
3. O'zgaruvchan tok manбайдan quvvat olayotganda, elektron qulf bloklangan bo'lsa, quvvatlash pistoletini majburan uzishga urinmang. Bu quvvatlash portiga zarar yetkazishi mumkin.
4. Doimiy tok manбайдan quvvat olayotganda, quvvatlash tugaguniga qadar quvvatlash pistoletini majburan ajratishga urinmang. Bu elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.
5. Quvvatlash tugagandan so'ng, avtomobilni ishga tushirishdan oldin, quvvatlash pistoleti quvvatlash portidan uzilganligiga ishonch hosil qilish kerak, aks holda quvvatlash moslamasi va avtomobil shikastlanishi mumkin.
6. Quvvatlash pistoleti uzilganidan keyin himoya qopqog'i va zaryadlash porti qopqog'i yopiqligiga ishonch hosil qiling. Bu quvvatlash portiga namlik yoki begona zarrachalarning kirishini oldini oladi va ularning normal ishlashiga xalaqit bermaydi.

■ Quvvatlashni avtomatik tugatish

1. Quvvatlash yakunlangach, avval avtomobilni oching, keyin quvvatlash pistoletini uzing.
2. Quvvatlash tugagandan so'ng, avtomobilni ishga tushirishdan oldin, quvvatlash pistoleti quvvatlash portidan uzilganligiga ishonch hosil qilish kerak, aks holda quvvatlash moslamasi va avtomobil shikastlanishi mumkin.
3. Quvvatlash pistoleti uzilganidan keyin himoya qopqog'i va zaryadlash porti qopqog'i yopiqligiga ishonch hosil qiling. Bu quvvatlash portiga namlik yoki begona zarrachalarning kirishini oldini oladi va ularning normal ishlashiga xalaqit bermaydi.

Tortish akkumulyator harorati quvvat jarayoniga ta'sir qiladi

1. Agar quvvatlash porti qopqog'i ob-havo sharoiti yoki boshqa sabablarga ko'ra muzlab qolsa, uni majburan ochmang va quvvatlash pistoletini kuch bilan ajratishga urinmang.
2. Past haroratli sharoitda quvvatlashda tortish akkumulyator batareyasining termoregulyatsiya tizimi ishlaydi, ammo quvvatlash vaqti ortadi va tortish akkumulyator batareyasi qizishi bilan iste'mol qilinadigan quvvat ortadi, bu esa normal holatdir.
3. Sovuq iqlimli hududlarda quvvatlashni isitiladigan xonada amalga oshirish tavsiya etiladi.


5. HAYDOVCHIGA YORDAM TIZIMLARI

4. Sovuq iqlimli hududlarda zaryadlashni sayohatdan so'ng, tortish batareyasi hali issiqligida boshlash tavsiya etiladi. Bu yanada samarali quvvatlashni ta'minlaydi.

5. Issiq iqlimli hududlarda zaryadlashni yaxshi shamollatiladigan salqin joyda amalga oshirish tavsiya etiladi. To'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlari ostida va ochiq havoda quvvatlashdan saqlanang.

Tashqi qurilma tomonidan quvvat olish

Avtomobilingizdan tashqi iste'molchilarni quvvatlash mumkin. Quvvat olish qurilmasi (220 V, 16 A) tortish akkumulyator batareyasidan 220 V kuchlanishga mo'ljallangan tashqi maishiy qurilmalarni quvvatlantirish imkonini beradi. Avtomobildan kempinglarda, tabiat qo'yniga chiqishlarda, ovqat tayyorlash va boshqa ehtiyojlar uchun quvvat manbai sifatida foydalanish mumkin.



Dvigatelni ishga tushirish tugmasi ON holatida bo'lsa, bosh qurilmadagi quvvatlash/quvvat olishni boshqarish ekranidagi External Discharge (Tashqi qurilma tomonidan quvvat olish) funksiyasini yoqing yoki o'chiring. Quvvat olish uchun pistoletni uzishdan oldin External Discharge (Tashqi qurilma orqali quvvat olish) funksiyasini o'chirish (OFF) zarur.

Ehtiyot choralari

- Quvvat olish qurilmasidan foydalanganda, uni g'ildirak bilan bosishdan ehtiyot bo'ling va oyoq bilan bosmang.
- Foydalanilmayotganda quvvat olish moslamasini salqin va quruq joyda saqlang.
- Qurilmani ishlatishdan oldin, quvvat olishda tashqi iste'molchi shtekeri barcha zarur talablarga javob berishga ishonch hosil qiling.
- Quvvat olish jarayonida zaryadlash porti yoki rozetka bloki kontaktlarini ulash taqiqlanadi.
- Agar quvvat olish paytida g'ayrioddiy hidni sezsangiz, tutunni ko'rsangiz va hokazo, darhol quvvat olishni to'xtating.
- Tashqi iste'molchilarni quvvatlash paytida ularni yukxonaga, avtomobilning old qismi ostiga yoki g'ildiraklar yoniga qo'ymang.
- Tashqi iste'molchilardan foydalanish paytida ularning kabelini tortmang yoki siqmang.
- Quvvat olish uchun pistoletni chiqarayotganda, uni kabeldan tortmang. Quvvat olish pistoletidan ehtiyotkorlik bilan foydalaning.
- Quvvat olish pistoleti va rozetka bloki ulardan foydalanmaganingizda himoya qopqoqlari bilan yopilishi kerak.
- Agar rozetka bloki shikastlangan, nosoz, zanglash izlari bo'lsa yoki yomon kontaktda ega bo'lsa, undan foydalanmang.
- Quvvat olish pistoletidan foydalanishdan oldin pistolet, kabel va rozetka bloki sozligini tekshiring.

- Agar pistoletning uchi nam yoki iflos bo'lsa, foydalanishdan oldin uni arting va tozalang.

Quvvat olish

■ Quvvat olish qurilmasini ulashdan oldin tekshirish

Quyida sanab o'tilgan holatlardan birortasi mavjud bo'lganda, quvvat olish qurilmasini ulash taqiqlanadi, chunki bu qisqa tutashuvga yoki elektr toki urishiga va jarohatlanishga olib kelishi mumkin.

1. Agar quvvat olish pistoletida lyuft bo'lsa, tashqi iste'molchilarni quvvatlash taqiqlanadi.
2. O'zgaruvchan tok manbai orqali quvvatlash portida namlik va begona zarralar yo'qligiga va metall klemmalar oksidlanmaganiga ishonch hosil qiling.
3. Quvvat olish qurilmasining sozligini, uning korpusida yoriqlar yo'qligini, kabel eskirmaganligi va shteker zanglamaganligini tekshiring.

■ Tashqi iste'molchilarni quvvatlash

1. Avtomobil qo'zg'almas holatda turishi, selektor P holatda bo'lishi, tortish akkumulyator batareyasining quvvati va bakdagi yonilg'i sathi yetarli bo'lishi kerak.
2. Bosh qurilmangizda tashqi qurilma tomonidan quvvat olish rejimini yoqing. Quvvatlash porti qopqog'ini oching va quvvatlash portidan himoya qopqog'ini oling.
3. Quvvat olish pistoletini quvvatlash portiga ulang va pistoletni portga mahkamlang.
4. Rozetkalar blokidagi yoqish tugmasini bosing va tashqi qurilma muvaffaqiyatli ulanganini ko'rsatuvchi qizil chiroq yonganiga ishonch hosil qiling.
5. Tortish akkumulyator batareyasidan energiya olish boshlanadi, energiya olish indikatorini miltilay boshlaydi va avtomobil displeyida razryadlanish haqida ma'lumot paydo bo'ladi.
6. Tashqi iste'molchilardan foydalanish tugagandan so'ng, ularni rozetkalar blokidan uzing.
7. Bosh qurilmadagi tashqi qurilma tomonidan quvvat olish rejimini o'chiring. Razryad pistoletidagi yuqori tugmani bosib turing va uni o'zgaruvchan tok manbai zaryadlash portidan chiqaring.
8. O'zgaruvchan tok manbai orqali quvvat olish portiga himoya qopqog'ini kiydiring va quvvatlash porti lyukini yoping. Quvvat olish tugagandan so'ng, quvvat olish moslamasini bagaj bo'limiga joylashtiring.

5. HAYDOVCHIGA YORDAM TIZIMLARI

TANISHIB CHIQUING

- Doimiy quvvat manbai portiga pistoleti kiritilganda, energiya olish funksiyasi ishlamaydi.
- Tashqi qurilmani ulashdan oldin avtomobil bakidagi yonilg'i sathi va tortish akkumulyator batareyasining quvvat darajasi yetarli ekanligiga ishonch hosil qiling. Aks holda tashqi iste'molchilarni ta'minlash funksiyasi ishlamasligi mumkin.
- Tashqi elektr iste'molchilarini quvvatlash jarayonida iste'mol qilingan energiyaning umumiy hajmi 3,3 kVt dan oshmasligi kerak. Shundan so'ng energiya olish funksiyasi mavjud bo'lmaydi.
- Agar dvigatelni ishga tushirish tugmasi ON holatida bo'lsa, tashqi iste'molchilarni quvvatlash natijasida tortish akkumulyator batareyasining quvvati ma'lum darajagacha pasaysa, tortish akkumulyator batareyasini quvvatlantirish uchun IYOD avtomatik ravishda ishga tushadi. Bu normal hodisa.
- Agar avtomobilning elektr quvvati o'chirilganda unga tashqi iste'molchilar ulansa va ular energiya sarflamasa, avtomobilning statik energiya sarfi ortadi. Agar avtomobilga tashqi iste'molchilarni ulamoqchi bo'lmasangiz, energiya olish pistoletini uzib qo'yish tavsiya etiladi.

Quvvat olishda ehtiyot choralari

- Sertifikatlanmagan qurilmalardan foydalanish taqiqlanadi.
- Faqat milliy standartlar talablariga javob beradigan elektromobillar uchun maxsus qurilmalardan foydalaning.
- Safarni boshlashdan oldin quvvat olish pistoleti uzilganini va quvvatlash porti yopiqligini tekshiring.
- Qurilma va zaryadlash portiga o'zgartirishlar kiritish, ularni yechish yoki ta'mirlash taqiqlanadi. Ushbu talabga rioya qilmaslik nosozlik va yong'inga olib kelishi mumkin.
- Energiya olingandan so'ng, radiator ventilyatori va konditsioner kompressori avtomatik ishga tushishi va tortish akkumulyator batareyasini sovutish uchun ishlashi mumkin, bu normal holatdir.
- Energiya olish nisbatan xavfsiz sharoitlarda (xavfli kimyoviy moddalar, olov, issiqlik manbalari, uchqunlar, tez alanganuvchi va portlovchi moddalar bo'lmaganda) amalga oshirilishi kerak.
- Avtomobil shikastlanmasligi uchun quvvat olish paytida pistoletni silkitmang, chunki bu avtomobilni quvvatlash porti shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Energiya olish vaqtida avtomobilda ta'mirlash ishlarini bajarish taqiqlanadi..
- Voyaga yetmaganlarga energiya olish ishlarini bajarish, shuningdek, energiya olish qurilmasiga tegish va undan foydalanish taqiqlanadi. Energiya olish pistoleti yuqori kuchlanishli qurilmadir. Energiya olish jarayonida voyaga yetmaganlarning qurilmaga yaqinlashishiga yo'l qo'ymang.
- Agar energiya olish paytida g'ayrioddiy hidni sezsangiz, tutunni ko'rsangiz va hokazo, darhol energiya olishni to'xtating va rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Past tezlikda harakatlanayotganda piyodalarni ogohlantirish signali

Avtomobil past tezlikda deyarli shovqinsiz harakatlangani uchun piyodalar uning yaqinlashayotganini payqashlari qiyin bo'ladi. Yo'l harakati xavfsizligini oshirish uchun avtomobilingiz soatiga 30 km dan kam tezlikda harakatlanayotganda piyodalarga ogohlantirish signalini berishi mumkin.

- 30 km/soatgacha bo'lgan tezlik oralig'ida piyodalarni ogohlantirish signalining tovush balandligi avtomobil tezligi oshgani sayin ortib boradi.
- Bundan tashqari, agar selektor P (to'xtash joyi) holatida bo'lmasa, piyodalarni ogohlantirish signali harakatsiz avtomobilda ham uzatilishi mumkin.

- 6-1. Favqulodda holatda harakatlar
ERA-GLONASS tizimi 268
- 6-2. Favqulodda vaziyatda
avtomobilni boshqarish
Avariya yorug'lik
signalizatsiyasi tugmasi 270
Yorug'lik qaytaruvchi
nimcha 271
Avariya to'xtash belgisi 271
Asbob 272
- 6-3. Avtomobil harakatlanganda
g'ildirak shikastlangan bo'lsa
Shinani tezkor ta'mirlash... 273
- 6-4. Dvigatel sovutish
suyuqligining qizib ketishi
- 6-5. Saqlagichlarni almashtirish
Saqlagichlar 276
- Saqlagichlar bloki va rele
sxemasi 277
Saqlagichlarni
tekshirish..... 278
Saqlagichlarni
almashtirish..... 279
- 6-6. Avtomobilni shatakka olish
Shatakka olish moslamasi
(avtomobilning ayrim variantlari
uchun) 279
Avtomobilingizni shatakka
olish 280
Shatakka olish moslamasini
o'rnatish..... 282
- 6-7. Akkumulyator batareyasi
zaryadsizlanishidagi amallar
Akkumulyator batareyasini
olish va o'rnatish 283
Avtomobilni tashqi
akkumulyator batareyasidan
ishga tushirish..... 284

6. NOSOZLIK HOLATIDA

6-1. Favqulodda holatlarda harakatlar

ERA-GLONASS tizimi



Avariyalarda favqulodda harakat qilishning Rossiya davlat tizimi - bu favqulodda tezkor xizmatlarni chaqirish tizimi. U favqulodda tezkor xizmatlar operatori avtomatik (avariya paytida) yoki qo'lda ("SOS" tugmasini bosish orqali) chaqirish, avtomobilning xususiyatlari, uning joylashuvi koordinatalari, vaqti va harakat yo'nalishini tavsiflovchi minimal ma'lumotlar to'plamini uzatish, shuningdek, uyali aloqa tarmoqlari (GSM) orqali avtomobil foydalanuvchilarining davlat federal tizimi operatori bilan ovozli aloqasini o'rnatish uchun mo'ljallangan.



ERA-GLONASS tizimining dinamikasi rasmda ko'rsatilgan sohada joylashgan.

■ Favqulodda qo'ng'iroqning avtomatik ishga tushish rejimi

ERA-GLONASS dispetcherlik markaziga avtomatik qo'ng'iroq qilish avariya paytida amalga oshiriladi: old to'qnashuv; yon tomondan to'qnashuv; orqadan zarba; ag'darilish.

Operatorga avtomobil xususiyatlari, joylashgan joyi koordinatalari, vaqti va harakat yo'nalishi tavsiflangan ma'lumotlar to'plami uzatiladi, shuningdek, avtomobil ichidagi shaxslar bilan ovozli aloqa o'rnatiladi.

■ Favqulodda qo'lda qo'ng'iroq rejimi

Favqulodda qo'ng'iroqni qo'lda amalga oshirish uchun "SOS" tugmasini kamida 3 soniya bosib turing. Shu vaqtdan boshlab yuqorida keltirilgan avtomatik favqulodda qo'ng'iroq rejimiga o'xshash ish algoritmi ishga tushadi.

Qo'lda amalga oshirilgan favqulodda qo'ng'iroqni bekor qilish uchun ulanish bosqichida (agar tizim operatori bilan aloqa hali o'rnatilmagan bo'lsa) "SOS" tugmasini bosish kerak, bunda qo'ng'iroq to'xtatiladi.

"SOS" tugmasi tasodifan bosilganda, operatorga favqulodda vaziyatda emasligingizni bildiring.

■ Qurilmani sinash rejimi

Test rejimi "ERA-GLONASS" tizimi operatori tomonidan avtomobil telekommunikatsiya tizimining ishlashini tekshirish uchun mo'ljallangan.

Qurilmani sinovdan o'tkazish uchun dilerga murojaat qilishni tavsiya qilamiz. Xohishingizga ko'ra, testni mustaqil ravishda o'tkazishingiz mumkin. Buning uchun "SOS" tugmasini ketma-ket besh marta bosish kerak. Sinov rejimida foydalanuvchi interfeysi blokining holat indikatorini qizil - sariq - yashil ranglarda navbatma-navbat millitlaydi.

Testni amalga oshirish uchun ovoqli ko'rsatmalarga amal qilish talab etiladi. Test rejimidan chiqish quyidagicha amalga oshiriladi:

- tizim operatoriga mahsulotni sinovdan o'tkazish natijalari to'g'risidagi minimal zarur ma'lumotlar berilgandan keyin;
- tashqi quvvat o'chirilganda.

■ Xavfsizlik choralari

Mahsulot nominal kuchlanishi 12 yoki 24V bo'lgan transport vositasining bort tarmog'i orqali ishlaydi. Elektr ta'minotidan uzilganda, mahsulot o'rnatilgan zaxira akkumulyator batareyasi bilan ishlaydi, uning xizmat muddati 3 yilni tashkil etadi.

Zaxira batareyasini almashtirish faqat avtorizatsiya qilingan dilerlarda amalga oshiriladi.

Mahsulotning ishlashida nosozlik aniqlangan taqdirda, servis markaziga murojaat qilish kerak. Mustaqil ravishda ta'mirlash ishlarini olib borish taqiqlanadi.

DIQQAT

Quyidagi holatlarda favqulodda tezkor xizmatni chaqirish imkonsiz:

- mobil tarmoqning yomon signali yoki ERA-GLONASS dispetcherlik markazi liniyasi band bo'lsa;
- avtomobil mobil tarmoq ta'sir doirasidan tashqarida bo'lsa (tonnel, yer osti to'xtash joyi va boshqalar);
- telekommunikatsiya tizimi qurilmalari elementlarining nosozliklari.

■ Tizim holati indikatorini

Tizimning ishlashini vizual nazorat qilish uchun foydalanuvchi interfeysi bloki holat indikatorini qo'llaniladi.

Mahsulotga elektr energiyasi uzatilganda, holat indikatorini besh soniya davomida qizil rangda yonadi, agar mahsulot soz va o'z-o'zini diagnostika qilishdan o'tgan bo'lsa, holat indikatorini o'chadi va mahsulot ish rejimiga o'tadi.

O'z-o'zini diagnostika qilish paytida o'rnatilgan komponentlar nosozligi aniqlansa, mahsulot xizmat ko'rsatish indikatsiyasi holatiga o'tadi.

Mahsulot holatini ko'rsatishning mumkin bo'lgan variantlari jadvalda keltirilgan.

6. NOSOZLIK HOLATIDA

1-jadval. Tizim holati ko'rsatkichi

Tizim holati	Indikator holati
Yoqish	Qizil 5 soniya, keyin yashil miltillaydi
Ish rejimi	Yashil yoki sariq yonadi
Test rejimi	Qizil - sariq - yashil miltillaydi
Nosozlik, ichki xotira to'lgan	Qizil yonadi
Favqulodda qo'ng'iroq imkonsiz	Qizil yonadi
"Favqulodda qo'ng'iroq" rejimida aloqa o'rnatish	Yashil va sariq yonadi
"Favqulodda qo'ng'iroq" rejimida ma'lumot uzatish	Yashil va sariq yonadi
"Favqulodda qo'ng'iroq" rejimida ovozli ulanish	Yashil va sariq yonadi
Batareya quvvati past	Sariq miltillaydi
GLONASS/ GPS signallari yo'qligi	Sariq yonadi
GSM signallari yo'qligi	Qizil yonadi

DIQQAT

Diagnostika jarayonida ichki komponentlarning nosozligi aniqlangan taqdirda, dilerga murojaat qilish kerak.

6-2. Favqulodda vaziyatda avtomobilni boshqarish

Avtomobilni boshqarish paytida ko'pchilik xavflar to'satdan paydo bo'ladi va faqat haydovchining tezda to'g'ri qaror qabul qilishi, to'g'ri harakat qilishi va avtomobilni nazorat ostida ushlab turishi yo'l-transport hodisasining oldini olishi yoki zarar miqdori va jarohatlarning og'irligini kamaytirishi mumkin.

Avariya yorug'lik signalizatsiyasi tugmasi

Agar avtomobilni yo'l-transport hodisasiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan joyda to'xtatishingiz kerak bo'lsa, boshqa haydovchilarni ogohlantirish uchun favqulodda yorug'lik signalizatsiyasini yoqing. Avtomobilni transport oqimidan iloji boricha uzoqroqda to'xtating.



OMT18-5020

Avariya yorug'lik signalizatsiyasini yoqish uchun tegishli tugmani bosing. Avariya yorug'lik signalizatsiyasini o'chirish uchun uni qayta bosing.

TANISHIB CHIQING

- Avariya yorug'lik signalizatsiyasi dvigatelni ishga tushirish tugmasi OFF holatida bo'lsa ishlaydi.
- Xavfsizlik yostig'i ishga tushganda, avariya yorug'lik signalizatsiyasi avtomatik yoqiladi.

DIQQAT

Akkumulyator batareyasining zaryadsizlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun dvigatel ishlamayotganda favqulodda yorug'lik signalizatsiyasidan uzoq vaqt foydalanmang.


Yorug'lik qaytaruvchi nimcha



Yorug'lik qaytaruvchi nimchani qo'lqop qutisida saqlash tavsiya etiladi.

Avtomobilni ko'rish yaxshi bo'lmagan joyda tark etayotganda, masalan, to'satdan yuzaga kelgan nosozlikni bartaraf etish yoki yo'l-transport hodisasidan keyin yorug'lik qaytaruvchi nimchani (yorug'lik qaytaruvchi mato qismini tashqariga qaratib) kiying. Bu boshqa transport vositalari haydovchilari sizni ko'rish uchun zarur va takroriy YTHning oldini olishga yordam beradi.

Avariya to'xtash belgisi



Avariya holatida to'xtash uchburchak belgisi bagaj bo'limida gilam qoplamali pol ostida saqlanishi kerak.


To'satdan paydo bo'lgan nosozlikni bartaraf etish yoki yo'l-transport hodisasidan so'ng avtomobilni to'xtatishda avariya to'xtash belgisidan foydalanish boshqa transport vositalari haydovchilarini xavfdan ogohlantirish va takroriy yo'l-transport hodisasining oldini olish imkonini beradi.

6. NOSOZLIK HOLATIDA

⚠️ DIQQAT

- Oddiy yo'llarda avariya to'xtash belgisi avtomobilingiz orqasidan kamida 50 metr masofada o'rnatilishi kerak.
- Avtomagistralda avariya to'xtash belgisi avtomobilingiz orqasidan kamida 150 metr masofada o'rnatilishi kerak.
- Yomon ob-havo sharoitida yoki burilishda avariya to'xtash belgisi avtomobilingizning orqasida kamida 150 m masofada o'rnatilishi kerak.

Asbob



- 1 Shinani ta'mirlash uchun germetik
- 2 Shatakka olish moslamasi


📖 TANISHIB CHIQING

Agar avtomobil g'ildirak boltlari tiqinlarini ochish moslamasi bilan jihozlangan bo'lsa, g'ildirakni olishdan oldin tiqinlarni ochish uchun ushbu ochgichdan foydalaning.

6-3. Avtomobil harakatlanayotganda g'ildirak shikastlangan bo'lsa

Agar avtomobil harakatlanayotganda uning g'ildiragi shikastlangan bo'lsa, rul g'ildiragini ikkala qo'l bilan ushlab va to'g'ri chiziqli harakatni davom ettirib, tezlikni asta-sekin kamaytirish kerak. Avtomobilni transport oqimidan chetda xavfsiz joyda to'xtating. Iloji boricha avtomobilni qattiq qoplamali gorizontaal yuzaga to'xtating. Avtomobilni yo'lning o'rtasida yoki yo'lni ajratuvchi chiziqda to'xtatish taqiqlanadi.

6. NOSOZLIK HOLATIDA




1. To'xtash tormozini yoqing va selektorni P (to'xtash) holatiga o'tkazing.
2. Dvigatelni o'chiring va favqulodda yorug'lik signalizatsiyasini yoqing.
3. Yo'lovchilardan avtomobildan tushib, transport oqimidan uzoqroq tomonda turishni so'rang.
4. Yorug'lik qaytaruvchi nimcha kiying. Bagaj bo'limidan avariyaaviy to'xtash belgisini oling va uni avtomobilning orqa tomoniga 50 - 150 metr masofada o'rnatig (yo'l sharoitlariga qarab).

DIQQAT

Shikastlangan g'ildirak bilan harakatni davom ettirmaslik kerak. Nosoz shina bilan qisqa muddatli safar natijasida uning tiklanmaydigan shikastlanishi yuz berishi mumkin.

Shinani tezkor ta'mirlash

Quyida kompressor va germetik shina balloni bilan jihozlangan avtomobilning shinasini shoshilinch ta'mirlash tartibi keltirilgan.



1. Bagaj bo'limi eshigini oching, bagaj bo'limi polining gilam qoplamasini ko'taring va shinani ta'mirlash uchun germetik ballonni oling.



2. Foydalanishdan oldin germetik ballonni yaxshilab silkiting, so'ngra klapandan himoya tasma-sini olib tashlang.


6. NOSOZLIK HOLATIDA



3. Germetik ballon klapaning shtutserini shina ventiliga burab mahkamlang.



4. Shinani ta'mirlashni boshlash uchun qizil klapani soat mili yo'nalishida burang va germetik ballonni to'ntaring.



5. Shinani germetik yordamida ta'mirlagach, klapani soat miliga teskari yo'nalishda burang va ballon klapani shtutserini shina ventilidan ajrating. Shinani ta'mirlashni yakunlash uchun kamida 10 km davom etadigan safarni darhol amalga oshiring. Keyin shinani ta'mirlash yoki almashtirish uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga yoki shina ta'mirlash ustaxonasiga murojaat qiling.

Eslatma: Shinani ta'mirlash uchun germetik ballonni qo'llashdan oldin ballonda ko'rsatilgan yaroqlilik muddatini tekshiring va uning eskirmaganligiga ishonch hosil qiling.

DIQQAT

- Germetik ballonning sig'imi faqat bitta shinani ta'mirlash uchun yetarli. Qo'shimcha ballonlarni rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasida sotib olish mumkin.
- Shina germetik yordamida ta'mirlangandan so'ng 500 km va undan ortiq uzluksiz yurishga bardosh bera oladi. Dastlabki 10 km yo'lda 80 km/soat tezlikdan oshmang. Shundan so'ng avtomobilni odatdagi tezlikda haydash mumkin. Avtomobil shinalarini professional ta'mirlash yoki almashtirish uchun rasmiy dilerning servis stansiyasiga yoki shina ta'mirlash ustaxonasiga murojaat qilish tavsiya etiladi.

 XAVFLI

- Germetik teriga yoki ko'zga tushishidan saqlaning. Germetik ballonni bolalar qo'li yetmaydigan joyda saqlang.
- Shina teshilgan va havo sizib chiqayotgan avtomobilda harakatlanishda davom etsangiz, shina yorilib ketishi mumkin, bu esa haydovchi va yo'lovchilar uchun xavf tug'diradi.
- Germetik ballon faqat protektor sohasidagi teshiklarni ta'mirlash uchun qo'llanilishi kerak. Shina yelkalari, yon qismi yoki ventili shikastlangan joylarni germetik bilan ta'mirlashga urinmang.
- Agar ta'mirlashdan oldin shinadan teshilishga sabab bo'lgan buyumni olish kerak bo'lsa, germetikni qo'llashdan oldin avtomobilni teshilgan joy pastga, yo'lga qaragan holda to'xtating.
- Agar foydalanish paytida germetik shinaga yoki g'ildirak diskiga tegsa, germetik izlarini toza suv bilan yuving yoki mato bilan arting. Agar germetik ko'zingizga tushsa, uni toza suv bilan yuving va darhol tibbiy yordamga murojaat qiling.
- Agar atrofdagi havo harorati $-40\text{ }^{\circ}\text{C}$ dan $0\text{ }^{\circ}\text{C}$ gacha bo'lgan shinalarni ta'mirlash uchun germetikdan foydalanishingiz kerak bo'lsa, avval avtomobil isitgichi yordamida germetik ballonni $0\text{ }^{\circ}\text{C}$ yoki undan yuqori haroratgacha qizdiring. Bu shinani germetik bilan to'ldirish samaradorligini oshiradi.
- Germetik diametri 6 mm gacha bo'lgan teshiklarni samarali yopadi, bunda teshikni keltirib chiqargan jismini shinadan olish imkoni bo'lishi kerak. Agar teshik diametri 6 mm dan oshsa, rasmiy diler xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
- Shinani germetik yordamida ta'mirlagach darhol avtomobilda 10 km yoki undan ortiq masofani bosib o'ting. Ushbu safar davomida to'xtashlardan saqlaning. So'ngra shinani ta'mirlash yoki almashtirish uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga yoki shina ta'mirlash ustaxonasiga murojaat qiling.
- Shinani ta'mirlash germetikini saqlash harorati $-40\text{ }^{\circ}\text{C}$ dan $70\text{ }^{\circ}\text{C}$ gacha bo'lishi kerak. Germetik ballonni quyosh nuri tik tushayotgan avtomobilda saqlash yoki ballonga ochiq olov tutish taqiqlanadi. Ballonni kerakli talablarga muvofiq asboblarni qutisida saqlang, avtomobil salonida emas.

6-4. Dvigatel sovutish suyuqligi qizishi

Agar dvigatel qizish signalizatori yonsa, bu dvigatel sovutish suyuqligi harorati yuqori ekanligini ko'rsatadi va quyidagi amallarni bajarish kerak:

1. darhol yo'lning qatnov qismini tark eting, avtomobilni xavfsiz joyda to'xtating, to'xtash tormozini yoqing va selektorni P (to'xtash) holatiga o'tkazing, so'ngra avariya chirog'i signalizatsiyasini yoqing. Agar konditsioner tizimidan foydalangan bo'lsangiz, uni o'chiring.

2. Agar kengaytirish bakidan sovutish suyuqligi yoki bug' chiqayotgan bo'lsa, dvigatelni darhol o'chiring. Kapotni ochishdan oldin, bug' chiqishining tugashini kuting. Agar kengaytirish bakidan suyuqlik yoki bug' chiqmasa, dvigatelni ishga tushiring va sovutish tizimi ventilyatori aylanayotganini tekshiring.

6. NOSOZLIK HOLATIDA

Agar sovutish tizimi ventilyatori aylanmayotgan bo'lsa, darhol dvigatelni o'chiring va sovutish tizimini tekshirish uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.



Bug' paydo bo'lishi yoki sovutish suyuqligi oqishi sovutish tizimidagi bosimning juda yuqori ekanligini ko'rsatadi. Motor bo'limidan bug' chiqayotgan bo'lsa, kuyib qolmaslik uchun kapotni ochmang.

Dvigatel va radiator sovimaguncha kengaytiruvchi bak qopqog'ini ochmang. Aks holda, yuqori bosim ostida chiqayotgan bug' va issiq sovutish suyuqligidan qattiq kuyib qolishingiz mumkin.

3.Kapotni ochib, radiatoridan, shlanglardan va avtomobil tagidan sovutish suyuqligi sizib chiqishining aniq belgilari mavjudligini tekshiring. Konditsioner tizimi ishlayotganda avtomobil ostiga to'planadigan suv nosozlik belgisi hisoblanmaydi.

XAVFLI

Dvigatel ishlayotganda qo'llar, kiyimlar va asboblarni sovutish tizimining ventilyatori va uzatma kamaridan uzoqroq tuting. Ventilyator dvigatel ishlamay turganda ham ishga tushishi mumkin.

4.Sovutish suyuqligi sizishi aniqlanganda, darhol dvigatelni o'chiring va avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

5.Agar sovutish suyuqligi sizishi sezilmasa, kengaytirish bakidagi suyuqlik sathini tekshiring. Agar suyuqlik sathi MIN belgida yoki undan pastda bo'lsa, sovutish suyuqligi sathi MIN va MAX belgilari orasida bo'lishi uchun suyuqlik quyung. Faqat tavsiya etilgan sovutish suyuqligidan foydalaning.

DIQQAT

- Favqulodda vaziyatda sovutish suyuqligi bo'lmasa, bakka oddiy suv quyish mumkin. Sovutish suyuqligini almashtirish uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
- Agar dvigatel tez-tez qizib ketsa, avtomobil sovutish tizimini tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

6-5. Saqlagichlarni almashtirish

Saqlagichlar

Saqlagichlar elektr zanjirlari va qurilmalarini ortiqcha yuklanishdan himoya qilish uchun xizmat qiladi. Agar biror elektr asbobi ishlamayotgan bo'lsa, demak, tegishli saqlagich kuygan bo'ladi. Uni tekshiring va kerak bo'lsa almashtiring.

Saqlagichlar bloki va rele sxemasi

Motor bo'limidagi saqlagichlar bloki va rele

Ushbu saqlagichlar bloki va rele, radiator tomonidan qaralganda, motor bo'limi chap tomonida, akkumulyator batareyasi orqasida joylashgan (rasmda strelka bilan ko'rsatilgan).



1. Barcha elektr iste'molchilarini o'chiring va dvigatelni ishga tushirish tugmasini OFF holatiga o'tkazing.

2. Yukxona eshigini oching va chap tomondagi himoya qoplamasini oling. Akkumulyator batareyasi "manfiy" kabelini (12 V) uzing.



3. Saqlagichlarni tekshirish yoki almashtirish uchun dvigatel bo'linmasidagi saqlagichlar blokining qopqog'ini oling.

Boshqaruv panelidagi saqlagichlar bloki va rele

Saqlagichlar bloki va rele haydovchi tomonidagi boshqaruv panelida joylashgan.

6. NOSOZLIK HOLATIDA



1. Barcha elektr iste'molchilarini o'chiring va dvigatelni ishga tushirish tugmasini OFF holatiga o'tkazing.
2. Yukxona eshigini oching va chap tomondagi himoya qoplamasini oling. Akkumulyator batareyasi "manfiy" kabeli (12 V) ni uzing.
3. Saqlagichlarni tekshirish yoki almashtirish uchun boshqaruv panelining pastki chap qismidagi dekorativ qoplamani oling.

TANISHIB CHIQUING

1. Shubha uyg'otayotgan saqlagichlarni blok qopqog'ining ichki tomoniga chizilgan sxema bo'yicha tekshiring.
2. Avtomobilga zarar yetkazmaslik uchun dekorativ qoplamani yechish va o'rnatishda ehtiyot bo'ling. Zarur bo'lsa, buning uchun rasmiy dilarning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
3. Elektr tizimiga zarar yetkazmaslik uchun saqlagichlar blokini toza tuting. Ochiq qopqoq orqali namlikning blok ichiga kirishiga yo'l qo'ymang.

Saqlagichlarni tekshirish




Elektr jihozlari ishlamay qolsa, tegishli saqlagichlar sozligini tekshiring. Saqlagich sozligini aniqlashda quyidagi rasm yordam beradi.

- A** Soz saqlagich.
- B** Kuygan saqlagich.

TANISHIB CHIQUING

Saqlagich kuygan bo'lsa, uni almashtirish kerak.

Saqlagichlarni almashtirish



1. Barcha elektr iste'molchilarini o'chirish va dvigatelni ishga tushirish tugmasini OFF holatiga o'tkazing.
2. Shubha uyg'otayotgan saqlagichlarni blok qopqog'i ichki tomoniga chizilgan sxema bo'yicha tekshiring.
3. Saqlagichni olib tashlash uchun maxsus qisqichdan foydalaning.
4. Saqlagichning sozligini tekshirib ko'ring. Agar saqlagichning sozligiga ishonchingiz komil bo'lmasa, uni xuddi shu nominaldagi soz saqlagich bilan almashtiring.

5. Almashtirish uchun faqat oldingi saqlagich bilan bir xil nominaldagi saqlagichdan foydalaning. Saqlagichlar nominali saqlagich o'zida va saqlagichlar bloki qopqog'ida ko'rsatilgan.

Zaxira saqlagich bo'lmaganda, juda zarur bo'lganda, ikkinchi darajali elektr energiyasi iste'molchisi (masalan, axborot-ko'ngilochar tizimdan) xuddi shunday nominaldagi saqlagichidan foydalanish mumkin.

Ammo zaxira saqlagichlar to'plamini sotib olib, uni avtomobilda saqlagan ma'qul.

DIQQAT

- Yuqori nominalli saqlagichlardan foydalanish taqiqlanadi. Bu elektr uskunalarining ortiqcha yuklanishiga olib kelishi mumkin. Agar to'g'ri nominaldagi saqlagich kuysa, bu tegishli elektr zanjirida nosozlik borligini ko'rsatadi. Avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilarning xizmat ko'rsatish stansiyasiga darhol murojaat qiling.
- Kuygan saqlagichni vaqtincha simli peremichka bilan almashtirish taqiqlanadi. Aks holda avtomobilning elektr jihozlari jiddiy shikastlanishi yoki yonib ketishi mumkin.
- Saqlagichlar yoki saqlagichlar blokining konstruksiyasini o'zgartirish taqiqlanadi.

XAVFLI

Faqat kuygan saqlagich bilan bir xil nominaldagi saqlagichdan foydalaning.

6-6. Avtomobilni shatakka olish


Shatakka olish moslamasi (avtomobilning ayrim variantlari uchun)

Tirkamani shatakka olish uchun mos tortish-tirkash moslamasidan foydalaning. Asl tortish-tirkash moslamasidan foydalanish tavsiya etiladi. Tirkash-tortish qurilmasining to'g'ri o'rnatilganligini ta'minlash uchun standart teshiklardan foydalaning.

6. NOSOZLIK HOLATIDA

Batafsil ma'lumot olish uchun rasmiy dilerning servis stansiyasiga murojaat qiling.

Tortish-tirkash moslamasini o'rnatish



Maksimal vertikal og'irlik: 75 kg

Shatakka olinadigan tirkamaning maksimal og'irligi: 750 kg.

TANISHIB CHIQUING

Tirkamalarni shatakka olishda quyida keltirilgan xavfsizlik tizimlaridan foydalanmang (agar asl tortish-tirkash moslamasidan foydalanilsa, ular avtomatik ravishda o'chishi mumkin).

- "O'lik" zonalarni nazorat qilish tizimi (BSM)
- Orqaga yurib yo'lga chiqishda xavf haqida ogohlantirish tizimi (RCTA)
- To'xtashda yordam tizimi (orqaga harakatlanayotganda)

Tortish-tirkash qurilmasini o'rnatish tartibi haqida batafsil ma'lumot uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling. Nosoz avtomobilni shatakka olish uchun tortish-tirkash qurilmasining ilgagidan foydalanishga ruxsat beriladi.

TANISHIB CHIQUING

- Agar avtomobilni shatakka olish zarur bo'lsa, uning samaradorligini oshirish uchun akkumulyator batareyasining quvvat darajasini oldindan 50% yoki undan ko'proqqa oshirish tavsiya etiladi.
- Xavfsizlik nuqtai nazaridan, atrofdagi havo harorati 40 °C dan yuqori bo'lganda tirkamani shatakka olish tavsiya etilmaydi.

DIQQAT

Tirkamani shatakka olish paytida avtomobilga yetkazilgan zarar kafolat bilan qoplanmaydi.

XAVFLI

Tirkamani shatakka olish uchun faqat asl tortish-tirkash moslamasidan foydalanish kerak. Asl bo'lmagan tortish-tirkash moslamasidan foydalanish taqiqlanadi.


Avtomobilingizni shatakka olish

Agar avtomobilingizni shatakka olish kerak bo'lsa, rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga yoki maxsus yo'l xizmatiga murojaat qiling.

 XAVFLI

- Avtomobilni shatakka olish paytida yetkazilgan zarar kafolat bilan qoplanmaydi.
- Avtomobilni shatakka olishda quyidagi ko'rsatmalarga qat'iy amal qiling.
- Avtomobilningizni boshqa transport vositasi yordamida faqat tros yoki metall zanjir yordamida shatakka olish taqiqlanadi.

Evakuator yordamida shatakka olish



Avtomobilni evakuatorga to'liq yuklagan holda shatakka olish tavsiya etiladi. **1**

Shatakka olishda ehtiyot choralari:

- Avtomobilni shatakka olish g'ildiraklarni yo'lga tirmasdan amalga oshirilishi kerak. Ushbu rasmlarda ko'rsatilgan shatakka **2 3 4 5** olish usullaridan foydalanmang.
- Avtomobilni shatakka olishni boshlashdan oldin selektorni N (neytral) holatiga o'tkazing, avariya yorug'lik signalizatsiyasini yoqing va eshiklarni yoping.
- Avtomobilni shatakka olish paytida uning salonida hech kim bo'lmasligi kerak.

 DIQQAT

Nosoz avtomobilni vilkali yuklagich bilan ko'chirish taqiqlanadi.

 XAVFLI

- Avtomobilni evakuatorga ortish paytida uning orqasida begona jismlar va odamlar bo'lmasligi kerak. Ushbu talabga rioya qilmaslik odamlarning jarohatlanishi yoki o'limiga sabab bo'lishi mumkin.
- Xavfsizlikka tahdid bo'lmagandagina nosoz avtomobilni evakuatsiya qilish mumkin. Agar tortish akkumulyator batareyasi deformatsiyalangan, undan tutun chiqayotgan yoki elektrolit sizib chiqayotgan bo'lsa, birinchi navbatda xavfsizlik bilan bog'liq muammolarni hal qilish kerak.

6. NOSOZLIK HOLATIDA

Shatakka olish moslamasini o'rnatish

■ Shatakka olish moslamasini o'rnatish joyi



Izolyatsiya lentasi bilan o'ralgan yassi otvyortka yordamida shatakka olish teshigining dekorativ qopqog'ini yechib oling.

Shatakka olish moslamasini maxsus teshikka o'rnatish va uni soat mili yo'nalishi bo'yicha burang. Keyin ballonli kalit yordamida uni mahkamlang.

■ Orqa shatakka olish moslamasini o'rnatish joyi



Orqa shatak moslamasini o'rnatish joyi avtomobilning pastki o'ng orqa qismida joylashgan.

Izolyatsiya lentasi bilan o'ralgan yassi otvyortka yordamida shatakka olish teshigining dekorativ qopqog'ini yechib oling.

Shatakka olish moslamasini maxsus teshikka o'rnatish va uni soat mili yo'nalishi bo'yicha burang. Keyin ballonli kalit yordamida uni mahkamlang.

⚠️ DIQQAT

- Faqat avtomobilingizdagi shatakka olish moslamasidan foydalaning. Aks holda, unga zarar yetkazishingiz mumkin.
- Shatakka olish arqoni yoki qattiq ilgakni shatakka olish moslamasiga ulash mumkin.
- Shatakka oluvchi avtomobil haydovchisi va shatakka olinayotgan avtomobil haydovchisi shatakka olish qoidalarini bilishlari kerak. Aks holda shatakka olish taqiqlanadi.
- Shatakka oluvchi avtomobil sekin va bir tekis harakatlanishi kerak. Shatakka olish arqonining haddan tashqari tarangligi avtomobilga zarar yetkazishi mumkin.

⚠️ XAVFLI

Shatakka olish moslamasi mahkam o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling. Agar shatakka olish paytida moslama teskari tomonga burilsa, bu yo'l-transport hodisasiga, og'ir jarohatlarga yoki odamlarning o'limiga olib kelishi mumkin.

6-7. Akkumulyator batareyasi zaryadsizlanishidagi amallar

Akkumulyator batareyasini olish va o'rnatish



Akkumulyator batareyasini olish va o'rnatishda quyidagi amallarni bajaring.

1. Barcha elektr energiya manbalarini o'chiring va dvigatelni ishga tushirish tugmasini OFF holatiga o'tkazing.
2. Bagaj bo'limi eshigini oching va bagaj bo'limi chap himoya panelini oling.
3. Akkumulyator batareyasi "manfiy" (-) qutbli chiqishidan simni uzing.
4. Akkumulyator batareyasi "musbat" (+) qutb chiqishidan simni uzing.
5. Siquvchi plankani olib tashlang, keyin batareyani oling.
6. Yangi akkumulyator batareyasi parametrlari almashtirilayotgan batareya parametrlariga mos kelishi kerak. Akkumulyator batareyasini yechishga teskari ketma-ketlikda o'rnatish.

ATROF-MUHIT HIMOYASI

Ishdan chiqqan akkumulyator batareyasi tarkibida sulfat kislotasi va qo'rg'oshin mavjud, shuning uchun uni maishiy chiqindi konteynerlariga tashlash taqiqlanadi. Akkumulyator batareyasini mahalliy qonunchilikka muvofiq utilitatsiya qiling yoki maxsus qabul punktiga olib boring.

DIQQAT

Ehtiyot bo'ling, metall asbob bilan bir vaqtning o'zida akkumulyator batareyasining ikkala qutb qisqichlariga tegmang. Batareyaning musbat qutbi avtomobil kuzoviga tasodifan tegishiga yo'l qo'ymang.

6. NOSOZLIK HOLATIDA

XAVFLI

- Akkumulyator batareyasini bolalar qo'li yetmaydigan joyda saqlang.
- Akkumulyator batareyasi yonida chekmang, gugurt yoki yondirgichdan foydalanmang, unga ochiq olov yaqinlashtirmang.
- Akkumulyator batareyasi tarkibida zaharli va zanglash xavfini keltirib chiqaradigan sulfat kislotasi mavjud, shuning uchun akkumulyator batareyasi bilan ishlaganda himoya ko'zoynagi va qo'lqop taqing. Batareyani egmang va uni ag'darmang.
- Agar elektrolit tananing ochiq joylariga yoki kiyimga tushgan bo'lsa, uni ishqor (sovun) yordamida zararsizlantiring, so'ngra zararlangan joyni toza suv bilan yuving. Zarur bo'lsa, darhol tibbiy yordamga murojaat qiling.

Avtomobilni tashqi akkumulyator batareyasidan ishga tushirish

Agar tavsiflangan jarayonni mustaqil amalga oshirishingizga ishonchingiz komil bo'lmasa, ishlab chiqaruvchi sizga avtomobil shikastlanishi va tan jarohati olishning oldini olish uchun malakali mexanik yoki rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qilishni qat'iy tavsiya etadi.

DIQQAT


Tashqi akkumulyator batareyasining kuchlanishi 12 V bo'lishi kerak. Tashqi akkumulyator batareyasi kuchlanishi me'yorda ekanligiga ishonch hosil qilmaguncha dvigatelni ishga tushirmang.

XAVFLI

- Maxsus ishga tushirish simlaridan foydalaning.
- Akkumulyator batareyasi yonida chekmang, uning yonida gugurt yoki yondirgichdan foydalanmang, unga ochiq olovni yaqinlashtirmang.

■ Avtomobilni tashqi akkumulyator batareyasidan ishga tushirish tartibi

1. Barcha keraksiz elektr jihozlarini o'chiring. Agar boshqa avtomobilning akkumulyator batareyasidan foydalanilsa, avtomobillar bir-biriga tegib ketmasligiga ishonch hosil qiling.
2. Ishga tushirish simlarini quyida ko'rsatilgan tartibda ulang.



OMT18-5280

1 "Musbat" (+) ishga tushirish simining bitta qisqichini zaryadsizlangan akkumulyator batareyasining "musbat" (+) qutbiga ulang. "Musbat" (+) ishga tushirish simining boshqa qisqichini tashqi akkumulyator batareyasining "musbat" (+) qutbiga ulang.

2 "Manfiy" (-) ishga tushirish simining bitta qisqichini tashqi akkumulyator batareyasining "manfiy" (-) qutbiga ulang. "Manfiy" (-) ishga tushirish simining boshqa qisqichini zaryadsizlangan akkumulyator batareyasi bilan avtomobilning bo'yalmagan qismiga ulang.

3. Odatdagi ishga tushirish tartibi bo'yicha dvigatelni ishga tushiring. Akselerator pedalini yengil bosib, uni bir necha daqiqa ga ishga tushiring.

4. Ishga tushirish simlarini ulashga teskari ketma-ketlikda uzing (avval "manfiy" (-) sim, keyin "musbat" (+) sim).

DIQQAT

- Avtomobilni tashqi akkumulyator batareyasidan ishga tushirishda selektorni D (harakat) holatiga o'tkazmang. Uning P (to'xtash) holatida bo'lishiga diqqat qiling.
- Simlarni uzishda akkumulyator batareyasini egmang.
- Ishga tushirish simlari qisqichlarining bir-biriga yoki avtomobilning metall qismlariga tegishiga yo'l qo'ymang.
- Ishga tushirish simlarini dvigatelni ishga tushirish paytida aylanadigan yoki aylanayotgan qismlar yaqinida joylashgan qismlarga ulamang.
- Dvigatelni ishga tushirishga birinchi urinish muvaffaqiyatsiz bo'lsa, ishga tushirish simlaridagi qisqichlarning yaxshi ulanishiga ishonch hosil qiling va dvigatelni ishga tushirishga urinishni takrorlang. Agar avtomobil baribir ishga tushmasa, birinchi imkoniyatdayoq avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

7-1. Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish

Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish.....	288
Rasmiy dilarning xizmat ko'rsatish stansiyasi tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar.....	288
Avtomobil identifikatsiya raqamini o'qish (VIN)	289
Avtomobil sozligini tekshirish	289

7-2. Joriy ishlar

Joriy ishlar	290
Tortish akkumulyator batareyasi	291
Motor moyi sathini tekshirish	295
Transmissiya ishchi suyuqligi sathini tekshirish	296
Tormoz suyuqligi darajasini tekshirish	296
Sovutish suyuqligi darajasini tekshirish	297

Konditsioner radiatori va kondensatorini tekshirish...	298
Shinalardagi havo bosimini tekshirish.....	298
Shinalarni tekshirish.....	299
G'ildiraklar o'rnini almashtirish.....	300
Akkumulyator batareyasini tekshirish	301
Konditsioner tizimi filtrini tekshirish	301
Old oyna yuvish suyuqligi sathini tekshirish	301
Oyna tozalagich cho'tkalarini tekshirish	302

7-3. Rejali texnik xizmat

Birinchi texnik xizmat haqida ma'lumot	303
Texnik xizmat ko'rsatish reglamenti.....	304
Texnik ma'lumotlar	313

7. TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

7-1. Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish

Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish

Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish ishlarining ikki turi mavjud: avtomobil egasi mustaqil ravishda bajarishi mumkin bo'lgan joriy ishlar va rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qilinishi kerak bo'lgan rejali tekshiruvlar va texnik xizmat ko'rsatish.

Rejali tekshiruvlar va texnik xizmat ko'rsatish haqida ushbu bobning "Rejali texnik xizmat ko'rsatish" bo'limida batafsil ma'lumot berilgan. Ushbu amallar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni oldindan aniqlash va nosozliklarni bartaraf etish imkonini beradi. Avtomobilga muntazam texnik xizmat ko'rsatish juda muhim. Ushbu Qo'llanmada keltirilgan texnik xizmat ko'rsatish qoidalariga qat'iy rioya qiling. Bu avtomobilingizning optimal xususiyatlarini, uning to'g'ri ishlashini kafolatlaydi va uning xizmat muddatini uzaytirish imkonini beradi.

Avtomobil nosozligi oldini olish uchun faqat tavsiya etilgan ishchi suyuqliklardan foydalaning.

Rasmiy diler xizmat ko'rsatish stansiyasi tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar

Rasmiy diler xizmat ko'rsatish stansiyasi

Faqat asl ehtiyot qismlar va materiallar avtomobilning ko'rsatilgan xizmat muddatini ta'minlashi mumkin. Biz butun dunyo bo'ylab rasmiy dilerlar xizmat ko'rsatish stansiyalari uchun ehtiyot qismlari yagona yetkazib beruvchisimiz. Shuning uchun faqat rasmiy dilerlar xizmat ko'rsatish stansiyalarida mavjud bo'lgan asl ehtiyot qismlardan foydalanish kerak.

Rasmiy diler mutaxassislari o'z ishini ustalaridir. Rasmiy diler texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qilganingizda, unutmangki, stansiya mutaxassislari avtomobilingizni boshqalardan ko'ra yaxshiroq bilishadi, stansiyaning ozi esa barcha zarur asl ehtiyot qismlarga ega va ishning eng yuqori sifatini kafolatlaydi.

ATROF-MUHIT HIMOYASI

Foydalanilgan motor moyi, tormoz suyuqligi, sovutish suyuqligi, rul boshqaruvi gidrokuchaytirgichi suyuqligi (avtomobilning ayrim variantlari uchun), o'z xizmat muddatini o'tab bo'lgan akkumulyator batareyalari va shinalarni utilitatsiya qilish uchun chiqindilarni utilitatsiya qilish bo'yicha ixtisoslashtirilgan tashkilotlarga murojaat qiling. Ularni maishiy chiqindilarni yig'ish tizimiga yoki kanalizatsiyaga tashlash taqiqlanadi.

Texnik xizmat ko'rsatishni tashkil etish

Rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qilganda, kerakli hujjatlarni olishingiz kerak. Amalga oshirilishi kerak bo'lgan barcha ishlar ham kafolat bilan qoplanmasligi mumkin. Xizmat ko'rsatish bo'yicha maslahatchi bilan qo'shimcha xarajatlarni muhokama qiling. Avtomobilning servis kitobchasini ehtiyotkorlik bilan saqlang. U muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Avtomobildagi nosozliklar yoki bajarilishi kerak bo'lgan aniq ishlar ro'yxatini yozma ravishda tayyorlang. Agar yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgan bo'lsa yoki texnik xizmat ko'rsatish jurnalida qayd etilmagan ish bajarilgan bo'lsa, bu haqda xizmat ko'rsatish bo'yicha maslahatchiga xabar berishingiz shart.

Bajarilishi kerak bo'lgan ishlarni sanab o'ting, xizmat ko'rsatish maslahatchisi bilan vaziyatni muhokama qiling va ishlarni ketma-ketlikda sanab o'ting.

Avtomobil identifikatsiya raqamini o'qish (VIN)

Avtomobilning identifikatsiya raqamini (VIN) nosozliklarni qidirish va bartaraf etish uchun mo'ljallangan ko'p funksiyali diagnostika skaneri yordamida o'qish mumkin.

Diagnostik ulagichga diagnostik skanerdan tashqari boshqa asboblarni ulash taqiqlanadi. Ushbu talabga rioya qilmaslik elektron uskunalar va akkumulyator batareyasining ishdan chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Avtomobil sozligini tekshirish

Har bir safar oldidan avtomobilning sozligini tekshirib ko'ring. Bu avtomobildan foydalanish xavfsizligini va uni boshqarishdan zavqlanishni ta'minlaydi.

XAVFLI
Tekshiruv paytida avtomobilni ishga tushirmang.
Kundalik tekshiruv
Lak-bo'yoq qoplamasida tiralgan, rangi o'chgan va singan joylar mavjudligini, g'ildirak boltlari mahkamlanganligi va ularning mavjudligini tekshiring, ekspluatatsion suyuqliklar/moylar oqmasligiga va eshiklar, kapot, bagaj bo'limi eshiklari va oynalarga shikast yetmaganligiga ishonch hosil qiling.
Motor moyi, tormoz suyuqligi, sovutish suyuqligi, rul boshqaruvi kuchaytirgichi suyuqligi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) va yuvish suyuqligi darajasini tekshiring va zarur bo'lganda tegishli suyuqlikni quyung.
Sovuq shinalardagi bosimni va ularning holatini (yeyilish darajasi, churralar, yoriqlar, mexanik shikastlanishlar yo'qligi va hokazo) tekshiring. Zaxira g'ildirak holatini tekshiring.
Kamarlarning qulflash skobalari mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling. Kamar tasmalari eskirmagan yoki shikastlanmaganligiga ishonch hosil qiling.
Yoritish va yorug'lik signalizatsiyasi asboblarning sozligini tekshiring.
Asboblarning panelidagi signalizator va indikatorlarning sozligini tekshiring.
Oylik tekshiruv
Avtomobil kuzovini yuving, motor bo'limini tozalang (radiator va kondensatordagi iflosliklarni, dvigateldan moy oqishini bartaraf eting), avtomobil saloni va bagaj bo'limini tozalang.
Ulanish joylari, trubkalar, shlanglar va baklarning germetikligini tekshiring. Simlar holati va akkumulyator batareyasi qisqichlari mahkamligini, korroziya izlari yo'qligini tekshiring. Elektr simlari shikastlanmaganligi, ulagichlarda kontakt holati va simlar uzilmaganligini tekshiring. Ishchi suyuqliklar/moylar oqmayotganligiga ishonch hosil qiling.
Konditsioner tizimining sozligini tekshiring.

7. TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

To'xtash tormozi sozligini tekshiring.

Zaxira saqlagichlar va asboblarning to'plami (domkrat, ballon kaliti va boshqalar) mavjudligini tekshiring.

TANISHIB CHIQING

Chiqindi motor moyi, tormoz suyuqligi, sovutish suyuqligi, o'z xizmat muddatini o'tab bo'lgan akkumulyator batareyalari va shinalarni utilitatsiya qilish uchun chiqindilarni utilitatsiya qilish bo'yicha ixtisoslashtirilgan tashkilotlarga murojaat qiling. Ularni maishiy chiqindilarni yig'ish tizimiga yoki kanalizatsiyaga tashlash taqiqlanadi.

7-2. Joriy ishlar

Joriy ishlar

Agar avtomobilga o'zingiz texnik xizmat ko'rsatsangiz, ushbu bo'limda ko'rsatilgan amallarni aniq bajaring.

Unda faqat mulkdor tomonidan mustaqil bajarilishi mumkin bo'lgan texnik xizmat ko'rsatish ishlari uchun ko'rsatmalar berilgan.

Maxsus asbobja ega bo'lgan malakali mutaxassisga ishonib topshiriladigan ishlar ham mavjud.

DIQQAT

- Kapotni yopishdan oldin, unda asboblarning yoki maxsus kiyimlarning qolmaganligini tekshiring.
- Avtomobilni havo tozalagichning filtrlovchi elementisiz ishlatish taqiqlanadi, chunki bu dvigatelning kuchli eskirishiga olib keladi.
- Sovutish suyuqligi, tormoz suyuqligi va yuvish suyuqligini qat'iy belgilangan darajagacha to'ldiring. Agar suyuqlik kuzovga tushsa, lok-bo'yoq qoplamasi shikastlanmasligi uchun uni darhol nam latta bilan artib tashlang.

XAVFLI

- Kuyishdan saqlanish uchun sovutish tizimi kengaytirish baki qopqog'ini dvigatel issiqligida ochmang.
- Dvigatel ishlayotganda qo'llar, kiyimlar va asboblarni sovutish tizimi ventilyatori va uzatma tasmalaridan uzoqroq tuting.
- Yonilg'i bakining quyish bo'g'izi yoki akkumulyator batareyasi yonida chekmang, chunki uchqun yoki ochiq alanga yong'inga olib kelishi mumkin.
- Avtomobilning elektr tizimi yuqori kuchlanish ostida. Shuning uchun dvigatel ishlayotganda yoki dvigatelni ishga tushirish tugmasi ON holatida bo'lganda bu tizimning qismlariga tegish taqiqlanadi.
- Safardan so'ng darhol dvigatel, radiator, chiqarish kollektori va silindrlar kallagining qopqog'i juda yuqori haroratga ega, shu sababli ularga tegmang. Sovutish tizimining ventilyatori istalgan vaqtda avtomatik ravishda ishga tushishi mumkin. Shuning uchun kiyimlaringiz aylanayotgan ventilyatorga tegmasligi uchun ehtiyot bo'ling.

Tortish akkumulyator batareyasi

Tortish akkumulyator batareyasi asosiy funksiyalari

Tortish akkumulyator batareyasi avtomobilning asosiy energiya manbai bo'lib, siklik zaryad-razryad rejimida ishlaydi. Tortish akkumulyator batareyasini zaryadlashning asosiy usuli uni tashqi quvvat manbaiga zaryadlash pistoleti orqali ulashdir. Shuningdek, tortish batareyasi ishlayotgan IYOD va rekuperativ tormozlash paytida ham zaryadlanishi mumkin.

Avtomobil intellektual zaryad funksiyasiga ega. Bu funksiya faol bo'lganda, 12 V kuchlanishli batareya tortish akkumulyator batareyasidan quvvatlanadi. Agar avtomobil atrof-muhitning yuqori harorati sharoitida bo'lsa, intellektual zaryadlash rejimida tortish akkumulyator batareyasini sovutish uchun so'rov yuborilishi mumkin. Bunday holda, tortish akkumulyator batareyasining shikastlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun uni sovutish uchun konditsioner tizimi qo'llaniladi. Shuning uchun avtomobil uzoq vaqt to'xtab turgandan so'ng kuch agregatini ishga tushirishda asboblarning panelida ko'rsatilgan tortish akkumulyator batareyasining quvvat darajasi (SOC) va elektr tortishda bosib o'tilgan yo'lining qiymati pasayishi mumkin. Bu normal holat.

Tortish akkumulyator batareyasida kimyoviy reaksiyalar sodir bo'ladi, shuning uchun uning ish xususiyatlarini saqlab qolish uchun undan har kuni to'g'ri foydalanish va profilaktika qilish juda muhimdir. Shu bilan birga, tortish akkumulyator batareyasining sig'imi vaqt o'tishi bilan tabiiy ravishda kamayadi. Agar avtomobil uzoq vaqtdan beri foydalanilayotgan bo'lsa va tortish akkumulyator batareyasi to'liq zaryadlanganda elektr tortish yo'li zaxirasi kamaygan bo'lsa, avtomobilni tekshirish uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qilish tavsiya etiladi.

Tortish akkumulyator batareyasini zaryadlash uchun optimal havo harorati 25 ± 5 °C. Atrof-muhitning juda yuqori yoki juda past harorati sharoitida tortish akkumulyator batareyasining energiya berishi cheklangan bo'ladi, bu esa elektr tortish vositasida harakatlanishda yurish masofasining qisqarishiga olib keladi. Avtomobilni atrofda havo harorati -20 °C dan yuqori bo'lganda haydash tavsiya etiladi. Aks holda, HEV rejimiga o'tish va avtomobilni harakatga keltirish uchun IYODdan foydalanish tavsiya etiladi.

Tortish akkumulyator batareyasining zaryad darajasi past bo'lsa, uni zudlik bilan zaryadlash yoki quvvatlash rejimini EV dan HEV ga o'tkazish tavsiya etiladi. Bu talabga rioya qilmaslik tortish akkumulyator batareyasining resursiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tortish akkumulyator batareyasining zaryad darajasi past bo'lganda gibrid transmissiyaning normal ishlashini ta'minlash uchun elektr ta'minoti rejimi EV dan HEV ga avtomatik ravishda almashtiriladi.

Dvigatel o'chirilganda avtomobilning elektr jihozlaridan uzoq vaqt foydalanmang. Agar tortish batareyasining zaryad darajasi pastligi haqida ogohlantirish paydo bo'lsa, uni zaryadlash pistoleti yoki harakatga tayyor holatda (READY) IYOD bilan quvvatlang. Aks holda tortish akkumulyator batareyasining zaryadsizlanishi natijasida kuch agregatini ishga tushirish imkoni bo'lmay qolishi mumkin. Agar shunday bo'lsa, tortish batareyasini zaryadlash pistoleti yordamida quvvatlang. Agar shundan keyin ham quvvat agregatini ishga tushira olmasangiz, rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Tortish akkumulyator batareyasi avtomobilning pastki qismida joylashgan.

Ayniqsa, notekisliklardan yoki to'siqlardan o'tishda ehtiyot bo'ling. Marshrutning murakkab qismini yoki suv to'sig'ini (chuqurligi 15 sm dan ortiq) bosib o'tishdan oldin tezlikni kamaytiring.

7. TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

■ Quyida keltirilgan jarayonlar tortish akkumulyator batareyasida sodir bo'ladigan kimyoviy reaksiyalar yoki uni himoya qilish choralari bilan bog'liq:

1. Tortish akkumulyator batareyasining zaryadlanish darajasi past bo'lsa, avtomobilning tortish-dinamik xususiyatlari pasayadi.

2. Avtomobilni juda yuqori yoki juda past harorat sharoitida boshqarish energiya sarfining oshishiga va yurish xazirasining kamayishiga olib kelishi mumkin.

3. Tortish akkumulyator batareyasining zaryad-razryad xususiyatlari juda yuqori yoki juda past harorat sharoitida yomonlashadi. Shu bilan birga, zaryadlash davomiyligi ortadi, bu normal holatdir.

4. Akkumulyator batareyasi to'liq quvvatlanishga yaqinlashganda, yakuniy quvvatlash davomiyligini oshirishi mumkin bo'lgan tomchilatib quvvatlash rejimi yoqiladi. Katta displey va asboblarning panelida ko'rsatiladigan hisoblangan quvvatlash davomiyligi qiymati farq qilishi mumkin.

■ Past harorat sharoitida tortish akkumulyator batareyasi sig'imi kamayishi sababli, quyida keltirilgan tavsiyalarga amal qilish sizga avtomobildan yanada samarali foydalanishga yordam beradi.

1. Tashqi havoning harorati - 10 °C dan past bo'lsa, avtomobilni issiq xona yoki garajga qo'ying.

2. Bunday imkoniyat bo'lmasa, zaryadlash portiga zaryadlash pistoletini ulang: tortish akkumulyator batareyasini zaryadlash bilan bir vaqtda uning isitish tizimi ham ishga tushadi. Zaryadlash pistoletini ulaganingizdan so'ng, safarga tayyorgarlik funksiyasini dasturlash tavsiya etiladi, bu funksiyani ishga tushirish vaqtini jo'nashdan yarim soat oldin belgilash kerak. Bu funksiya oldindan tortish akkumulyator batareyasini isitish va konditsioner tizimini yoqadi, shunda safardan maksimal zavq olasiz.

■ Tortish akkumulyatorlarning batareyasining resursi pasayishi oldini olish uchun uning juda yuqori va juda past haroratlarda ishlash xususiyatlari majburan cheklanadi. Bu uning zaryadiga ham, zaryadsizlanishiga ham tegishli.

■ Agar avtomobil uzoq vaqt to'xtab turgan bo'lsa, tortish akkumulyator batareyasi resursini maksimal darajada tejash uchun quyidagi tavsiyalarga amal qiling.

1. Agar siz avtomobildan uzoq vaqt davomida foydalanishni rejalashtirmagan bo'lsangiz, lekin tortish batareyasi quvvat darajasi 20% dan past bo'lsa, uni quvvatlang.

2. Agar avtomobildan uzoq vaqt davomida foydalanishni rejalashtirmayotgan bo'lsangiz, uni havo harorati 45 °C dan oshmaydigan, quyosh nuri to'g'ridan-to'g'ri tushmaydigan va suv bosish xavfi bo'lmagan joyga qo'ying.

3. Agar uzoq vaqt avtomobildan foydalanmagan bo'lsangiz, qurilmalar panelidagi quvvat darajasi (SOC) xato ko'rsatilishi mumkin. Bunday vaziyatda tortish akkumulyator batareyasi qoldiq quvvatini ko'rsatilgan zaryad darajasi (SOC) bo'yicha baholash kerak emas. Safar oldindan tortish batareyasini to'liq zaryadlang.

4. Agar avtomobildan uzoq vaqt foydalanishni rejalashtirmagan bo'lsangiz, oyiga bir marta akkumulyator batareyasini (12 V) 15 - 30 daqiqa davomida quvvatlantiring. Buning uchun avtomobilni 15 - 30 daqiqaga harakatga tayyorlik rejimiga (READY) o'tkazish kerak.

5. Agar uzoq vaqt avtomobildan foydalanmayotgan bo'lsangiz, tortish batareyasini har oyda bir marta to'liq quvvatlantirish, keyin esa SOC darajasini taxminan 50% ushlab turish uchun zaryadsizlantirish kerak. Bu talabni bajarmaslik akkumulyator batareyasining chuqur zaryadsizlanishiga olib kelishi mumkin.

XAVFLI

- Dvigatelni ishga tushirish tugmasi ON holatiga o'rnatilgach, avtomobilning yuqori kuchlanishli tizimi kuchlanish ostida bo'ladi. Mutaxassis bo'lmagan shaxslarga elektr ta'minoti yoqilgan holda avtomobilning elektr jihozlariga texnik xizmat ko'rsatish yoki ta'mirlash bo'yicha har qanday ishlarni amalga oshirish qat'iyan taqiqlanadi.
- Professional bo'lmagan shaxslarga tortish akkumulyator batareyasini ochish qat'iyan man etiladi. Avtomobil egasi tortish batareyasini ruxsatsiz olish yoki qismlarga ajratish natijasida atrof-muhitning ifloslanishi va xavfsizlik bilan bog'liq baxtsiz hodisalar uchun javobgar bo'ladi.
- Tortish akkumulyator batareyasi nosoz bo'lsa, akkumulyator batareyasi (12 V) ham zaryadsizlanishi mumkin. Agar avtomobilni hatto tashqi akkumulyator batareyasi (12 V) yordamida ham ishga tushira olmasangiz, rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling. Avtomobilni o'zingiz ta'mirlashga urinmang!

Tortish akkumulyator batareyasini utilizatsiya qilish

■ Utilizatsiya qilish mezonlari

Agar tortish akkumulyator batareyasining qoldiq sig'imi va uning zaryadsizlanish xususiyatlari avtomobilning normal ishlashini kafolatlay olmasa, tortish akkumulyator batareyasi avtomobildan yechib olinishi kerak. Shundan so'ng u keyinchalik foydalanish uchun yaroqsiz bo'lib, utilizatsiya qilinishi kerak.

■ Utilizatsiya tartibi

Avtomobilga o'rnatilgan tortish akkumulyator batareyasi tarkibida lity elementlari mavjud. Uni noto'g'ri utilizatsiya qilish atrof-muhitga zarar yetkazishi mumkin.

Tabiatni muhofaza qilish qonunchiligi talablariga muvofiq, avtomobil egasi xizmat muddatini o'tab bo'lgan tortish akkumulyator batareyasini utilizatsiya punktiga topshirishi shart. Xizmat muddatini o'tab bo'lgan tortish akkumulyator batareyasini boshqa tashkilot yoki shaxslarga berish taqiqlanadi. Avtomobil egasi tortish batareyasini ruxsatsiz ajratib olish yoki qismlarga ajratish natijasida atrof-muhitning ifloslanishi va xavfsizlik bilan bog'liq baxtsiz hodisalar uchun javobgar bo'ladi.

Utilizatsiya quyida keltirilgan ma'lumotlar va talablarga muvofiq amalga oshirilishi lozim. Tortish akkumulyator batareyasini utilizatsiya qilish bo'yicha qo'shimcha ma'lumot olish uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

1. Rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasi xizmat muddati o'tgan tortish akkumulyator batareyasini birlamchi qabul qilish punkti hisoblanadi.

7. TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

2. Tortish akkumulyator batareyasini qismlarga ajratish tortish akkumulyator batareyasini yetkazib beruvchidan tegishli ruxsatnomaga ega bo'lgan professional mutaxassis tomonidan amalga oshirilishi kerak.

3. Tortish akkumulyator batareyasi xavfliligi bo'yicha 9-klass yuklar qatoriga kiradi va tegishli ruxsatnoma mavjud bo'lganda transport vositalarida tashilishi kerak.

4. Yechib olingan tortish akkumulyator batareyasi odatdagi haroratda, quruq xonada, yonuvchan materiallar, issiqlik manbalari, suv va boshqa xavfli omillardan uzoqda saqlanishi kerak.

XAVFLI

- Tortish batareyasini mustaqil ravishda utilizatsiya qilish taqiqlanadi.
- Tortish akkumulyator batareyasini uchinchi shaxslarga sotish yoki berish, uning konstruksiyasiga o'zgartirishlar kiritish taqiqlanadi.
- Tortish akkumulyator batareyasini ta'mirlash, demontaj qilish, almashtirish va utilizatsiya qilish zarur bo'lsa, rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Tortish akkumulyator batareyasi bilan bogliq ehtiyot choralari

Tortish akkumulyator batareyasi yuqori kuchlanishli energiya to'plagichlar va xavfli buyumlar toifasiga kiradi. Tortish akkumulyator batareyasini o'rnatish va profilaktika qilish masalalari bo'yicha rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling, uning mutaxassislari tegishli xavfsizlik texnikasi talablariga rioya qilgan holda barcha zarur ishlarni bajaradilar. Professional bo'lmagan shaxslarga murojaat qilish va noto'g'ri xatti-harakatlar elektr toki urishi, yong'in chiqishi, portlash va boshqalar kabi jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Professional bo'lmagan shaxslarga tortish akkumulyator batareyasini o'rnatish, ta'mirlash yoki ruxsat etilgan diapazonlardan tashqarida foydalanish taqiqlanadi. Tortish akkumulyator batareyasining shikastlanishi va talablarni buzgan holda yoki ruxsat etilgan chegaralardan tashqarida foydalanilishi natijasida yuzaga keladigan boshqa nosozliklar kafolat bilan qoplanmaydi. Quyidagi tavsiyalarga amal qiling.

1. Tebranish va zarbalardan himoya

Tortish akkumulyator batareyasi tarkibiga ketma-ket ulangan quvvat elementi, shuningdek, boshqaruv qurilmalari va datchiklar kiradi. Shuning uchun notekis yo'llarda harakatlanayotganda tortish batareyasiga zarar yetkazmaslik uchun ehtiyot bo'ling.

2. Atrof-muhitning ekstremal haroratidan himoya


Tortish batareyasini optimal ish harorati oralig'ida ushlab turish uning ishlash muddatini sezilarli darajada uzaytirishi va xavfsizlik ko'rsatkichlarini oshirishi mumkin, shuning uchun avtomobilni yaxshi shamollatiladigan va minimal harorat o'zgarishi bo'lgan joylarda to'xtatishga harakat qiling.

3. Suyuqlik va namlikdan himoya

Tortish akkumulyator batareyasi boshqarish zanjirlari va akkumulyator elementlariga ega yuqori kuchlanishli energiya tejovchi qurilmadir. Tortish akkumulyator batareyasiga suyuqlik kirishi qisqa tutashuvga, tokning sizib chiqishiga va batareya elementlari, elektr zanjirlari va ulagichlarining korroziyasiga olib kelishi mumkin. Tortish batareyasiga hech qanday suyuqlik va nam havo kirmasligini nazorat qiling.

Motor moyi sathini tekshirish

Motor moyi sathini tekshirish o'chirilgan va sovigan dvigatelda shchup yordamida bajariladi.




1. Dvigatel qizigandan so'ng, avtomobilni gorizontal maydonchada to'xtating. Dvigatel o'chirilgandan keyin taxminan 5 daqiqa kuting.
2. Kapotni ochib, shchupni chiqarib oling va uni toza latta bilan arting.
3. Shchupni to'liq va bir tekisda joylashtiring.
4. Shu holatda shchupni 3 soniya qoldiring. Keyin yana shchupni chiqarib oling va motor moyi darajasini tekshiring.
5. Tekshirish aniqligini oshirish uchun yuqoridagi amalni 3 marta bajaring.



Moy avtomobilning dvigateli yoki kuzoviga tushmasligi uchun lattalarni shchupning uchiga joylashtiring.

Dvigatel qizigach so'ng darhol moy sathini tekshirmang - uni biroz vaqt ishlashiga imkon bering. Dvigatelni o'chirgach, moy karter poddoniga oqib tushishini kuting.

■ Motor moyi qo'shish



- Dvigatelning moy quyish bo'g'zi tiqinini soat miliga teskari yo'nalishda burang.
- Voronka orqali kerakli miqdorda motor moyi quyiladi va uning sathi shchup yordamida tekshiriladi.
- Agar motor moyining sathi yo'l qo'yiladigan darajada bo'lsa, dvigatel moy quyish bo'g'zining probkasini soat strelkasi harakati yo'nalishida burab mahkamlanadi.

7. TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

ATROF-MUHIT HIMOYASI

Chiqindi motor moyi va moy filtrini utilizatsiya qilish uchun maishiy chiqindilarni yig'ish tizimi, kanalizatsiya yoki yerdan foydalanish taqiqlanadi, chunki bu atrof-muhitning jiddiy ifloslanishiga olib keladi. Ularni mahalliy tabiatni muhofaza qilish qonunchiligiga muvofiq utilizatsiya qilish kerak.

DIQQAT

- Motor moyini maksimal sath belgisidan yuqori quyish taqiqlanadi. Aks holda dvigatel ishdan chiqishi mumkin.
- Motor moyini almashtirishda moy filtrini ham almashtirish kerak.
- Faqat tavsiya etilgan motor moyidan foydalaning. Dvigatel moylash tizimining sig'imi va qo'llaniladigan motor moyining turi haqidagi ma'lumotlar "Texnik xususiyatlar" bo'limida keltirilgan.
- Dvigatelning moy quyish bo'g'zi tiqini burab chiqarilgandan so'ng, uni rezbali qismi bilan yuqoriga qo'ying. Aks holda moy qoldiqlari tiqindan dvigatelga to'kilishi mumkin.
- Agar almashtirish paytida moy dvigatelga to'kilgan bo'lsa, dvigatelning moy quyish bo'g'zi tiqinini o'rashdan oldin moy oqimlarini latta bilan artib tashlang.

Transmissiyaning ishchi suyuqlik sathini tekshirish

Transmissiya ishchi suyuqligining sathini tekshirish, quyish va almashtirishni professionallarga topshirish kerak. Buning uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Tormoz suyuqligi sathini tekshirish



Tormoz suyuqligining sathi bosh tormoz silindri baki korpusidagi MIN va MAX belgilari orasida bo'lishi kerak. Agar tormoz suyuqligi sathi MIN belgisigacha yoki undan pastga tushsa, tormoz suyuqligini bakka quyish va avtomobilni tekshirish hamda ta'mirlash uchun zudlik bilan rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

TANISHIB CHIQING

Bosh tormoz silindri baki shakli avtomobilning tuzilishiga qarab farq qilishi mumkin. Bu avtomobilning tuzilishiga bog'liq.

DIQQAT

- Kuzov lak-bo'yoq qoplamasiga tormoz suyuqligi tekanda, detallar korroziyasiga yoki kuzov lak-bo'yoq qoplamasi shikastlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun uni nam gubka bilan tozalash yoki suv bilan yuvish kerak.
- Tormoz suyuqligi yuqori gigroskopiklikka ega bo'lganligi sababli, asosiy tormoz silindrining baki mahkam yopilgan holda saqlang.
- Faqat tavsiya etilgan tormoz suyuqligidan foydalaning. Aks holda, ishlab chiqaruvchi tomonidan bevosita yoki bilvosita zarar bo'yicha hech qanday da'volar qabul qilinmaydi.

XAVFLI

Tormoz suyuqligi teriga yoki ko'zga tegishidan saqlaning. Tormoz suyuqligi tananing ochiq joylariga yoki ko'zga tushganda, zararlangan joyni darhol ko'p miqdordagi toza suv bilan yuvish kerak. Zarur bo'lsa, darhol tibbiy yordamga murojaat qiling.

Sovutish suyuqligi sathini tekshirish



1 Yuqori haroratli sovitish suyuqligi

2 Past haroratli sovitish suyuqligi

Sovuq dvigatelda sovitish suyuqligining sathi MIN va MAX belgilari orasida bo'lishi kerak. Agar sovitish suyuqligi darajasi MIN belgisigacha yoki undan pastga tushsa, sovitish suyuqligini bakka quyning va avtomobilni tekshirish hamda ta'mirlash uchun zudlik bilan rasmiy dilerlarning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

DIQQAT

- Agar sovitish suyuqligi sathi juda tez kamayib ketsa, radiator, shlanglar va suyuqlik nasosida sizish bor-yo'qligini tekshiring.
- Past sifatli sovitish suyuqligidan foydalanmang. Dvigatelning yuqori ish haroratlarida sifatsiz sovitish suyuqligi yetarli darajada sovitish va korroziyadan himoya qila olmaydi.
- Faqat tavsiya etilgan sovitish suyuqligidan foydalaning. Aks holda, ishlab chiqaruvchi tomonidan bevosita yoki bilvosita zarar bo'yicha hech qanday da'volar qabul qilinmaydi.

7. TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

XAVFLI

- Sovitish suyuqligi zaharli. Shuning uchun suyuqlikni quyishda nihoyatda ehtiyot bo'ling va uning avtomobilning biror qismiga, tanaga yoki yerga tushishiga yo'l qo'ymang. Tananing ochiq joylariga yoki ko'zga suyuqlik tushganda, zararlangan joyni darhol ko'p miqdordagi toza suv bilan yuvish va tibbiy yordamga murojaat qilish kerak.
- Dvigatelning yuqori haroratida sovitish suyuqligi yuqori bosim ostida bo'ladi. Dvigatel sovitish tizimining kengaytirish baki qopqog'ini va radiator bo'g'izining qopqog'ini ochmang, aks holda kuyib qolishingiz mumkin.

Konditsioner radiatori va kondensatorini tekshirish

Avtomobildan foydalanish jarayonida kondensator va radiatorning yuzasi hasharotlar, barglar va boshqa yot jismlar bilan to'lib qolishi mumkin. Bu konditsioner tizimi va dvigatel sovitish tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va uning qizishiga olib kelishi mumkin. Bunday holda, konditsioner radiatori va kondensatorini tozalash kerak.

Radiator: radiator yuzasini yiliga kamida bir marta tozalash tavsiya etiladi. Dvigatel o'chirilgan va soviganda radiator qovurg'alarini siqilgan havo yoki suv oqimi bilan tozalang, ulardan hasharotlar, barglar va boshqa begona jismlarni olib tashlang. Bunda havo yoki suv bosimi 150 kPa dan oshmasligi kerak. Aks holda radiator qovurg'alariga shikast yetkazishingiz mumkin.

Konditsioner kondensatori: dvigatel o'chirilgan va soviganda, konditsioner kondensatoriga siqilgan havo radiator orqali dvigatel bo'linmasidan avtomobilning old tomoniga yo'naltiriladi.

DIQQAT

- Radiator qovurg'alari materiali yaxshi issiqlik o'tkazuvchanlikka ega bo'lib, suyuqlikni samarali sovitish imkonini beradi. Qovurg'alarini cho'tka bilan tozalamang, aks holda ularni shikastlashingiz mumkin, bu esa sovitish samaradorligini pasaytiradi.
- Suv oqimini qizigan dvigatelning issiq radiatoriga yo'naltirish taqiqlanadi, chunki bunda hosil bo'lgan bug' kuyishga olib kelishi mumkin. Radiatorni faqat dvigatel o'chirilgan va soviganda bo'lganda yuving.

Shinalardagi havo bosimini tekshirish

Shinalar havo bosimini har oyda kamida bir marta tekshirib turish va zarur bo'lsa, sozlash. Shinalardagi havoning tavsiya etilgan bosimi haydovchining eshik tirqishidagi jadvalda keltirilgan.

Shinalardagi havo bosimining me'yorida bo'lmasligi yonilg'i sarfining ortishiga, shinalarning xizmat muddatining qisqarishiga va avtomobil turg'unligining yomonlashishiga olib keladi.

Shuning uchun shinalarda tavsiya etilgan havo bosimini ta'minlash kerak.

Shinalardagi havo bosimini me'yorida ushlab turing. Aks holda, og'ir jarohatlar yoki o'lim bilan yakunlanishi mumkin bo'lgan yo'l-transport hodisasiga olib keladigan quyida sanab o'tilgan oqibatlar yuzaga kelishi mumkin.




- Shinalarning haddan tashqari eskirishi
- Shinalarning notekis eskirishi
- Avtomobilning boshqariluvchanligi yomonlashishi
- Shinalarning qizishi natijasida buzilish ehtimoli
- Shina bortining yomon germetizatsiyasi
- G'ildirak diskining deformatsiyasi yoki yurish paytida shinaning yeyilishi
- Yomon yo'l sharoitlari tufayli shinalarning shikastlanish ehtimoli ortadi

⚠️ DIQQAT

- Shinalardagi havo bosimini o'lchash uchun shinali manometrdan foydalaning. O'lchashni sovuq shinalarda bajaring. Shina holatini vizual (manometr ishlatmasdan) tekshirish sizga aniq natijalar bermaydi.
- Avtomobil harakati davomida shinalardagi havo bosimi ortadi. Bu normal hodisa.
- Shina ventillarining qopqoqlari to'g'ri o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling. Aks holda ventillarga loy kiradi. Qalpoqcha yo'qotilsa, darhol uning o'rniga yangi qalpoqcha o'rnatish kerak.
- Ammo shinalarni haddan tashqari tez-tez damlashga to'g'ri kelsa, birinchi imkoniyatdayoq avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Shinalarni tekshirish

Shinalarda yoriqlar, begona jismlar va protektorning notekis yeyilishi yo'qligini tekshiring.



Shinalarning eskirishini protektordagi yeyilish ko'rsatkichlari bo'yicha nazorat qiling. Shina protektorining qoldiq chuqurligi chegaraviy qiymatga yetganda, yeyilish ko'rsatkichlari aniq ko'rinadi. Yeyilish ko'rsatkichlarining paydo bo'lishi shinalarning xossalari va ulardan foydalanish xavfsizligi jiddiy pasayganligini va shinalarni almashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Agar shinadagi havo bosimi tez-tez pasayib tursa yoki u yirtilib yoki boshqa biror shikastlanish tufayli ta'mirlab bo'lmasa, bunday shinani almashtirish kerak.

7. TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH


ATROF-MUHIT HIMOYASI

Shinalarni maishiy chiqindi sifatida tashlamang. Ularni mamlakatingizda amalda bo'lgan tabiatni muhofaza qilish qonunchiligiga muvofiq utilitatsiya qilish lozim.

DIQQAT

Avtomobil harakatlanayotganda shinadan havo chiqsa, harakatni to'xtatish kerak. Bosimi kamaygan shina bilan qisqa muddatli safar natijasida uning tiklanmaydigan shikastlanishi sodir bo'lishi mumkin.

G'ildiraklar o'rnini almashtirish



Shinalar komplektining bir tekisda yeyilishini ta'minlash va xizmat muddatini oshirish uchun g'ildiraklar o'rnini almashtirishni kamida har 10000 km yurilganda bajarish tavsiya etiladi. Shu bilan birga, g'ildiraklarni almashtirish oralig'i haydash uslubingiz va yo'l qoplamasining holatiga qarab farq qilishi mumkin.

TANISHIB CHIQUING

Birinchi texnik xizmat ko'rsatishda va keyinchalik har 20 000 km yurilgandan so'ng barcha to'rtta g'ildirakning o'rnatilish burchaklarini tekshirish va sozlash tavsiya etiladi (ushbu jarayon uchun xarajat avtomobil egasi tomonidan to'lanadi va kafolat bilan qoplanmaydi).

XAVFLI

Quyidagi talablarga rioya qiling. Aks holda, boshqaruv yo'qolib, yo'l-transport hodisasiga uchrashingiz va natijada og'ir jarohat olishingiz yoki odamlarning o'limiga olib kelishi mumkin.

- Avtomobilga o'rnatilgan shinalarning o'lchami spidometr ko'rsatkichlariga ta'sir qiladi. Shinalarning o'lchami (diametri) asl nusxadan farq qilsa, spidometr avtomobilning harakat tezligini noto'g'ri ko'rsatadi. Bu zarar kafolat bilan qoplanmaydigan yo'l-transport hodisasiga sabab bo'lishi mumkin.
- Avtomobilga turli ishlab chiqaruvchilar, turli modellar yoki turli protektorli shinalarni o'rnatmang.
- Protektorining yeyilish darajasi bo'yicha bir-biridan keskin farq qiladigan shinalarni bir vaqtda qo'llamang.
- Avtomobilga bir vaqtning o'zida turli konstruksiyadagi (radial va diagonal) shinalarni o'rnatmang.
- Boshqa avtomobilda foydalanilgan shinalardan foydalanmang.
- Avval qanday sharoitlarda foydalanilganini bilmasangiz, shinalardan foydalanmang.

Akkumulyator batareyasini tekshirish

Akkumulyator batareyasi qutb chiqishlarida oksidlanish izlari yo'qligi, klemmalar mahkamlanishi bo'shshmaganligi, ularda yoriqlar yo'qligi va siqish plankasi mahkamlanishi bo'shshmaganligini tekshiring.

Ushbu avtomobil xizmat ko'rsatilmaydigan akkumulyator batareyasi bilan jihozlangan. Yangi akkumulyator batareyasi parametrlari almashtiriladigan batareya parametrlariga mos kelishi kerak. Akkumulyator batareyasini almashtirish uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qilish tavsiya etiladi.

Konditsioner tizimi filtrini tekshirish

Konditsioner tizimining filtri avtomobil harakatlanayotganda konditsionerlash tizimining ventilyatsion panjaralari orqali tashqaridan avtomobil saloniga chang tushishining oldini olish uchun xizmat qiladi. Vaqt o'tishi bilan filtr asta-sekin to'lib qoladi. Agar konditsioner tizimining samaradorligi sezilarli darajada pasaygan bo'lsa, konditsioner tizimining filtrini tekshiring va zarur bo'lsa, uni almashtiring.

TANISHIB CHIQUING

- Konditsioner tizimining filtrini almashtirishni professionallarga topshirish yaxshiroq. Buning uchun rasmiy dilerning servis stansiyasiga murojaat qilish tavsiya etiladi.
- Filtrni olib qo'ygan holda konditsioner tizimidan foydalanish changning salonga kirishiga va tizimning ishlash samaradorligini pasayishiga olib keladi.
- Avtomobilning ba'zi modifikatsiyalarida konditsioner tizimi havoni PM2.5 standarti bo'yicha tozalashni ta'minlaydi.
- Avtomobilning boshqa modifikatsiyalarida konditsioner tizimi havoni N95 standarti bo'yicha tozalashni ta'minlaydi. Bu avtomobilning tuzilishiga bog'liq.

Old oyna yuvish suyuqligi sathini tekshirish

Agar yuvgich yoqilganda forsunka purkagichlaridan suyuqlik kelmasa, yuvgichni o'chiring va uning idishidagi suyuqlik sathini tekshiring. Agar vannaga suyuqlik quyilgandan keyin ham yuvgich ishlamasa, avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

DIQQAT

- Yuvgich bakiga antifriz quyish taqiqlanadi, chunki bu kuzovning lak-bo'yoq qoplamasining shikastlanishiga olib keladi.
- Atrofdagi havo harorati 0 °C dan pastga tushishi mumkin bo'lsa, yuvgich idishiga suv quyvang. Aks holda suv muzlab qoladi va yuvgich ishdan chiqishi mumkin.
- Yuvgich idishining sig'imi 4,5 l. Suyuqlik sathi past bo'lganda tegishli signalizator yonadi va asboblari paneli displeyida ogohlantirish paydo bo'ladi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun). Bu avtomobilning tuzilishiga bog'liq.

7. TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

Tozalagich cho'tkalarini tekshirish

Old oyna tozalagich cho'tkasining ishchi qirrasini holatini barmoq bilan yurgizib tekshiring. Rezina tasmaning notekis yuzasi tozalagichning samaradorligini pasaytiradi.

DIQQAT

- Qish mavsumida cho'tkalar shikastlanmasligi uchun tozalagichni ishga tushirishdan oldin ularning shishaga muzlab yopishib qolmaganligiga ishonch hosil qiling.
- Oynadan qirov yoki muzni tozalash uchun tozalagich cho'tkalaridan foydalanmang.
- Moy, silikon tarkiblar va yoqilg'ining cho'tkalarga tushishi oyna tozalash sifatini pasaytiradi. Cho'tkalarni iflosliklardan tozalash uchun yuvish suyuqligidan foydalanish tavsiya etiladi.
- Avtomobilning ba'zi modifikatsiyalarida oyna tozalagich cho'tkalarini almashtirish uchun tozalagich dastaklarini xizmat holatiga o'rnatish kerak. Cho'tkani almashtirish uchun tozalagich dastagini ko'tarishda cho'tkani sharnirdan ushlang. Tafsilotlar uchun "Oyna tozalagich va yuvgichlar" bo'limiga qarang.
- Old oynada yoriqlar paydo bo'lsa, ularni o'z vaqtida ta'mirlang.

■ Tozalagich cho'tkalarini parvarishlash

- Avtomobilni yuvishda suvni yuqori bosim ostida to'g'ridan-to'g'ri tozalagich cho'tkalariga yo'naltirmang, aks holda ular shikastlanadi.
- Old oynada kir chiziqlar paydo bo'lishining oldini olish uchun tozalagich cho'tkalarini muntazam ravishda (haftada bir marta) oyna uchun vosita bilan artib turish kerak.
- Avtomatik yuvishdan keyin polirol qoldiqlarini tozalash uchun oyna va tozalagich cho'tkalari toza suv bilan yuvilishi kerak.
- Xavfsizlikni ta'minlash uchun tozalagich cho'tkalarini yiliga bir yoki ikki marta almashtirish kerak. Cho'tkalarni rasmiy dilerning servis stansiyasidan xarid qilish mumkin.
- Quruq oyna yuzasida tozalagichni yoqmang. Bu oynada tiralishlar paydo bo'lishiga va cho'tkalarning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.
- Oynani tozalash uchun benzin, tirnoq lakini ketkazuvchi vositalar, bo'yoq erituvchilar va shunga o'xshash suyuqliklardan foydalanish taqiqlanadi. Bu cho'tkalarga zarar yetkazishi mumkin.
- Old va orqa oynalarga "yomg'irga qarshi" turidagi gidrofob tarkiblarni surtish tavsiya etilmaydi. Vaqt o'tishi bilan bunday tarkibning qatlami yupqalashadi, bu esa cho'tkalarning notekis yemirilishiga va ish paytida ularning titrashiga olib keladi.
- Agar shamol oynasida qurigan loy, hasharotlar, yopishqoq yoki qattiq chiqindilar bo'lsa, avval ularni nam toza latta yordamida tozalash kerak. Buning uchun quruq latta ishlatmang va tozalagich cho'tkalari yordamida oynadagi iflosliklarni tozalamang. Bu oyna va cho'tkalarning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

■ Tozalagichdan foydalanish

- Tozalagich dastaklarini qo'lda ishga tushirishga urinmang - ularga zarar yetkazishingiz mumkin.

7. TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

- Tozalagichni yoqishdan oldin old oynadagi qor, barglar, shoxlar va boshqa begona jismlarni tozalash kerak.
- Bakka yuvish suyuqligini muntazam ravishda quyib turing. Yuvish suyuqligi sifatida suvdan emas, ushbu Qo'llanmada ko'rsatilgan maxsus suyuqlikdan foydalanish kerak.
- Havo harorati past bo'lganda tozalagichni ishga tushirishdan oldin cho'tkalar oynaga muzlab qolmaganligiga ishonch hosil qilish kerak. Agar cho'tkalar oynaga tegib muzlab qolgan bo'lsa, ularni avval eritish kerak. Aks holda elektrodvigatel va tozalagich cho'tkalari ishdan chiqishi mumkin. Cho'tkalarni muzdan eritish uchun quyidagi amallarni bajaring. Isitgichni yoqing va shamollatish rejimini tanlang. Cho'tkalarga issiq suv quyung - bu oynalarda yoriqlar paydo bo'lishiga va cho'tkalarning deformatsiyalanishiga olib kelishi mumkin.

7-3. Rejali texnik xizmat ko'rsatish

Birinchi texnik xizmat ko'rsatish ma'lumotlari

Dastlabki 2 000 km masofa uchun texnik xizmat ko'rsatish xaritasi (avtomobil sotib olingan kundan boshlab dastlabki 2 oy ichida) (oddiy foydalanish sharoitlari uchun)				
Sana: _____ Masofa: _____				
Ish turlari	1	Moylash tizimi, sovutish tizimi va yoqilg'i tizimidan sizishlarni tekshirish.	Ha <input type="checkbox"/>	Yo'q <input type="checkbox"/>
	2	Motor moyi va moy filtrini almashtirish.	Ha <input type="checkbox"/>	Yo'q <input type="checkbox"/>
	3	Transmissiya ishchi suyuqligining sathi va rangini tekshirish. Zarur bo'lganda - quyish.	Ha <input type="checkbox"/>	Yo'q <input type="checkbox"/>
	4	Sovitish suyuqligi sathini tekshirish. Zarur bo'lganda - to'ldirish yoki konsentratsiyani me'yoriga yetkazish.	Ha <input type="checkbox"/>	Yo'q <input type="checkbox"/>
	5	Ishchi suyuqlikning transmissiyadan sizib chiqishini tekshirish.	Ha <input type="checkbox"/>	Yo'q <input type="checkbox"/>
	6	Rul tortqisi g'iloflarining holatini tekshirish.	Ha <input type="checkbox"/>	Yo'q <input type="checkbox"/>
	7	Uzatma vallari SHRUSlari g'iloflarining holatini tekshirish.	Ha <input type="checkbox"/>	Yo'q <input type="checkbox"/>
	8	Tormoz suyuqligining oqishini va tormoz magistrallarining sozligini tekshirish.	Ha <input type="checkbox"/>	Yo'q <input type="checkbox"/>
	9	Ishchi tormoz silindrlarini tekshirish.	Ha <input type="checkbox"/>	Yo'q <input type="checkbox"/>
	10	Shinalardagi havo bosimini tekshirish.	Ha <input type="checkbox"/>	Yo'q <input type="checkbox"/>
	11	Generator va konditsioner kompressori uzatmasi kamarining tarangligini tekshirish. Zarur bo'lganda - taranglikni sozlash.	Ha <input type="checkbox"/>	Yo'q <input type="checkbox"/>
	12	Kapotning halqalari va qulfini tekshirish.	Ha <input type="checkbox"/>	Yo'q <input type="checkbox"/>
	13	Konditsioner tizimi xladagenti sizishini tekshirish.	Ha <input type="checkbox"/>	Yo'q <input type="checkbox"/>
	14	Rul valining kardanli sharniri g'ilofining to'g'ri o'rnatilganligi va uning holatini tekshirish.	Ha <input type="checkbox"/>	Yo'q <input type="checkbox"/>

7. TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

15	Transmissiya pog'onalarini o'zgartirish aniqligini tekshirish.	Ha <input type="checkbox"/>	Yo'q <input type="checkbox"/>
16	Yurish qismi va kuzov rezbalari birikmalarining mahkamlanganligini tekshirish.	Ha <input type="checkbox"/>	Yo'q <input type="checkbox"/>
17	Xavfsizlik kamarlari ishlashini tekshirish.	Ha <input type="checkbox"/>	Yo'q <input type="checkbox"/>
18	Dvigatel texnik holatini, yonilg'i purkash tizimining ishlash parametrlarini va salt ishlash rejimida chiqindi gazlarning zaharlilik darajasini tekshirish.	Ha <input type="checkbox"/>	Yo'q <input type="checkbox"/>
19	Sinov safarida uzal va agregatlarning sozligini tekshirish.	Ha <input type="checkbox"/>	Yo'q <input type="checkbox"/>
20	Tortish akkumulyator batareyasida aniq korroziya va deformatsiya izlari yo'qligini tekshirish.	Ha <input type="checkbox"/>	Yo'q <input type="checkbox"/>
21	Tortish akkumulyator batareyasi mahkamlash boltida yoriqlar va korroziya izlarini tekshirish. Boltning o'zi mavjudligini tekshirish.	Ha <input type="checkbox"/>	Yo'q <input type="checkbox"/>
22	Tortish akkumulyator batareyasining germetik chiqarish klapanini germetiklik va deformatsiyaning buzilishiga tekshirish. Shamollatish teshigini berkitilmaganligini tekshirish.	Ha <input type="checkbox"/>	Yo'q <input type="checkbox"/>
23	Tortish akkumulyator batareyasi ulanish joyida ifloslanish, namlik, yeyilish va deformatsiya yo'qligini tekshirish.	Ha <input type="checkbox"/>	Yo'q <input type="checkbox"/>
24	Past kuchlanishli simlar o'ramining butunligi, kesilmaganligi va boshqa shikastlanmaganligini (vizual) tekshirish. Ulanish zichligini, ulagich detallarining lyufti, ulagichda namlik yo'qligini va boshqalarni tekshirish.	Ha <input type="checkbox"/>	Yo'q <input type="checkbox"/>
25	Yuqori kuchlanishli zanjir ulagichining to'g'ri ulanganligi va zichligini, darzlar, ulagich detallarining lyufti, korroziya izlari va boshqalarning yo'qligini tekshirish.	Ha <input type="checkbox"/>	Yo'q <input type="checkbox"/>

Texnik xizmat ko'rsatish reglamenti

Texnik xizmat ko'rsatish reglamentining barcha bandlarini majburiy bajarish talab etiladi. Reglament bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun avtomobilni rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga yetkazib berish kerak.

Odatdagi foydalanish sharoitida xizmat ko'rsatish har yili yoki har 10 000 km masofada (umumiy masofa) yoki gibrid rejimida har 10 000 km masofada, qaysi sharoit oldin kelishiga qarab, amalga oshiriladi.

Og'ir foydalanish sharoitlarida xizmat ko'rsatish har 6 oyda yoki har 5000 km masofada (qaysi biri oldin kelishiga qarab) amalga oshiriladi.

T: tekshirish, sozlash, tozalash, zarur bo'lsa - almashtirish. A: almashtirish.

7. TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

Oddiy foydalanish sharoitlari*											
Texnik xizmat ko'rsatish ishlari	Oylar	12	24	36	48	60	72	84	96	108	120
	km × 1000	10	20	30	40	50	60	70	80	90	100
Og'ir foydalanish sharoitlari*											
Texnik xizmat ko'rsatish ishlari	Oylar	6	12	18	24	30	36	42	48	54	60
	km × 1000	5	10	15	20	25	30	35	40	45	50
Asboblari paneli		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Audio tizim va axborot-ko'ngilochar tizim		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Bort diagnostika tizimi		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Old oyna tozalagich cho'tkalari		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Orqa oyna tozalagich cho'tkalari		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Oyna tozalagich va yuvgichlar		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Havoni sovutish		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Konditsioner tizimi		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Konditsioner tizimi filtri		Konditsioner tizimi filtrini almashtirish avtomobilga har bir xizmat ko'rsatishda amalga oshiriladi.									
Sovutish suyuqligi sathi		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Sovutish suyuqligining muzlash harorati		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Sovutish suyuqligi		Almashtirish har 2 yilda yoki har 40 000 km da (qaysi biri oldin kelishiga qarab) amalga oshiriladi.									
Tormoz suyuqligi		Almashtirish har 2 yilda yoki har 40 000 km da (qaysi biri oldin kelishiga qarab) amalga oshiriladi.									

7. TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

Oddiy foydalanish sharoitlari*											
Texnik xizmat ko'rsatish ishlari	Oylar	12	24	36	48	60	72	84	96	108	120
	km × 1000	10	20	30	40	50	60	70	80	90	100
Og'ir foydalanish sharoitlari*											
Texnik xizmat ko'rsatish ishlari	Oylar	6	12	18	24	30	36	42	48	54	60
	km × 1000	5	10	15	20	25	30	35	40	45	50
Tormoz suyuqligi sathi		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Tormoz suyuqligidagi namlik miqdori		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Motor moyi va moy filtri		Almashtirish har yili yoki har 10 000 km masofada amalga oshiriladi (qaysi biri oldin kelishiga qarab)									
Motor moyi sathi va holati		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Transmissiya ishchi suyuqligi va tashqi filtri		Almashtirish har 4 yilda yoki har 40 000 km da (qaysi biri oldin kelishiga qarab) amalga oshiriladi.									
Transmissiya ishchi suyuqligi sathi		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Yonilg'i filtri		Tashqi yonilg'i filtri: har 30 000 km da almashtiriladi. Ichki yonilg'i filtri: o'rnatilgan yonilg'i nasosiga xizmat ko'rsatilmaydi (agar nosozlik yuz bersa, uning sababini aniqlash lozim)									
Akkumulyator batareyasining kuchlanishi		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Amortizatorlar		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Kardan vali va uzatma vallari		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
G'ildirak boltlari tortish momenti		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Rul mexanizmi		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Rul kolonkasi		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Rul tortqilari, rul tortqilari uchliklari va changdan himoyalovchi g'iloflar		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T

7. TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

Oddiy foydalanish sharoitlari*											
Texnik xizmat ko'rsatish ishlari	Oylar	12	24	36	48	60	72	84	96	108	120
	km × 1000	10	20	30	40	50	60	70	80	90	100
Og'ir foydalanish sharoitlari*											
Texnik xizmat ko'rsatish ishlari	Oylar	6	12	18	24	30	36	42	48	54	60
	km × 1000	5	10	15	20	25	30	35	40	45	50
Shinalar holatini vizual tekshirish		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Shinalar protektorining yeyilishi		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Shinalar havo bosimi		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Zaxira g'ildirak shinasidagi havo bosimi		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
G'ildirak boltlarini tortish momenti		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
G'ildiraklar o'nini almashtirish		G'ildiraklarni kamida har 10 000 km masofada almashtirish tavsiya etiladi (g'ildiraklarni har 5000-7000 km masofada almashtirish optimal hisoblanadi).									
O't oldirish svechasi		Almashtirish har 30 000 km benzinda yurganda bajariladi.									
Tormoz kolodkalari		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Tormoz diskleri		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Havo tozalagich		Almashtirish yili yoki har 10 000 km masofada amalga oshiriladi (qaysi shart birinchi kelishiga qarab)									
Dvigatel osma agregatlarining uzatma tasmasi		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Dvigatelning moy poddoni va to'kish teshigi bolti		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Transmissiya korpusi		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Quvurlar (rul kuchaytirgichi, tormoz va yoqilg'i tizimi) va elektr simlari		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T

7. TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

Oddiy foydalanish sharoitlari*											
Texnik xizmat ko'rsatish ishlari	Oylar	12	24	36	48	60	72	84	96	108	120
	km × 1000	10	20	30	40	50	60	70	80	90	100
Og'ir foydalanish sharoitlari*											
Texnik xizmat ko'rsatish ishlari	Oylar	6	12	18	24	30	36	42	48	54	60
	km × 1000	5	10	15	20	25	30	35	40	45	50
Tortish akkumulyator batareyasida korroziya va deformatsiyaning aniq izlari yo'qligini tekshirish.		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Tortish akkumulyator batareyasi boltida yoriqlar va korroziya izlari yo'qligini tekshirish. Boltning o'zi mavjudligini tekshirish.		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Tortish akkumulyator batareyasining germetik chiqarish klapanini zichlashmaganligi va deformatsiyalanmaganligini tekshirish. Shamollatish teshigini berkitilmaganligini tekshirish.		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Tortish akkumulyator batareyasi ulanish joyida ifloslanish, namlik, yeyilish va deformatsiya yo'qligini tekshirish.		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Past kuchlanishli simlar o'ramining butunligi,		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T

7. TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

Oddiy foydalanish sharoitlari*											
Texnik xizmat ko'rsatish ishlari	Oylar	12	24	36	48	60	72	84	96	108	120
	km × 1000	10	20	30	40	50	60	70	80	90	100
Og'ir foydalanish sharoitlari*											
Texnik xizmat ko'rsatish ishlari	Oylar	6	12	18	24	30	36	42	48	54	60
	km × 1000	5	10	15	20	25	30	35	40	45	50
kesilmaganligi va boshqa shikastlanmaganligini (vizual) tekshirish. Ulanish zichligini, ulagich detallarining lyufti, ulagichda namlik yo'qligini va boshqalarni tekshirish.											
Yuqori kuchlanishli zanjir ulagichining to'g'ri ulanganligi va zichligini, yoriqlar, ulagich detallarining lyufti, korroziya izlari va boshqalarning mavjudligini tekshirish.		T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
Adsorber filtri (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)		Almashtirish har 3 yilda yoki har 60 000 km da (qaysi biri oldin kelishiga qarab) amalga oshiriladi.									
Orqa tortish elektr dvigateli (avtomobilning ayrim variantlari uchun)		Almashtirish har 5 yilda yoki har 80 000 km da (qaysi biri oldin kelishiga qarab) amalga oshiriladi.									
Akkumulyator batareyasi		Xizmat ko'rsatish talab qilinmaydi (nosozlik holatlaridan tashqari).									
Drossel zaslonkasi		Drossel zaslonkasini har 15000 km da tozalash tavsiya etiladi.									

7. TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

Oddiy foydalanish sharoitlari*											
Texnik xizmat ko'rsatish ishlari	Oylar	12	24	36	48	60	72	84	96	108	120
	km × 1000	10	20	30	40	50	60	70	80	90	100
Og'ir foydalanish sharoitlari*											
Texnik xizmat ko'rsatish ishlari	Oylar	6	12	18	24	30	36	42	48	54	60
	km × 1000	5	10	15	20	25	30	35	40	45	50
G'ildirak o'rnatish burchaklarini sozlash	To'rttala g'ildirakning o'rnatilish burchaklarini tekshirish va zarur bo'lsa sozlash ishlari har 20000 km masofada o'tkaziladi.										
Yonilg'i bug'i adsorberi rezina shlangi	Almashtirish har 10-yilda yoki har 500 ming km da (qaysi biri oldin kelishiga qarab) amalga oshiriladi.										
Yonilg'i baki quyish bo'g'zining shlangi	Standart kauchukdan tayyorlangan shlangda (masalan, NBR+ PVC/CSM va boshqalar) almashtirish har 5 yilda yoki har 200 000 km da amalga oshiriladi (qaysi biri oldin kelishiga qarab); ffor kauchukdan tayyorlangan shlangda almashtirish har 10 yilda yoki har 500 000 km da amalga oshiriladi (qaysi biri oldin kelishiga qarab). Yoriqlar paydo bo 'lishining oldini olish uchun ushbu shlangni o 'z vaqtida almashtirish tavsiya etiladi.										
*: Avtomobilga texnik xizmat ko'rsatishning qaysi qoidalariga rioya qilishingiz kerakligini bilish uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.											

TANISHIB CHIQING

- Jadvalda texnik xizmat ko'rsatishning odatdagi intervallari keltirilgan. Biroq, yo'l, ob-havo, atmosfera sharoitlari va avtomobildan foydalanish xususiyatlariga qarab, texnik xizmat ko'rsatishni tez-tez amalga oshirish kerak bo'lishi mumkin. Ushbu shartlar avtomobil ekspluatatsiya qilinadigan mamlakatga qarab farq qilishi mumkin. Mamlakatingizda alohida talablar amal qilishi mumkin. Avtomobilga texnik xizmat ko'rsatishning qaysi qoidalariga rioya qilishingiz kerakligini bilish uchun rasmiy dilerning servis stansiyasiga murojaat qiling.
- 100 000 km yo'l bosib o'tgandan so'ng yoki 120 oy o'tgach, avtomobilga davriy texnik xizmat ko'rsatishni davom ettiring, texnik xizmat ko'rsatish jadvalining uchinchi ustuniga qaytib, muddat va bosib o'tilgan yo'l qiymatlariga mos ravishda 100 000 km yoki 120 oy qo'shing.
- Ba'zi mamlakatlarda avtomobilga texnik xizmat ko'rsatishga alohida talablar qo'yilishi mumkin. Avtomobilga texnik xizmat ko'rsatishning qaysi talablariga rioya qilishingiz kerakligini bilish uchun rasmiy dilerning servis stansiyasiga murojaat qiling.

DIQQAT

- Agar avtomobil quyida tavsiflangan og'ir sharoitlarda foydalanilsa, motor moyi va moy filtrini tez-tez almashtirish kerak*.
- Agar avtomobil quyidagi holatlarda ko'rsatilgan og'ir sharoitlarda foydalanilsa, har 5000 km yoki har 6 oyda (qaysi biri oldin kelishiga qarab) texnik xizmat ko'rsatilishi kerak.*.
- Agar avtomobilni boshqarish uchun quyidagi sharoitlar xos bo'lsa, motor moyini har 5000 km da yoki har 6 oyda (qaysi biri oldinroq kelishiga qarab) almashtirish kerak.
 - Yuqori namlik.
 - Dengiz sathidan yuqori balandlik.
 - Juda sovuq yoki juda issiq iqlim.
 - Yomon yo'llar (yo'l qoplamasi sifati pastligi, shag'al yo'llar, qor bosgan yo'llar va b.).
 - Tog' yo'llari, uzoq davom etadigan ko'tarilishlar va tushishlar.
 - Qisqa masofaga tez-tez safar qilish.
 - Yuqori harorat (32 °C dan yuqori) yoki transport tirbandligi sharoitida tez-tez foydalanish.
 - Politsiya avtomobili, taksi, tijorat avtomobili, tirkama va boshqalar sifatida foydalanish.

DIQQAT

Agar avtomobil quyida ko'rsatilgan og'ir sharoitlarda foydalanilsa, dvigatelning havo filtri va konditsioner filtrini tez-tez almashtirish kerak*.

*Og'ir ekspluatatsiya sharoitlari:

- Juda past yoki juda yuqori haroratlar (faqat motor moyi, motor moyi darajasi, rul boshqaruvi va podveskaga tegishli).
- Qisqa masofalarga tez-tez safar qilish (faqat motor moyi, motor moyi sathi, tormoz kolodkalari, disklar va barabanlar, vallar sharnirlari va ularning himoya g'iloflariga tegishli).
- Yuqori chang sharoitlarda foydalanish (faqat dvigatelning havo filtri va konditsioner filtri, tormoz kolodkalari, disklar va barabanlar, vallarning sharnirlari va ularning himoya g'iloflariga tegishli).
- Past sifatli yo'l qoplamasi va/yoki iflos yo'llar sharoitida foydalanish (faqat konditsioner filtri, tormoz kolodkalari, disklar va barabanlar, vallar sharnirlari va ularning himoya g'iloflariga tegishli).
- Yo'l tuzi yoki boshqa agressiv materiallar foydalanilgan joylarda ekspluatatsiya qilish (faqat yoqilg'i tizimiga, uning magistrallari va birikmalariga, tormoz kolodkalariga, disklar va barabanlarga, vallarning sharnirlari va ularning himoya g'iloflariga, tormoz tizimining magistrallariga, uning ish qobiliyatini va to'xtash tormozining ish qobiliyatini tekshirishga, rul boshqaruvi va podveskaga tegishli).
- Qirg'oqbo'yi hududlarida ekspluatatsiya qilish (faqat yoqilg'i tizimi, uning magistrallari va birikmalari, tormoz kolodkalari, disklar va barabanlar, vallar sharnirlari va ularning himoya g'iloflari, tormoz tizimining magistrallari, uning ish qobiliyatini va to'xtash tormozining ish qobiliyatini tekshirish, rul boshqaruvi va podveskaga tegishli).
- Agar avtomobil yo'l-transport hodisasiga uchragan, suv ostida qolgan yoki signalizatsiyasi doimiy ravishda ishlayotgan bo'lsa, tekshirish va ta'mirlash uchun rasmiy dilarning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qilish lozim.
- Tegishli ruxsatnomasiz tortish akkumulyator batareyasini ortiqcha zaryadlash yoki to'liq zaryadlamaslik yoki uning sozlash parametrlarini o'zgartirish taqiqlanadi.
- Konditsionerlash tizimi uchun mos haroratni belgilash kerak va ushbu tizimning ishlash vaqti juda uzoq bo'lmasligi kerak.
- Avtomobilni yuvishda tortish batareyasi tizimiga suv kirishiga yo'l qo'ymang.
- Chuqur suv to'siqlaridan o'tishdan saqlanib. Suvli to'siqni yengib o'tayotganda, suv tomchilari tortish akkumulyator batareyasi bo'linmasiga tushmasligi uchun past tezlikda harakatlarning.
- Tortish akkumulyator batareyasining zaryad darajasi juda past bo'lsa, dvigatelni ishga tushirish imkonsiz.
- Safarga chiqishdan oldin tortish akkumulyator batareyasining quvvat darajasini tekshiring. Tortish batareyasini quvvatlang va uning zaryadsizlanishi manzilga yetib borishga to'sqinlik qiladigan vaziyatni bartaraf etish uchun tortish batareyasining zaryad darajasini hisobga olgan holda safar vaqtini rejalashtiring. Agar harakat paytida SOC 30 % dan pastga tushsa, keskin tezlanish va yuqori tezlikda haydashdan saqlanib. Birinchi imkoniyatdayoq batareyani quvvatlash uchun quvvatlash stansiyasida to'xtang.

 **DIQQAT**

- Avtomobil atrof-muhitning yuqori harorati sharoitida ishlayotganda, akkumulyator tizimidan uzluksiz foydalanish va unda issiqlik to'planishi natijasida yuzaga keladigan yuqori harorat haqida ogohlantirish paydo bo'lishining oldini olish uchun avtomobilni zaryadlashdan oldin (agar zarur bo'lsa) 30 daqiqa va zaryadlashdan keyin 30 daqiqa harakatsiz qoldirish tavsiya etiladi (ushbu ogohlantirishning maqsadi tortish akkumulyator batareyasi resursining tez pasayishini oldini olishdir).
- Avtomobil atrof-muhitning past harorati sharoitida ishlayotganda, tortish akkumulyator batareyasining harorati 0 °C dan pastga tushmasligi uchun uni harakatdan so'ng darhol zaryadlash tavsiya etiladi (bu tortish akkumulyator batareyasining resursini tez pasayishini oldini olish va zaryadlash paytida xavfsizlik darajasini oshirish uchun zarur).

Texnik ma'lumotlar

Nomi	Xususiyati	Zarur miqdor
Moy (SQRH4J15)	FUCHS C5 0W-20	4,5 ± 0,2 l (moy filtrini almashtirish motor moyini almashtirish bilan bir vaqtda amalga oshirilishi kerak)
Transmissiya ishchi suyuqligi (130HHB)	351HHA-1502033	4,1 ± 0,2 l
Orqa tortish elektr dvigateli (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)	CASTROL BOT 352 B1 BEV	0,8 l.
Yuqori haroratli sovutish suyuqligi (dvigatel sovutish tizimi) (2WD)	Organik kislotalar asosida (Organic Acid Technology — OAT)	8 l.
Yuqori haroratli sovutish suyuqligi (dvigatelni sovutish tizimi) (4WD)	Organik kislotalar asosida (Organic Acid Technology — OAT)	8 l.
Past haroratli sovutish suyuqligi (tortish akkumulyator batareyasini sovutish tizimi) (2WD)	Organik kislotalar asosida (Organic Acid Technology — OAT)	7,5 l.
Past haroratli sovutish suyuqligi (4WD)	Organik kislotalar asosida (Organic Acid Technology — OAT)	8,1 l.
Xladagent	R1234yf	550 ± 15 gr

7. TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

Kompressor moyi	PVE	180 ± 10 gr
Tormoz suyuqligi	DOT4	Tormoz suyuqligi baki sathi MIN va MAX oralig'ida joylashgan.

TANISHIB CHIQING

Tarkibida 0,000275 t ekvivalentda ftorli issiqxona gazlari va CO2 bor.

DIQQAT

- Suyuqlik almashtirilayotganda quyilayotgan suyuqlik hajmi to'kilgan suyuqlik hajmiga teng bo'lishi kerak, ishchi suyuqlik oqib ketgan holatlar bundan mustasno. Qo'shimcha ma'lumot olish uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
- Faqat asl ehtiyot qismlar va sarflash materiallaridan foydalaning. Aks holda, bevosita yoki bilvosita zarar bo'yicha hech qanday da'vo qabul qilinmaydi.
- Motor moyi va ishchi suyuqliklardan faqat rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasi tomonidan tavsiya etilgan markalar va ko'rsatkichlarda foydalaning.
- Bunda yonilg'i quyish sig'implari qiymatlari faqat ma'lumot uchun keltirilgan. Haqiqiy qiymatlar avtomobilning ishlashiga bog'liq.

8-1. Identifikatsiya raqamli yorliqlar	Quvvat tizimi..... 322
8-2. Texnik xususiyatlar	Podveska 322
Avtomobil gabarit o'lchamlari 318	Tortish akkumulyator batareyasi 323
Avtomobil turi 319	Akkumulyator batareyasi .. 323
Avtomobil vazni 319	G'ildiraklarni o'rnatish burchaklari..... 324
Avtomobil texnik xususiyatlari 320	G'ildirak va shina disklari... 324
Dvigatel texnik xususiyatlari 320	Lampa turi 325
Tortish elektr dvigateli 321	Qo'shimcha komponentlarning avtomobil gabarit o'lchamlariga ta'siri 326

8. TEXNIK XUSUSIYATLAR

8-1. Identifikatsiya raqamli yorliqlar

■ Avtomobil identifikatsiya raqami (VIN)



1 VIN old panelning yuqori chap burchagida joylashgan va avtomobilning tashqi tomonidan oyna orqali ko'rinadi.

2 VIN kapot ichki panelida muhrlangan.



3 VIN yukxona eshigi ostida ko'rsatilgan.



4 Avtomobil ma'lumotlari yozilgan yorliq rasmda ko'rsatilgandek, old yo'lovchi eshigi oralig'idagi kuzovning B ustunida joylashgan.

TANISHIB CHIQUING


- Avtomobil identifikatsiya raqami (VIN) yozilgan taxtachani va unga tutash yuzalarni yopish, bo'yash, payvandlash, o'yish, parmalash, o'zgartirish yoki olib tashlash taqiqlanadi.
- Avtomobil identifikatsiya raqamini (VIN) aniqlash zarur bo'lsa, rasmiy dilarning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
- Avtomobil identifikatsiya raqami (VIN) tushirilishi mumkin bo'lgan boshqa joylar: old chap eshikning ichki panelida, kuzov o'ng tomondagi ustunining ichki panelida, tonning old to'sinida, polning orqa qismida, shuningdek orqa o'rindiqlik ostidagi metall listda; yuk bo'linmasi eshigi o'rnining yuqori qismidagi suv oqimi panelida yoki yuk bo'linmasining ichki panelida (muayyan avtomobilga qarang).

■ Avtomobil ma'lumotlari jadvali




Avtomobil ma'lumotlari yozilgan jadval rasmda ko'rsatilganidek, old yo'lovchi eshigi oralig'ida kuzov o'rta ustunida joylashgan.

■ Dvigatel raqami



Rasmda ko'rsatilganidek, dvigatel raqami silindrlar blokida o'yib yozilgan.

■ Orqa tortish elektr dvigateli raqami



Orqa tortish elektr dvigateli raqami joylashuvi rasmda ko'rsatilgan.

■ Orqa tortish elektr dvigateli raqami




Orqa tortish elektr dvigateli raqami joylashuvi rasmda ko'rsatilgan.

8. TEXNIK XUSUSIYATLAR

8-2. TEXNIK XUSUSIYATLAR

Avtomobil gabarit o'lchamlari



Gabarit o'lchamlar	Uzunlik (mm)	4725
	Kenglik (mm)	1860
	Balandlik (mm)	1705
G'ildirak asosi (mm)		2710
G'ildirak izi	Old (mm)	1582
	Orqa (mm)	1604
Osmalar	Old (mm)	915
	Orqa (mm)	1100

Avtomobil turi

Avtomobil turi	Old (4x2) / to'liq (4x4) uzatma, old boshqariladigan g'ildiraklar, dvigatelning ko'ndalang joylashuvi, ikki hajmli kuzov, besh eshikli, besh- / yetti o'rinni, yuk ko'taruvchi romsiz, rul boshqaruvi organlari chap tomonda joylashgan
Dvigatel modeli	SQRH4J15
Dvigatel turi	Silindrlari vertikal joylashgan, to'rt silindri, qatorli, suyuqlik bilan sovitiladigan, to'rt taktli, ikkita yuqori taqsimlash vali bo'lgan, oraliq sovitgichli turbokompressorga ega
Quvvat tizimi	Bevosita yonilg'i purkash
Uzatmalar qutisi modeli	130HHB

Avtomobil massasi

Avtomobilning yuklangan massasi (kg)		1916	2063
Avtomobilning yuklangan massasini taqsimlash	Old o'q (kg)	1053	1064
	Orqa o'q (kg)	863	999
Avtomobilning ruxsat etilgan to'liq vazni (kg)		1916	2063
O'qqa tushadigan maksimal yuk	Old o'q (kg)	1053	1064
	Orqa o'q (kg)	863	999
Avtomobildagi o'rindiqlar soni (jumladan haydovchi o'rindig'i)		5 / 7	

 XAVFLI

Qo'llanmada keltirilgan foydali yuklama miqdoriga qo'yiladigan talablarga rioya qiling. Ruxsat etilgan to'liq massadan oshmang. Bu avtomobilning tormoz tizimi ish samaradorligiga va boshqariluvchanligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi hamda jarohatlanish yoki yo'l-transport hodisasiga sabab bo'lishi mumkin.

8. TEXNIK XUSUSIYATLAR

Avtomobilning texnik xususiyatlari

O'tkazuvchanlik parametrlari	Minimal yo'l tirqishi (mm)		142
	Minimal burilish diametri (m)	Chapga	11,2
		O'ngga	11,2
	Kirish burchagi (°)		19,9
	Kesishish burchagi (°)		18,7
Tezlik ko'rsatkichlari	Maksimal tezlik (km/soat)		180
	Maksimal o'tib bo'ladigan qiyalik (%)		40

Dvigatel texnik xususiyatlari

Dvigatel modeli	SQRH4J15
Silindr diametri (mm)	72
Porshen yo'li (mm)	92
Ishchi hajm (kub. sm)	1499
Siqish darajasi	14,5 : 1
Maksimal foydali quvvat (kVt)	105
Maksimal quvvatda valning aylanish chastotasi (ayl/min)	5200
Maksimal burovchi moment (N·m)	215
Valning maksimal burovchi momentdagi aylanish chastotasi (ayl/min)	2500

Tortish elektr dvigateli

Model	TZ153XS166	KPTZ220YMDA0
Turi	Doimiy magnitli sinxron elektr dvigatel	Doimiy magnitli sinxron elektr dvigatel
Sovutish	Suyuq	Moyli
Nominal kuchlanish (V)	350	350
Nominal quvvat (kVt)	47	70
Maksimal quvvat (kVt)	113	150
Nominal burovchi moment (N·m)	78	140
Maksimal burovchi moment (N·m)	210	310
Valning nominal aylanish chastotasi (ayl/daq)	5750	4775
Valning maksimal aylanish chastotasi (ayl/daq)	16 000	16 000

8. TEXNIK XUSUSIYATLAR

Quvvat tizimi

Yoqilg'i turi*1	Oktan soni 91 dan kam bo'lmagan etillanmagan benzin
	Oktan soni 92 dan kam bo'lmagan etillanmagan benzin
	Oktan soni 95 dan kam bo'lmagan etillanmagan benzin
	E22-E100
Yoqilg'i baki	Metall
Yoqilg'i baki sig'imi	60 l.
Yoqilg'i nasosi	Elektr

*1: Yonilg'i tanlashda rasmiy dilerning tavsiyalariga amal qiling.

TANISHIB CHIQING

Katalitik neytralizatorli avtomobil uchun faqat etillanmagan benzindan foydalanish mumkin. Avtomobil o'ziga mo'ljallanmagan yonilg'i bilan to'ldirilmasligi uchun tor quyish bo'g'zi bilan jihozlangan bo'lib, unga faqat etillanmagan benzinli kolonkalarining yonilg'i quyish pistoleti patrubogi mos keladi.

DIQQAT

- Faqat tavsiya etilgan yoqilg'idan foydalaning.
- Oktan soni ko'rsatilganidan past bo'lgan benzinni qo'llash taqiqlanadi. Aks holda dvigatel shikastlanishi mumkin, bu esa ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlari bilan qoplanmaydi.
- Etilangan benzindan foydalanish uch komponentli katalitik neytralizatorning ishdan chiqishiga va chiqindi gazlarning zaharlilik darajasining oshishiga olib keladi.
- Bakka tasodifan etillangan benzin quyilganda (hatto oz miqdorda bo'lsa ham) dvigatelni ishga tushirmaslik kerak, chunki etillangan benzin katalitik neytralizatorga tuzatib bo'lmaydigan zarar yetkazadi. Agar siz tasodifan bakni etillangan benzin bilan to'ldirib qo'ygan bo'lsangiz, darhol rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish shoxobchasiga murojaat qiling.

Podveska

Old podveska	Makferson ustunlari, ko'ndalang barqarorlik stabilizatori, ikki tomonlama ishlovchi amortizatorlar bilan boshqariladigan burama prujinali mustaqil balandligi sozlanmaydigan podveska
Orqa podveska	Ikki tomonlama ishlovchi amortizatorlar bilan boshqariladigan ko'ndalang turg'unlik stabilizatori, burama prujinalari bo'lgan mustaqil balandligi sozlanmaydigan ko'p dastakli podveska

Tortish akkumulyator batareyasi

Pozitsiya	Qiymati	
Model	113AEA	
Nominal kuchlanish (V)	350,56	
Nominal sig'im (kVt/soat)	18,404	
Quvvatlashda maksimal quvvat (kVt)	161,25	
Energiya olishdagi maksimal quvvat (kVt)	190,8	
Element kuchlanishi (V)	3,13	
Tortish akkumulyator batareyasi zaryadining harorat diapazoni (°C)	-20~60	
Tortish akkumulyator batareyasi razryadi harorat diapazoni (°C)	-30~60	
Haydash rejimi	2WD	AWD

Akkumulyator batareyasi

Akkumulyator batareyasi modeli	40 A/soat 12 V
--------------------------------	----------------

8. TEXNIK XUSUSIYATLAR

G'ildiraklarni o'rnatish burchaklari

Old g'ildiraklar	Razval	$-25' \pm 45'$
	Burilish o'qining bo'yлама og'ishi	$4^{\circ}28' \pm 60'$
	Burilish o'qining ko'ndalang og'ishi	$13^{\circ}43' \pm 60'$
	Sxojdeniye	$5' \pm 5'$ (bir taraf)
Orqa g'ildiraklar	Razval	$-42' \pm 30'$
	Sxojdeniye	$5' \pm 10'$ (bir taraf)

G'ildirak diskleri va shinalar

Shinalar o'lchami		235/55 R18; 235/50 R19; T125/80 D17; T125/80 R17
Disklar o'lchami		18x7 1/2J; 18x7.5J; 19X7J; 17x4T*1
Sovuq shinalardagi havo bosimi (kPa) (jihozlangan avtomobil)	Old g'ildirak	230
	Orqa g'ildirak	230
G'ildiraklarni mahkamlash boltlarini burash momenti		$180 \pm 10 \text{ H} \cdot \text{M}$
Konstruktiv harakat tezligi 100 km/soatdan yuqori bo'lgan avtomobillar g'ildiraklarini muvozanatlashga qo'yiladigan talablar		Korreksiyalovchi toshlar o'rnatilgach to'plamdagi g'ildirakning qoldiq disbalansi: to'ldirilgan muvozanatlovchi yukli g'ildirak tomonida $\leq 8 \text{ g}$, yelimli muvozanatlovchi yukli g'ildirak tomonida $\leq 10 \text{ g}$.

TANISHIB CHIQING

Jadvalda keltirilgan havo bosimi kattaliklari sovuq shinalar uchun ko'rsatilgan. Shinalar qizigandan so'ng ulardagi havo bosimi biroz ortadi, biroq uni majburan pasaytirish talab etilmaydi.

DIQQAT

- Shinalardagi havo bosimini kamida oyiga bir marta tekshirish kerak. Ayniqsa, yuqori tezlikda harakatlanishda havo bosimining to'g'ri qiymatiga rioya qilish muhimdir.
- Sovuq shinalardagi havo bosimining me'yoriy qiymati haydovchining eshigi oralig'idagi lavhada ko'rsatilgan.

Lampa turi

Lampa vazifasi	Lampa turi / modeli	Izoh
Faralar	Yorug'lik diodli lampa	Almashtirish rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasida amalga oshirilishi kerak
Orqa tumanga qarshi chiroqlar	Yorug'lik diodli lampa	Almashtirish rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasida amalga oshirilishi kerak
Kunduzgi yoritish chiroqlari	Yorug'lik diodli lampa	Almashtirish rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasida amalga oshirilishi kerak
Old gabarit chiroqlar	Yorug'lik diodli lampa	Almashtirish rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasida amalga oshirilishi kerak
Orqa gabarit chiroqlar	Yorug'lik diodli lampa	Almashtirish rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasida amalga oshirilishi kerak
Stop-signal chiroqlari	Yorug'lik diodli lampa	Almashtirish rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasida amalga oshirilishi kerak
Yuqori stop-signal chirog'i	Yorug'lik diodli lampa	Almashtirish rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasida amalga oshirilishi kerak
Ortga yurish chiroqlari	Yorug'lik diodli lampa	Almashtirish rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasida amalga oshirilishi kerak
Old burilish ko'rsatkichi chirog'i	Yorug'lik diodli lampa	Almashtirish rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasida amalga oshirilishi kerak
Burilish ko'rsatkichi takrorlagichi chiroqlari	Yorug'lik diodli lampa	Almashtirish rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasida amalga oshirilishi kerak

8. TEXNIK XUSUSIYATLAR

Lampa vazifasi	Lampa turi / modeli	Izoh
Orqa burilish ko'rsatkichi chirog'i	Yorug'lik diodli lampa	Almashtirish rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasida amalga oshirilishi kerak
Ro'yxatga olish belgisi yoritish chiroqlari	Yorug'lik diodli lampa	Almashtirish rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasida amalga oshirilishi kerak

Eslatma: Lampalar xususiyatlari faqat ma'lumot uchun keltirilgan. Bu avtomobil tuzilishiga bog'liq.

Qo'shimcha komponentlarning avtomobil gabarit o'lchamlariga ta'siri

Avtomobilning gabarit uzunligini ko'rsatishda hisobga olinmaydigan komponentlar Quyida sanab o'tilgan tarkibiy qismlar avtomobilning yuklangan massasini oshirmaydi va avtomobilning old va orqa yo'nalishdagi uzunligini ko'pi bilan 50 mm ga, burilish diametrini esa kamida 5 mm ga oshiradi.

- Oyna tozalagichlar va yuvgichlar
- Ro'yxatdan o'tgan savdo belgilari, ishlab chiqaruvchining nomi, ishlab chiqarilgan mamlakat, modelning nomi va turi, dvigatelning ekologik sinfi, uzatmalar qutisi turi, uzatma turi va avtomobilning boshqa muhim farqlovchi xususiyatlari ko'rsatilgan tashqi belgilar va emblemalar.
- Tashqi yoritish va yorug'lik signalizatsiyasi asboblari
- Zanglashga qarshi himoya elementlari va ularning ekvivalentlari
- Quyosh nuridan himoya qiluvchi tashqi moslamalar
- Qo'shimcha germetiklash va himoyalash moslamalari
- Himoya chodirini mahkamlash moslamalari
- Quflash qurilmalari, jumladan, halqalar, tutqichlar, kontrollerlar va tugmalar
- Oynalarni artishni osonlashtirish uchun xizmat qiluvchi zinapoya (yoki pillapoya), ostonalar va bamperdagi tutqich.
- Logotipli orqa emblema
- Yechiladigan tirkash-tortish qurilmasi
- Ovoz pasaytirgich nasadkasi

Avtomobilning gabarit kengligini ko'rsatishda hisobga olinmaydigan komponentlar

- Bilvosita ko'rish qurilmalari
 - Yig'ilgan holatdagi maktab avtobusining to'xtash belgisi
- Quyida sanab o'tilgan komponentlar avtomobilning yuklangan massasini oshirmaydi va avtomobilning bir yo'nalishdagi uzunligini ko'pi bilan 50 mm ga, burilish diametrini esa kamida 5 mm ga oshiradi.
- Ro'yxatdan o'tgan savdo belgilari, ishlab chiqaruvchining nomi, ishlab chiqarilgan mamlakat, modelning nomi va turi, dvigatelning ekologik sinfi, uzatmalar qutisi turi, uzatma turi va avtomobilning boshqa muhim farqlovchi xususiyatlari ko'rsatilgan tashqi belgilar va emblemalar.
 - Tashqi yoritish va yorug'lik signalizatsiyasi asboblari
 - Zanglashga qarshi himoya elementlari va ularning ekvivalentlari

- Qo'shimcha germetizatsiya va himoya vositalari
 - Himoya chodirini mahkamlash moslamalari
 - Tarnovlar. Old oyna ikki tomonida joylashgan, haydovchi va old yo'lovchining eshiklari (eshik oynalari) dan yomg'ir suvini chiqarib yuborish uchun xizmat qiluvchi tarnovlar.
 - Kuzovdan chiqib turuvchi egiluvchan suv purkagichlar
 - Yig'ilgan holatda bo'lgan suriladigan zinapoya, pandus, ko'tarish platformasi yoki boshqa shunga o'xshash qurilma
 - Ilmoqlar, tutqichlar, kontrollerlar va tugmalardan iborat qulflash qurilmalari
 - Avariya to'xtash belgisi
 - Shina manometri
 - Shinaning yo'lga tegib turgan qismidan yuqorida joylashgan shina yon qismining deformatsiyalangan qismi
 - Orqaga yurishni osonlashtirish moslamalari
 - Ovoz pasaytirgich nasadkasi
- Avtomobilning gabarit balandligini ko'rsatishda hisobga olinmaydigan komponentlar
- Antennaning egiluvchan qismi
- Avtomobilning yuklangan massasini ko'rsatishda hisobga olinmaydigan komponentlar
- Havo so'rgich
 - Bilvosita ko'rish qurilmalari
 - Elektromobil zaryadlash moslamasi (jumladan zaryadlash moslamasi mahkamlagichi)
 - Yig'iladigan yoki yechiladigan orqa spoyler, uning uzunligi ishchi holatda 2000 mm dan, yig'ilgan holatda esa 200 mm dan oshmaydi
 - Orqa zina, pandus yoki gorizontal tekislikda uzunligi 300 mm dan oshmaydigan boshqa shunga o'xshash qurilma
 - Orqa zina

- Avtomatik uzatmalar qutisi 178
 Adaptiv kruiz nazorati tizimi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 200
 Akkumulyator batareyasi 323
 Alifbo ko'rsatkichi 3
 Antibloklash tormoz tizimi (ABS) 237
 Audiotizim 107
 Avtomobilni yetkazib berish qaydnomasi 6
 Avtomobil gabarit o'lchamlari 318
 Asboblar 272
 Audio tizimni boshqarish tugmalari 114
 Avtomobil massasi 319
 Aylana ko'rish monitori (AVM) 228
 Asboblar paneli tavsifi 27
 Audio tizimni boshqarish paneli 107
 Avtomobilning elektr ta'minoti rejimlarini almashtirish 168
 Avtomobilni to'xtash joyiga qo'yish 16
 Avtomobil sozligini tekshirish 15, 289
 Avtomobilni tashqi akkumulyator batareyasidan ishga tushirish 284
 Avtomobilni avtomatik ushlab turish tizimi (AUTO HOLD) 174
 Avtomatik favqulodda tormozlash tizimi (AEB) / old to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi (FCW) 220
 Avtomobilga kalitsiz kirish tizimi 90
 Avtomobilni harakat yo'lagi chegarasida ushlab turish tizimi 208
 Avtomobilni harakat yo'lagi chegarasida ushlab turish tizimi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 208
 Akkumulyator batareyasini olish va o'rnatish 283
 Avtomobilni qiyalikda to'xtatish 17
 Avtomobil texnik xususiyatlari 320
 Avtomobil turi 319
 Avtomobilni utilitatsiya qilish yoki qayta sotishda kiberxavfsizlik eslatmasi 24
 Avtomobilga chiqish va tushishni osonlashtirish funksiyasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 62
 Bagaj bo'limi eshigi 160
 Bolalar xavfsizlik qurilmalari 69
 Boshqa haydovchiga yordam tizimlari 239
 Birinchi texnik xizmat haqida ma'lumot 303
 Bosh tagliklari 54
 Boshqariladigan tushish tizimi (HDC) (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 236
 Bolalar xavfsizlik qurilmasini o'rnatish 75
 Boshqaruv markazi 108
 Dvigatelni ishga tushirishdan oldingi amallar 15
 Dvigatel ishga tushirilgach 16
 Dastlabki harakatlar 168
 Dinamik barqarorlashtirish tizimi 235
 Dasturiy ta'minotni yangilash usullari 138
 Dvigatel texnik xususiyatlari 320
 Eshiklar 95
 Elektr uzatmasiz yukxona eshigi 160
 Elektr uzatmasiz yukxona eshigi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 160
 Elektr tarmog'idan quvvatlanadigan gibrid avtomobil tizimi haqida ma'lumot (PHEV) 240
 Eshikning mexanik qulfi 97
 Eshiklarni ochish va yopish 95
 ECALL tizimi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 268
 Elektr uzatmalari to'xtash tormozi (EPB) 171
 Elektr oyna ko'targichlarni masofadan boshqarish funksiyasi 100
 Elektr rozetkasi (12V) 158
 Elektr oyna ko'targichlar 98
 Favqulodda yorug'lik sugnalizatsiyasi tugmasi 270
 Faralar korrektori 50
 Funksiyalar tavsifi 149
 Favqulodda vaziyatda avtomobilni harakat yo'lagi markazida ushlab turish tizimi (ELK) (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 212
 Fara chiroqlarini o'chirishni kechiktirish funksiyasi 50
 Fara yorug'ligini boshqarishning intellektual tizimi (IHC) 52
 Harakat paytida 16
 Harakatni boshlashga tayyorgarlik 15
 Haydash rejimi 181
 Haydovchi holatini kuzatish tizimi (DMS) 227
 Harakat yo'lagini o'zgartirishning oldini olish tizimi (LDP) (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 210
 Harakat yo'lagini o'zgartirish gaqida ogohlantirish tizimi (LDW) (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 209
 Harakat tezligini cheklash tizimlari 198
 Haydash xavfsizligini ta'minlashga yordam beruvchi tizimlar 216
 Haydovchi o'rindig'i holatini xotirada saqlash funksiyasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 61
 Individual xizmat ko'rsatish maslahatlari blankasi 7
 Ichki orqa ko'rish oynasi 38
 Imobilayzer 94
 Indikatorlar va signalizatorlar 29
 Intellektual kruiz-nazorat tizimlari 223
 Ikkinchi qator o'rindig'ini isitish (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 60
 Ishchi tormoz tizimi 176
 Ikkinchi qator o'rindiqdagi konditsioner tizimi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 119
 Joriy ishlar 290
 Kapot 159
 Konditsioner tizimi sozmalari 120
 Konditsioner tizimi 118
 Kruiz-nazorat tizimi (CCS) (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 198
 Kiberxavfsizlik eslatmasi 24
 Kiberxavfsizlik xizmatini yangilash yoki to'xtatush to'g'risida xabarnoma 24
 Lyuk 102
 Lyuk (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 102
 Lampa turlari 325
 Muzlagan va qorli yo'llarda haydash 22
 Masofadan boshqarish pult yordamida avtomobilni masofadan ishga tushirish 95
 Masofadan boshqarish pult haqida ma'lumot 85

- Masofadan boshqarish puliti 85
Masofadan boshqarish puliti ta'sir radiusi 88
Mayda buyumlar va yuklarni joylashtirish 155
Mulkdor ro'yxatdan o'tganlik sertifikati 12
Mundarija 3
Masofadan boshqarish funksiyasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 149
Masofadan boshqarish funksiyasi 149
Markaziy tirsak qo'ygich bo'limini sovutish/isitish funksiyasi 128
Masofadan boshqarish puliti yordamida avtomobilni qidirish funksiyasi 51, 94
Orqaqa yurish yoqilganda orqa ko'rish oynasini avtomatik egish 42
Orqa eshik qulflarini uchkaridan ochishdan bloklash 98
Old yo'lovchi xavfsizlik yostig'ini yoqish va o'chirish (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 770
Orqa USB ulagich 158
Ovozli signal 37
Orqaf ko'rish oynasi 38
OTA yangilanishi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 138
OTA yangilanishi 138
Oynalar 98
Old o'rindiqlar
Old USB ulagich 158
Oyna tozalagich va yuvgichlar 43
Old o'rindiqlar havo konditsioner tizimi 118
Ortga yurib yo'lda chiqishda xavf haqida ogohlantirish tizimi (RCTA) (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 216
Ortdan zarba bilan to'qnashuv xavfi haqida ogohlantirish tizimi (RCW) (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 216
Oyna tozalagich va yuvgichlarni boshqarish 43
Oyna qisib qolishidan himoya funksiyasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 101
Old yo'lovchi o'rindig'i massaj funksiyasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 59
Ovozli buyruzlarni aniqlash funksiyasi 115
Povdeska 322
Proyeksiyon displey (HUD) (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 216
Pardoz ko'zguli quyosh soyabonlari 159
Quvvatni yoqish 168
Qo'shimcha komponentlarning avtomobil gabariti o'lchamlariga ta'siri 326
Quvvat tugmasi 169
Quvvatlash qurilmasi 250
Qo'llanmadan foydalanish 3
Qish sharoitida haydashda ehtiyot choralarini 21
Qo'ldaboshqariladigan uchinchi qator o'rindig'i 58
Qo'llanmada foydalanilgan belgilar 4
Quvvat tizimi 322
Qish mavsumida haydash bo'yicha maslahatlar 21
Rul g'ildiragini ititish (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 37
Rul kolonkasidagi tugma 139
Rejali texnik xizmat ko'rsatish 303
Qo'lda boshqariladigan ikkinchi qator o'rindig'i 57
Rul g'ildiragi holatini sozlash 38
Rul g'ildiragi 37
Rul boshqaruvi 170
Rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasi tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar 288
Rul boshqaruvi elektr kuchaytirgichi (EPS) 170
Simsiz quvvatlash moslamasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 134
Sirpanchiq yo'lda haydash 20
Sozlash 109
Salonni yoritish 49
Saqlagichlar 276
Suv to'siqlaridan o'tish 20
Saqlagichlarni tekshirish 278
Sotuvdan oldingi tekshiruv sertifikati 12
Saqlagichlar bloki va rele sxemasi 277
Sirpanishga qarshi zanjirlar 22
Tasvirli ko'rsatkich 3
To'liq uzatmali intellektual tizim (AWD) (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 180
To'liq uzatmali intellektual tizim (AWD) 180
Tashqi orqa ko'rish oynalari 39
Tashqi yoritish asboblari 47
Tezlik cheklagichi (ASL) (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 207
Texnik xizmat ko'rsatish reglamenti 304
Tavsiya etilgan bolalar xavfsizlik qurilmalari 72
Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish 288
Tirbandlikda harakatlanishda yordam tizimi (TJA) / avtomobilni yo'lak markazida ushlab turish tizimi (ICA) (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 223
To'xtashda yordam tizimi 228, 232
Tezlikni cheklash belgilarini aniqlash tizimi (SLA) (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 198
Tormoz kuchini nazorat qilish tizimlari 235
Telefon aloqasi 115
Texnik ma'lumotlar 313
Tormoz tizimi 171
Tortish akkumulyator batareyasi 241, 323
Tortish-tirkash qurilmasi 279
Tortish elektr dvigateli 321
Tashqi orqa ko'rish oynalari holatini xotirada saqlash funksiyasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 41
Upgrage Now (hozir yangilash) rejimidan foydalanish 139
Uzatmalar qutisi 178
USB ulagichi 158
Uchinchi qator o'rindiqlari konditsioner tizimi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 120
Videoregistrator 131
Xavfsizlik kamarlari taranglagichlari (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 68
Xavfsizlik kamarlari 62
Xavfsizlik yostiqchilari 186
Xushbo'yantirish funksiyasi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 129
Yuqori arqon 73
Yo'lsizlikda haydash 19
Yonilg'i bakining quyish bo'g'izi lyuki 164
Yo'lsizlikda ehtiyot choralarini 19
Yong'irda haydashda ehtiyot choralarini 20
Yangi avtomobilni chiniqtirish 13

Yoritish va yorug'lik signalizatsiya asboblari 47
Yangi avtomobil tekshirish 5, 12
Yangilash paytida yuzaga kelgan muammolarni hal qilish 148
Yorug'lik qaytaruvchi nimcha 271
Yopilgan eshik haqida ogohlantirish tizimi (DOW) (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 215
Yo'l belgilarini aniqlash tizimi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 198
Yonilg'i tejash va avtomobil xizmat muddatini uzaytirish 14
O'rindiqlarni shamollatish (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 60
O'rindiqlarni isitish (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 60
O'rindiqda to'g'ri o'tirish 53
O'g'irlashga qarshi tizim qo'riqlash tejsimi 92
O'rindiqlar 53
"O'lik" zonalarni nazorat qilish tizimi 213
"O'lik" zonalarni nazorat qilish tizimi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) 213
G'ildirak va shina diskleri 324
G'ildiraklarni o'rnatish burchaklari 324
Shamollatish panjaralari 128
Shinalar bosimini nazorat qilish tizimi (TPMS) 218
Shatakka olish moslamasini o'rnatish 282
Shinani tezkor ta'mirlash 273
Cho'tkalarni almashtirish 46
Chiqarish tizimini tekshirish 18

**Favqulodda vaziyatlarda
harakatlar bo'yicha
qo'llanma**

1-1. NOSOZLIK HOLATIDAGI HARAKATLAR

Qutqaruv xizmatlari uchun ma'lumot kartasi	2
Avtomobil haqida asosiy ma'lumot.....	4
Ogohlantirish belgilari haqida ma'lumot	5
12 V kuchlanishli akkumulyator batareyasini uzish.....	7
Yuqori kuchlanishni o'chirish	7
Zaryad pistoleti qulfini ochish	7
Favqulodda holatda elektron qulfini ochish	

(faqat o'zgaruvchan tok manbaidan quvvatlanganda)..... 8


1-2. QUTQARUV XIZMATLARI UCHUN MA'LUMOT

Avtomobilni to'xtash joyiga qo'yish	8
Quvvatni o'chirish	9
Bagaj bo'limi eshigini favqulodda ochish	10
Qutqaruv xizmatlari uchun zarur bo'lgan shaxsiy himoya vositalari.....	10
Favqulodda vaziyatdagi harakatlar	11
Avtomobilingizni shatakka olish	14

1. NOSOZLIK HOLATIDAGI HARAKATLAR

1-1. NOSOZLIK HOLATIDAGI HARAKATLAR

Qutqaruv xizmatlari uchun ma'lumot kartasi



- | | | |
|--|--|---|
| 1 Gibril transmissiya | 2 Old tortish elektr dvigatelini boshqarish bloki | 3 Yuqori voltli batareya isitgichi |
| 4 Old yo'lovchi xavfsizlik yostig'i | 5 Haydovchi xavfsizlik yostig'i | 6 Xavfsizlik kamarlar oldindan taranglagichi (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) |
| 7 Yon xavfsizlik yostiqlari (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) | 8 Himoya to'sini | 9 Deraza xavfsizlik pardasi (avtomobilning ayrim variantlari uchun) |
| 10 Ikkinchi qator o'rindiqlar yon xavfsizlik yostiqlari (avtomobilning ba'zi variantlari uchun) | 11 Yonilg'i quyish bo'g'zi | 12 Akkumulyator batareyasi (12V) |

1. NOSOZLIK HOLATIDAGI HARAKATLAR

13 Yuqori kuchlanishli quvvat taqsimlash bloki

14 Elektr kompressor

15 Dvigatel

16 Haydovchining tizzalarini himoya qilish uchun xavfsizlik yostig'i (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)

17 Xavfsizlik yostig'i moduli

18 Avtomobilni boshqarish bloki

19 Tortish akkumulyator batareyasi

20 Yuqori bosimli yonilg'i baki

21 O'zgaruvchan /o'zgarmas tokda quvvatlash porti

22 Bort quvvatlash moslamasi to'plami

23 Orqa tortish elektr dvigateli (avtomobilning ba'zi variantlari uchun)

DIQQAT

- Yo'l-transport hodisasida, yuqori kuchlanishli tizim simlarining hech qanday qismlari yoki o'rmlariga tegmang. Bu og'ir jarohat va hatto o'limga olib kelishi mumkin.
- Avtomobilni kesishda rasmda ko'rsatilgan qismlardan foydalanmaslik kerak. Qutqaruv xizmatlari asosiy shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishlari kerak. Vaziyatga qarab, elektr himoya va yong'inga qarshi vositalar ham zarur bo'lishi mumkin. Ushbu talablarga rioya qilmaslik jarohatga va hatto o'limga sabab bo'lishi mumkin.

1. NOSOZLIK HOLATIDAGI HARAkatLAR






Avtomobil haqida asosiy ma'lumot

Gabarit o'lchamlar	Uzunlik (mm)	4725
	Kenglik (mm)	1860
	Balandlik (mm)	1705
G'ildirak asosi (mm)		2710
Avtomobilning ruxsat etilgan to'liq vazni (kg)		2585
Avtomobildagi o'rindiqlar soni (jumladan, haydovchi o'rindig'i)		5 / 7




Akkumulyator batareyasi elementi	Element nominal kuchlanishi (V)	3,13
Tortish akkumulyator batareyasi to'plami	Akkumulyator batareyasining nominal sig'imi (A/soat)	18,404
	Akkumulyator batareyasining nominal kuchlanishi (V)	350,56
	Akkumulyator batareyalari soni (dona)	1
Yonilg'i baki sig'imi (l)	60	

1. NOSOZLIK HOLATIDAGI HARAKATLAR

Ogohlantirish belgilari haqida ma'lumot

Ogohlantiruvchi belgi nomi	Ogohlantiruvchi belgining tashqi ko'rinishi	Ogohlantiruvchi belgi tavsifi
Yuqori kuchlanish ogohlantirishi 1		Yuqori kuchlanishli tizim komponentlariga tegmang! Bosmang! Xavfli!
Yuqori kuchlanish ogohlantirishi 2		Ehtiyot bo'ling! Yuqori kuchlanishli tizim komponentlari. Xavf! Shaxsiy himoya vositalarisiz yuqori kuchlanishli tizimning tarkibiy qismlariga tegmang! Elektr toki urishi mumkin!
Yuqori kuchlanish ogohlantirishi 3		Ehtiyot bo'ling! Yuqori kuchlanishli tizim komponentlari. Xavf! Shaxsiy himoya vositalarisiz yuqori kuchlanishli tizimning tarkibiy qismlariga tegmang! Elektr toki urishi va kuyish yuzaga kelishi mumkin!
Yuqori kuchlanish ogohlantirishi 4		Ehtiyot bo'ling! Yuqori kuchlanishli tizim komponentlari. Xavf! Shaxsiy himoya vositalarisiz yuqori kuchlanishli tizimning tarkibiy qismlariga tegmang! Elektr toki urishi va kuyish yuzaga kelishi mumkin!
Yuqori kuchlanish ogohlantirishi 5		Ehtiyot bo'ling! Yuqori kuchlanishli tizim komponentlari. Xavf! Shaxsiy himoya vositalarisiz yuqori kuchlanishli tizimning tarkibiy qismlariga tegmang! Elektr toki urishi va kuyish yuzaga kelishi mumkin!

1. NOSOZLIK HOLATIDAGI HARAKATLAR

<p>Yuqori kuchlanish ogohlantirishi 6</p>		<p>Ehtiyot bo'ling! Yuqori kuchlanishli tizim komponentlari. Xavf! Shaxsiy himoya vositalarisiz yuqori kuchlanishli tizimning tarkibiy qismlariga tegmang! Elektr toki urishi va kuyish yuzaga kelishi mumkin!</p>
<p>Yuqori voltli kabel ogohlantirishi</p>		<p>Yuqori voltli avtomobil tizimining tarkibiy qismlari to'q sariq rangli yuqori voltli kabel orqali o'zaro ulangan. Shaxsiy himoya vositalarisiz yuqori kuchlanishli tizim qismlariga tegmang.</p>
<p>Tortish akkumulyator batareyasi ogohlantirishi</p>		<p>Tortish akkumulyator batareyasi bilan bog'liq ehtiyot choralari!</p>

<p>⚠️ DIQQAT</p> <ul style="list-style-type: none"> • Ishlab turgan avtomobil elektr qismlari yuqori haroratga ega bo'lishi mumkin. Yuqori kuchlanish va yuqori haroratdan ehtiyot bo'ling va ogohlantiruvchi belgilarda keltirilgan ko'rsatmalarga qat'iy amal qiling. • Hech qachon yuqori kuchlanishli ogohlantirish belgisi bo'lgan komponentlarga, shuningdek, to'q sariq rangli kabellar va ulagichlarga tegmang. Bu yuqori kuchlanishda elektr toki urishiga olib kelishi mumkin. • Yuqori kuchlanishli tizimning barcha komponentlari ham tegishli belgiga ega emas. Qutqaruv xizmatlari avtomobilni ochishda asosiy shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishlari kerak. Vaziyatga qarab, elektr himoya va yong'inga qarshi vositalar ham zarur bo'lishi mumkin. Ushbu talablarga rioya qilmaslik odamlarning jarohat olishiga va hatto o'limiga sabab bo'lishi mumkin.

12 V kuchlanishli akkumulyator batareyasini uzish



1-qadam. Kontekst menyusidagi "OFF" tugmasini bosib va avtomobil quvvatini uzib.

2-qadam. Yukxona eshigini oching va chap tomondagi himoya qoplamasini oling. Akkumulyator batareyasining "manfiy" kabelini (12 V) uzib.

Yuqori kuchlanishni o'chirish



1-qadam. Kontekst menyusidagi "OFF" tugmasini bosib va avtomobil quvvatini uzib.

2-qadam. Yukxona eshigini oching va chap tomondagi himoya qoplamasini oling. Akkumulyator batareyasining "manfiy" kabelini (12 V) uzib.




3-qadam. Dvigatel bo'limi saqlagichlar bloki qopqog'ini oling va saqlagichlar bloki yuqori qopqog'idagi sxemaga qarab, BMS saqlagichini maxsus qisqich yordamida chiqarib oling va BMS bloki quvvatini o'chiring.

Quvvat pistoletini blokdan chiqarish

Avtomobilni quvvatlash paytida quvvatlash pistoleti zaryadlash portida avtomatik ravishda bloklanadi. Quvvatlash jarayoni yakunlanmadi yoki uzilib qoldi: agar himoya rejimi yoqilgan bo'lsa, masofadan boshqarish pultidagi ochish tugmasini ketma-ket ikki marta bosib, quvvatlash pistoletini blokdan chiqaring va quvvatlashni to'xtating. Agar himoya rejimi o'chiq bo'lsa, quvvatlash stansiyasida quvvatni o'chiring yoki quvvatlash pistoletini blokdan chiqarish uchun "New energy" ekranida "Slow Charger Unlock" bandini tanlang. Quvvatlash jarayoni yakunlandi: agar himoya rejimi o'chirilgan bo'lsa, quvvatlash pistoleti avtomatik ravishda blokdan chiqadi. Agar himoya rejimi yoniq bo'lsa, quvvatlash pistoleti bloklangan holda qoladi va uni faqat himoya rejimi o'chirilganidan keyin blokdan chiqarish mumkin. Quvvatlash portidan quvvat pistoletini faqat blokdan chiqarilgandan keyin uzish mumkin. Uni kuch bilan chiqarishga urinmang.

1. NOSOZLIK HOLATIDAGI HARAKATLAR

Favqulodda holatda elektron qulfni ochish (faqat o'zgaruvchan tok manbaidan zaryadlashda)



Agar biror sababga ko'ra zaryadlash portining elektron qulfini avtomatik ochish ishlamasa, zaryadlash/quvvat olish pistoletini qulfdan chiqarish trosi yordamida qo'lda ochish mumkin.

1-qadam. Zaryadlash/ quvvat olish amalga oshirilmayotganiga ishonch hosil qiling (buni asboblari panelidagi ma'lumotlardan aniqlash mumkin).

2-qadam. Yukxona eshigini oching, yukxona polidagi gilamni ko'taring va novni chiqarib oling.

3-qadam. Zaryadlash/quvvat olish pistoletini ochish uchun qulfdan chiqarish simini torting.

1-2. QUTQARUV XIZMATLARI UCHUN MA'LUMOT

Avtomobilni to'xtash joyiga qo'yish



Tormoz pedalini ohista bosish orqali avtomobilni to'xtating. Transmissiyani P (to'xtash) holatiga o'tkazish uchun P tugmasini bosing. Asboblari panelida ushbu qizil indikator (P) yonadi va to'xtash rejimi yoniqligini bildiradi.

Quvvatni o'chirish

Quvvatni odatiy sharoitda o'chirish



1-usul. Agar elektr ta'minoti yoqilgan avtomobilda haydovchi bo'lmaganda, eshiklar yopiq va selektor P holatida bo'lganda qulflar qulflansa, avtomobilning elektr ta'minoti o'chiriladi.

2-usul. Agar harakatga tayyor holatda bo'lgan avtomobilda haydovchi o'ringid'ida haydovchi bo'lmaganda, oldingi chap eshik ochiq va selektor P holatda bo'lganda, avtomobilning elektr ta'minoti yoqilsa, so'ngra barcha eshiklar yopilsa va qulflar qulflansa, avtomobilning elektr ta'minoti o'chiriladi.



3-usul. Agar avtomobil harakatga tayyor holatda bo'lsa va selektor P holatda bo'lsa, menyu "OFF" tugmasi bosilsa, avtomobil elektr quvvati o'chadi. Keyingi foydalanishda quvvatni avtomatik yoqish imkonsiz bo'ladi. Avtomobilni ishga tushirish uchun haydovchi tormoz pedalini bosishi zarur. Bunda asboblari panelida yashil indikator "READY" yonadi.

Quvvatni avtomatik o'chirish


Agar elektr ta'minoti yoqilgan avtomobilda haydovchi o'ringid'ida bo'lmaganda barcha eshiklar yopilsa va selektor P holatiga o'tkazilsa, avtomobil 90 daqiqa to'xtagandan so'ng elektr ta'minoti avtomatik ravishda o'chiriladi.

⚠️ DIQQAT

- Dvigatel o'chirilgandan so'ng darhol qizishga moyil qismlarga (dvigatel, chiqarish quvuri, radiator kabi) tegmang, aks holda kuyish mumkin.
- Dvigatel neytral ishlayotgan avtomobilni quruq barglar, quruq o't yoki boshqa yonuvchi materiallar ustida to'xtatish yoki uzoq vaqt to'xtatib turish taqiqlanadi. Avtomobil dvigateli ishlab turgan yoki yaqinda to'xtatilgan bo'lsa, chiqarish tizimi elementlarining harorati juda yuqori bo'ladi, bu esa yong'ingga olib kelishi mumkin.

1. NOSOZLIK HOLATIDAGI HARAkatLAR

Bagaj bo'limi eshigini favqulodda ochish



1 Yukxonaga o'ting va favqulodda ochish mexanizmining qopqog'ini oching.

2 Favqulodda ochish dastagini qo'lingiz bilan pastga bosib, qo'yib yuboring va ochish uchun yukxona eshigini itaring.

Qutqaruv xizmatlari uchun zarur bo'lgan shaxsiy himoya vositalari



Asosiy shaxsiy himoya vositalari

1 Himoya ish poyabzali

2 Paxta qo'lqop

3 Rezina qo'lqop

Elektr himoya vositalari

4 Yuqori kuchlanishdan himoya kostyumi

5 Rezina gilamcha

6 Shlem va himoya ko'zoynagi

Противопожарные средства

7 Kislorod niqobi

8 Issiqlik kamerasi

DIQQAT

Qutqaruv xizmatlari xodimlari majburiy tartibda asosiy shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishlari shart. Vaziyatga qarab, elektr himoya va yong'inga qarshi vositalar ham zarur bo'lishi mumkin. Ushbu talablarga rioya qilmaslik odamlarning jarohat olishiga va hatto o'limiga sabab bo'lishi mumkin.

Favqulodda vaziyatdagi harakatlar

DIQQAT

Agar avtomobilingiz holati qutqaruv xizmatlarini jalb qilishni talab qilsa, ularga avtomobilingiz yuqori kuchlanishli akkumulyator batareyasi bilan jihozlanganini xabar bering va ularga Favqulodda xizmatlar uchun qo'llanmani taqdim eting.

Yuqori kuchlanishli komponentlarga suv kirishini oldini olish

1. Agar avtomobil suvga tushgan bo'lsa, avval uni suvdan chiqarib oling, keyin esa avtomobilning suvda qolishi tufayli elektr toki urishining qo'shimcha xavfidan qochish uchun yuqori kuchlanishli quvvat manbaini o'chiring.
2. Avtomobilni yuvishda oqimni zaryadlash porti lyukining yoqish joyiga yo'naltirmang.
3. Avtomobil va quvvatlash moslamasiga zarar yetkazmaslik uchun, agar quvvatlash portida aniq namlik izlari ko'rinib turgan bo'lsa, quvvatlashni boshlamang. Avtomobilni quvvatlash paytida avtomobil va quvvatlash moslamasiga zarar yetkazmaslik uchun quvvatlash porti atrofini yuvmang.
4. Zaryadlash portining lyukini nam salfetkalar, nam latta bilan artmang, yuvish vositasi bilan ishlov bermang va hokazo. Foydalanish paytida avtomobilni kerakli darajada himoya qiling: yomg'irli kunlarda va avtomobilni yuvayotganda portning zaryadlash lyukiga suv kirishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qiling, chunki bu ichki elektr komponentlari va boshqa uskunalarining ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.
5. Noqulay ob-havo sharoitida avtomobilni zaryadlash uchun himoyalangan joyni tanlashga harakat qiling. Agar avtomobil suv ichida qolsa yoki uning sathi eshiklar chegarasidan yuqoriga ko'tarilsa, bu yuqori kuchlanishli komponentlarga suv kirishiga olib kelishi mumkin. Agar avtomobil suv bilan jiddiy aloqada bo'lgan bo'lsa, uni o'z vaqtida rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga tekshirish va ta'mirlash uchun olib boring.
6. Tortish akkumulyator batareyasi va avtomobilning boshqa yuqori kuchlanishli qismlariga zarar yetkazmaslik uchun noma'lum chuqurlikdagi suv to'sig'idan o'tishdan saqlaning. Agar bu muqarrar bo'lsa, harakatni boshlashdan oldin yo'lning holatini va kechuvning chuqurligini aniqlang - suv kuzov tubigacha yetib bormasligi kerak. Suvli to'siqdan o'tish paytida chuqur joyda uzoq vaqt qolmaslik tavsiya etiladi, aks holda avtomobilning yuqori kuchlanishli qismlari shikastlanishi mumkin.

Suv to'sig'idan o'tish

■ Avtomobilning suvda harakatlanishi

1. Yo'lning suv bosgan qismini tark etishning iloji bo'lmasa, elektr ta'minatini darhol o'chirish kerak.
2. Suvda harakatlanayotgan avtomobilning tezligi 10 km/soat dan oshmasligi kerak.

1. NOSOZLIK HOLATIDAGI HARAKATLAR

3.Yo'lning suv bosgan qismini tark eting va avtomobilingizni xavfsiz joyga to'xtating. Avtomobil salonida suv borligini tekshiring. Agar mavjud bo'lsa, uni olib tashlang.

■ Avtomobil suvda harakatlangandan so'ng

1. Agar avtomobil suvga chuqur botgan bo'lsa, salondagi barcha odamlar darhol xavfsiz joyga evakuatsiya qilinishi kerak.
2. Suvli to'siqni muvaffaqiyatli yengib o'tgandan so'ng, tormoz mexanizmlarini quritish va tormoz tizimining ishlash samaradorligini tiklash uchun tormoz pedalini bir necha marta yengil bosing.
3. Avtomobilni ko'rikdan o'tkazish uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling. Agar suv uzatma tizimining tarkibiy qismlariga kirib, moyni suyultirgan bo'lsa, bu ularning nosozligiga olib kelishi mumkin.

Yong'inga yo'l qo'ymaslik choralari

■ Avtomobildan foydalanish paytida yong'inning oldini olish uchun quyidagi ehtiyot choralariga rioya qiling:

1.Yengil alanganuvchi va portlovchi materiallarni avtomobilda qoldirmang.

Issiq havoda quyoshda turgan avtomobil salonidagi harorat 70 °C dan oshishi mumkin. Avtomobil salonida yondirgichlar, tozalash vositalari, atirlar yoki boshqa tez alanganuvchi va portlovchi materiallarni qoldirmang - bu osongina yong'in yoki hatto portlashga olib kelishi mumkin.

2. Chekib bo'lgach, sigaret qoldig'i butunlay o'chirilganligiga ishonch hosil qiling.

Chekish nafaqat sog'liq uchun zararli, balki yong'inga ham sabab bo'lishi mumkin. Tamaki qoldig'i to'liq o'chirilmasa, yong'in chiqishi mumkin.

3.Avtomobilni tekshirish uchun rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasiga muntazam tashrif buyurish tavsiya etiladi.

Motor bo'limini tez-tez tekshirib turing va kapot osti bo'shlig'ini moy oqishidan o'z vaqtida tozalang.

Avtomobilning elektr zanjirlari, asboblari, sim tutqichlari, izolyatsiyasi va mahkamlagichlari sozligini muntazam tekshirib turing. Nosozlik aniqlanganda, ularni o'z vaqtida bartaraf eting.

4.Avtomobil elektr zanjirlari konstruksiyasiga o'zgartirishlar kiritish yoki qo'shimcha elektr qismlarini o'rnatish taqiqlanadi.

- a. Saqlagichlarni almashtirish uchun boshqa nominaldagi saqlagichlardan yoki metall simlardan foydalanish qat'iyan man etiladi.
- b. Qo'shimcha elektr asboblarni o'rnatish (masalan, kuchli tovush komponentlari yoki yoritish asboblari) elektr zanjirlarining haddan tashqari yuklanishiga, simlarning qizishiga va yong'inga olib kelishi mumkin. Elektr asboblari va zanjirlar konstruksiyasiga o'zgartirishlar kiritilishi qarshilikning oshishiga, ortiqcha qizishga va yonishga olib kelishi mumkin.

5.Avtomobildan foydalanishda ehtiyot choralari

Avtomobilni to'xtash joyiga qo'yayotganda, ayniqsa yozda, uning ostida yonuvchan materiallar, masalan, quruq o'tlar, shoxlar va barglar yo'qligini tekshirish muhimdir. Avtomobil tagida yonuvchan materiallar bo'lsa, yong'in yuzaga kelishi mumkin. Shuningdek, tez yonuvchan materiallar - quruq o'tlar, shoxlar, barglar va boshqalar bilan qoplangan yo'llarda harakatlanishdan iloji boricha saqlanish kerak. Agar bu yo'llardan chetlab o'tishning

iloji bo'lmasa, xavfli joydan o'tib, avtomobilni to'xtating va avtomobil tagida yonuvchan materiallar qolmaganligini tekshiring. Avtomobilni to'xtatishda iloji boricha quyosh nuri to'g'ridan-to'g'ri tushadigan joylardan qochishga harakat qiling.

6. Avtomobilda ixcham o't o'chirgichni saqlang.

Xavfsizlik nuqtai nazaridan uni munozam tekshirib turing va o'z vaqtida almashtirib turing. O't o'chirgichdan foydalanishni bilishingiz va kerak bo'lganda undan foydalanishga tayyor ekanligingizga ishonch hosil qiling.

7. Yuqori kuchlanishli elektr manbai o'chirilgandan so'ng avtomobilni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarishda akkumulyator batareyasini (12 V) uzib qo'yish kerak.

Yong'inni o'chirish

■ Avtomobilda yong'in chiqsa, tez va xotirjamlik bilan zararni kamaytirish uchun samarali choralar ko'ring.

1. Baxtsiz hodisa yuz berganda, bu haqda sug'urta kompaniyasiga o'z vaqtida xabar bering.
2. O't o'chirish jamoasi yong'inni o'chirgandan so'ng, yong'in haqida ma'lumotnoma va avtoinspeksiyadan ma'lumotnoma olishingiz kerak bo'ladi.
3. Hodisa haqida politsiyaga va sug'urta kompaniyangizga xabar berishni unutmang.
4. Odatda yong'indan oldin g'ayrioddiy shovqin yoki hid kabi belgilar paydo bo'ladi. Agar shunga o'xshash alomatlarini aniqlasangiz, darhol avtomobilni elektr ta'minotidan uzing va zarur choralarni ko'ring.
5. Kapot ostidan tutun chiqayotgan bo'lsa, uni darhol ochmang, chunki havo kirishi yonishning kuchayishiga va olovning tarqalishiga olib keladi. Kapot osti bo'shlig'ida yonuvchi materiallar kam, shuning uchun agar kapot yopiq qoldirilsa, bu yong'inning rivojlanishini sekinlashtirishi va shu bilan uni o'chirishga yordam berishi mumkin.
6. Avtomobil da yong'in sodir bo'lsa, darhol xavfli zonani tark eting va yong'in xavfsizligi xizmatini chaqiring. Qutqaruvchilarga gibrid avtomobilingiz haqida xabar bering va ularga Favqulodda xizmatlar uchun qo'llanmani taqdim eting.

DIQQAT

Yong'in sodir bo'lganda avtomobilga tegmang. Avtomobilga yaqinlashmang, shaxsiy himoya vositalariga ega bo'lgan qutqaruvchilar yong'inni o'chirishga kirishishini kuting.

Tortuvchi akkumulyator batareyasidan sizib chiqish

Tortish akkumulyator batareyasidan sizish yuzaga kelsa, darhol xavfli hududni tark eting va yong'in xavfsizligi xizmatini chaqiring. Qutqaruvchilarga gibrid avtomobilingiz haqida xabar bering va ularga Favqulodda xizmatlar uchun qo'llanmani taqdim eting.

DIQQAT

To'qnashuv natijasida yuqori kuchlanishli akkumulyator batareyasidan sizish faqat himoya niqobi va elektrolitdan himoyalovchi qo'lqop kiygan professional qutqaruvchilar tomonidan bartaraf etilishi mumkin. Elektrolitga ochiq qo'l bilan tegmang.

1. NOSOZLIK HOLATIDAGI HARAKATLAR

Kuzovni kesish zonasi

Xavfsizlik nuqtai nazaridan, kuzov ustunlari quyma alyuminiy qotishmasidan tayyorlangan.

Kuzovni kesish uchun qutqaruv xizmatlariga tegishli asbob kerak bo'ladi. Yuqori harorat va yuqori kuchlanish zonasida kuzov qismlarini kesish taqiqlanadi.

⚠️ DIQQAT

Avtomobilni kesishda professional qutqaruvchilar tegishli vositalardan, masalan, gidravlik keskich va hokazolardan foydalanishlari va jiddiy jarohatlardan saqlanish uchun tegishli shaxsiy himoya vositalarini kiyishlari kerak.


Avtomobilingizni shatakka olish

Avtomobilingizni shatakka olish kerak bo'lsa, rasmiy dilerning xizmat ko'rsatish stansiyasi yoki maxsus yo'l xizmatiga murojaat qiling.

⚠️ DIQQAT

- Avtomobilni shatakka olish paytida olgan shikastlanishlari kafolat bilan qoplanmaydi.
- Avtomobilni shatakka olishda quyidagi ko'rsatmalarga qat'iy amal qiling.
- Avtomobilingizni boshqa transport vositasi bilan faqat tros yoki metall zanjir yordamida shatakka olish taqiqlanadi.

Evakuator yordamida shatakka olish



Avtomobilni evakuatorga to'liq yuklagan holda shatakka olish tavsiya etiladi. **1**

Shatakka olishda ehtiyot choralari:

- Avtomobilni shatakka olish g'ildiraklarni yo'lga tiramasdan amalga oshirilishi kerak. Tegishli rasmlarda ko'rsatilgan **2 3 4 5** shatakka olish usullaridan foydalanmang.
- Avtomobilni shatakka olishni boshlashdan oldin selektorni N (neytral) holatiga o'tkazing, avariya yorug'lik signalizatsiyasini yoqing va eshiklarni yoping.
- Avtomobilni shatakka olish paytida salonda hech kim bo'lmasligi kerak.

⚠️ DIQQAT

Nosoz avtomobilni vilkali yuklagich bilan ko'chirish taqiqlanadi.

DIQQAT

- Avtomobilni evakuatorga ortish paytida uning orqasida begona jismlar va odamlar bo'lmasligi kerak. Ushbu talabga rioya qilmaslik odamlarning jarohatlanishi yoki o'limiga sabab bo'lishi mumkin.
- Nosoz avtomobilni evakuatsiya qilish faqat xavfsizlikka tahdid bo'lmaganda amalga oshirilishi mumkin. Agar tortish akkumulyator batareyasi deformatsiyalangan, undan tutun chiqayotgan yoki elektrolit sizib chiqayotgan bo'lsa, birinchi navbatda xavfsizlik bilan bog'liq muammolarni hal qilish kerak.